Interaktiv kompyuter o'yinlari – multimedia vositalari orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

Drill-o'yinlar – talaffuz va grammatikani yaxshilash uchun takrorlash mashqlari bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar.

Harakatli o'yinlar – o'quvchilarni faollikka undaydigan va til o'rganishga qiziqtiradigan harakat asosidagi o'yinlar.

Xulosa. Xitoy tilini o'qitishda o'yin metodidan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, til o'rganish jarayonini qiziqarli qilish va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. O'yin metodlari orqali o'quvchilar o'zlarini erkin his qilgan holda, tabiiy va muloqotga yo'naltirilgan tarzda tilni o'rganishlari mumkin. Kelajakda ushbu metodlarni yanada takomillashtirish va pedagogik amaliyotda kengroq qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Richards, J., & Rodgers, T. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Wang, X. (2011). Teaching Chinese as a Foreign Language: Theories and Applications. Beijing University Press.
4. Nation, I. S. P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
5. Hadfield, J. (1990). Intermediate Communication Games. Nelson.
6. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
7. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.
8. Piaget, J. (1962). Play, Dreams and Imitation in Childhood. W.W. Norton & Company.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
10. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan.



UDK: 78.071.2:37.013.42

Dildora ANNAKULOVA,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: dildoraannakulova36@gmail.com

Xalqaro Nordik Universiteti kafedra mudiri, p.f.d., prof. v.b. Q.Panjiyev taqrizi asosida

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA DOSTON IJROCHILIGI AN'ANALARIDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI

Аннотация

Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida doston ijrochiligi an'analardan foydalanish tamoyillari, omillari tahlil etilgan. Baxshilar tomonidan ijro etiladigan doston ohangi odatda uchta asosiy funksiyani bajaradi: 1) baxshining so'zga chevarligi va doston mazmunidagi aytim parchalarini to'g'ridan-to'g'ri nutqini qayta ishlab chiqarish; 2) musiqiy illyustratsiya (masalan, doston mazmunini tasvirlash, yoki biror bir harakatlarni do'mbirada aks ettirish va boshqalar); 3) hissiy-emotsiya funksiya: yuksak ijro, g'ayrioddiy narsalar haqida hikoya qilayotganda kuylash. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan G.M. Naumenko doston ijodiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ularni epos dostonlar, epik dostonlar va qahramonlik dostonlariga bo'lgan holda tavsif etadi. Dostonlar xalqning ilg'or fantaziyasi asosida ummlashgan obrazlardan tashkil topgan janr kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Doston, terma, baxshi, ijodkorlik, kasbiy, tayyorgarlik, tamoyil, mahalliy uslub, musiqa, aytim, jirov, pedagogika.

PRINCIPLES OF USING TRADITIONS OF EPIC PERFORMANCE IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS

Annotation

This article analyzes the principles and factors of using the traditions of doston performance in the professional training of future music teachers. The doston melody performed by bakhshis usually performs three main functions: 1) reproduction of the bakhshi's eloquence and direct speech of the fragments of the doston content; 2) musical illustration (for example, describing the content of the doston, or reflecting some actions on the drum, etc.); 3) emotional-emotional function: high performance, singing while telling about unusual things. One of the scientists of the Commonwealth of Independent States, G.M. Naumenko, in his research on doston creativity, characterizes them as epic doston, epic doston and heroic doston. Doston put forward the idea of a genre consisting of universal images based on the progressive fantasy of the people.

Key words: Epic, terma, Bakhshi, creativity, professional, preparation, principle, local style, music, aytim, jirov, pedagogy.

ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАДИЦИЙ ЭПИЧЕСКОГО ИСПОЛНТЕЛЬСТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Аннотация

В статье анализируются принципы и факторы использования традиций эпического исполнительства в профессиональной подготовке будущих учителей музыки. Мелодия эпоса в исполнении бахши обычно выполняет три основные функции: 1) владение бахши словом и непосредственное воспроизведение фрагментов содержания поэмы; 2) музыкальная иллюстрация (например, изложение содержания достана, или отображение определенных движений на барабанах и т. п.); 3) сенсорно-эмоциональная функция: высокая работоспособность, пение во время рассказа историй о необычных вещах. Среди ученых стран Содружества Независимых Государств Г.М. В своих исследованиях эпической поэзии Науменко характеризует ее как эпические поэмы, былинные поэмы и героические поэмы. Эпосы пропагандируют такие идеи, как жанр, состоящий из универсальных образов, основанных на прогрессивной фантазии народа.

Ключевые слова: Эпос, терма, бахши, творчество, профессионал, подготовка, принцип, местный стиль, музыка, айтм, жиров, педагогика.

Kirish. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda doston ijrochiligi an'analardan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu an'alarining bardavomligini shubhasiz baxshilar ijodiyotisiz tasavvur qilish mumkin emas. Doston ijrochilari hisoblangan baxshilar tomonidan doston va terma ijro etish va tarqatishning uchta asosiy shaklini kuzatish mumkin. Bular: prozaik, rapsodik va aytim yillari shular jumlasidandir [2]. Odatda doston ijrosida prozaik shaklining mavjudligi bejiz emas, chunki doston proza, avvalambor, o'zining musiqiy tili mavjud. Prozaik hikoya va ohangda ifodalanuvchi parchalar bir-biriga aralashishi hikoyalar uchun eng tipikdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, bir qator mahalliy olimlarning doston ijrochiligi yuzasidan olib borgan tadqiqot ishlarida baxshilarning musiqiy [dramatik] ijrochiligiga a'lohida e'tibor beradilar. Bunday kontentlarning mavjudligi faqat odatda doston qahramonlariga hamroh sifatida hayvonlardan ot haqida ham tilga olinadigan syujetlarni ahamiyati bilan ham izohlanadi [1]. Darhaqiqat, dostonlarda musiqa ijrochiliklarini kiritilishi va baxshilar tomonidan ularga tavsif berilishi ko'p jihatdan ohanglar to'plovchi va kuylovchi baxshilar tomonidan eng ko'p qayd

etilgan va ohang parchalar mavjudligi ushbu ertaklar turining arxaikligini ko'rsatadi. Biroq, mahalliy olimlardan K.Imomov, B.Sarimsoqov, M.Murodov, T.Mirzaev, F.Yo'ldoshev, M.Saidov, M.Jo'raev, tomonlaridan uyushtirilgan folklor etnografik ekspeditsiyasi jarayonida baxshilar ijrosida "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Malika ayyor" va boshqa bir qator xalq dostonlari yozib olindi [2]. Ushbu dostonlar mazmunida baxshi ijrochiligi ohanglari ham sehliligi bilan ham marosimiy va maishiy xususiyatlari uchraydi.

Assosiy qism. Baxshilar tomonidan ijro etiladigan doston ohangi odatda uchta asosiy funksiyani bajaradi: 1) baxshining so'zga chevarligi va doston mazmunidagi aytim parchalarini to'g'ridan-to'g'ri nutqini qayta ishlab chiqarish; 2) musiqiy illyustratsiya (masalan, doston mazmunini tasvirlash, yoki biror bir harakatlarni do'mbirada aks ettirish va boshqalar); 3) hissiy-emotsiya funksiya: yuksak ijro, g'ayrioddiy narsalar haqida hikoya qilayotganda kuylash.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan G.M. Naumenko doston ijodiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ularni epos dostonlar, epik dostonlar va qahramonlik dostonlariga

bo'lgan holda tavsif etadi. Dostonlar xalqning ilg'or fantaziyasi asosida ummlashgan obrazlardan tashkil topgan janr kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Albatta, o'zbek dostonchiligi o'ziga xos an'anaviy baxshi ijrochiligi ega bo'lganligi bilan ahamiyat kasb etib, u uchta an'anaviy musiqiy intonatsiya usullardan tashkil topgan. Fikrimizcha dostonlarda "aniq moslashuvchan va o'zgaruvchan ritm va vaqt parametrlari mavjud" [5]. Har qanday bir dostonning turli ijrochilardan yozib olingan variantlarida ohanglarning ritm va ovoz parametrlari o'xshashligini ko'rsatilishi muqarar.

Doston ijrochiligi ritm-intonatsiya xususiyatlarida qadimgi aholining ijtimoiy kasbi: chorvachilik, dehqonchilik va hunarmadlik, ovchilik kabi pantomimik aks-sado borligini ko'rish mumkin, ular ma'lum bir xalq qahramonining badiiy siymosini o'zida ifodalaydi.

Bunday mikro-monologlarda ritmning birinchi darajali rolini ta'kidlaydi: "yurish ritmi - qadam, sakrash, zamonning asosiy ishlab chiqarish usuli bo'lib, baxshining intonatsion-jestual-artikulyatsion nutqni shakllantirishga qaratilgan" [4].

Ikkinchi turga ijrochilar tomonidan an'anaviy ashula janrlari ohanglarini olish va ularga moslab, kuylash doston aytim matnlarini ijro etish usuli kiradi [4]. Uchinchi turga esa, do'mbira kuylarining doston fragmentlarini erkin intonatsiya qilishadi, bunda ijrochi – baxshi "faqat ohangning intonatsion konturini belgilab, unga asosan improvizatsiya qiladi". Bunday do'mbira kuylardagi tovush tarkibi odatda o'zgaruvchan bo'lib, asosiy darajasi barqaror emas, ritmik tuzilma esa notekis davrlardan iborat bo'ladi [2].

Bunday baxshilar ijrosidagi asarlar har bir doston mazmunida uchraydi. Ularning ijro uslubi o'zgacha bo'ladi. Masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyati baxshilari tomonidan ijro etiladigan dostonlar asosan ichki bo'g'iq ovozda ijro etiladi. Qoraqalpoq dostonlari asosan jirovlar tomonidan ichki bo'g'iq ovozda asosan qo'bizlar orqali ijro etiladi. Xorazm dostonlari asosan ochiq ovozda ijro etilishi bilan bir qatorda ashula janri bilan bir xil ijrochilik tamoyillariga asoslanadi. Xalqona baxshi ijrolarining ijro fragmentlarida, janrning stilistikasiga muvofiq, parodiya maqsadida dostonlarning ma'lum bir fragmentlar ishlatilishi ko'p uchraydi. Shuningdek, har bir variantda improvizatsion intonatsiya qo'lliniladi. Improvizatsiya usuli xalqning badiiy ijod folklor janrlaridan kuylarining ishlatilishi, intonatsiyalangan jumboqlarning ijrosida odatiy hol hisoblanadi. Bunday jumboqlarda ko'pincha, odatda, to'y va kechki tadbirlarda ijro etiladigan rivojlangan baxshi doston ijrochiligi o'ziga xos ohanglarini kuzatish mumkin [5].

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, prozaik doston ijrochiligidagi asarlar o'ziga xos musiqiy tilga ega va pedagoglar uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ta'lim mazmuniga kiritilishi kerak deb hisoblaymiz. O'ylaymizki, "O'zbek xalq musiqasi ijodi" fani mazmuni doirasida o'rganilgan baxshi ijrochiligidan iborat doston janri bo'lajak musiqa o'qituvchilariga o'z professional kasbiy faoliyatlarini o'zlashtirishlarida hamda ko'prok kasbiy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish ishlarida yordam beradi va oliy ta'lim tizimi musiqa ta'lim yo'nalishida tayyorlanayotgan talabalarning musiqiy-nazariy dars mashg'ulotlarini boyitadi.

Prozaik doston ijrochiligi o'zining aytim yo'li asarlarining o'ziga xos musiqiy tilga ega bo'lishiga qaramay, doston asarlari mazmunini musiqa va nazm janrlarini o'zaro uyg'unligini hamda ularning o'zaro integrativ o'rganish markazida muhim ahamiyat kasb etadi.

Doston ijrochiligi asarlarining musiqa va nazm janrlari ikki asosiy shaklda ijro etiladi va uzatiladi: voqea va xodisalaran og'zaki bayon etish hamda do'mirada yopiq – bo'g'iq (ochiq) ovozda kuylash. Aytim shakli prozaik va rapsodik shakllardan alohida ko'riladi. Mahalliy olimlardan I.I. Zemtsovskiy fikricha, aytim shakllari voqeaviy folklor "asosan ko'p jonli janrdir" [2]. Masalan, ballada voqealari yoki ballada matnlari "...turli musiqa janrlari tarkibida mavjud bo'lib, bir xil matn turli musiqiy janrda mavjud bo'lishi mumkin. Bu ballada voqealarining musiqiy va nazm ijrosi o'rtasida odatda parallelizm yo'qligini ta'kidlashga imkon beradi: har bir alohida nazm matni musiqiy jihatdan ko'pjanrli bo'lishi mumkin degshan fikrni ilgari suradi [1].

Doston janrining rang-barangligi va undagi aniqlik bo'lajak musiqa o'qituvchilarining hikoyaband she'riy bazan prozaik janrlari uyg'unligida o'rganish jarayonini murakkablashtiradi. Ushbu mavzuga ajratilgan vaqt cheklanganligi sababli, talabalarning doston asarlarini o'rganish jarayonini optimallashtirish imkonini beruvchi metodologik asosni izlash zarur.

Bundan tashqari, pedagogik sohasi oliy ta'lim muassasalarining musiqa ta'limi yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq "O'zbek xalq musiqa ijodi" kabi fan mazmunida xalqimizning o'tmiy tarixi bilan chambarchas bog'langan musiqiy folklor ijodiyotining ajralmas qismi hisobangan baxshi ijrochiligi o'zining boy an'alarini o'z ichiga olish va talabalarni xalq dostonlari bilan tanishtirish bilan chegaralanmasdan, dostonlar va uning ijrochisi baxshilarning tarixi, shart-sharoitlari, invariantligi, ijro uslublari va hokazo bilan tanishtirish lozimligini ko'rsatadi. Qanday qilib, doston ijrochilik an'alaridagi asarni o'rganishni tashkil etish kerak dekan savollarga o'rin qoldirmasligi lozim.

Milliy doston ijrochilik an'alarining xilma-xilligida yo'nalishlarni topishga va doston asarlarini o'rganish jarayonini maksimal darajada optimallashtirishga yordam beradigan metodologik baza shunday qilib, bu kabi doston turlarini bilishdan iborat. Musiqi folkloristikasi sohasida o'zbek xalq doston ijrochiligi asarini fenomenologik ta'rifini shakllantirish uchun xalq doston ijrochiligi asarining xalqaro tipologik belgilarini aniqlash zarurati avj olgan.

Doston tipologiya sohasida bir qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar [3] isbotlangan natijalar, taqqoslash metodikalarining samaradorligini ko'rsatadi. Doston ijrochiligi baxshilar tomonidan kuylangan asarlarining tipologik universal belgilarini aniqlash har bir lokal an'anada to'plangan materialni umumlashtirishga va doston ijrochiligi hodisalarini chuqur nazariy tahlil qilish uchun metodologik asos yaratishga imkon beradi.

MDH olimlaridan I.I. Zemtsovskiy "Doston an'alarini xilma-xilligi ichida... mutlaqo universal belgilarni aniqlash, doston ijrochiligi fenomen sifatida belgilovchi komponent sifatida, bu xilma-xillikni saqlab qolish uchun, ta'rifiy asos sifatida xizmat qilishi - xalq epik og'zaki an'alarining variantlari boyligini anglatadi" [4].

Bu haqda mahallif folklorshunos olimlar (T.Mirzaev, M.Jo'raev) tadqiqotlarida doston ijrochilikni universal yoki tipologik belgilar deb hisoblash mumkin bo'lgan turli-tuman xususiyatli belilar borligi xususida fikr bildirib, ushbu belgilarning barchasi munozarali emas, balki har qanday universal belgilar mutlaq rolini o'ynay olmaydi va har bir tipologiya ko'p jihatdan shartli hisoblanadi. Shunga qaramay, hozirda ma'lum bo'lgan an'alar uchun xos bo'lgan bir qator fenomenologik kategoriyalar mavjud" degan fikrni ilgari suradilar. Musiqi pedagogikasi ta'limi tizimida doston ijrochiligi asarlarining mutlaqo xalqaro belgilaridan biri dostonda hikoya va aytim ijrochisi – baxshining tibik obrazidir, u barcha jihatdan noyob san'atkor, uning o'ziga xos ijro xulqi, doston muhit bilan tom ma'noda xalq san'atkoridir [5].

Nazarimizda doston ijrochiligi musiqa nazariyasi nuqtai nazaridan o'rganish markazi aralash va aytim shakllari emas, avvalo, aslida, hikoyachilik, musiqiy hikoya, baxshining asl ijtimoiy-hissiy-irodaviy-kasbiy uyg'unligi va unga mos keladigan auditoriya - kengroq doston tinglovchi muhit [2].

Ko'plab xalqlarda ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyot bosqichida doston ijrochiligi ijro etish muqaddas xarakterga ega bo'lgan. O'tgan davrlardagi qahramonlik dostonlari bilan jangchilarning urushga ilhomlantirilishidir. Ko'plab xalqlar orasida doston rivoyatlarini ijro etish urush va ovda muvaffaqiyatni ta'minlashi mumkin deb hisoblanadi [4].

Ushbu kontekstda baxshilarning roli juda muhim ahamiyatga ega. Tirkash yoki tatar tilida "baxshi", o'zbeklar "baxshi", qoraqalpoqlar "jirov" deb yuritishlarida mazkur so'zning bir ma'nosi doston ijrochiligi asarlarni ijro etuvchi shaxsni, shifokor-jodugarni, xalq shifokori-shamanini anglatadi; u o'zining sehrli bo'g'iq ovozidagi ijrosi bilan aytimlarni do'mbirada chalib, yovuz ruhlarni quvib chiqarib, tinglovchilar qalbiga ezgulik, mehr, muhabbat, sevgiga sadoqat, ona-Vatanga qahramonlik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Sanskrit tilidan tarjimada

“bhikshy” – o‘qituvchi degan ma‘noni anglatadi. Ushbu nom doston ijrochiligi o‘qitishdagi yuqori ahamiyatini va uning ijrochilariga qo‘yiladigan talablar darajasini ta‘kidlaydi.

Doston ijrochiligi o‘rganishda har bir doston an‘ana qat‘iy va yopiq tizim ekanligini esdan chiqarmaslik kerak [5], lekin turli xududlarda doston baxshilarga uzoq yillik kuzatishlar barcha hikoyachi va aytmilik an‘analariga xos bo‘lgan bir qator o‘xshash universal tipologik xususiyatlar mavjudligini aytishga imkon beradi, bu esa har bir muayyan O‘zbekiston hududining milliy, musiqiy lokal va ijtimoiy xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, “hikoyachilik” fenomenini keltirib chiqaradigan bir xil tamoyil va sharoitlar haqida ham o‘zbek doston ijrochiligidagi hikoyachilik “Doston an‘anasi” uchun xos xususiyatdir.

Baxshi ijodiyotida doston “jonli ijro” an‘anasiga ega ekanligini ta‘kidlash kerak. Bunday baxshilar tomonidan ijro etilgan asarlarning noaniq geografik tarqalish sabablari turlicha, bu mavzu bir qator maxsus tadqiqotlarga bag‘ishlangan [1]. “Nima uchun doston ijrochiligi asar faqat chekka joylarda saqlanib qoldi?”, “Nima uchun ushbu ijrochilik faqat va faqat qo‘ng‘irot urug‘i ijodiyotiga mansub?” - bu nisbatan aniq. Folklorshunos tadqiqotchi O‘.Hakimov o‘z tadqiqotlarida “baxshi ijodiyoti faqat o‘zbeklarni asl qo‘ng‘irot urug‘iga mansubligi, biroq, keyinchalik boshqa urug‘lar – “qatag‘on”, “kenagas” urug‘ vakillari orasida do‘mbira cholib, terma doston ijrochilari ham yetishib chiqqanligi”ni ta‘kidlaydi.

Darhaqiqat, o‘zbeklarning 92 ta urug‘ining har biri katta ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etib, ular o‘z hayot faoliyati davomida qadimgi xalq jamiyati an‘analariga sadoqat ruhida saqlaganliklarini ko‘rish mumkin. Mamlakatimizning janubiy-sharqiy qir-adirlari, dashtlarga eng faol, ijodiy energiyadan mahrum bo‘lmagan odamlar o‘z hayotlarini baxshilar ijrosidagi terma-dostonlar bilan bezaganliklarini ko‘rish mumkin. Ular o‘zlari bilan qadimgi doston vatanlaridagi xotiralarni olib keldilar. Shimolga Qoraqalpog‘istonga doston ijrochiligi qo‘biz cholib aytm aytm jirovlar vositasida singdirildi [4].

Mazkur tadqiqot ishini bayon etishda aynan biz tomonimizdan amalga oshirilgan kuzatuvlariga ko‘ra, baxshilarning doston ijrochiligi bo‘yicha hikoyachilik mahoratini o‘zlashtirish ularning bu kasbni egallashlari yoshligida boshlanadi. Ular ustoz-baxshi-jirov rahbarligida do‘mbirada nag‘malarni o‘rganadilar, hamda ushbu nag‘malar asosida

o‘zining baxshi ijrochilik uslubini ovoza o‘zlashtiradi va juda ko‘plab terma va dostonlarni mazmunini yodlaydi. Biroq, ular ushbu mazmunni o‘z so‘zlarida aytadilar. Doston muhitida joylashgan yosh odam, hikoyachilik mahoratini egallashni istagan holda, syujetlarni o‘rganadi va qahramonlar, ularning nomlari, uzoq mamlakatlar va qadimiy odatlar bilan tanishadi. Hikoyalar temalari unga yaqinlashadi va ularga bo‘lgan munosabati, u ko‘proq va ko‘proq eshitganida va odamlar aytmilarni muhokama qilayotgan paytlarda shakllanadi. Shu bilan birga, u aytmilarning ritmini va ma‘lum darajada aytmilarda ifodalangan fikrlarning ritmini o‘zlashtiradi. Hattoki bu dastlabki bosqichda ham, o‘zining ovozi ichki bo‘g‘iq ovozlarda ijro etib, uni ma‘lum bir “formula”da emas, balki yosh baxshining ijro uslubi “qolip”da ataydigan takrorlanadigan iboralar o‘zlashtiriladi [3]. Ushbu baxshining ijro uslubi “qolip” to‘plami “mavzular” ni bayon etishda mazmun qat‘iy saqlanib qoladi va undagi ijro bayoni baxshining so‘z boyligi asosida “ijro uslubi qolipi”ga birikkan holda, baxshilarga aytmilar yaratish uchun asos beradi.

Xulosa. Qanday qilib bo‘lmasin, doston do‘mbira ohangilarni ritmik davrlar soniga ko‘ra tasniflashga urinishlar XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida amalga oshirilgan. Masalan, aytish joizki bu davrda xalq musiqa ijodiyotida mavjud bo‘lgan dostonchilik ijodiyotida, uchta ritmik davrga aniq bo‘lingan do‘mbira ohangilarni alohida guruhga birlashtirib, ularni to‘liq doston o‘lchov do‘mbira ohangilari deb atagan. Ularning asl bo‘lishini, qahramonlar eski asarlarini ijro etish uchun mo‘ljallanganini hisoblagan. O‘z navbatida, faqat ikki ritmik davrga ega do‘mbira ohangilar va shunga muvofiq, she‘rda bo‘g‘inlar soni kamroq bo‘lgan. Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, o‘zbek musiqashunos olimlaridan F.Karamatov tomonidan baxshilar ijrosidagi terma va dostonlar, do‘mbira kuylari ilk bor notalashtirildi. Bunga misol qilib olimning “O‘zbek do‘mbira musiqasi” nomli monografik asarini misol qilib aytish mumkin. Biroq, afsuski keyingi davrlarda bu kabi say‘-harakatlar biror bir olimning ilmiy tadqiqotlarida kuzatilmadi. Olim o‘z tadqiqotlarida belgilangan rasmiy ritm xususiyatlari va bu xususiyatni baxshilar ijodiga bog‘lagan holda, ritmik o‘lchov do‘mbira ohangilari deb atagan [1]. Do‘mbirada beriladigan ritm terma yoki dostoning ichik va tashqi xususiyatlarini o‘zida akas ettirishi mumkin bo‘lgan do‘mbira ohangilari bilan bir qatorda aytm xususiyatni ajratib ko‘rsatdi [4].

ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov O.A. «O‘zbek xalq musiqa ijodi» (metodik tavsiyalar I qism), Toshkent, 1994 y. – B. 62.
2. Karomatov F.M. O‘zbek xalq musiqasi merosi. // XX asr. Terma, yalla, karsak, kirish maqolasi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1985. – B. 2-23
3. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2022. – B. 274.
4. Panjiyev Qurbonniyoz Berdievich. Uzbek Seasonal Ceremony. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION (EJINE). Table of Content - Volume 2 No 4 (Apr 2022).
5. Panjiyev Qurbonniyoz Berdievich. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: muammo va yechimlar. Musiqa san‘ati sohasida fanlarning o‘qitilishining ilmiy-metodik asoslari. Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Qarshi shahri 2022 yil 11 iyun. 5-11.



UDK:372.891

Ahliddin ASQAROV,

University of Business and Science. Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: ahliddinasqarov@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF PHYSICAL ABILITIES OF ELEMENTARY 4TH GRADERS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Annotation

This article discusses measures, problems, and solutions for the formation of physical abilities of primary 4th-grade students in extracurricular activities. Various methods were used during the experiment, and practical solutions were presented. The views and research findings of scholars in the field were utilized on the topic.

Key words: Globalization, pedagogical skills, energy expenditure, repetition, physical qualities, physiological characteristics, throwing, professional activity, professional competence, moral and aesthetic attitudes.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ 4 КЛАССА ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются меры, проблемы и решения по формированию физических способностей учащихся начальных 4-х классов во внеурочной деятельности. В ходе эксперимента использовались различные методы, а также были представлены практические решения. Использовались мнения ученых в данной области и результаты исследований по теме.

Ключевые слова: Глобализация, педагогическое мастерство, энергозатраты, повторение, физические качества, физиологические особенности, бросание, профессиональная деятельность, профессиональная компетентность, морально-эстетические отношения.

BOSHLANG'ICH 4-SINF O'QUVCHILARINI SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA JISMONIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari mashg'ulotlarda jismoniy qobiliyatlarini shakllantirish chora-tadbirlari, muammo va yechimlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, tajriba davomida turli metodlardan foydalanilgan hamda, amaliy yechimlar keltirilgan. Mavzu yuzasidan soha olimlarining fikrlari va tadqiqot natijalaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, pedagogik maxorat, energiya sarfi, takrorlanish, jismoniy sifatlar, fiziologik xususiyatlar, ulotqirish, kasbiy faoliyat, kasbiy malaka, axloqiy-estetik munosabatlar.

Kirish. Mamlakatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri – jismonan va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalashdir. Bugungi globallashuv jarayonlarining tobora kuchayib borayotgan dunyo sharoitida yuksak ma'naviyatga ega, jismonan barkamol avlodni voyaga yetkazish Vatanimiz kelajagini belgilashda va xalqimizning ezgu maqsadlariga erishishda hal qiluvchi omillardan biridir. Shu sababli, ushbu maqsadni amalga oshirishda huquqiy asoslar yaratilgan va keng miqyosda amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasining ilg'or siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori va 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni, jismoniy tarbiya sohasini yanada rivojlantirishda muhim huquqiy asoslarni yaratishga xizmat qilmoqda. Ushbu farmon va qarorlarning asosiy maqsadlaridan biri, ayniqsa, jismoniy tarbiyaga oid tushunchalar va atamalarini to'g'ri shakllantirish va nazariy-amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ilmiy adabiyotlarda o'qituvchining pedagogik mahoratiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, rus pedagogi V.A. Suxomlinskiy, pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishda o'qituvchilarda izlanish va tahlilga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. U o'zining mashhur ishlarida, o'qituvchilar o'z darslarida yutuq va kamchiliklarini vaqtda aniqlash va tahlil qilish orqali pedagogik faoliyatning

muvaffaqiyatini oshirish mumkinligini ta'kidlagan (Suxomlinskiy, 1981).


Shuningdek, rus olimi I.P. Rachenko, pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida, o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlar, kasbiy malakalar va ko'nikmalarni mukammal egallashini zarur deb biladi. U pedagogik faoliyatda o'z kasbiga bo'lgan qiziqish, rivojlangan pedagogik fikrlash va axloqiy-estetik qarashlarni shakllantirishni muhim komponentlar deb hisoblaydi (Rachenko, 2000). O'qituvchining bu fazilatlari uning pedagogik texnikani samarali qo'llashiga va o'z kasbiy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik faoliyatida eng muhim komponentlardan biri bu o'qituvchilik kasbiga sadoqatdir. O'qituvchi o'z fanining metodikasini chuqur o'rganish, pedagogik qobiliyatlarini amalda ko'rsatish va pedagogik texnikani samarali qo'llash orqali o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishi zarur. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faqatgina jismoniy mashqlarni o'rgatish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratadi. Har bir o'quvchi aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlanayotgan bo'lib, o'qituvchining psixologik va fiziologik xususiyatlarni inobatga olib, ularning ehtiyojlariga moslashgan holda ta'sir o'tkazish usullarini tanlash zarur.

Jismoniy tarbiya faqatgina musobaqalarga tayyorlanish yoki sportni rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Jismoniy mashg'ulotlar o'quvchilarning umumiy salomatligini, ruhiy holatini va o'quv jarayonida muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlaydi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jismoniy tarbiyaning muhim qismini tashkil etadi. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarga sportning turli turlarini o'rgatib, jismoniy ko'nikmalarini

rivojlantiradi va ularning salomatligini mustahkamlaydi. Sinfda o'tkaziladigan darslar vaqt cheklanganligi sababli, sinfdan tashqaridagi mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkoniyati yaratiladi.

O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, ayniqsa, jismoniy faollikni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Sinfdan tashqarida o'quvchilarga jismoniy faollikni o'rgatishda, ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish lozim. Bu yondashuvlar,



1-rasm. Jismoniy qobiliyatni shakllantirish yondashuvlari

Jismoniy tarbiya va sport sohasida o'quvchilarni rivojlantirishda turli metodik yondashuvlar samarali va keng qo'llaniladi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish, mashg'ulotlar rejasini moslashtirish va o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratish bu jarayonning ajralmas qismidir. Quyida keltirilgan metodik yondashuvlar jismoniy faollikni oshirish va o'quvchilarning jismoniy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi.

1. Individual yondashuv. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida har bir o'quvchining jismoniy salohiyatini hisobga olish, mashg'ulotlar rejasini unga mos ravishda tuzish zarur. Bu yondashuv, o'quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi va har birining rivojlanishiga individual tarzda e'tibor qaratadi. Shunday qilib, o'quvchilarning jismoniy salohiyatiga moslashgan yondashuv, ularga yanada yuqori natijalar ko'rsatishga turtki bo'ladi (Gulomov, 2019).

2. Ko'p turlilik. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar, o'quvchilarga sportning turli turlarini o'rgatib, ularning jismoniy ko'nikmalarini kengaytiradi. Turli sport turlarini o'z ichiga olgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni yangi qobiliyatlarni rivojlantirish va sportga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Ushbu yondashuv, o'quvchilarni turli jismoniy mashqlar bilan tanishtirish va ularning sportga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish imkonini beradi (Petrov, 2020).

3. Guruh ishlari. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni guruhlariga bo'lish orqali ular orasida jamoa ruhini shakllantirish, hamkorlikni rivojlantirish va rahbarlik qobiliyatlarini oshirish mumkin. Guruh ishlari, o'quvchilarga o'zaro aloqalarni rivojlantirish, jamoa bilan birgalikda maqsadga erishish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi (Ivanov, 2018). Bu, o'z navbatida, jismoniy tarbiyaning nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy jihatlarini ham rivojlantiradi.

4. O'yinlar orqali yondashuv. Jismoniy tarbiya darslarida o'yin elementlarini qo'shish, mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. O'yinlar, o'quvchilarga nafaqat jismoniy faollikni oshirishga, balki jarayonni qiziqarli qilishga 1-jadval

Jismoniy tarbiya va sportda inson qobiliyatlarining sifatiga xos xususiyatlari

o'quvchilarning jismoniy salohiyatlarini rivojlantirishda va umumiy salomatlikni oshirishda samarali bo'ladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya sohasidagi siyosat va qonuniy asoslar, ushbu sohada ishlayotgan pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va o'quvchilarning salomatligini yaxshilash uchun zarur bo'lgan muhim qadamlarni qo'yish imkonini yaratadi. Jismoniy tarbiya faqat sog'lom avlodni tarbiyalashning bir qismi bo'lib, ularning barcha jihatdan rivojlanishiga turtki bo'ladi (1-rasm).

xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'yinlarning samarali tashkil etilishi o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holatini mustahkamlaydi, ular o'zlarining qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi (Makarov, 2017).

Jismoniy faollikni oshirish uchun zarur sharoitlar. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar samarali bo'lishi uchun, jismoniy tarbiya o'quvchilarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tashqi sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Sport maydonchalari, kerakli jismoniy tarbiya asbob-uskunalar va o'quvchilarning qulay sharoitlarda mashg'ulot o'tkazishlari uchun zarur infratuzilma mavjudligi, jismoniy faollikni amalga oshirishda katta rol o'ynaydi. Mashg'ulotlarni yuqori darajada tashkil etish, o'quvchilarga eng yaxshi sharoitlarni taqdim etish, natijada ular o'z salohiyatlarini eng yuqori darajada namoyon qila olishadi (Toshpo'latov, 2021).

Jismoniy sifatlarini rivojlantirish. Insonning harakat imkoniyatlarini aniqlashda "jismoniy sifatlar" degan atama keng qo'llaniladi. Bu atama orqali insonning harakat qilishdagi qobiliyatlari, masalan, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi fazilatlar ifodalanadi. Jismoniy tarbiya va sportda ushbu sifatning rivojlanishi o'quvchilarni turli musobaqalarda qatnashishga va yuqori natijalar ko'rsatishga tayyorlaydi. O'quvchilarning jismoniy sifatlarini oshirishda jismoniy tarbiya darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va musobaqalar katta rol o'ynaydi. Ushbu sifatlarini rivojlantirishda, metodik yondashuvlar va mashg'ulotlarni puxta tashkil etish zarur (Andreev, 2022).

Shunday qilib, jismoniy tarbiya o'quvchilarni rivojlantirishning samarali usullari individual yondashuv, ko'p turlilik, guruh ishlari va o'yin elementlarini o'z ichiga olgan yondashuvlarni o'zida mujassam etadi. Bu yondashuvlar jismoniy faollikni oshirish, o'quvchilarning salohiyatini rivojlantirish va ularni sportga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Jismoniy sifatlarini rivojlantirishda esa, metodik yondashuvlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va to'g'ri tashkil etilgan sharoitlar o'quvchilarning yuqori natijalarga erishishida muhim rol o'ynaydi (1-jadval):

Jismoniy sifatlarini quyidagicha sinflarga ajratishimiz mumkin	
Kuchli.	Odanning kuchi deb – tashqi qarshilikni yengib o'tishiga yoki tashqi kuchlarga qarshi turishiga yoki foydali harakatni bajara olish qobiliyatiga aytiladi.
Tezkorlik.	Tezkorlik insonning tashqi ta'sirlarga bir zumda javob qaytarish hamda tez harakatlar bajara olish qobiliyatidir. Sport amaliyotida tezkorlik tezlik-kuch sifatlarining o'ziga xos shakllarida namoyon bo'ladi.
Chaqqonlik.	Harakatlarning koordinatsiyaviy murakkabligi chaqqonlikning birinchi o'lovidir. Agar harakatning fazo, vaqt, kuch xarakteristikalarini harakat vazifasiga moyil bo'lsa, harakat yetarli darajada aniq bo'ladi, harakat vazifalari harakatning aniqligi tushunchasini keltirib chiqaradi. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o'lovidir.
Egiluvchanlik.	Egiluvchanlik bo'g'imlar harakatchanligi darajasini ko'rsatadi. Harakatchanlikning miqdoriy ifodasi – harakat amplitudasi. Egiluvchanlik ulog'irishda, ayrim sakrash turlarida, gimnastika hamda akrobatika mashqlarida, yangi harakat shakllarini yanada samarali egallashda shiddat natijalarining ko'tarilishiga ko'maklashadi.
Chidamlilik.	Chidamlilik – insonning biron harakat faoliyatini uzoq vaqt davomida uning samarasini pasayitmasdan bajarish qobiliyati. Ishning davomiylixi oxir-oqibat charchash bilan chegaralanganligi munosabati bilan chidamlilikni organizmning charchashga bardosh berish imkoniyati deb ham ifodalash mumkin.

Qo'shimcha mashg'ulotlar davomida kuchli jismoniy mashqlar (155-160 ud/daq zarba tezligi) past yuklamalar (120-130 ud/daq) va yurak urish tezligi (90-100 ud/daq) bilan faol dam olish davrlari o'rtasida almashtiriladi. Bu yuklama boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos hisoblanadi. Kuchli jismoniy

faollikning past faollik va faol dam olish davrlari bilan almashinishi mashg'ulotlar davomida bolalarning mehnat qobiliyatini saqlab, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik jismoniy sifatlar bilan uzviy bog'lanib, ularning rivojlanishiga hissa qo'shadi [5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jismoniy tarbiya darslarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish jarayonida jismoniy yuklamani boshqarish nisbatan oson hisoblanadi. Mashqlarni tanlashda va ularning sonini belgilashda, yuklamaning ta'siri organizmda energiya sarfi, mashqlarni takrorlash soni, davomiyligi va bajarilish vaqti kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarni jismoniy rivojlantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

1. Energiya sarfini boshqarish. Jismoniy tarbiya darslaridagi mashqlarni me'yorlashda, organizmning energiya sarfini hisobga olish juda muhim. Bu energiya sarfi mashqlarni takrorlash soni va davomiyligiga qarab farq qiladi. O'quvchilarning jismoniy faolligi davomida bu ko'rsatkichlar o'zgarib turadi, shu sababli energiya sarfini tahlil qilish va boshqarish juda zarur. Mashqlarni bajarish davomiyligi fiziologik jarayonlarning ritmik bog'liqligini buzmasligi lozim, chunki energiya sarfi yuqori bo'lganda, bu organizmning normal ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (Sidorova, 2019).

2. Yosh guruhlaridagi energiya sarfi. 7-8 yoshli bolalar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida sarflangan energiya va organizmning kislorod qabul qilish ko'rsatkichi, o'rganilgan adabiyotlarga ko'ra, 1/5 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 9-10 yoshli o'quvchilarda esa 1/3 ga teng bo'lishi mumkin, bu esa yosh guruhlarining fiziologik xususiyatlariga bog'liq. Shunday qilib, yoshga qarab energiya sarfi va

kislorodning maksimal darajada qabul qilinishi o'zgarib boradi (Popov, 2021).

3. Mashqlarni baholash va kislorod qabul qilish. O'quvchilar tomonidan bajarilgan jismoniy mashqlarda qancha energiya sarflanishini baholash uchun, kislorod qabul qilish ko'rsatkichlari asosida aniq hisoblashlarni amalga oshirish mumkin. Bu metod, mashqlarni baholashda yordam beradigan aniq va ilmiy asoslangan usul sifatida qaraladi. Ba'zi mashqlarni energiya sarfi asosida baholash esa har doim ham samarali bo'lmaydi, chunki ba'zi fiziologik jarayonlarni hisoblashda ba'zi murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin (Kuzmin, 2020).

Xulosa va takliflar. Jismoniy madaniyat va tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda nazariy bilimlar va amaliy harakatlar o'rtasidagi uzviy bog'lanishning o'rni katta. Keng qamrovli va mazmunli darslar jismoniy tarbiya ta'limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida nashr etilgan adabiyotlar tahlili, jismoniy tarbiya darsining mazmuni va nomiga oid bahslarning hali yakunlanmaganini ko'rsatadi. Bu muammo hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki darsning asosiy komponentlari va mazmuni haqida aniq va yagona qaror mavjud emas. Shunday qilib, jismoniy tarbiya darslarining tarkibi va mazmunini belgilashda, uning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va tarbiyaviy jihatlarni ham hisobga olish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr, O., RQ-637-son <http://lex.uz>
2. Сухомлинский В.Д. Болаларга жоним фидо. - Т.: Ўқитувчи, 1984, 254 б.
3. Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя. - Пятигорск, 1992, 196
4. Salomov S.R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 jild. T.: ITA PRESS, 2015.
5. Mirsharipova Z.M. Kamilova J.E. Jismoniy tarbiya va sport jismoniy tayyorgarlik asoslari O'quv – uslubiy qollanma. – T.: ToshDTU, 2010. 70 bet



Nasiba AXROROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
E-mail: axrorova8802@gmail.com

O'zMU professori V.Topildiyev taqrizi asosida

ZAMONAVIY O'G'IRLIK JINOYATLARI: KOMPYUTER VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN HOLATLARNING JINOYAT-HUQUQIY TAHLILI

Аннотация

Maqolada O'zbekiston Respublikasida kompyuter vositalari orqali sodir etiladigan mulkiy jinoyatlar, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qism "b" bandida belgilangan zamonaviy o'g'irlik holatlari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalar va internet orqali amalga oshirilgan o'g'irliklar, shu jumladan, kiberjinoyatlar va ularning oldini olish yo'llari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonning huquqiy me'yorlari, shuningdek, xalqaro tajriba asosida, ushbu jinoyatlarni aniqlash, ularni jazolash va oldini olish tizimlari o'rganiladi. Maqola kompyuter texnologiyalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashishda huquqiy tartibni takomillashtirishga yo'naltirilgan takliflar va yondashuvlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Kompyuter vositalari, mulkiy jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasi, Jinoyat kodeksi, o'g'irlik, zamonaviy jinoyatlar, huquqiy tahlil, raqamli texnologiyalar, internet jinoyatlari, xalqaro tajriba, huquqiy me'yorlar.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ХИЩЕНИЯМИ: УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ СЛУЧАЕВ, СОВЕРШЕННЫХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В статье анализируются имущественные преступления, совершаемые с использованием компьютерных средств в Республике Узбекистан, в частности, современные случаи хищения, предусмотренные пунктом «б» части 3 статьи 169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. В статье рассматриваются хищения, совершаемые с использованием цифровых технологий и сети Интернет, в том числе киберпреступления, и способы их предотвращения. На основе правовых норм Узбекистана, а также международного опыта будут изучены системы выявления, наказания и предупреждения данных преступлений. В статье излагаются предложения и подходы, направленные на совершенствование правопорядка в сфере противодействия преступлениям, совершаемым с использованием компьютерных технологий.

Ключевые слова: Компьютерные средства, имущественные преступления, Республика Узбекистан, Уголовный кодекс, кража, современные преступления, правовой анализ, цифровые технологии, интернет-преступления, международный опыт, правовые нормы.

MODERN THEFT CRIMES: A CRIMINAL-LEGAL ANALYSIS OF CASES COMMITTED USING COMPUTER TOOLS

Annotation

The article analyzes property crimes committed through computer means in the Republic of Uzbekistan, in particular, modern cases of theft, as defined in paragraph "b" of part 3 of article 169 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The article considers thefts committed through digital technologies and the Internet, including cybercrimes, and ways to prevent them. The legal norms of Uzbekistan, as well as the systems for detecting, punishing and preventing these crimes based on international experience, are studied. The article presents proposals and approaches aimed at improving the legal order in combating crimes committed through computer technologies.

Key words: Computer tools, property crimes, Republic of Uzbekistan, Criminal Code, theft, modern crimes, legal analysis, digital technologies, Internet crimes, international experience, legal norms.

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, shu jumladan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va elektron to'lov tizimlarining keng qo'llanilishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bir tomondan iqtisodiy faoliyatni osonlashtirsa, boshqa tomondan yangi turdagi jinoyatlar, xususan, kompyuter vositalaridan foydalanib sodir etiladigan mol-mulkka qarshi jinoyatlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ham bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, ularning samarali tergov qilinishi va aybdorlarning javobgarlikka tortilishi muhim ahamiyatga ega. Biroq, kiberjinoyatlarning texnik murakkabligi, ularning transtchegaraviy xususiyati, elektron dalillarning o'ziga xos jihatlari bu toifadagi ishlarni tergov qilishda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda kompyuter vositalari orqali o'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlari tobora keng tarqalmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Axborot kommunikatsiya sohasidagi jiddiy muammo – kiberjinoyatchilik. Kiberjinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish

bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur". Bu masala nafaqat milliy, balki global miqyosda ham dolzarb hisoblanadi, chunki raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan kiberjinoyatchilik usullari ham murakkablashib, takomillashib bormoqda.

Respublikamizda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron to'lov tizimlari, raqamli bank xizmatlari faol joriy etilmoqda. Shu bilan birga, bunday tizimlarda mulkiy jinoyatlarni sodir etish xavfi ham ortmoqda. Kompyuter vositalari orqali sodir etiladigan mulkiy jinoyatlar klassik jinoyatlardan farqli ravishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni kvalifikatsiya qilish, jinoyat tarkibini aniqlash masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mazkur mavzuning nazariy va huquqiy tahlili hamda uni hal etish yo'llari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar o'ta dolzarbdir.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qism "b" bandida nazarda tutilgan kompyuter texnologiyalari orqali sodir etilgan o'g'irlik jinoyati turining har tomonlama chuqur tahliliga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada mazkur jinoyat turining o'ziga xos yuridik xususiyatlari, tarkibiy elementlari, shuningdek xalqaro miqyosda xorijiy davlatlar tajribasi va O'zbekiston Respublikasi

qonunchiligini yanada takomillashtirish yo'nalishlari batafsil ko'rib chiqiladi, zero bu sohada qonunchilik va amaliyot doimo yangilanib turishini talab etadi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qism "b" bandi kompyuter texnologiyalari orqali sodir etilgan o'g'irlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydigan asosiy qonuniy norma hisoblanadi va bu norma zamonaviy sharoitda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qonuniy normada nazarda tutilgan jinoyat tarkibi to'rt asosiy elementni o'z ichiga oladi, ularning har biri jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega, shu sababli ularni batafsil ko'rib chiqish lozim.

Kompyuter texnologiyalari yordamida o'g'irlik sodir etilganda, moddiy obyekt ko'pincha pul mablag'lari, kriptovalyutalar yoki boshqa raqamli aktivlar bo'lishi mumkin, ammo bu jinoyatning huquqiy tavsifini o'zgartirmaydi.

Jinoyatning obyektiv tomoni o'zganing mulkini maxsus usul – kompyuter texnologiyalari yordamida yashirin ravishda talon-toraj qilishdan iborat. Kompyuter texnologiyalarining qo'llanilishi esa jinoyatni sodir etish usuli sifatida jinoyatning og'irlashtiruvchi belgisi hisoblanadi va bu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi.

Mazkur jinoyatning subyektivi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining umumiy normalariga muvofiq 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi lozim. Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter texnologiyalari orqali jinoyat sodir etish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi, shuning uchun amaliyotda bunday jinoyatlarni ko'pincha axborot texnologiyalari sohasida muayyan bilimga ega bo'lgan shaxslar sodir etadi.

Jinoyatning subyektiv tomoni to'g'ri qasd va g'arazli maqsaddan iborat. Bunda jinoyatchi o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini angelaydi, uning oqibatlarini oldindan ko'radi va ularning yuz berishini xohlaydi. G'arazli maqsad bu yerda jinoyatchining o'zgalar mulkini noqonuniy ravishda o'zlashtirish va undan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanish istagidan iborat.

Ushbu jinoyat turining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, jinoyatchi jismoniy kuch ishlatmasdan, tahdid yoki zo'rlik ko'rsatmasdan, balki faqat axborot texnologiyalari vositasidan foydalanib mulkni egallaydi. Bu holat jinoyatni an'anaviy o'g'irlikdan sezilarli darajada farqlantiradi va jinoyat sodir etish usulining yangi shaklini yaratadi, chunki bunday jinoyatlar masofadan turib, hatto boshqa davlat hududidan turib ham amalga oshirilishi mumkin.

Kompyuter vositalari orqali o'g'irlik quyidagi usullarda sodir etilishi mumkin:

Bank tizimlariga ruqsatsiz kirish orqali pul mablag'larini o'zlashtirish;

To'lov kartalaridan ma'lumotlarni noqonuniy olish va ulardan foydalanish;

Internet-banking va mobil banking xizmatlarini buzish orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish;

Shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash (fishing) orqali moliyaviy hisoblardan foydalanish.

Kompyuter vositalari orqali o'g'irlik yuqoridagi kabi turli usullarda sodir etilishi mumkin bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va tegishli texnik bilimlarni talab qiladi.

Kompyuter texnologiyalari orqali sodir etiladigan jinoyatlar global muammo bo'lganligi sababli, turli davlatlar bu muammoni hal qilish yo'llarini izlashmoqda va o'z milliy qonunchiligida tegishli normalarni shakllantirmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun foydali asos bo'lishi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari kompyuter jinoyatlariga qarshi kurashish bo'yicha eng rivojlangan qonunchilikka ega davlatlardan biri hisoblanadi. AQShda bu sohada jinoyatlar federal qonunchilik darajasida tartibga solinadi va 1986 yilda qabul qilingan "Kompyuter firibgarligi va suiste'molli to'g'risidagi qonun" (Computer Fraud and Abuse Act, CFAA) asosiy huquqiy hujjat hisoblanib, u kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish va ulardan foydalanish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Moliyaviy institutlarga nisbatan sodir etilgan kompyuter jinoyatlari uchun 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin.

AQShda amaliyotda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda "kiberjinoyat" (cybercrime) va "kiberfiribgarlik" (cyberfraud) kabi tushunchalar keng qo'llaniladi va ular qonunchilikda ham, sud amaliyotida ham o'z o'rnini topgan. Kompyuter orqali sodir etilgan o'g'irlik alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida qaraladi. Bundan tashqari, AQShda kompyuter jinoyatlarini tergov qilish uchun FBI tarkibida maxsus bo'linmalar tashkil etilgan va ular yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan.

Rossiya Federatsiyasi ham kompyuter jinoyatlari bilan kurashish borasida sezilarli tajribaga ega. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksida 159.6-moddada "Kompyuter ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanish orqali firibgarlik" jinoyati alohida moddada nazarda tutilgan bo'lib, bu O'zbekiston Jinoyat kodeksidagi kabi o'g'irlik tarkibidagi og'irlashtiruvchi holat emas, balki alohida jinoyat sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, Rossiya Jinoyat kodeksida 272-moddada "Kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish", 273-moddada "Zararli dasturlarni yaratish, tarqatish va ishlatish" va boshqa tegishli normalar mavjud bo'lib, ular kompyuter jinoyatlari spektrini keng qamrab oladi.

Rossiya qonunchiligida kompyuter vositalari orqali sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik ancha og'ir bo'lib, 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, yirik miqdordagi jarima va boshqa choralar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, Rossiyada ham Ichki Ishlar vazirligi tarkibida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'limlari faoliyat yuritadi va ular tobora murakkablashib borayotgan kiberjinoyatlar bilan kurashish uchun doimiy ravishda texnik imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Yevropa Ittifoqi doirasida 2001 yilgi "Kiberjinoyatlar to'g'risida"gi Budapesht konvensiyasi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi va bu konvensiya kiberjinoyatlar, shu jumladan kompyuter vositalari orqali sodir etilgan moliyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalariga bag'ishlangan. Ushbu konvensiyaga ko'ra, a'zo davlatlar kompyuter vositalari orqali sodir etilgan mulkiy jinoyatlar uchun samarali qonunchilikni ta'minlashi kerak.

Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlarida kompyuter jinoyatlari uchun javobgarlik masalalari ancha rivojlangan. Masalan, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda kompyuter jinoyatlari alohida moddalarda batafsil tartibga solingan. Germaniya Jinoyat kodeksida kompyuter ma'lumotlarini o'zgartirish (303a-moddada) va kompyuter sabotaji (303b-moddada) kabi jinoyat tarkiblari nazarda tutilgan bo'lib, ular kompyuter texnologiyalari orqali sodir etiladigan mulkiy jinoyatlarni ham qamrab oladi. Fransiya esa kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish va ma'lumotlarni o'zgartirish uchun 5 yilgacha qamoq va 150 ming yevroga qadar jarima nazarda tutilgan, bu esa bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashning jiddiyligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida kompyuter vositalari orqali sodir etiladigan o'g'irlik jinoyatlariga qarshi kurashishda bir qator sezilarli muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish zamonaviy sharoitda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchisi va eng muhim muammolardan biri – huquqni muhofaza qilish organlarining texnik salohiyati yetarli darajada rivojlanmaganligi hisoblanadi. Kiberjinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va fosh etish uchun maxsus dasturiy ta'minot, zamonaviy kompyuter jihozlari va boshqa texnik vositalar zarur.

Keyingi muammo – maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislarining yetishmasligi hisoblanadi. Kiberjinoyatlarni tergov qilish uchun faqat yuridik bilimlar emas, balki axborot texnologiyalari sohasidagi chuqur bilim va ko'nikmalar ham talab etiladi.

Bundan tashqari jinoyatlarni tergov qilish va sud muhokamasi jarayonida dalillarni to'plash va mustahkamlashning murakkabligidir. Kompyuter jinoyatlari ko'pincha virtual makonda sodir etiladi, bu esa an'anaviy dalillarni topish va mustahkamlash usullarining samarasiz bo'lishiga olib keladi. Elektron dalillarni to'plash, saqlash va sud jarayonida taqdim etish o'ziga xos qoidalarga ega bo'lib, ularni to'g'ri qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, qonunchilikdagi bo'shliqlar va normalarning eskirganligi yana bir muammolardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari juda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda, ammo qonunchilik bu jarayondan orqada qolmoqda.

Xalqaro hamkorlikning zaif rivojlanganligi ham bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Xususan, kompyuter jinoyatlari ko'pincha transnatsional xususiyatga ega bo'lib, ular bir davlat hududidan turib boshqa davlat hududida sodir etilishi mumkin. Bunday hollarda jinoyatlarni fosh etish va jinoyatchilarni javobgarlikka tortish uchun davlatlar o'rtasida samarali huquqiy yordam mexanizmlari bo'lishi zarur. O'zbekiston Respublikasi hali "Kiberjinoyatlar to'g'risida"gi Budapesht konvensiyasiga qo'shilmagan, bu esa xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini cheklaydi.

O'zbekiston Respublikasida kompyuter vositalari orqali sodir etiladigan o'g'irlikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "kiberjinoyatlar" tushunchasini kiritish va alohida bob sifatida tartibga solish choralari ko'rish lozim. Bugungi kunda kompyuter vositalari orqali sodir etiladigan jinoyatlar spektri juda keng bo'lib, ularni faqat mulkka qarshi jinoyatlar doirasida ko'rib chiqish yetarli emas. Shu sababli, Jinoyat kodeksiga "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" nomli alohida bob kiritish va unda turli turdagi kiberjinoyatlarni, ularning tarkibiy elementlarini va javobgarlik masalalarini batafsil tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Huquqni muhofaza qilish organlarining texnik va kadrlar salohiyatini oshirish, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalarni kuchaytirish yo'lida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu maqsadga erishish uchun huquqni muhofaza qilish organlari uchun zamonaviy kompyuter jihozlari va dasturiy ta'minotlarni xarid qilish, xodimlarni maxsus o'qitish dasturlarini tashkil etish, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida mutaxassis bo'lgan kadrlarni jalb qilish uchun motivatsion mexanizmlarni yaratish talab etiladi. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalar faoliyatini moliyalashtirish darajasini oshirish va ularni eng zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, "Kiberjinoyatlar to'g'risida"gi Budapesht konvensiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur konvensiyaga qo'shilish O'zbekiston Respublikasi uchun xalqaro miqyosda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik qilish

imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bundan tashqari, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish sohasida xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha doimiy ishlarni olib borish zarur. Bunda xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan tajriba almashish dasturlarini tashkil etish, xalqaro konferensiyalar va seminarlar o'tkazish, shuningdek, kiberjinoyatlar bo'yicha tezkor ma'lumot almashish mexanizmlarini yaratish katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarga olib kelayotgani kabi, jinoyatchilikning yangi shakllarini ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, kompyuter vositalari orqali sodir etilayotgan mulkiy jinoyatlar – zamonaviy o'g'irlik turlaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qism "b" bandida bunday jinoyatlarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, ularni tergov qilish, jinoyat tarkibini to'g'ri aniqlash va aybdorlarni javobgarlikka tortishda bir qator tizimli muammolar mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter vositalari orqali sodir etilgan o'g'irlik jinoyatlari an'anaviy o'g'irlikdan sezilarli darajada farq qiladi va ularni samarali aniqlash, tergov qilish hamda oldini olish uchun zamonaviy texnik vositalar, yuqori malakali kadrlar va yangilangan qonunchilik zarur. Shu jihatdan, xorijiy davlatlar, xususan AQSH, Rossiya Federatsiyasi va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining kiberjinoyatlarga qarshi kurash borasidagi tajribasi O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada ilgari surilgan takliflar – O'zbekiston Jinoyat kodeksida "kiberjinoyatlar" tushunchasini alohida bob sifatida belgilash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik salohiyatini oshirish, axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – mazkur jinoyat turiga qarshi kurashishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu boisdan, kompyuter texnologiyalari orqali sodir etiladigan mulkiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha tizimli yondashuv, ilmiy-nazariy asoslangan va amaliy jihatdan takomillashtirilgan choralarni amalga oshirish zamon talabi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: "Adolat", 2023-yil tahriri;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: "Adolat", 2023-yil tahriri;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF-6079-son "Kiberxavfsizlik sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. – <https://lex.uz>;
4. Toshqulov, A. A., & Ergashov, I. I. (2022). Jinoyat huquqi: Maxsus qism. – Toshkent: Yuridik nashriyoti;
5. Alimov, R. A. (2021). Zamonaviy jinoyatchilik va unga qarshi kurashning dolzarb masalalari. – Toshkent: Ilm-Ziyo;
6. Петрова, Е. А. (2020). Киберпреступления и методы их расследования. – Москва: Юрайт;
7. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksi. – 13.06.1996 N 63-FZ (red. ot 05.04.2023). URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/
8. International Telecommunication Union (ITU). (2020). Global Cybersecurity Index (GCI) 2020. – Geneva: ITU Publications;
9. UNODC (2019). Comprehensive Study on Cybercrime. United Nations Office on Drugs and Crime. – www.unodc.org;
10. Cybercrime Convention Committee (T-CY). (2021). Budapest Convention on Cybercrime: Implementation Review.



UDC: 316:314.622.4

Dilafroz BARATOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi
E-mail: dilafrozbaratova88@gmail.com

M. Fayziyeva psixologiya fanlari doctori, professor taqrizi asosida

EDUCATIONAL DIFFICULTIES OF CHILDREN IN SINGLE-PARENT FAMILIES AND WAYS TO OVERCOME THEM

Annotation

This study aims to examine the educational challenges faced by children in dysfunctional families and ways to overcome them. Children living in dysfunctional families, with limited family stability and parental resources, often face significant educational challenges. These challenges include factors such as socioeconomic status, parental education, lack of emotional support and limited school resources. The study also discusses effective strategies and methods for overcoming these challenges, including partnerships between parents and educational institutions, social services and financial assistance. The goal is to provide families and communities with solutions to address these challenges and expand children's educational opportunities.

Key words: Children from dysfunctional families, education, educational difficulties, socio-economic problems, parental role, educational resources, emotional support, educational coping strategies.

ТРУДНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация

Целью данного исследования является изучение трудностей, с которыми сталкиваются дети в процессе обучения, а также способов их преодоления в семьях, где дети не воспитываются в семьях-дискаламах. Дети с ограниченными возможностями часто сталкиваются с серьезными проблемами образования. К этим проблемам относятся социально-экономическая ситуация, например, уровень образования родителей, отсутствие эмоциональной поддержки и ограниченность школьных ресурсов. В исследовании также обсуждаются эффективные стратегии и методы преодоления этих проблем, включая партнерство между родителями и образовательными учреждениями, социальными службами и финансовой помощью. Цель — показать пути решения проблем семей и сообществ, а также расширить возможности детей в сфере образования.

Ключевые слова: Дети из неблагополучных семей, образование, трудности в образовании, социально-экономические проблемы, родительская роль, образовательные ресурсы, эмоциональная поддержка, образовательные стратегии совладания.

NOTO'LIQ OILALARDA FARZANDLARNING TA'LIM OLISHDAGI QIYINCHILIKLARI VA ULARNI YENGISH YO'LLARI

Аннотация

Ushbu maqolada noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklari va ularni yengish yo'llarini o'rganishga qaratilgan. Noto'liq oilada, oilaviy barqarorlik va ota-ona resurslari cheklangan holatlarda yashovchi farzandlar ko'pincha ta'lim olishda jiddiy muammolarga duch keladilar. Ushbu muammolar orasida ijtimoiy-iqtisodiy holat, ota-onaning ta'lim darajasi, emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi va maktabdagi resurslarning cheklanganligi kabi omillar mavjud. Tadqiqotda, shuningdek, bu qiyinchiliklarni yengish uchun samarali strategiyalar va usullar, jumladan, ota-onalar va ta'lim muassasalarining hamkorligi, ijtimoiy xizmatlar va moliyaviy yordamlar haqida gapiriladi. Maqsad — oilalar va jamoalar uchun muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatish va farzandlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishdir.

Kalit so'zlar: Noto'liq oilafarzandlar, ta'lim, ta'limdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ota-ona roli, ta'lim resurslari, emotsional qo'llab-quvvatlash, ta'limni yengish strategiyalari.

Kirish. Ta'lim olish – har bir bola uchun muhim huquq bo'lib, uning kelajagini shakllantiradi. Biroq, noto'liq oilalarda, ya'ni ota-ona o'rtasida nizo yoki ajralish mavjud bo'lganda, farzandlarning ta'lim olishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklar farzandning ruhiy, psixologik va moddiy holatiga ta'sir qiladi. Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishidagi asosiy qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari ko'rib o'tamiz. Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishiga iqtisodiy cheklovlar katta ta'sir ko'rsatadi. Ajralgan ota-ona bitta daromad manbai bilan cheklangan bo'lib, farzandlarning ta'limini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu ayniqsa, maktabdan tashqari qo'shimcha darslar, repetitorlik xizmatlari va boshqa ta'lim xarajatlarini qoplashda o'zini ko'rsatadi. Moddiy cheklovlar farzandlarning ta'limga bo'lgan imkoniyatlarini kamaytiradi va ta'limda muvaffaqiyatga erishishlarini qiyinlashtiradi. Ajralgan oilalarda o'sgan farzandlar ko'pincha ota-ona o'rtasidagi nizolar, stress va beqarorlikni his qilishadi. Bu ruhiy holat farzandlarning ta'limga bo'lgan qiziqishini

Qiyinchiliklar

Izoh

Iqtisodiy muammolar

Ajralgan ota-ona faqat bitta daromad manbai bilan cheklangan bo'lib, ta'lim xarajatlarini qoplashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

kamaytiradi. Ota-ona o'rtasidagi ajralish yoki doimiy ziddiyatlar bolada xavotir, o'zini noqulay his qilish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda farzandlar o'z o'qishiga etarlicha e'tibor qaratolmaydi va ta'limdagi muvaffaqiyatlari pasayishi mumkin. Noto'liq oilalarda farzandlar jamiyat tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanishga muhtoj bo'ladi. Oila ichidagi nizo va ajralishlar farzandni yaqin qarindoshlar yoki jamiyatdan qo'llab-quvvatlashni olishdan mahrum qilishi mumkin. Jamiyatda farzandlarni ta'lim olishda qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar yetishmasligi, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan izolyatsiya qilish bolalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi. Ajralgan oilalarda farzandlar ko'pincha ota-ona tomonidan to'liq e'tibor qaratilmasligi sababli ta'lim olishda qiynalishadi. Ota-ona o'rtasidagi nizo yoki ajralishlar, ularning farzandlarining ta'limiga e'tibor berishlari yoki o'zaro kelishib ishlashlarini qiyinlashtiradi. Shu sababli, farzandlar ba'zan o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi.

Yengish Yo'llari

1. Bepul repetitorlik xizmatlari va ta'limga ajratiladigan subsidiya dasturlari orqali yordam ko'rsatish.
2. Xayriya tashkilotlari va davlat dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash.

Qiyinchiliklar	Izoh	Yengish Yo'llari
Ruhiy va psixologik qiyinchiliklar	Ota-ona o'rtasidagi nizolar va ajralishlar farzandlarning psixologik holatini beqarorlashtiradi, bu esa o'qishga ta'sir qiladi.	1. Psixologik maslahatlar va oila terapiyasini taqdim etish. 2. Maktablarda psixologlar yordamida ruhiy qo'llab-quvvatlash.
Ta'limga e'tiborning yetishmasligi	Ota-ona o'rtasidagi ajralish yoki beqarorlik, farzandlarning ta'limiga e'tibor berishdagi muammolarga olib keladi.	1. Ota-ona uchun ta'lim dasturlari va treninglar tashkil etish. 2. Farzandlarning ta'limini nazorat qilish uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash.
Ijtimoiy yordamning yetishmasligi	Farzandlar ko'pincha jamiyatdan izolyatsiya qilinadi va qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'ladi.	1. Jamiyatdagi ijtimoiy dasturlar va tadbirlarga jalb qilish. 2. Maktablarda qo'shimcha ijtimoiy yordam va ko'ngilli dasturlarni tashkil etish.
Motivatsiyaning yo'qligi	Farzandlarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi past bo'lishi, o'qishga qiziqishni yo'qotishlariga olib keladi.	1. O'qituvchilar tomonidan motivatsion darslar va faoliyatlar o'tkazish. 2. Farzandlarga o'quv jarayonida muvaffaqiyatlar haqida ijobiy fikrlarni berish.
O'qish sharoitining yetishmasligi	O'qish uchun zarur bo'lgan resurslar (kitoblar, kompyuterlar, internet) va maktabda qulay sharoitlarning yetishmasligi.	1. Maktablarda ta'lim resurslarini yaxshilash va ta'mirlash. 2. Davlat va xayriya tashkilotlari tomonidan resurslarni taqdim etish.
Ajralgan ota-ona bilan muloqotning qiyinlashishi	Farzandlar ko'pincha ota yoki onaning biriga qaram bo'lib, ta'limdagi qarorlar bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi.	1. Ota-ona o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va farzandlarning ta'limiga birgalikda yondashish. 2. Oila terapiyasi va konsalting xizmatlaridan foydalanish.
Ta'limning ijtimoiy qiyinchiliklari	Ajralgan oilalar farzandlarining ijtimoiy integratsiyasi qiyinlashadi, bu esa o'zlarini jamiyatdan chetlatilgan his qilishlariga olib keladi.	1. Ijtimoiy dasturlar va qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratish. 2. Jamiyatdagi ko'ngilli ishlar va tadbirlarga farzandlarni jalb qilish.

Ajralgan oilalarda farzandlarning ruhiy va psixologik holatini yaxshilash uchun psixologik yordam zarur. Farzandlar psixologik maslahatlar, oila terapiyasi yoki individual terapiya orqali stressni engishlari va o'zlarini xavotirdan xoli his qilishlari mumkin. Shuningdek, maktablarda psixologlar tomonidan o'tkaziladigan yordam dasturlari farzandlarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi mumkin. Psixologik yordam orqali farzandlarning o'ziga bo'lgan ishonchi tiklanadi va o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Farzandlarning ta'lim olishidagi iqtisodiy to'siqlarni yengish uchun davlat va xayriya tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur. Bepul repetitorlik xizmatlari, stipendiyalar va ta'limga ajratiladigan subsidiya dasturlari orqali farzandlar o'z ta'limini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, davlatning ijtimoiy yordam dasturlari, oilaning moddiy holatini yaxshilashga yordam beradi va farzandlarning ta'lim olishiga qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Ota-onalar farzandlari bilan samarali muloqot qilish va ta'lim jarayonida ularga yordam ko'rsatish uchun maxsus ta'lim dasturlaridan foydalanishlari kerak. Ota-onalar uchun treninglar va ma'lumotlar orqali ularning ta'limga e'tiborini oshirish, farzandlariga qanday yordam ko'rsatishni o'rgatish mumkin. Ajralgan oilalarda farzandning o'qishga bo'lgan qo'llab-quvvatlashning ortishi uchun ota-ona o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Maktablar va jamiyat farzandlarning ta'limiga yordam berish uchun hamkorlik qilishi zarur. Maktabda psixologlar, o'qituvchilar va ijtimoiy ishlovchilar tomonidan tashkil etiladigan qo'shimcha yordam dasturlari, ijtimoiy tadbirlar farzandlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, jamiyatda o'tkaziladigan ijtimoiy dasturlar orqali farzandlar ta'limni davom ettirishda qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Farzandlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyat bilan integratsiyalashuvga yordam beradi. Noto'liq oilalarda o'sgan farzandlar ko'pincha jamiyatdan izolyatsiya qilinadi. Jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlar, ko'ngilli ishlar, ijtimoiy dasturlar orqali farzandlarga o'qishdan tashqari yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Bu farzandlarning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va ular o'zlarini jamiyatda to'liq ishtirok etuvchi shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi.

O'rganilganlik darajasi. Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishidagi qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari masalasi o'zbek va xalqaro ilm-fanida o'rganilgan bo'lsa-da, bu soha hali to'liq o'rganilmagan. Hozirgi kunda ko'plab tadqiqotlar noto'liq oilalarda o'sgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, ta'lim olishidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Ammo aniq metodologik tadqiqotlar va o'zbek sharoitida to'liq qamrovli tadqiqotlar mavjud emas.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, 21-asrda, ajralgan oilalarda o'sgan bolalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, ruhiy va psixologik holati haqida bir qator ishlar mavjud. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida ajralgan oilalarda o'sgan bolalar uchun psixologik yordam, ijtimoiy dasturlar va o'qishdagi

muvaffaqiyatni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'proq uchraydi.

O'zbekistonda ajralgan oilalar va farzandlarining ta'lim olishidagi qiyinchiliklar haqida ba'zi amaliy tadqiqotlar mavjud. Ular ko'proq ijtimoiy nuqtai nazardan, oilaviy nizolar, farzandlarning ruhiy holati va ta'lim olishda yuzaga keladigan cheklolar bilan bog'liq masalalarni yoritadi. Biroq, bu tadqiqotlar asosan kichik o'lchamdagi guruhlar bilan olib borilgan bo'lib, kengroq miqyosda olib borilgan va aniq metodologik yondoshuvlarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar kam.

Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishdagi muammolarini kengroq yoritish, shuningdek, bu muammolarni bartaraf etish uchun samarali yondoshuvlarni taklif etish uchun yangi metodologik yondoshuvlar ishlab chiqishga harakat qilingan. Shuningdek, empirik tadqiqotlar orqali o'zbek sharoitida bu muammolarning aniq ko'rinishlarini o'rganish va ularga mos yechimlarni taklif qilish maqsad qilingan.

Tahlil va natijalar. Noto'liq oilalarda oilaviy munosabatlarni yaxshilash, hissiy qo'llab-quvvatlashni oshirish uchun psixologik maslahatlar va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish zarur. Pedagogik-psixologik yondashuvlarni joriy etish: O'smirlarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun maktablarda maxsus dasturlar va treninglar o'tkazish, o'qituvchilarni tegishli metodikalar bo'yicha o'qitish muhimdir. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish: Jamoat tashkilotlari, davlat idoralari va ta'lim muassasalarining hamkorligi orqali noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish lozim. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklari kamayadi, ularning ijtimoiy-psixologik holati yaxshilanadi va umumta'lim muassasalarida muvaffaqiyatlari ortadi. Bu esa jamiyatda sog'lom va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklari ko'plab omillarga bog'liq. Iqtisodiy, psixologik, ijtimoiy va ota-ona e'tiborining yetishmasligi kabi muammolar farzandlarning ta'lim olish jarayonida to'siqlar yaratadi. Biroq, psixologik yordam, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ota-onalar uchun ta'lim dasturlari, maktab va jamiyat o'rtasida hamkorlik va ijtimoiy faollikni oshirish orqali bu muammolarni yengish mumkin. Shu tariqa, farzandlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni yanada muvaffaqiyatli qilish uchun kompleks yondashuv zarurdir.

Takliflar. Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning psixologik holatini yaxshilash uchun maxsus psixologik yordam xizmatlari tashkil etilishi zarur. Bu xizmatlar bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Ota-onalarga oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish, ularning pedagogik va psixologik bilimlarini oshirish muhimdir. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dasturlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ehtiyojmand oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarga moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish tizimini yaratish va rivojlantirish zarur. Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarga pedagogik-psixologik yondashuvlarni qo'llash,

ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash muhimdir. Oilaviy tarbiya va ta'lim jarayonida oila, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, bolalarning ijtimoiylashuvi va ta'lim olishida yaxshilanishlarga erishishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risida nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qaroriga 1-ilova.
2. <https://daryo.uz> 26.12.2020
3. O'zbekiston Resp. Prezidenti qarori. PQ-3808-son. O'zb. Resp.da oila institutini mustahkamlash konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2018 yil 27 iyun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2018-y. 07.18.1410-son.
4. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari. – T., 2002. – 25 b.;
5. V.M.Karimova Oila: Ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy ommabop maqolalar to'plamlari//prof. V.M.Karimova tahriri ostida. T.: 2007. – 118-b.
6. Aziz SA'DULLAYEV. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-p Retrieved from <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>
7. Shoumarov G., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. - T.: «Ilm-Ziyo Zakovat», 2016. -270-b.
8. Baratova O.D. Noto'liq oilaning ijtimoiy-psixologik muommalari. Buxoro, «Psixologiya» ilmiy jurnali. 34-b
9. Fayzieva M.X. Oila psixologiyasi. Qarshi INasaf nashriyoti, 2018.138-bet.
10. Турובה, М.А. (2023). Социально-Психологическое Исследование Деспотизма В Гендерных Отношениях. International Journal of Formal Education, 2(4), 93-c.



Sanjar BARNOYEV,

IIV Buxoro akademik liseyi direktori o'rinbosari, BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sbarnoev@mail.ru;

Buxoro davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD. M.R.Shokirov taqrizi asosida

SUFI-PHILOSOPHICAL VIEWS OF YUSUF HAMADANI IN "RUTBAT AL-HAYAT"

Annotation

This article is about the fact that the work "Rutbat ul-hayot," which reflects Khoja Yusuf Hamadani's philosophical views on peace and tranquility, is one of the important sources in the development of the history of Sufism, and its relevance has not been lost in the modern world.

Key words: Peace, tranquility, ego, anger, hypocrisy, inner, outer, will, spirit, secret, heart, faith, charity, Islam.

СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЮСУФА ХАМАДАНИ В "РУТБАТ АЛЬ-ХАЁТ"

Аннотация

Эта статья о том, что "Рутбат ул-хаят," отражающая философские взгляды Ходжи Юсуфа Хамадони на мир и спокойствие, является одним из важных источников в развитии истории суфизма, и что его актуальность не исчезла в современном мире.

Ключевые слова: Мир, спокойствие, желание, гнев, лицемерие, внутреннее, внешнее, воля, выбор, дух, тайна, сердце, вера, благотворительность, ислам.

"RUTBAT UL-HAYOT"DA YUSUF HAMADONIYNING TASAVVUFIIY-FALSAFIY QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola Xoja Yusuf Hamadoniyning tinchlik va xotirjamlik haqidagi falsafiy qarashlarini o'zida aks ettirgan "Rutbat ul-hayot" asarining tasavvuf tarixi rivojida muhim ahamiyatga ega manbalardan biri ekanligi, uning dolzarbligi zamonaviy dunyoda yo'qolmaganligi haqidadir.

Kalit so'zlar: Tinchlik, xotirjamlik, nafs, g'azab, riyo, botin, zohir, iroda, ixtiyor, ruh, sir, qalb, iymon, ehson, islom.

Kirish. Yusuf Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot" asari hajmi kichik bo'lishiga qaramay mavzu, mazmun va tarbiyaviy-ma'rifiy yondoshuv nuqtai nazaridan g'oyat qimmatlidir. Asar sodda, ravon, tushunarli tilda yozilgan bo'lib, aynan shu sifatleri uni mavzuga taalluqli boshqa asarlardan ko'ra ko'proq shuhrat qozonganiga sababchi bo'lgan, deyish mumkin. Uning boshqa asarlardan farqli yana bir jihati - aslligi, ungacha yozilgan asarlarga murojaat qilinmaganligi, havola berilmaganligi va muallif savollarga javob bera turib faqatgina o'ziga tegishli fikr, mulohaza va g'oyalarni ixcham, tushunarli tilda bayon etganligidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mutasavvufning hayot yo'li, falsafiy qarashlari, ma'naviy merosi tahlili shuni ko'rsatadiki, ular nafaqat o'zlari komillikka intilganlar, balki o'z jamiyatlarida barkamol inson tarbiyasini ham o'z zimmlariga olganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shunday mutafakkirlardan biri Xoja Yusuf Hamadoniydur (1048–1141). Mazkur maqolada Yusuf Hamadoniyning "Rutbat hayot" risolasini asosiy manba qilib oldik. Mazkur asarda hayot, tinchlik, xotirjamlik, inson, uning koinotdagi o'rni, komillik yo'li haqidagi masalalar savol va javob tarzida bayon etilgan. Mazkur ishda "Rutbat ul-hayot" asaridagi komil inson haqidagi g'oyalarni qiyisiy-tahliliy va germeneytik usulda tahlil etishga harakat qildik.

Muhokama. "Rutbat ul-hayot" Xoja Yusuf Hamadoniyning bizgacha yetib kelgan eng salmoqli asarlaridan biridir. "Rutbat ul-hayot"ning yagona nusxasi bugungi kunda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofya bo'limida saqlanmoqda [1]. Asar 2910 inventar raqami ostidagi to'plam tarkibida bo'lib, to'plamda shuningdek Imom G'azzoliyning "Tuhfat ul-muluk", "Nasihah ul-muluk", Avhaduddin Kirmoniyning ruboiylar devoni, Majduddin Bag'dodiyning bir risolasi, Sadriddin Kuniyoviyning ikki risolasi, Ahmad G'azzoliyning "Ayniyya" asari o'rin olgan. To'plam 367 varoqdan iborat bo'lib, 1307 yilda ko'chirilgan eng nodir forsiy qo'lyozmalardan biri hisoblanadi.

To'plamda mazkur asar "Komil va olijanob shayx, tasavvuf sultoni va ilm talab qiluvchilarning piri Yusuf ibn Ayyub al-Hamadoniyning, Alloh uning aziz ruhini muqaddas qilsin,

nutqlaridan iborat "Rutbat ul-hayot" kitobi, degan nom bilan o'rin olgan.

Mazkur asar dastlab eronlik olim Doktor Muhammad Amin Riyohiy tomonidan fors tilida nashrga tayyorlangan [3]. Keyinchalik turk olimi Doktor Najdat To'sun asarni turk tilidagi nashrini e'lon qiladi [5].

Yuqoridagi ikki nashr asosida "Rutbat ul-hayot"ni o'zbek tiliga Nodirxon Hasan va Sayfiddin Sayfulloh tarjima qilib e'lon qiladilar.

2016-yilda taniqli tasavvufshunos olim professor G. Navro'zova va N. Nurmatovlar Yusuf Hamadoniyning hayot yo'li, ma'naviy merosi hamda tasavvuf tarixidagi xizmatlari mukammal ochib berilgan "Yusuf Hamadoni yetti pining tabarruk ustozlari" deb nomlangan monografiyani e'lon qiladilar. Mazkur monografiyada Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot" asarining mazmun-mohiyati juda mohirona ochib berilganiga guvoh bo'lamiz [2].

Doktor Muhammad Amin Riyohiyning fikricha fors tasavvufiy asarlari orasida Xoja Yusufning "Rutbat ul-hayot"i o'ziga xos noyob asar bo'lib, muallifning o'zi fors tilida tasavvufiy xarakter va mazmundagi asarlar uchun yo'l ochib bergan ilk mutasavviflardan hisoblanadi [3].

Risolada hijriy beshinchi va oltinchi asrlar (XI-XII) nasrining leksika va grammatika nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlari va xususiyatlariga rioya qilinishi e'tiborni tortadi: bir fe'lning bir necha ergash gaplarda takrorlanishi, prefiksli fe'llarning ko'pligi, so'roq va undov aliflarining ko'p qo'llanilishi, arabcha sifatlardan infinitivlar yasalishi, arabcha otlar ko'pligidan tegishli qo'shimchalarni qo'shish orqali forsiyga xos otlarning yasalishi shular jumlasidandir [3:50].

Asar hijriy VII-VIII (mil. XII-XIII) asr nash imlosida, xato va kamchiliklarsiz, ravon o'qiladigan, hattotlikning yuksak namunalari xos tarzda ko'chirilgan.

Tahlil. Shayx hayotni uch bosqichga ajratadi: islom hayoti, iymon hayoti va taqvo (ehson) hayoti, oxirgisi hayotning eng oliy darajasi hisoblanadi. Shunga ko'ra u tafakkur, zikr, g'ayrat, qalb, ruh, sir kabi tushunchalar va ular o'rtasidagi farq, ularning tabiati va fe'li o'rtasidagi ziddiyatlar haqida mulohaza

yuritadi, bu borada Qur'oni Karim oyatlari, hadislar, sahobalarning rivoyatlariga tayanib dalillash usulidan foydalanadi.

Muallifning tushuntirishlari odatda dalillash prinsipiga asoslanadi, biroq gap ma'shuq haqida ketganda so'zlar mutlaqo boshqacha tus va ohangga kiradi, go'yoki so'z va ifodalar nazmiy misralardan libos kiyganga o'xshaydilar: "u ehtirolari sababchisiga sirli tilda pichirladi: toki go'zalligindan bahra olmaguncha, sendan o'zgani ko'rmadim; ko'z oldimda juda ko'pchilik namoyon bo'ldi, biroq sendan o'zgani ko'rmadim". Qayd etish lozimki, biz bu yerda oddiy nasrni ko'rmaymiz, chunki gaplar muayyan hajmga ega, garchi bu yerda qofiyani uchratmasakda, "sendan o'zga" radifi qo'llanilgani e'tiborga molik. Umuman olganda notiq va voizlar qo'llaydigan nasrda muayyan o'lchovga ega ifodalarni ko'p uchratish mumkin.

Shu bilan birga mazkur ritmik va o'lchovli misralardagi "Zabon-ye roz" ("sirli til"yoki "sirlar tili") ifodasi "faxlaviy" sifatida ma'lum pahlaviy tilining dialektlaridan biri bo'lgan ray lahjasini yodga solib ayrim mulohazalarga chorlaydi. Bu parcha aslida Xoja Yusuf tug'ilib o'sgan Hamadon va Buzanjird "faxlaviya"si namunasining forscha tarjimai ekanligi ehtimoldan xoli emas.

Yusuf Hamadoniy mazkur asarida insonni barcha maxluqotlar ichida eng ulug' xilqat ekanligini ta'kidlagan. Ammo, go'zal taqvimda yaratilgan insonda kamol topib, ilohiylik darajasiga yuksalish baxti bilan birga tanazzulga uchrab, hayvoniy darajaga tushib qolish xavfi ham mavjud. Asarda "insoniylik" va "hayvoniylik" sifatleri, belgi va xususiyatlari ochib berilgan.

"Rutbat ul - hayot" asari "Tirik (jonli) kim va tiriklik (hayot) nima?" - deb berilgan savolga Yusuf Hamadoniyning: "Bilginki, basirat va yaqin ahli qoshida tirik - bu tinch - osuda kishidir. Tiriklik esa tinchlik - xotirjamlikdir" [6:10-11], degan javobi bilan boshlanadi. Yusuf Hamadoniy asarda insonlarning bir qismi dunyo, ya'ni moddiy narsalar bilan osuda, tinch va sokindir, ikkinchi qismi esa ilohiy, ma'naviy narsalar bilan xotirjamdir, deb yozadi. Birinchi guruh dunyo moli, bezaklarini jamlash, to'plash bilan yashaydi. Bunday hayot tarzini Yusuf Hamadoniy aldanish, juda qadrsiz va tuban daraja, deb ta'riflaydi. Chunki, bunday odam hayvon, hasharot, qushlar bilan barobardir, ular kabi erta-yu kech qornini to'ydirish g'amidadir.

"Parranda, darranda va hasharotlarni bo'ysundirgan, fahmu aql va omonat yuklatilgan muazzam va mukarram insonning tasalli topish maqomi va martabasining mazkur hayvonlar bilan teng mavqeda bo'lishi naqadar uyat va xunukdir" [6:12], - deya ta'kidlaydi Yusuf Hamadoniy. Darhaqiqat, bunday insonlar hayvonlar kabi yeyish, ichish, juftlashish, maskan va liboslari bilan orom va tasalli topadi. Shuningdek, o'zining insoniy maqomi va darajasini sira o'ylab ko'rmaydi. Holbuki, Alloh insonni hayvonlardan ustun, aziz va butun borliqning gultoji qilib yaratib, jamiki mavjudotni unga bo'ysundirdi. Yusuf Hamadoniy bunday tubanlikka tushgan insonlarga qarata kuyinchaklik bilan murojaat qiladi: "Bu ojiz, bechora va unutulchan inson "Maxluqotni boshqarish va musaxxar qilish (bo'ysundirish) libosini menga nima uchun kiydirdilar?"- deb o'ylamaydimi?". Ilm, zakovat va idrok tojini butun yaratilqlar orasida nima uchun mening boshimga qo'ydilar? Ibadat va bandalik yozuvini nega mening peshonamga yozdilar? Ko'klarda va yerda mening nomimni nima uchun do'stlik va muhabbat bilan mashhur qildilar? Bir yuz mingdan ortiq payg'ambarlik nuqtasi, sayyidlik unsuri va saodat markazini barcha maxluqot orasidan nima uchun faqat meni Haqqa da'vat qilish uchun yubordilar?" [6]. Bu bilan Yusuf Hamadoniy insonni ongli, fahm-farosatli qilib yaratilganligini ta'kidlab, u insoniylik darajasida yashashi lozimligini uqtiradi. Yusuf Hamadoniy hayvoniylik darajasidan yuqoriga chiqqa olmagan kishilarni g'ofil deb ataydi va aksincha, o'zini anglay olgan hamda insoniylik darajasiga yuksalganlarni ogoh va hushyor kishilar deya ta'riflaydi.

Yusuf Hamadoniy "Rutbat ul - hayot" asarida nafs masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U nafsni - "Inson vujudining hammoli va vujud ishlarini bajaruvchi ulov" [6], - deya ta'rif beradi. Yeyish, ichish, kiyinish va oila qurish nafsning istaklaridir. Nafs istaklarini meyorda saqlash, jilovlay olish inson kamoloti uchun juda muhim hisoblanadi. Nafs istaklari haddan oshsa, meyoridan ortsa inson tubanlashib, nafs quliga aylana boradi. Muallif fikricha, inson bu moddiy olamda qisqa muddat yashab o'tuvchi mavjudot emas. Bu olam inson uchun oxiratning ziroatgohidir. YA'ni, inson hayoti davomida qilgan har bir e'zgu va xayrli amallari oxirat uchun zahira bo'lib yig'ilib boradi. Shuning uchun inson o'z nafsini va istaklariga o'z ehtiyoji darajasida hamda meyorda munosabatda bo'lishi lozim. Inson hamisha o'z nafsini jilovlay olishi lozim.

"Rutbat ul - hayot" da Yusuf Hamadoniy g'azabga quyidagicha ta'rif beradi: "G'azab shunday bir illatki, na tadbirkor aql va na buyuruvchi qalb unga bas kelolmaydi. Bu ikkovi g'azab olovining ta'sirida so'nib, bu holdagi kishidan aqlga maqbul bo'lmagan va ko'ngilga o'tirmaydigan ba'zi ishlar yuzaga keladi" [6]. G'azab illati insonning nurini o'chirib, hayvoniy his-tuyg'ular olovida yondiradi. Asarda Yusuf Hamadoniy g'azab illatidan qutulish yo'llarini ko'rsatadi. Inson tinch-xotirjam yashashi uchun g'azab quvvati ustidan g'olib chiqishi kerak. Allomaning fikricha, inson g'azablangan vaqtda o'zini jilovlay olsagina haqiqiy kuchli kishiga aylanadi.

Yusuf Hamadoniy Qur'on oyatlari va hadislar asosida insonlarning turfa xususiyatlarga ega kishilar ekanligining sabablarini izohlashga e'tibor qaratadi. Alloma bunga sabab insonlarning fitratlari turli xil ma'danlar va tuproqlardan yaratilganligidadir, deya izohlaydi. Turfa xildagi odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan amal - bu o'zaro salomlashish ekanligini uqtiradi. Darhaqiqat, "Assalamu alaykum" iborasi "Men sizga tinchlik-xotirjamlik tilayman" degan ma'noni anglatadi. "Salom" degan so'z arabchadan olingan bo'lib, "tinchlik" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z Qur'oni Karimda 40 (qirq) marta uchraydi. Xalqimiz ma'naviy merosida tinchlikning ahamiyatini yoritib beruvchi ta'sirchan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'plab rivoyatlar mavjud. Ularda tinchlik hukm surgan joydagina inson farovon yashashi uchun zarur bo'lgan salomatlik, boylik, baxt va saodatga erishishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Natija. "Rutbat ul-hayot" Yusuf Hamadoniy tasavvufiy qarashlarining eng mukammal ifodasidir. Ushbu asar insonning ruhiy poklanishi, nafsni jilovlash, ma'naviy hayot va tafakkur jarayonlarini chuqur tahlil qiladi. Muallif hayot mazmunini tinchlik-xotirjamlik, ma'naviy poklik va Allohga yaqinlik deb biladi.

Asar nafaqat tasavvufiy g'oyalarning bayoni, balki insonni o'zlikni anglashga, ruhiy yuksalishga da'vat qiluvchi qo'llanma hamdir. Yusuf Hamadoniy nafsni boshqarish, g'azabni jilovlash, haqiqiy ma'naviy hayotga erishish usullarini ko'rsatib, odamzodning ilohiy martabasini tushuntirishga harakat qiladi. Asarda inson hayoti faqat moddiy manfaat bilan cheklanmasligi, balki ruhiy komillikka intilish uning eng asosiy maqsadi bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Xulosa. Yusuf Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot" asarini o'rganish va uning mazmun - mohiyatini yosh avlod ongiga singdirishning ahamiyati kattadir. Chunki, bu asar bir tomondan, insonning o'zligini anglashga yordam bersa, ikkinchi tomondan unga ham jisman, ham qalban, ham ruhan osoyishta, tinch, xotirjam yashash yo'llarini o'rgatadi. Axborot xuruji avj olgan globallashuv sharoitida turli mintaqalardagi notinchliklar, urush olovini yoqish istagidagilar, o'zlarining mash'um niyatlariga erishish yo'lida islom dinini niqob qilib olgan qora kuchlarning vayronkor g'oyalaridan yoshlarimizni himoya qilishda Yusuf Hamadoniyning mazkur asaridagi tinchlikka undovchi bunyodkor g'oyalar dolzarb ahamiyat kasb etaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Katalog biblioteki «Aya Sofiya». Stambul, 1304g.x./1926g., str.373.
2. Navro'zova G. Nurmatova N. Yusuf Hamadoniy - yetti pining tabarruk ustoz / Buxoro: 2016 - 137 b.
3. Riyaxi M. A. Xodja Yusuf Xamadani - «Rutbat ul-xayat» (Stepeni jizni). Ashgabat. Izdatel: Kulturnyy syentr Posolstva IRI v Turkmenistane Syentr kulturnyx i mejdunarodnyx issledovaniy. 2003. S 25.
4. Safiy Faxruddin Ali. "Rashahotu aynil-hayot" (Obi hayot tomchilari). Nashrga tayyorlovchilar: Hasaniy M. Umrzoq B. Toshkent. "Abu Ali Ibn Sino". 2004. 21-bet.

-
5. Tosun Necdet Ceviren. Hayat nedir. (Rutbet ul-hayat). Ahmad Yesevi'nin hocasi Hoja Yusuf-I Hemedani. Istanbul, Insan. 2002. 106 b.
 6. Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezon (Rutbat ul-hayot).-Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2003 y.,10-11 bet.
 7. G'ijduvoni Xoja Abduxoliq. Maqomoti Yusuf Hamadoniy. Vasiyatnoma.
 8. Hasaniy M. Qilicheva K. G'ijduvoni ilm ahllari xotirasida. Toshkent. "Fan". 2003. 12-bet.



UDK:122.129

Baxromjon BAXRIDDINOV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchi
E-mail: BaxriddinovBaxromjon79@gmail.com

PhD O.Ortiqov taqrizi asosida

THE FORMATION OF POLITICAL AND SOCIAL ACTIVISM IN THE INTERNET AND SOCIAL NETWORKS

Annotation

This article analyzes the impact of the internet and social networks on the formation of political and social activism. The internet has expanded citizens' access to information, decision-making, and participation in social movements. Online petitions, hashtag campaigns, and blogging activities play a crucial role in highlighting social issues. However, challenges such as disinformation, fake news, and "virtual activism" also exist. In Uzbekistan, public opinion is increasingly shaped through social media, strengthening the dialogue between the state and society.

Key words: Internet, social networks, political activism, public opinion, disinformation, blogging.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В ИНТЕРНЕТЕ И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация

В данной статье анализируется влияние интернета и социальных сетей на формирование политической и социальной активности. Интернет расширил возможности граждан в получении информации, принятии политических решений и участии в общественных движениях. В частности, онлайн-петиции, хэштег-движения и блогерская деятельность играют важную роль в освещении проблем общества. Однако существуют и такие проблемы, как дезинформация, фейковые новости и "виртуальный активизм". В Узбекистане общественное мнение формируется через социальные сети, что способствует усилению диалога между государством и обществом.

Ключевые слова: Интернет, социальные сети, политическая активность, общественное мнение, дезинформация, блогерство.

INTERNET VA IJTIMOIIY TARMOQLARDA SIYOSIY-IJTIMOIIY FAOLLIKNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy-ijtimoiy faollik shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Internet fuqarolarning axborot olish, siyosiy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy harakatlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ayniqsa, onlayn petisiyalar, hashtag harakatlari va bloggerlik faoliyati jamiyatdagi muammolarni yoritishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, dezinformatsiya, feyk yangiliklar va "virtual faollik" kabi muammolar ham mavjud. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik fikri shakllanib, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot kuchayib bormoqda.

Kalit so'zlar: Internet, ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy faollik, jamoatchilik fikri, dezinformatsiya, bloggerlik.

Kirish. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi siyosiy va ijtimoiy faollik manzarasini tubdan o'zgartirdi, turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida misli ko'rilmagan darajada faollik va safarbarlikni ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni bu haqida shunday degan edi: "...ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba'zan hatto mamlakatning o'zida ham Konstitutsiya va qonunlarga zid pozitsiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo'lmoqda." [1] Bu kabi ijtimoiy barqarorlikka destruktiv ta'sir ko'rsatadigan omillarni bartaraf etishda sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning, izlanish va tahlillarning o'z o'rni bor. Dunyoning turli tadqiqot markazlarida bu masalalar bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda, ma'lum bir ilmiy xulosalar qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Instagram, Telegram, Facebook va Twitter kabi platformalar nafaqat muloqot vositasi, balki fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini va jamoaviy harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan siyosiy munozara maydoni sifatida ham xizmat qilmoqda. Bu ijtimoiy tarmoqlarning mavjud hokimiyat tuzilmalariga an'anaviy siyosiy institutlar bilan birgalikda parallel ravishda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari mavjudligini ifodalab bermoqda. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning faollikdagi rolini tushunish yoshlarning o'ziga xos ehtiyojlari va muammolarini hal qiladigan inklyuziv strategiyalarni ishlab chiqishda, raqamli asrda ularning ovozini kuchaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar siyosiy va ijtimoiy faollikni rivojlantirishning muhim vositalariga aylandi, bu esa foydalanuvchilarga an'anaviy muloqot to'siqlarini yengib

o'tadigan muhokamalarda qatnashish imkonini beradi. Ushbu ijtimoiy tarmoqlarning zudlik bilan xabar tarqatish xususiyati ma'lumotlarni tezkor almashish imkonini beradi, faollarga deyarli bir zumda qo'llab-quvvatlashni safarbar qilish va turli masalalar bo'yicha xabardorlikni oshirish imkonini yaratadi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inqiroz davrida bunday platformalar ishtirok etish xususiyatini belgilashda muhim rol o'ynaydi, bunda siyosiy tanqid va o'zini namoyish qilish alohida ifoda maydonlarini topadi. Bundan tashqari, axborotning demokratlashuvi chetda qolgan ovozlarning jamoatchilik muhokamasida ishtirok etishiga imkon beradi, bu esa ijtimoiy adolatsizliklarga jamoaviy javobni kuchaytiradi. Endilikda ham davlat, ham jamiyat institutlari shu vaqtga qadar eshitilmagan ovozlariga ulq tutishi, ularga munosabat bildirishi lozim bo'ladi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat muloqot mexanizmlarini ta'minlaydi, balki turli xil faol hikoyalarni kuchaytiradi, bu esa zamonaviy siyosiy faollik manzarasini sezilarli darajada shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy munosabatlarning yangi ishtirokchilari xususida so'z yuritib shunday degan edi: "Yana bir muhim masala – ayrim jurnalist va bloggerlarimizda bilim va professional malaka, bahs madaniyati yetishmasligi jamoatchilikni tashvishlantirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu boradagi eng asosiy vazifa – ana shunday kamchiliklarni chuqur o'rganib, ularni bartaraf etish, mavjud miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, ommaviy axborot vositalarining samaradorligini oshirishdan iborat.


Biz bugun huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, jurnalistikaning butun dunyoda e'tirof etilgan,

o'zgaras talab va mezonlariga amal qilishimiz zarur. Bu mezonlarning eng asosiysi – xolislik va haqqoniylikdir. Binobarin, matbuot maydoniga kirgan inson – u jurnalist bo'ladimi, blogger bo'ladimi, bundan qat'i nazar – ana shu qoidalarga amal qilishi shart."

Ijtimoiy tarmoqlarda xeshteglar va virusli kampaniyalarning ko'payishi siyosiy va ijtimoiy faollik manzarasini sezilarli darajada o'zgartirdi. Xeshtegning ijtimoiy-siyosiy faollikni namoyon etishdagi o'rni zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhitida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xeshteglar faqat axborot tarqatish vositasi emas, balki jamiyat fikrini shakllantirish, fuqarolik pozitsiyasini ifoda etish va ommaviy harakatlarni tashkil etishda ham samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Avvalo, xeshteglar ma'lumotni tez va samarali tarqatish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda bir xil xeshteg

orqali yuborilgan postlar birlashib, muayyan mavzularga oid kontentni osonlik bilan topish imkoniyatini yaratadi. Masalan, #BlackLivesMatter yoki #FreePalestine kabi xeshteglar global e'tiborni tortadi va keng jamoatchilikning bu masalalarga nisbatan munosabatini namoyon etadi. Bundan tashqari, xeshteglar hamjihatlikni ta'minlash va turli ijtimoiy guruhlarini birlashtirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu xeshteglar orqali fuqarolar umumiy maqsad va g'oyalar atrofida birlashib, turli aksiyalar, kampaniyalar va raqamli harakatlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, xeshteglar jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular ijtimoiy tarmoqlarda muayyan mavzularni trendga aylantirib, ommaviy fikrni boshqara oladi. Ayrim hollarda esa ular siyosiy qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish darajasiga yetadi.


Tahlil va natijalar.



1.1-rasm. Virusli kontent

Ayrim davlatlarda senzura kuchli bo'lgan sharoitda, xeshteglar aholi ovozini eshittirish, voqealar haqida xolis ma'lumot tarqatishning yagona imkoniga aylanadi. Shu tariqa, xeshteglar senzura qarshi kurashda raqamli faollarning samarali quroliga aylanadi. Umuman olganda, xeshteglar raqamli faollikning ramziga aylangan. Ular orqali "onlayn piket", "aqliy qarshi turish", "virtual marsh" kabi raqamli namoyishlar amalga oshiriladi. Shu sababli, xeshteglar zamonaviy fuqarolik jamiyatidagi siyosiy va ijtimoiy faollikning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu raqamli vositalar nafaqat ma'lumotlarni tez tarqatishni osonlashtiradi, balki umumiy maqsadlarga ega foydalanuvchilar o'rtasida hamjamiyatni faollashtiradi. Masalan,

TikTokning yuksalishi internetdagi mashhurlarning yangi to'liqlini bilan birga paydo bo'ldi, bunda ta'sir o'tkazuvchilar o'z kuzatuvchilariga ta'sir qiladigan strategik kontent orqali faollikni kuchaytiradilar va shu tariqa kampaniyalarda keng ishtirok etishga undaydilar. Shaxslar ushbu harakatlarda ishtirok etar ekan, ular texnologiya va ijtimoiy xatti-harakatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tan oladigan strategik axborot operatsiyalari nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi mumkin bo'lgan hamkorlik dinamikasiga kirishadilar. Binobarin, xeshteglar va virusli kontent nafaqat muloqot vositasi vazifasini bajaradi, balki jamoatchilik fikrini faol shakllantiradi va jamoaviy harakatlarni safarbar etadi, shu orqali jamiyatni tubdan o'zgartirish imkoniyatlarini ilgari suradi.



1.2-rasm. Xeshteg turlari

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda raqamli asrda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy-ijtimoiy faollikning shakllanishi atroflicha tahlil qilingan. Ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy muloqot vositasidan tashqari, jamoaviy fikr bildirish va siyosiy pozitsiyani namoyon etish imkonini beruvchi maydon sifatida shakllana boshladi. Facebook, Twitter, Telegram, Instagram kabi platformalar orqali fuqarolar siyosiy va ijtimoiy masalalarda o'z fikrini erkin ifoda etib, turli harakatlarni tashkillashtirish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Ayniqsa, xeshteglar va virusli kontent raqamli faollikning muhim vositasiga aylanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda va ommaviy safarbarlikda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Onlayn faollik oflayn harakatlar bilan uyg'unlashib, fuqarolarning siyosiy mobilizatsiyasini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim omilga aylanib, siyosiy ong va

ishtirokni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli faollikning samaradorligiga tahdid soluvchi holatlar ham mavjud. Jumladan, noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishi, dezinformatsiya kampaniyalari va "slaktivizm" — ya'ni faqatgina layk yoki post ulashish orqali yuzaki faollik — haqiqiy o'zgarishlarga to'sqinlik qilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar siyosiy faollik va demokratik jarayonlarning ajralmas qismiga aylandi. Ular jamiyatni safarbar qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va hukumat bilan muloqot qilish vositasiga aylangan. Shu bilan birga, noto'g'ri axborotning tarqalishi, qutblanish va raqamli tengsizlik kabi muammolar ushbu jarayonning salbiy tomonlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, raqamli platformalarning siyosiy jarayonlardagi ta'sirini yanada samarali boshqarish va ularning ijobiy imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va mas'uliyat bilan foydalanish, raqamli savodxonlikni oshirish, faollarning emotsional va ruhiy barqarorligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu omillar jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatayotgan internet va ijtimoiy tarmoqlarning yangi imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu

bilan birga, davlat va jamoat institutlari ham fuqarolarning raqamli faolligini inobatga olgan holda, strategik va inklyuziv siyosiy muloqotni yo'lga qo'yishlari zarur. Demak, raqamli faollik faqat axborot almashish vositasi emas, balki demokratik jarayonlarni faollashtiruvchi muhim kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/> - <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/> Мурожаат этилган сана: 22.12.2023 й.
2. Jacobsen, R. A., & Larsson, A. O. (2024). Business as Usual? Assessing Amplified Political Posts Across Social Media Platforms During the COVID-19 Pandemic. *Social Media + Society*, 10(4).
3. <https://president.uz/uz/lists/view/3675> - Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига. Мурожаат этилган сана: 26.06.2020 й.
4. Abidin, C. 2020. Mapping Internet Celebrity on TikTok: Exploring Attention Economies and Visibility Labours. *Cultural Science Journal*, 12(1), pp. 77–103



UDK:378.091.33

Дилноза БЕКМУРАДОВА,

Старший преподаватель кафедры педагогики, психологии и образовательного менеджмента Кашкадарьинского областного центра педагогического мастерства, независимый исследователь

На основании рецензии проф. псих. н., DSc HVVз Арзикулова Д.Н.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье рассматриваются методы развития самостоятельного мышления у дошкольников. Анализируются современные педагогические подходы, направленные на формирование познавательной активности, креативности и критического мышления. Исследуются игровые технологии, проектная деятельность и проблемное обучение как ключевые инструменты развития интеллектуальной самостоятельности ребенка. Представлены результаты эмпирического исследования эффективности различных методик. Выводы подтверждают важность системного подхода в формировании самостоятельного мышления у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Дошкольное образование, самостоятельное мышление, развитие интеллекта, игровая деятельность, креативность, проблемное обучение, проектная деятельность, педагогические методики, когнитивное развитие.

METHODS OF DEVELOPMENT OF INDEPENDENT THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article deals with the methods of development of independent thinking in preschool children. Modern pedagogical approaches aimed at the formation of cognitive activity, creativity and critical thinking are analyzed. Game technologies, project activities and problem-based learning as key tools for the development of intellectual independence of the child are investigated. The results of the empirical study of the effectiveness of various methods are presented. The conclusions confirm the importance of the system approach in the formation of independent thinking in preschool children.

Key words: Preschool education, independent thinking, intellectual development, play activities, creativity, problem-based learning, project activities, pedagogical methods, cognitive development.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari muhokama qilinadi. Kognitiv faoliyat, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. O'yin texnologiyalari, loyiha faoliyati va muammoli ta'lim bolaning intellektual mustaqilligini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida o'rganilmoqda. Turli usullarning samaradorligini empirik o'rganish natijalari keltirilgan. Xulosalar maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda tizimli yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, mustaqil fikrlash, aqlni rivojlantirish, o'yin faoliyati, ijodkorlik, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, pedagogik usullar, kognitiv rivojlanish.

Введение. Современная система образования ставит перед собой задачу формирования у ребенка не только базовых знаний, но и способности к самостоятельному мышлению. Дошкольный возраст является критическим периодом для развития познавательной активности, так как именно в этот период происходит активное формирование когнитивных процессов, креативности и умения анализировать окружающую информацию.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью внедрения эффективных педагогических методик, способствующих формированию самостоятельного мышления у дошкольников. Развитие интеллектуальной самостоятельности на ранних этапах обучения позволяет в дальнейшем сформировать у ребенка способность к самообразованию, анализу информации и критическому мышлению.

Цель исследования – определить наиболее эффективные методы и технологии, способствующие развитию самостоятельного мышления у детей дошкольного возраста.

Задачи исследования: Анализ существующих подходов к развитию мышления у дошкольников.

Определение ключевых факторов, влияющих на формирование интеллектуальной самостоятельности.

Разработка и апробация методов, направленных на развитие самостоятельного мышления.

Оценка эффективности предложенных методик.

Гипотеза исследования: использование игровых технологий, проблемного обучения и проектной деятельности способствует более эффективному развитию самостоятельного мышления у дошкольников по сравнению с традиционными педагогическими подходами.

Обзор литературы. Развитие самостоятельного мышления у дошкольников активно исследуется в современной педагогической науке. В трудах Л.С. Выготского подчеркивается роль социальной среды и совместной деятельности в формировании мышления ребенка [1]. Ж. Пиаже рассматривал когнитивное развитие как поэтапный процесс, который можно стимулировать путем создания развивающей среды [2]. Б. Блум в своей таксономии образовательных целей выделял когнитивные уровни, достижение которых способствует развитию аналитического и критического мышления [3].

Современные исследования, такие как работы Д.Б. Эльконина, подтверждают значимость сюжетно-ролевых игр в формировании самостоятельности мышления [4]. В исследованиях Н.Н. Поддьякова указывается на важность эксперимента и наблюдения в раннем возрасте для становления умения самостоятельно делать выводы [5]. С другой стороны, К. Роджерс акцентировал внимание на необходимости создания эмоционально-комфортной среды для стимуляции познавательной активности ребенка [6].

Кроме того, современные когнитивные теории, такие как конструтивизм, предполагают, что дети лучше

усваивают знания, когда они активно взаимодействуют с материалом, а не просто пассивно воспринимают информацию. Это делает актуальными подходы, основанные на использовании исследовательской и проблемной деятельности в образовательном процессе дошкольников.

Современные исследования подтверждают эффективность игровых методов в развитии интеллектуальной активности дошкольников. В работах А.М. Матюшкина подчеркивается значение проблемного обучения, способствующего развитию самостоятельности и поисковой активности [7]. Л.А. Венгер выделяет значимость творческих игр в формировании креативного мышления [8].

Отличие данного исследования от предыдущих заключается в комплексном подходе: рассматриваются игровые технологии, проектная деятельность и проблемное обучение как взаимодополняющие методы формирования самостоятельного мышления.

Методология. В исследовании использовались качественные и количественные методы. В качестве основного метода была выбрана экспериментальная педагогическая диагностика. Исследование проводилось в двух дошкольных учреждениях с участием 60 детей в возрасте 4–6 лет.

Методы исследования:

Наблюдение за игровой и познавательной активностью детей.

Анкетирование педагогов и родителей.

Проведение серии обучающих занятий с использованием игровых и проблемных методов.

Анализ динамики развития самостоятельного мышления по специально разработанным критериям.

Для обеспечения воспроизводимости исследования использовались стандартизированные методики оценки познавательной активности и креативного мышления.

Экспериментальная установка: Эксперимент проводился в течение шести месяцев и включал три этапа:

Методика	Повышение познавательной активности	Повышение креативности	Развитие критического мышления
Игровые технологии	35%	40%	30%
Проектная деятельность	30%	35%	28%
Проблемное обучение	32%	37%	29%

Обсуждение. Результаты исследования подтверждают гипотезу о значимости активных методов обучения в развитии самостоятельного мышления. Полученные данные коррелируют с выводами предыдущих исследований, однако в данном исследовании особое внимание уделяется комплексному подходу, сочетающему несколько методик.

Основным ограничением исследования является его относительно небольшой масштаб. В дальнейшем планируется расширение выборки и проведение лонгитюдных исследований.

Заключение. Развитие самостоятельного мышления у дошкольников является ключевой задачей современной педагогики. Исследование подтвердило эффективность игровых технологий, проблемного обучения и проектной деятельности в формировании интеллектуальной самостоятельности ребенка.

Основной вывод работы заключается в том, что системный подход к развитию познавательной активности через специально организованные игровые и образовательные мероприятия приводит к значительному повышению уровня самостоятельного мышления у дошкольников. Выявлено, что дети, участвовавшие в экспериментальной программе, проявляют более высокую

Диагностический этап – предварительная оценка уровня самостоятельного мышления детей с использованием тестов когнитивного развития.

Педагогическое воздействие – проведение занятий по специально разработанной программе, включающей игровые технологии, элементы проблемного обучения и проектную деятельность.

Контрольный этап – повторная диагностика уровня самостоятельного мышления детей и анализ динамики их развития.

Выборка данных: Выборка исследования включала 60 детей, разделенных на две группы: экспериментальную (30 детей) и контрольную (30 детей). В контрольной группе использовались традиционные методы обучения, а в экспериментальной применялись игровые технологии, проектные задания и проблемное обучение.

Методы анализа данных: Собранные данные анализировались с использованием статистических методов, таких как t-критерий Стьюдента и коэффициент корреляции Пирсона, для выявления значимости изменений в уровнях развития самостоятельного мышления.

Ограничения исследования: Исследование проводилось в рамках двух дошкольных учреждений, что может ограничивать генерализацию результатов на более широкую выборку. В дальнейшем планируется расширение масштаба исследования и включение дополнительных параметров когнитивного развития детей. В качестве основного метода была выбрана экспериментальная педагогическая диагностика. Исследование проводилось в двух дошкольных учреждениях с участием 60 детей в возрасте 4–6 лет.

Результаты. Исследование показало, что применение игровых технологий, проектной деятельности и проблемного обучения приводит к значительному увеличению показателей самостоятельного мышления у дошкольников. В группе, где использовались активные методы, отмечался рост познавательной активности на 35%, креативности – на 40%, критического мышления – на 30%.

степень инициативности, гибкости мышления и способности к решению нестандартных задач.

Кроме того, результаты исследования показали, что игровые методы обучения способствуют не только когнитивному, но и социально-эмоциональному развитию детей, что делает их универсальными инструментами воспитания. Проблемное обучение формирует у детей навыки самостоятельного поиска решений, а проектная деятельность учит планировать свою деятельность и анализировать полученные результаты.

Практическое значение работы заключается в возможности применения разработанных методик в образовательных учреждениях, ориентированных на развитие самостоятельного мышления у детей. Дальнейшие исследования могут быть направлены на углубленный анализ влияния различных факторов на развитие когнитивных процессов у дошкольников, а также на разработку персонализированных программ обучения, учитывающих индивидуальные особенности детей. Исследование подтвердило эффективность игровых технологий, проблемного обучения и проектной деятельности в формировании интеллектуальной самостоятельности ребенка. Перспективным направлением дальнейших исследований является разработка индивидуальных программ развития мышления с учетом когнитивных особенностей детей.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выготский Л.С. (1986). Мышление и речь. Москва: Педагогика.
2. Пиаже Ж. (1997). Психология интеллекта. Санкт-Петербург: Питер.
3. Блум Б.С. (1956). Таксономия образовательных целей. Нью-Йорк: Дэвид МакКей Компани.
4. Эльконин Д.Б. (1995). Психология игры. Москва: Педагогика.
5. Подъяков Н.Н. (2006). Исследовательское поведение и мышление детей. Москва: Институт психологии РАН.
6. Роджерс К. (1983). Свобода учиться. Москва: Прогресс.

7. Матюшкин А.М. (2003). Проблемное обучение: теория, методы, технологии. Москва: Академия.
8. Венгер Л.А. (1988). Психологические основы игры. Москва: Педагогика.
9. Смирнова Е.О. (2014). Развитие познавательной активности у дошкольников. Москва: Детство-Пресс.
10. Брунер Дж. (1977). Психология познания. Москва: Прогресс.



UDK:159.9

Mavjuda BURXANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: burxanovamavjuda@gmail.com

O'zMU professori, psixologiya fanlari doktori D.Muxamedova taqrizi asosida

OPINIONS OF FOREIGN RESEARCHERS ON PARENT-CHILD RELATIONSHIPS

Annotation

This article analyzes interpersonal relationships between parents and children based on foreign psychological theories, concepts, and studies. It examines communication, affective connections, emotional interactions, and socio-psychological aspects arising in the family environment through the perspectives of foreign scholars. The article discusses the formation, development, and influencing factors of parent-child relationships based on advanced scientific approaches. The research is grounded in the works of Kolominsky, Bodalev, Lomov, Myasishchev, Andreeva, Petrovsky, and others, highlighting components of communication, interpersonal closeness, sympathy, and antipathy. The findings are of practical significance in the context of family education, the socio-psychological environment, and pedagogical strategies.

Key words: Parents and children, interpersonal relationships, psychological approach, communication, sympathy, antipathy, emotional connection, family education, psychological theory, social psychology.

МНЕНИЯ ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ О ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ

Аннотация

В данной статье межличностные отношения между родителями и детьми рассматриваются на основе зарубежных психологических теорий, концепций и исследований. Через призму взглядов иностранных учёных анализируются коммуникация, аффективные связи, эмоциональное взаимодействие и социально-психологические аспекты, возникающие в семейной среде. Также освещаются формирование, развитие и факторы, влияющие на отношения между родителями и детьми с позиции современных научных подходов. В статье опираются на исследования таких учёных, как Коломинский, Бодалев, Ломов, Мясисhev, Андреева, Петровский, раскрываются компоненты общения, межличностная близость, симпатия и антипатия. Результаты исследования имеют практическое значение с точки зрения семейного воспитания, социально-психологической среды и педагогического подхода.

Ключевые слова: Родители и дети, межличностные отношения, психологический подход, общение, симпатия, антипатия, эмоциональная связь, семейное воспитание, психологическая теория, социальная психология.

CHET EL TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN OTA-ONA VA FARZANDLAR MUNOSABATI HAQIDAGI FIKRLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar xorijiy psixologik nazariyalar, kontsepsiya va tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Chet el olimlarining qarashlari orqali oilaviy muhitda yuzaga keladigan muloqot, affektiv aloqalar, emotsional o'zaro ta'sir va ijtimoiy-psixologik jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va bu munosabatlarga ta'sir etuvchi omillar haqida ilg'or ilmiy yondashuvlar asosida fikr yuritiladi. Maqolada Kolominskiy, Bodalev, Lomov, Myasishev, Andreeva, Petrovskiy kabi olimlarning izlanishlariga tayanilgan holda muloqotning komponentlari, shaxslararo yaqinlik, simpatiya va antipatiya kabi munosabat turlari keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy tarbiya, ijtimoiy psixologik muhit va pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Ota-ona va farzandlar, shaxslararo munosabat, psixologik yondashuv, muloqot, simpatiya, antipatiya, emotsional aloqa, oilaviy tarbiya, psixologik nazariya, ijtimoiy psixologiya.

Kirish. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar shaxs rivojida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu munosabatlar orqali bola ijtimoiy qoidalarga moslashadi, muloqot ko'nikmalari shakllanadi va ruhiy barqarorlikni egallaydi. Psixologlar fikricha, sog'lom oilaviy muhit bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim asos yaratadi. Chet el tadqiqotchilari bu munosabatlarni turli psixologik nazariyalar, ijtimoiy-psixologik yondashuvlar orqali tahlil qilgan. Ushbu maqola ana shunday xorijiy ilmiy qarashlar asosida ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro aloqalarning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

Oilani o'rganishga juda ko'p fanlar e'tibor berib kelmoqda. Bular tarix, falsafa, sotsiologiya, pedagogika, meditsina, huquqshunoslik va psixologiya kabi fanlar doirasida oila va unga bog'liq turli masalalar ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Fan doirasida o'rganishda har bir fan o'z predmet nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda oilaviy masala va muammolarni o'rganish va samarali yechim topish bo'yicha turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, oilani psixologik jarayon sifatida psixologiya fanlari doirasida ham o'rganilib kelinmoqda. Psixologlar oiladagi ko'plab yuz beradigan turli jarayon va

vaziyatlarni psixologik jihatlarini o'rganish davomida psixologiya fani uchun zarur bo'lgan ko'plab amaliy natijalarni qo'lga kiritishlari bilan birga turli nazariyalar, ilmiy konsepsiyalar, psixologik metodikalarni yaratish kabi ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Amaliy psixologlar tomonidan amalga oshirilgan psixologik xizmatlar tufayli, oiladagi shart-sharoitlar o'rganilib, o'rganish davomida oilani bir butun holda shakllanishini, mustahkam oila sifatida jamiyatda va uning hayotida muhim o'rin egallashiga ko'maklashib kelinmoqda [1].

Oilada ota-ona va farzandlar munosabatini o'rganish ijtimoiy psixologiya fanining eng dolzarb, o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki inson shaxsining yetakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muomala va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida o'xshashlik, umumiylik, uyg'unlik kabi sifatning paydo bo'lishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ota-ona va farzandlar munosabati masalasini tadqiq etish borasida izlanishlar psixologiya fanida yetarlicha o'ringa ega, shunday bo'lsada, bu borada izlanishlarning maxsus yo'nalishlar bo'yicha tadqiq etish albatta, davom etaveradi. Chunki psixolog V.N.Myasishev

munosabatning eng asosiy tushunchasi sifatida muomalani e'tirof etib, psixologiyaning asosiy kategoriyasi va shaxs shakllanishini ta'minlovchi asosiy omil deb qaragan edi.

Rus psixologi N.N.Obozov o'zining izlanishlarida muomalani o'rganishga katta ahamiyat berdi, uning tadqiqotlarida insonlar o'rtasidagi muomalaning o'ziga xos qonuniyatlari yoritib berildi. Uning ilgari surgan g'oyalarida asosan shaxslararo munosabatda sheriklarni bir - birini yoqtirishi va bir-biridan qochishi, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik ko'rsatish jihatlari yoritildi[2].

Shuni aytish mumkinki, N.N.Obozov shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatni rasmiy va norasmiy tarzda ko'rinish olishini qayd etadi. Uning fikricha, "rasmiy tarzidagi munosabatlar jamiyat miqyosida rasmiylashtirilib, nazorat qilish mumkin. Norasmiy munosabatlar esa jamiyat miqyosida ham bo'lishi bilan bir qatorda ular rasmiylashtirilmaydi yoki hujjatlarda qayd etilmaydi" [3].

Psixologlarning muomala, munosabat borasidagi tadqiqotlarida bir qator o'ziga xosliklarni kuzatish imkoniyatini ko'rishimiz mumkin (Kolominskiy Ya.L., Bodolyov A.A., Lomov B.F.). Ularning tadqiqotlarida odamlar orasidagi munosabatni uch jihatdan yoritib beriladi. Masalan, Ya.L.Kolominskiy [4] shaxslararo munosabat uch komponentga: xulqiy, affektiv, kognitivga; A.A.Badalyov[5] ham uchta praktik, affektiv va gnostikga; B.F.Lomov ularning an'anasini davom ettirib uchlikka asoslanadi hamda regulativ, affektiv va informativga ajratadi. Odamlar orasidagi munosabatni bunday komponentga ajratishlarining o'ziga xos tomoni ularni ushbu masalaga o'zlaricha yondoshganliklarida ko'rinadi.

Ya.L.Kolominskiy odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini tavsiflab berar ekan, "shaxslararo munosabat muloqot jarayonida paydo bo'ladi va unda rivojlanadi. Muloqot axborot va predmetli munosabat bo'lib, bu jarayonda shaxslararo munosabat shakllanadi va namoyon bo'ladi," - deydi[6].

V.N.Myasishevning ta'rifi esa oldingi ta'rifga nisbatan to'laqonliroq bo'lib, quyidagi mazmunda aks etadi, ya'ni "muloqot nafaqat axborotli va predmetli, balki u muomalada emotsional aloqa o'rnatiladi va undan ehtiyoj qondiriladi, bu esa emotsional holatlarda almashinuv bo'lishini kuzatishga olib keladi, - deydi." [7]. Bu fikrda ham o'ziga yarasha jon bo'lib odamlar o'rtasida bo'ladigan har qanday muomala o'ziga yarasha emotsional jarayonlarni yaratib beradi. Muloqot orqali insonlar ma'lum bir masalani hal qiladilar va shunga yarasha muomalaning xarakteri ham ko'zga tashlanadi.

Rus psixologi G.M.Andreeva fikriga ko'ra "Insonning dunyo bilan ushbu munosabatlarining mazmuni va darajasi juda farq qiladi: har bir shaxs munosabatlarga kiradi, lekin butun guruhlar ham bir-biri bilan munosabatlarga kirishadi va shuning uchun inson ko'p va xilma-xil munosabatlarning subyekti hisoblanadi"[8]. G.M.Andreevaning ushbu fikrlari orqali shaxslararo munosabatda muloqot madaniyati o'z-o'zidan aniq namoyon bo'lishi o'ziga xos xususiyatlari va mexanizmlariga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Yana shuningdek, munosabat muammosini tadqiq etishda turli mualliflar har xil aspektlardan muammoni o'rganishga qo'l urganliklarini ta'kidlash mumkin (V.F.Rubaxin., A.V.Filippov., A.A. Ershov., R.A. Maksimov., A.A. Rusalinov.).

Tadqiqot metodologiyasi. Shuningdek, muomala muammosini tadqiq etishda munosabatning umumiy psixologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlariga tayanishimiz mumkinligi tufayli ham uning ayrim xarakterli tomoni, xususan, o'zaro hamkorlik munosabati, bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro hurmat, simpatiya, o'zaro itilish, antipatiya, empatiya, do'stlik hamda yaqinlik alomatlarini xususida ham olib borilgan izlanishlarga to'xtalib o'tishimiz mumkin.

Masalan, A.V.Petrovskiy bilan V.V. Shpalinskiylar "Do'stlik, o'rtoqlik munosabatlarini ijtimoiy - psixologik jihatdan o'rganishga qo'l urib, o'rtoqlik shaxslararo munosabatlari o'zining eng yuqori darajasiga jamoada o'sib o'tish mumkin, chunki guruhliy faoliyatlar muloqotning shaxslik mohiyati va ijtimoiy qiymatini shartlovchisi hisoblanadi", degan xulosani berganlar.

Bizningcha, muloqot keng maydondagi hodisalarni o'zida birlashtirib, uch komponentli o'zaro ta'sirlashuvni, ya'ni,

odamlarni bir-birini idrok etishi va tushunishini, shaxslararo jozibadorlik (jalb etish va simpatiya), hamda o'zaro ta'sirlashuv va xulq-atvorni (xususiy, rolli) tavsiflaydi.

Tahlil va natijalar. Bolalarni yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri mashg'ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog'cha sharoitida tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga o'rgatadi. Avval elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullarni tarkib toptiriladi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxsga ijtimoiy - psixologik treninglar tashkil qilish orqali muloqotga o'rgatiladi. Shaxsning o'zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki shaxs muloqotda, munosabatda bo'lmasdan faoliyat subyekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to'laqonli rivojlana olmaydi. Tajribali psixolog A.A.Bodalev fikricha, hatto o'yin faoliyatida bola muloqotda bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosida muloqotga o'rgatish masalasi birinchi o'rinda turadi. Qolaversa mehnat ta'limi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonni dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi. Ya'ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi.

Shuningdek, xorij tadqiqotchilaridan P.Sleyter sheriklar muloqotga kirishar ekan, ular bir-birini idrok etishi va tushunishini tadqiq etar ekan, "ish va intim emotsional munosabatlar bir-biridan ahamiyatli tarzda farq qiladi" deb fikr bildiradi. P.Sleyter tadqiqotlarida shaxslararo munosabatdagi nomutanosobliklarni o'rganishga harakat qildi va bir nechta aniqliklarni keltirishga erishdi.

Birinchiidan, munosabat to'liq shaxssiz bo'lmasligi haqida so'z borishi mumkin emas, har qanday o'zaro ta'sirlashuvda shaxslik komponenti ishtirok etadi. Ammo bu komponent ko'p yoki oz tarzda gavdalanishi mumkin.

Ikkinchiidan, shaxslararo munosabatning yaqinlik darajasini aniqlash lozim, bir ishda qarindoshchilik munosabatlari, boshqa birida-do'stlik munosabatlari va uchinchisida er-xotinlik munosabatlari kuzatiladi. Bu shaxslararo munosabatni qo'pol differentsiatsiya qilishdir. Chunki ularning ichida miqdoriy emas, sifat farqlar ham bo'lishi mumkin.

Uchinchiidan, birgalikda masalani hal etishning muhimligini bilish zarur ekanligi ko'rsatiladi.

Shaxslararo munosabat tizimida oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo'lib, o'z ichiga er-xotin o'rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir.

Olimlar ontogenetik taraqqiyot davrida yaxshi ona bo'lishga sabab bo'luvchi qator omillar qatorida "qiz bolaning o'z onasi bilan yoshligidan boshidan kechirgan muloqot tajribasini, oilasida onaga va onalikka munosabat xususiyatlarini, o'z oilasida kichkina bolalar bilan muloqot tajribasi borligini inobatga oladilar deb ta'kidlaydi G.G.Filippova". Bu jarayonda qizchaning ona tomonidan qanday tarbiyalanganligidan tashqari, muayyan madaniy manbalar bilan tanishligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, onasidan qanday ertaklar eshitgani yoki qanday o'yinchoqlar o'ynagani bevosita uning kelajakda qanday ona bo'lishiga ta'sir etadi.

Oilaviy tarbiyaning muhim sharti bu ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi o'ziga xos yondashishlar hisoblanadi. Bunday oilaviy o'zaro munosabatlarni yettita yondashishini V.I.Andreev ko'rsatib beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

Birgalikdagi ijod - o'zaro munosabatlarning ideal varianti, bunda ahamiyatga ega bo'lgan oilaviy masalalarini o'zaro muhokama qilib, birgalikda ijodiy hal qilish nazarda tutiladi.

Hamkorlik - bunday o'zaro munosabatga o'zaro yordam va o'zaro bir-birini qo'llash kiradi.

Teng huquqlilik - ya'ni oilaning hamma a'zolarini manfaatlariga mos bo'lgan tenglik.

Bog'liq bo'lmagan o'zaro munosabat – bunda oilaning har bir a'zosi boshqasiga bog'liq bo'lmagan holda, ularni hurmat qilgan holda sodir etadigan xatti – harakat.

Raqobat – bunda oilaning boshqa a'zolariga nisbatan imkoniyatlarni ko'proq bo'lishiga intilish.

Konfliktli - oilaviy munosabatlardagi har qanday qabul qilingan qaror ziddiyatlarga olib keladi.

Avtoritar – bu ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda ota-onani bola irodasini o'ziga bo'sundirishga qaratilgan o'zaro munosabat.

Xulosa va takliflar. Bu yuqorida ko'rsatilgan tasnif boshqa olimlar tomonidan ham ta'riflab berilgan. Haqiqatdan ham ota-ona va bolalar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabat o'ziga xos holda har bir oilada qaytarilmas jarayon sifatida yuz beradi.

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi juda sermashaqqat ish bo'lib, ayniqsa, o'smirlik davri tarbiyasi o'ziga xos xususiyatga ega. “Bola bilan muloqat qilish san'atidan-da murakkab san'at yo'qdir”, deb yozgan mashhur polshalik pediatri va pedagog

Yanush Korchak. Bolalar bilan ota-onaning, umuman, kattalarning muloqati va munosabati, ayniqsa, bolalar o'smir yoshiga yetganda o'ta murakkablashadi, muloqotning nozik qirralari ko'payadi. Pedagoglar va psixologlar, sotsiologlar va fiziologlar, psixiaterlar va huquqshunoslar barcha bir ovozdan o'smirlik davri inson hayotidagi murakkab va inqirozli davr ekanini tan oladilar. Mazkur davrni shaxs shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri deb hisoblaydilar.

Yana shaxslararo munosabatda sheriklarning bir-biriga yaqinlashishiga intilishi yoki bir-birini itarishi borasidagi Xayder va Nyukomning izlanishlari diqqatga loyiq. Ularning izlanishlari munosabatdagi sheriklarning bir-biriga munosabatlarida ijobiy (simpatiya) va salbiy (antipatiya) kuzatiladi. T.M.Nyukom Xayderning nazariyasiga aniqlik kiritib, idrok etish mo'ljali yoki munosabat konsepsiyasi olib kirdi. Nyukom o'zining modelida beshta o'lchamdan foydalandi: simpatiya, idrok etiladigan simpatiya, ushbu shaxsni attityudi (obyektga munosabati), boshqalarni idrok etish, o'zga kishining attityudini idrok etish.

ADABIYOTLAR

1. Бондаренко А. Психологическая помощь: теория и практика, - М.: Независимая фирма «Класс». 2001. - 336 с.
2. Обозов Н.Н. Межличностные отношения. Л. 1979. С-36.
3. Обозов Н.Н. Межличностные отношения. Л. 1979. С-37.
4. Коломинский Я.Л. Психология взаимоотношений в малых группах. Минск 1976, С-17.
5. G'oziev E. G'. Sotsial psixologiya. Darslik. T.2012 y.
6. Коломинский Я.Л. Психология взаимоотношений в малых группах. Минск 1976, С-17.
7. Мясишев В.Н. .Социальная психология личности.М. 1979.стр- 13.
8. Андреева Г.М. Социальная психология. 5-э изд., испр. и доп. М.: Аспект Пресс, 2016. С-42.



UDK: 297(09)

Odiljon G'ULOMJONOV,
Andijon davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: gulomjonovandu@gmail.com

Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD I.Abdumalikov taqrizi asosida

DEZINFORMATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Аннотация

Globalashuv jarayonlarining jadallashishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy makoniga misli ko'rilmagan o'zgarishlarni olib kirdi. Bu jarayon, bir tomondan, axborot almashinuvini tezlashtirgan va insonlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirgan bo'lsa, boshqa tomondan, dezinformatsiyaning keng tarqalishiga zamin yaratdi. Dezinformatsiya – ataylab noto'g'ri yoki manipulyativ axborot tarqatish jarayoni bo'lib, maqolada uning mazmun - mohiyatini yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Dezinformatsiya, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy ong, ommaviy axborot vositalari.

ПОНЯТИЕ ДЕЗИНФОРМАЦИИ И ЕЕ СУЩНОСТЬ

Аннотация

Ускорение процессов глобализации и развитие средств цифровой коммуникации внесли небывалые изменения в социокультурное пространство современного общества. Этот процесс, с одной стороны, ускорил обмен информацией и облегчил общение между людьми, а с другой-подготовил почву для широкого распространения дезинформации. Дезинформация - это процесс преднамеренного распространения дезинформации или манипулятивной информации, в статье делается попытка осветить ее содержание.

Ключевые слова: Дезинформация, семейные отношения, общественное сознание, СМИ.

THE CONCEPT OF DISINFORMATION AND ITS ESSENCE

Annotation

The acceleration of globalization processes and the development of digital means of communication brought unprecedented changes to the socio-cultural space of modern society. This process, on the one hand, accelerated the exchange of information and facilitated communication between people, on the other hand, laid the groundwork for the widespread spread of disinformation. Disinformation is a process of deliberately misleading or manipulative information dissemination, and the article attempts to shed light on its content.

Key words: Disinformation, family relationships, social awareness, media.

Kirish. Dezinformatsiya zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida inson hayotining turli jabhalariga, jumladan, oilaviy munosabatlarga jiddiy ta'sir o'tkazuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu fenomen o'z mohiyatiga ko'ra, ataylab buzib ko'rsatilgan yoki noto'g'ri talqin qilingan axborotning tarqatilishi orqali ijtimoiy barqarorlikka va shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Dezinformatsiya, odatda, noto'g'ri yoki manipulyatsiya qilingan ma'lumotlarni tarqatish, kontekstdan ajratib ko'rsatish, haqiqatni buzib talqin qilish va psixologik ta'sir vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi shaxslarning ijtimoiy ongini shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatish va ular tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning obyektivligini susaytirishdir.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy ong-bu jamiyatda ustuvor bo'lgan qadriyatlar, dunyoqarashlar va tafakkur shakllarining yig'indisi bo'lib, uni boshqarish va shakllantirishda axborot hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dezinformatsiya, ayniqsa ijtimoiy muammolar-oila, gender tengsizligi, ajralishlar-borasidagi yolg'on axborotlar orqali ijtimoiy ongda noto'g'ri stereotiplar va ijtimoiy illatlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Karimov H.K. va Ruzikulov F.R. tadqiqotlari asosida, o'zbek oilalaridagi er-xotin nizolari va ajralish holatlari faqat psixologik emas, balki kuchli axborot manipulyatsiyasi omillari bilan ham uzviy bog'liq. Masalan, Ruzikulov F.R. ajralishning asosiy sabablari orasida noto'g'ri ijtimoiy tasavvurlar, jamoatchilik fikrining bosimi va ommaviy axborot vositalari orqali shakllangan idealizatsiyalangan gender rolklarini keltirib o'tadi. Bu esa bevosita dezinformatsiya shakllaridan biridir — ya'ni, oilaviy hayotga oid noto'g'ri axborotlar orqali ijtimoiy reallikni soxtalashtirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Dezinformatsiya-ataylab noto'g'ri yoki manipulyativ axborot tarqatish jarayoni bo'lib, u

shaxsiy, ijtimoiy hamda siyosiy ongni boshqarish vositasiga aylangan. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar sohasida dezinformatsiyaning ta'siri chuqur tahlil etilishi lozim bo'lgan dolzarb ilmiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda.

Oilaviy institut jamiyat barqarorligining asosi bo'lib, uning ichki ijtimoiy-madaniy tizimi dezinformatsiyaning ta'siri ostida shakllanishi yoki o'zgarishi mumkin. Axborot xurujlari, noto'g'ri talqinlar va yolg'on xabarlar oilaviy qadriyatlar eroziyasi, ishonchning susayishi va ijtimoiy barqarorlikning buzilishiga olib kelishi ehtimoli yuqori. Shu sababli, dezinformatsiyaning mohiyatini falsafiy-axborot nazariyalari asosida tahlil qilish, uning raqamli kommunikatsiyalar muhitida tarqalish mexanizmlarini aniqlash va oilaviy munosabatlarga bo'lgan ta'sirini kompleks yondashuv asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot doirasida dezinformatsiyaning falsafiy, kommunikativ va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinib, uning oilaviy ijtimoiylik hamda jamiyat barqarorligiga ta'sir o'tkazish mexanizmlari o'rganiladi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiyalar vositalari orqali noto'g'ri axborotning tarqalish usullari va shakllari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy ijtimoiylik doirasida dezinformatsiyaning jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va madaniy merosga ta'siri baholanib, uni oldini olishga qaratilgan strategik yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Falsafiy pozitsiyadan olganda, dezinformatsiya inson erkinligi va ongii avtonomiyasiga qarshi yo'naltirilgan bo'lib, u jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ierarxiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Axborotning ijtimoiy seleksiyasi orqali, dezinformatsiya muayyan gender rollarini, ijtimoiy normalarni va patriarxal tuzumni "tabiiy" sifatida ilgari suradi. Bu esa Karimov H.K. ta'kidlaganidek, o'zbek oilalaridagi er-xotin nizolarining psixologik sabablariga emas, balki ularning ijtimoiy

konstruksiyasiga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Dezinformatsiya bugungi kunda nafaqat siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka, balki oilaviy munosabatlarning barqarorligiga ham jiddiy xavf tug'diruvchi omil hisoblanadi. Uning oldini olish va zararli ta'sirini minimallashtirish uchun oilaviy darajada axborot madaniyatini rivojlantirish, ishonchli manbalardan foydalanish va tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jamiyatda ommaviy axborot vositalari orqali dezinformatsiyaga qarshi kurashish choralari amalga oshirish ushbu fenomenning ta'sir doirasini qisqartirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Axborot va uning tarqalish jarayonlari zamonaviy falsafaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Dezinformatsiya, ya'ni ataylab noto'g'ri yoki chalg'ituvchi axborotni tarqatish, axborotning sotsial-falsafiy jihatlarida markaziy o'rin tutib, jamiyatda bilimlarni shakllantirish, ongni boshqarish va mafkuraviy ustunlikka erishish vositasi sifatida tadqiq etiladi. Ushbu maqolada dezinformatsiyaning falsafiy-axborot nazariyalari doirasidagi konseptual talqinlari tahlil qilinadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, dezinformatsiya ontologik va epistemologik muammolar bilan bog'liq. Ontologik jihatdan, u axborotning obyektiv reallik bilan bog'liq bo'lmagan modifikatsiyasini anglatadi, ya'ni voqelikdan chetlashgan, manipulyativ mazmunga ega bo'lgan axborot shaklidir. Epistemologik jihatdan esa, dezinformatsiya bilish jarayonida subyektning reallikni noto'g'ri idrok etishiga sabab bo'luvchi faktor sifatida namoyon bo'ladi.

Dezinformatsiyaning asosiy xavfi shundaki, u insonning o'z holatini tanqidiy anglash qobiliyatini pasaytiradi. Bu esa ijtimoiy ongni passiv, buyruqbozlikka moyil holatga olib keladi, ijtimoiy o'zgarishlar uchun zarur bo'lgan "ongiy uyg'onish"ni to'xtatadi.

Oilaviy munosabatlar o'zaro ishonch, muloqot va tushunishga asoslangan bo'lib, dezinformatsiyaning tarqalishi ushbu fundamental qadriyatlarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, turmush o'rtoqlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi axborot almashinuvida noto'g'ri yoki ataylab buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi ishonchsizlik, tushunmovchilik va mojarolarni keltirib chiqarishi ehtimoli yuqori. Dezinformatsiyaning ta'sir mexanizmlari ko'p qirrali bo'lib, ular, birinchi navbatda, shaxslararo ishonchning zaiflashishi, noto'g'ri talqinlar natijasida yuzaga keluvchi mojarolar, bolalar va o'smirlarning axborot manipulyatsiyasiga uchrashi hamda oilaviy axborot muhitining buzilishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Shaxslararo ishonchsizlikning ortishi dezinformatsiyaning eng asosiy ta'sirlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon turmush o'rtoqlarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, muhim qarorlar qabul qilishda noaniqlik va ehtiyotkorlikning oshishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, noto'g'ri axborot natijasida oilada turli kelishmovchiliklar kelib chiqib, ularning davomiyligi va miqyosi ortib borishi kuzatiladi. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan tasdiqlanmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar oilaviy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatib, insonlar o'rtasidagi ishonchni buzishi mumkin. Bundan tashqari, dezinformatsiya bolalar va o'smirlarning axborot qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir o'tkazib, ularning dunyoqarashi va tarbiyasiga salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi ehtimolini oshiradi. Yoshlar axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasiga to'liq ega bo'lmaganliklari sababli, ular noto'g'ri ma'lumotlarni qabul qilishga moyil bo'lib, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy qarashlariga ta'sir etishi mumkin. Shu bilan birga, dezinformatsiya oilaviy axborot muhitining buzilishiga ham olib kelishi mumkin bo'lib, bu oilaning barqarorligi va ichki kommunikatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Noto'g'ri axborotning tarqalishi natijasida oilaviy qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotishi, shaxslararo aloqalarning sifati pasayishi ham kuzatilishi mumkin.

N.Salayeva o'z tadqiqotida Xorazm hududidagi oilalarning etnopsixologik xislatlarini o'rganadi. Unda urf-odatlar, an'analar, jinsiy rollar va oiladagi o'zaro munosabatlar madaniy-kontekstda tahlil qilinadi. Ushbu dissertatsiyada asosiy kamchiliklardan biri — etnosga nisbatan essensialistik yondashuv. YA'ni, muayyan etnik guruhlarining xislatlari "doimiy",

"o'zgarmas" deb qaraladi, bu esa madaniy dinamika va global ta'sirlarni e'tibordan chetda qoldiradi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan dezinformatsiya yanada murakkab tus olmoqda. Sun'iy intellekt, tahliliy algoritmlar va katta ma'lumotlar (big data) manipulyatsiyasi orqali noto'g'ri axborotning ommaviy tarqalishi tezlashdi. "Deyepfake" texnologiyalari orqali yaratilgan vizual va audio kontentlar real hayotdagi voqealarga zid bo'lsa-da, haqiqat sifatida qabul qilinishi mumkin. Dezinformatsiya zamonaviy falsafaning turli yo'nalishlarida, xususan, epistemologiya, axborot nazariyasi, sotsial-falsafiy tafakkur va raqamli texnologiyalar nazariyalarida muhim mavzu hisoblanadi. U inson ongiga bevosita ta'sir qiluvchi kuch sifatida, reallik va haqiqatning buzilishiga xizmat qilishi mumkin. Bunday sharoitda falsafiy tahlillar dezinformatsiyaning mohiyatini ochib berish, axborotni qabul qilish va tahlil qilish jarayonlarining ilmiy asoslarini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy axborot jamiyatida dezinformatsiya muammosi nafaqat shaxsning dunyoqarashini, balki oila va jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ham jiddiy tarzda shakllantiradigan omillardan biriga aylandi. Dezinformatsiya — haqiqatdan uzoqlashtirilgan, maxsus ravishda o'zgartirilgan axborot bo'lib, uning tarqalishi ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot oqimlarining muttasil tezlashib borishi va raqamli muhitda axborotning filtsiz tarqalishi natijasida oilalarning axborot makonidagi xavfsizligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, dezinformatsiya tushunchasi falsafiy-axborot nazariyalari nuqtai nazaridan tahlil qilinishi va uning oilaviy munosabatlarga ta'siri ijtimoiy-falsafiy kontekstda baholanishi zarur. Falsafiy-axborot nazariyalari nuqtai nazaridan, dezinformatsiya axborot uzatish jarayonidagi shovqin (noise) sifatida talqin qilinadi.

Oila jamiyatning bosh ijtimoiy instituti sifatida turli axborot manbalarining ta'siriga uchraydi. Dezinformatsiyaning oila munosabatlarga ta'siri bir nechta muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, axborot texnologiyalari orqali tarqatiladigan yolg'on ma'lumotlar oila xavzolari o'rtasida ishonchsizlik muhitini yaratishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda va media platformalarda tarqatiladigan noto'g'ri ma'lumotlar oiladagi aloqalarga putur yetkazishi, u yoki bu masalada ziddiyatli qarashlarni shakllantirishi mumkin. Bu holat oilaviy munosabatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, dezinformatsiya shaxslar ongida ijtimoiy voqelik haqida noto'g'ri tasavvurlarni yaratib, axloqiy qarashlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa, oilaviy munosabatlarda axloqiy normalarning buzilishi yoki ularning buzilganligiga ishonch shakllantirilishi orqali namoyon bo'ladi. Huquqiy va ijtimoiy norma sifatida shakllangan oilaviy munosabatlarga bunday yolg'on axborotlar ta'sir qilganida, ajrimlar sonining ortishi yoki oilaviy munosabatlarda shubha va beqarorlikning oshishi kuzatilishi mumkin. Uchinchi jihat, mediasavodxonlik darajasining pastligi dezinformatsiyaga qarshi immunitetni susaytirishga sabab bo'ladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalaridan kam foydalanadigan katta yoshdagi avlod va ular bilan aloqada bo'luvchi yoshlar o'rtasidagi axborot tafovutlari dezinformatsiya tarqalishining turli bosqichlarini keltirib chiqaradi. Oilaning katta yoshdagi vakillari an'anaviy axborot manbalaridan foydalangani holda, yoshlar asosan raqamli platformalar orqali axborot qabul qilishadi. Bu esa oilada axborotga nisbatan turli xil yondashuvlarning shakllanishiga olib kelib, axborot ziddiyatlarini keltirib chiqaradi.

Xulosa. Dezinformatsiyaning oldini olish uchun bir qator strategik choralarning ko'rilishi zarur. Avvalo, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim bo'lib, bu shaxslarning har qanday axborotni chuqur tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, ishonchli axborot manbalaridan foydalanish va ommaviy axborot vositalarining xolisligi masalasiga e'tibor qaratish lozim. Oilaviy muloqotni rivojlantirish, axborot savodxonligini oshirish va noto'g'ri axborotning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni amalga oshirish orqali dezinformatsiyaning zararli ta'sirini kamaytirish mumkin. Umarova va Salayeva tadqiqotlari ijtimoiy-pedagogik jihatdan qimmatli bo'lsa-da, ularning asosiy zaif jihati — qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning ontologik va aksiologik asoslarini

ochib bera olmaganidadir. Shu sababli, ushbu ishlar bilan boyitilishi zarur.
postpozitivistik, fenomenologik va tanqidiy-falsafiy yondashuvlar

ADABIYOTLAR

1. Рузйкулов Ф.Р. Ўзбек оилаларида ажралишнинг ижтимоий психологик асоратлари: Дис. ... Психология фан. номзоди : ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, М.Улугбек номидаги ЎзМУ. - Т., 2002. - 160 б
2. Karimov X.K. O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis. ... Psixologiya fan. nomzodi - Т., 1994. - 142 b.
3. Salayeva N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari: Dis. ... Psixologiya fan. nomzodi : UZR Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomli TDPU. - Т., 2002. - 180 b.
4. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakillanishining ijtimoiy- psixologik shart-sharoitlari: Dis. ... Psixol. fan. nomzodi: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. - Т., 2004. - 166 b.; Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis. ... Psixol.fan.nom. : O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nom.Toshkent dav.pedagog.un-ti. - Т., 2005. - 198 b.
5. Липпман У. Общественное мнение. - Москва : АСТ, 2023. - 446 с.; Лассуэлл Г.Д. Техника пропаганды в мировой войне / Гарольд Д. Лассуэлл ; перевод с английского В. Г. Николаева ; Российская академия наук, Институт научной информации по общественным наукам. - Москва : ИНИОН РАН, 2021. - 236 с.



UDC:37(045)(575.1)

Ziyada DJUMANAZAROVA,
Teacher at Tashkent state university of law
E-mail: ziyada.jumanazarova9828@gmail.com

Reviewed by professor D. Khashimova

INTEGRATING SOCIAL NETWORKING AND LMS PLATFORMS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN HIGHER EDUCATION

Annotation

This article explores the integration of social networking platforms and learning management systems (LMS) in English language teaching within higher education contexts. By examining current research and practical applications, the study highlights how these digital tools can enhance language instruction, support learner engagement, and foster collaborative learning environments. The paper also discusses the challenges educators face in adopting these technologies and provides recommendations for effective implementation. Drawing on a wide range of sources, the article emphasizes the evolving role of educators in digitally mediated language education and the pedagogical opportunities afforded by Web 2.0 tools.

Key words: Social networking, LMS, English language teaching, higher education, digital tools, Web 2.0, online learning, collaborative learning, teacher roles, educational technology.

ИНТЕГРАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ И ПЛАТФОРМ LMS В ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье исследуется интеграция социальных сетей и систем управления обучением (LMS) в преподавание английского языка в контексте высшего образования. Изучая текущие исследования и практические применения, статья подчеркивает, как эти цифровые инструменты могут улучшить преподавание языка, поддержать вовлеченность учащихся и создать условия для совместного обучения. В статье также рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели при внедрении этих технологий, и даются рекомендации по эффективному их применению. Опираясь на широкий спектр источников, статья акцентирует внимание на изменяющейся роли преподавателей в цифровом обучении и педагогических возможностях, которые предоставляют инструменты Web 2.0.

Ключевые слова: Социальные сети, LMS, преподавание английского языка, высшее образование, цифровые инструменты, Web 2.0, онлайн-обучение, совместное обучение, роль преподавателя, образовательные технологии.

IJTIMOIIY TARMOQLAR VA O'QUV BOSHQARUV TIZIMLARINI (LMS) OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTEGRATSIYA QILISH

Annotatsiya

Ushbu maqola, oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlar va o'quv boshqaruvi tizimlarining (LMS) integratsiyasini o'rganadi. Hozirgi tadqiqotlar va amaliy qo'llanmalarga tayanib, bu raqamli vositalarning til o'qitishni yaxshilash, o'quvchilarning faolligini qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda o'rganish muhitlarini yaratishdagi o'rni ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, o'qituvchilar bu texnologiyalarni qo'llashda duch keladigan qiyinchiliklar va samarali amalga oshirish uchun tavsiyalar berilgan. Keng qamrovli manbalarga tayanib, maqola o'qituvchilarning raqamli ta'limda o'rin tutgan o'zgaruvchan roli va Web 2.0 vositalari tomonidan taqdim etilgan pedagogik imkoniyatlarni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, LMS, ingliz tilini o'qitish, oliy ta'lim, raqamli vositalar, Web 2.0, onlayn o'qish, hamkorlikda o'qish, o'qituvchi roli, ta'lim texnologiyalari.

Introduction. The integration of digital technologies in education has significantly transformed the landscape of language teaching and learning. Among these technologies, social networking platforms and learning management systems (LMS) have emerged as powerful tools offering new opportunities for interaction, collaboration, and learner autonomy. In the context of English language teaching (ELT) in higher education, these platforms provide dynamic spaces for communication and resource sharing that extend beyond the traditional classroom.

Social networking sites such as Facebook, Instagram, and YouTube enable students to engage with language in authentic contexts while fostering community and peer support. Meanwhile, LMS platforms like Moodle, Canvas, and Google Classroom provide structured environments for organizing content, tracking progress, and facilitating blended or fully online instruction. Together, these tools can enhance learners' motivation and participation, especially when aligned with pedagogical strategies that emphasize student-centered learning and digital literacy.

Despite the growing adoption of these platforms, educators continue to face challenges in integrating them effectively. Issues such as privacy, digital access, and pedagogical alignment must be carefully addressed to ensure meaningful and

inclusive learning experiences. This article examines how social networking and LMS platforms are currently being used in English language teaching at the tertiary level, discusses both benefits and barriers, and offers practical recommendations for enhancing teaching practices through technology.

Research Methodology. This study adopts a qualitative research design to explore the integration of social networking sites (SNS) and learning management systems (LMS) in English language teaching (ELT) within higher education. The research methodology consists of three key components: literature review, case studies, and semi-structured interviews.

Literature Review method. A comprehensive literature review was conducted to examine existing research on the use of SNS and LMS in language education. This review focused on identifying trends, challenges, and best practices documented in academic journals, books, and reports.

Case Studies. The study includes case studies from higher education institutions that have implemented SNS and LMS platforms in their ELT programs. These case studies were selected based on their relevance to the study's objectives and their diversity in terms of institutional size, geographic location, and student demographics. The case studies provide in-depth

insights into how these platforms are utilized in real-world teaching contexts and offer practical examples of successful integration, as well as challenges encountered by instructors and students.

Semi-Structured Interviews. To gain a deeper understanding of the experiences of both educators and students, semi-structured interviews were conducted with a purposive sample of English language teachers and students who have actively used SNS and LMS in their courses. Interviews were designed to gather qualitative data on perceptions of the effectiveness of these platforms, the advantages and drawbacks observed in their use, and suggestions for improvement.

Literature Review. The integration of social networking sites (SNS) and Learning Management Systems (LMS) in English Language Teaching (ELT) within higher education has gained substantial attention for their potential to transform educational practices. These tools offer new avenues for engagement, collaboration, and content delivery, reshaping how language education is approached.

Social networking sites have become integral in language teaching, offering dynamic and interactive opportunities for learners. Blattner [2] discusses how Web 2.0 technologies, such as Facebook and Twitter, have revolutionized foreign language teaching. These platforms provide informal spaces for learners to practice language skills, fostering collaborative learning environments beyond the classroom. Blattner and Fiori [3] emphasize that Facebook, in particular, enables language learners to engage in real-time conversations, share resources, and participate in discussions that enhance language skills through informal means.

Further, Pempek et al. [10] explore the significant role of SNS in helping students build social connections that enhance language learning. These tools facilitate authentic communication, allowing students to practice English in real-world contexts. Similarly, Harrison and Thomas [7] highlight the importance of identity formation in online communities, stressing how SNS contribute to a sense of belonging and community among learners.

While SNS offer numerous advantages, Towner and Munˆoz [13] caution that these platforms can pose challenges. Issues related to privacy concerns, digital distraction, and the digital divide can hinder effective learning. Schwartz [11] underscores that educators must balance the informal learning provided by SNS with formal educational goals, ensuring that these platforms are used meaningfully within the curriculum.

Learning Management Systems (LMS), such as Moodle, Blackboard, and Canvas, play a pivotal role in organizing and delivering content in modern higher education. Coates et al. [4] explain that LMS facilitate resource management, assessment tracking, and communication between students and instructors. These systems provide structured learning environments that support formal language education. LMS enable self-paced learning, which is crucial for language learners who require flexible access to materials and opportunities for practice. Demetriadis et al. [5] discuss the importance of LMS in fostering collaborative learning and providing timely feedback, essential components for language acquisition. Additionally, Gray et al. [6] highlight the potential of LMS to support formative assessment, allowing instructors to monitor learner progress and provide insights into students' development.

However, Adams [1] points out that LMS can also have a controlling and surveillance effect on students. These systems may lead to corporatization in education, limiting the flexibility and autonomy of both learners and instructors. This critique calls attention to the need for educators to carefully consider the pedagogical goals when using LMS.

The combination of SNS and LMS can offer enhanced learning experiences by blending formal and informal learning. McLoughlin and Lee [9] suggest that SNS complement LMS by encouraging collaborative learning, while LMS provide the necessary structure for course management and assessment. The integration of these tools can enhance student engagement and create more dynamic learning environments.

Shih [12] illustrates how the use of Web 2.0 technologies, such as Facebook, within blended learning environments can

improve student motivation and foster a more communicative approach to language learning. SNS provide students with the opportunity to practice language skills informally, while LMS enable instructors to track student performance and offer targeted feedback. The combination of these technologies creates a comprehensive learning environment where students can benefit from both social interaction and academic support.

McCarthy [8] further supports the notion that the integration of SNS and LMS fosters a sense of community among students. By encouraging interaction outside the classroom, these platforms create opportunities for peer learning, leading to improved language skills and greater academic success.

Discussion and Results. The integration of Social Networking Sites (SNS) and Learning Management Systems (LMS) in English Language Teaching (ELT) in higher education presents a transformative approach to learning and teaching. The findings from our research illustrate both the positive impacts and challenges faced in utilizing these technologies in ELT contexts.

The integration of SNS, such as Facebook, into language learning has fostered an engaging, collaborative, and dynamic environment. As Blattner and Fiori [3] suggest, platforms like Facebook offer language learners a space to engage in informal communication, enhancing their language skills through authentic, real-world conversations. This aligns with the findings of our study, where students reported feeling more motivated and confident using SNS to communicate with their peers and instructors outside the traditional classroom environment. The ability to interact with fellow students and teachers in an informal space allowed students to practice language skills without the pressure of a formal classroom setting, echoing Blattner's [2] view on the importance of Web 2.0 tools in language acquisition.

Furthermore, our research aligns with Harrison and Thomas [7], who highlight that SNS allow students to build a sense of identity and community, contributing to increased engagement in language learning activities. In our study, students found SNS a valuable tool for not only improving language skills but also for developing a sense of belonging in the learning community. This is consistent with the study by Pempek et al. [10], which found that SNS contribute to the formation of social ties, which can positively influence language learning outcomes.

The integration of LMS into ELT also showed positive results. Coates et al. [4] highlighted the importance of LMS in managing resources, assessments, and facilitating communication, and this was confirmed by our findings. Students expressed appreciation for the organized, accessible nature of course materials and the ease of receiving feedback through LMS. Our results demonstrate that LMS, like Moodle and Canvas, were particularly effective in providing structured support for students, allowing them to track their progress, access learning resources, and communicate with instructors efficiently.

Moreover, Demetriadis et al. [5] underscore the role of LMS in supporting collaborative learning. Our study revealed that students benefited from the collaborative tools available within LMS, such as discussion boards and group assignments. These tools enabled peer-to-peer learning and fostered a more interactive and participatory learning environment, aligning with the conclusions of Gray et al. [6] on the positive effects of LMS in promoting collaborative learning.

Conclusion. The integration of social networking and learning management systems (LMS) in English language teaching in higher education represents a transformative shift in pedagogical practices. This article has examined the potential of these technologies to enhance teaching and learning by fostering greater interaction, collaboration, and engagement among students and educators. The findings suggest that both social networking platforms, such as Facebook, and LMS platforms, such as Moodle and Blackboard, offer significant opportunities for creating dynamic learning environments that cater to the evolving needs of modern learners.

The results from the discussions and literature review highlight the diverse ways in which these tools can be utilized to support language learning. Social networking sites, with their inherent emphasis on informal communication and community-building, can enhance students' language skills outside the

classroom setting, while LMS platforms provide a structured feedback environment that facilitates content delivery, assessment, and

REFERENCES

1. Adams, R. (2010). The impact of Learning Management Systems on student learning. *Journal of Educational Technology*, 15(2), 45-59.
2. Blattner, G. (2012). Facebook as a tool for foreign language learning. *Journal of Language and Technology*, 21(3), 78-91.
3. Blattner, G., & Fiori, M. (2009). Web 2.0 in the foreign language classroom. *Journal of Technology in Language Teaching*, 17(4), 102-115.
4. Coates, H., James, R., & Baldwin, G. (2005). A study of learning management systems in Australian universities. *Australian Journal of Education Technology*, 21(1), 45-59.
5. Demetriadis, S., et al. (2003). The effectiveness of Learning Management Systems for language learners. *Educational Technology Research and Development*, 51(4), 87-104.
6. Gray, P., et al. (2010). Collaborative learning through Learning Management Systems. *Journal of Higher Education*, 34(2), 52-63.
7. Harrison, R., & Thomas, L. (2009). Building community through social networking platforms. *Educational Research Review*, 18(3), 67-79.
8. McCarthy, J. (2010). Social networking and learning: A new paradigm for higher education. *Learning and Instruction Journal*, 24(5), 106-119.
9. McLoughlin, C., & Lee, M. (2007). The use of Web 2.0 tools in education: A transformative learning experience. *Journal of Educational Technology*, 15(6), 45-58.
10. Pempek, T. A., Yermolayeva, Y. A., & Calvert, S. L. (2009). College students' social networking experiences on Facebook. *Computers in Human Behavior*, 25(2), 229-238.
11. Schwartz, K. (2009). Balancing informal and formal learning with social networking tools. *Journal of Educational Research*, 33(4), 45-50.
12. Shih, C. (2011). Blended learning and its impact on motivation in language learning. *Language Learning & Technology*, 15(2), 47-59.
13. Towner, T., & Munˆoz, C. (2011). Facebook in the classroom: The good, the bad, and the ugly. *Journal of Educational Technology*, 19(3), 22-31.



UDK: 371.9

Raya YERNAZAROVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali mustaqil izlanuvchisi

Dotsent, PhD S.Toylibaev taqrizi asosida

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNI REABILITATSIYA QILISH VA INTEGRAL BAHOLASH USLUBIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni reabilitatsiya qilish va ularni integral baholash uslubi yoritilgan. Reabilitatsiya jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy metodlar, individual yondashuvlar va moslashtirilgan jismoniy mashg'ulotlarning o'rni tahlil qilinadi. Integral baholash mezonlari orqali talabalarning salomatligi, harakat faolligi va psixologik holati baholanadi. Shuningdek, ijtimoiy moslashuv va ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Maqola maxsus ta'lim va sog'lomlashtirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tayanch-harakat arrarati shikastlangan talabalar, adaptiv jismoniy tarbiya va paraspport ixtisosligi.

METHODOLOGY OF REHABILITATION AND INTEGRAL ASSESSMENT OF STUDENTS WITH PHYSICAL DISABILITIES

Annotation

This article discusses the methodology of rehabilitation and integral assessment of students with physical disabilities. The role of modern methods, individual approaches and adapted physical training used in the rehabilitation process is analyzed. The health, motor activity and psychological state of students are assessed through integrated assessment criteria. Also, ways of effective social adaptation and integration into the educational process are indicated. The article is aimed at improving special education and health processes.

Key words: Students with musculoskeletal injuries, adaptive physical education and paraspports specialty.

МЕТОДОЛОГИЯ РЕАБИЛИТАЦИИ И КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКИ СТУДЕНТОВ С ФИЗИЧЕСКИМИ НАРУШЕНИЯМИ

Аннотация

В данной статье освещена методика реабилитации студентов с ограниченными физическими возможностями и их интегральной оценки. Проанализированы современные методы, применяемые в процессе реабилитации, индивидуальные подходы и роль адаптированной физической подготовки. С помощью критериев интегральной оценки оценивается здоровье, двигательная активность и психологическое состояние студентов. Также будут указаны пути социальной адаптации и эффективной интеграции в образовательный процесс. Статья направлена на совершенствование процессов специального образования и оздоровления.

Ключевые слова: Студенты с травмами опорно-двигательного аппарата, специализация адаптивной физической культуры и параспорта.

Kirish. Jahonda tayanch - harakat apparati shikastlangan shaxslarni muvozanat saqlash qobiliyatini oshirish uslubiyatini tadbqiq qilish, paraspport turi bilan shug'ullanuvchi imkoniyati cheklangan talabalarni o'quv-mashg'ulotlari jarayonini samarali tashkil etish orqali ularni jismoniy imkoniyatlarini oshirish va shug'ullanuvchilarni individual va guruhli mashg'ulot rejalarini tashkil qilish evaziga ularda harakat ko'nikmalarini rivojlantirish jismoniy, texnik hamda funksional tayyorgarligini yaxshilash boyicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarni koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy tajribalar asosida mashg'ulot vosita va usullari hamda ularni nazorat qilish imkoniyatlari tadbqiq etilmoqda. Ko'plab ilmiy izlanishlarda paraspportchilarni tayyorlash, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni harakat faolligini oshirish boyicha muammolar keng o'rganilganligiga qaramasdan adaptiv jismoniy tarbiya va paraspport ixtisosligi talabalarini muvozanat saqlash qobiliyatini oshirish uslubiyati boyicha ular uchun nozologik jihatdan harakat imkoniyatlari oshirishga qaratilgan tabaqalashtirilgan dasturlar, mashg'ulotlarda talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishning moduli yaratilmaganligi sababli jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni muvozanat saqlash qobiliyatini oshirish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmogda.

Tadqiqot maqsadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni reabilitatsiya qilish va integral baholash uslubiyatini ishlab chiqish boyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbaalarni tahlil qilish va umumlashtirish. 2. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni reabilitatsiya qilish va integral baholash usubini ishlab chiqish. 3. Ishlab chiqilgan metodikani pedagogik tajribada ilmiy asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Parayengil atletika va sport oyinlar hamda boshqa sport turlarida ishtirok etganlar tahlil qilindi. Energiya hosil bo'lishini ta'minlaydigan metabolik jarayonlarni optimallashtirishning aniqlangan belgilari muhimdir. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar masofada shamol qarshiligini yengib o'tish tezligini sezilarli darajada (15-20 soniya) oshirish imkoniyatini yaratadi. Nozologik guruhlariga asosan yuklamalar meyorini qo'llash davomida tavsiya etilgan sinov doiralarini bajarish tezligi 5-20% ga oshdi. Eng yuqori tezlikda o'sish bo'lgan para yengil atletika guruhida aniq namoyon bo'ladi.

Besh oylik siklda funksional ko'rsatkichlarini tahlil qilish jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning yurak-qon tomir tizimida patologik o'zgarishlar yo'qligini ko'rsatadi. Tadqiqot yuklamalariga reaksiya, qoida tariqasida, fiziologik jihatlarini yaxshilash imkonini berdi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni qon aylanishining holati qo'l va oyoqlar odatda o'xshash ko'rsatkichlar bilan tavsiflangan hamda salbiy o'zgarishlar aniqlanmagan. Qon tomir tonusining ko'rsatkichlari vegetativ asab tizimining funktsiyalari sport mashg'ulotlarida ta'sir qilmasligini ko'rsatadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mashg'ulotlarida qon oqimi, qon tomirlarining barqarorligi va umurtqa pog'onasi hamda orqa miya shikastlanish darajasidan

past bo'lgan talabalar mushaklar elastikligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishganligi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. O'tkazilgan tadqiqotlar davomida sport oynlari bilan kasallangan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning kardiorespirator tizimining funksional holatining dinamikasi o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Adaptiv jismoniy mashqlar jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun harakat faolligini oshirish foydasini ko'rsatadi. Bundan tashqari parasport turlari bilan shug'ullanadigan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar organizm tizimlari dinamikasi maqshlar, odatda, yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning muvozanat saqlash qobiliyatini xususiyatlarining o'zgarishiga mos keladi. Adaptiv reabilitatsion vositalar yodrdamida harakat og'ishlarni o'zgarishi muntazam jismoniy mashqlar bilan bir qator omillarga boh'liq hisoblanadi. Bunda kasalliklarning asosiy patologik jarayon va birga keladigan nazologik guruhlar, ovqatlanish, psixo-emotsional holati kabi xususiyatlari nazorat qilib borildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning funksional holatini ishonchli va aniq xususiyatlarini hamda tayyorgarlik turlari boyicha boshqa ko'rsatkichlarini olish uchun tadqiqotlar lib borildi. Bundan tashqari aravachalar poygasiga jalb qilingan nogironlar aravachasi jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar bilan o'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari yurak urish tezligi, qo'l panja kuchi, nogironlar aravachasining harakat tezligi kabi ko'rsatkichlari nazorat qilindi. 100 dan 1500 m gacha bo'lgan masofalarga yugurish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda maksimal kuch darajasi va parsportchilar tomonidan talab qilinadigan tajriba kuchlanish yurak urish tezligi mashg'ulotning so'nggi 15 soniyasida 180 zarba/daq dan oshganligi kuzatildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar harakat tezligi bo'yicha o'rtacha ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ta'kidlashga imkon beradiki, muntazam maxsus vositalardan foydalanilganda yuqori tezlikka oshirish, balki qo'llaniladigan yagona mushak kuchlarining kuchini oshirish orqali ham erishildi. Nogironlar aravachasidagi jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar o'rtasida harakatning maksimal tezligi 400 m masofada erishildi.

Tadqiqotimiz davomida qo'llanilgan usullar hozirgi vaqtda individual fiziologik ko'rsatkichlar asosida maxsus vositalarni qo'llash imkonini berdi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mashg'ulot jarayonida qo'llanilgan yuklama meyorini baholashga imkon beradi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni jismoniy holatini ommaviy nazorat tekshiruvlari hamda uslubiy asos sifatida foydalanildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni mashg'ulotlarga moslashish jarayonining intensivligi va tananing zaxira imkoniyatlarining holatini adekvat baholash imkonini berdi. Ularning funksional holat dinamikasi tuzatish harakat rejimida faoliyat olib borish muhim hisoblanadi.


Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni harakat faolligini oshirishga qaratilgan korreksion mashqlar, umumiy va maxsus jismoniy mashqlar, pauerlifting va armrestling, turli

toifadagi, yoshi va jinsi, nazologik guruhlariga asosan qo'llanildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni, jismoniy tayyorgarlik darajasi va mashg'ulot jarayonining yo'nalishi amputatsiya va miya yarim falajlari uchun futbol, dars, suzish sport turlari elementlari qo'llanildi. Birlamchi patologik jarayonga bog'liqlik va qo'shma sabablar natijasida kelib chiqqan nogironlar fiziologiyasining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish, ularning harakat faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mushak massasining keskin kamayishi, asab-mushaklarning buzilishi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari mushak to'qimalarida o'tkazuvchanlik, moslashish jarayonlar, mushak faoliyatini tartibga solishning faoliyatida buzilishlarni bartaraf etishga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, mushak faoliyatida buzilishlar, kardiorespirator kasalliklarini ham korreksion vositalar orqali bartaraf etish muhim hisoblanadi. Yuqoridagilarni inbatga olib har bir nazologik guruhdagi talabalarni fiziologik va muvozanat saqlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan mashqlar majmuasini tanlashni talab qiladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni psixologik holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham o'rganildi. Shu asosda jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar organizmning funksional holati dinamikasini integral baholash uchun zamonaviy tenza uskunasi mezonlar harakt og'ishiga qarab belgilandi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar miyasining funksional holatini yaxshilash, harakat vazifalarini bajarish uchun fiziologik asosni ta'minlab borish lozim. Ushbu uskuna jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni muvozanat saqlash qobiliyatini yaxshilash bilan bir qatorda harakat sifatleri hamda ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni harakat fazilatleri va ko'nikmalarini yaxshilash, o'z navbatida, jismoniy holatni yanada yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratildi.

Turli xil nazologik guruhga ega bo'lgan shaxslarga xos bo'lgan juda past darajadagi jismoniy faolligi (gipodinamiya va gipokineziya - hayot faoliyatining hodisasi va tarkibiy qismi sifatida) belgilanadi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar va boshqa toifadagi (yuqori yoshli odamlar) reabilitatsiya vositalari orqali yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining faoliyatini yaxshilashga sabab bo'ladi. Reabilitatsiya jarayonini yanada murakkablashtiradigan va jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning sport faoliyatini yomonlashtiradigan jiddiy metabolik, evdokrin, immun, mikrosirkulyatsiya, aqliy va boshqa funksional faoliyatini qayta tiklash imkonini beradi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni funksional holatini yaxshilashda reabilitatsion vositalardan foydalanishga e'tibor qaratildi. Bunda tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, intellektual va kasbiy reabilitatsiya komplekslaridan foydalanildi. Jismoniy reabilitatsiya qilish jarayonida gigiyenik omillar bilan bir qatorda mashg'ulotlar jarayonida qat'iy tartiblashtirilgan metod yordamida tananing umumiy nospitsifik qarshiligining kuchayishiga asosiy adaptive jismoniy tarbiya vositalarini qo'llash orqali erishildi. Shu bilan birga, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni ovqatlanish ratsioni, turli biologik qo'shimchalardan foydalanishi hamda nazologik guruhlariga asosan massaj turlarini qo'llash doimiy nazorat qilib borildi.



1-rasm. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni reabilitatsiya qilish va integral baholash usubi

Mashg'ulot jarayonida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni funksional holatini reabilitatsiya qilish orqali, asosiy adaptiv tizimlarni asosan harakat faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirish, vositalarni qo'llash, ko'nikma va malakalarni kengaytirish moslashuvchanlik potensialini oshirish, salomatlik darajasini yaxshilash hamda ushbu ko'rsatkichlarni kompleks nazorat qilish imkoniyatlari oshirildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni harakat faoliyatidagi nuqsonlarning oldini olish nuqtai nazaridan, "Sog'lomlashtiruvchi gimnastika" vositalaridan foydalanish eng ommabop usullardan hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni harakat faolligini oshirishda ixtiyoriy gimnastika, izometrik mashqlar, zamonaviy uskunalar bilan bajariladigan mashqlar saralandi hamda tadqiqotimiz davomida qo'llanildi. Shu bilan birga, mashg'ulotlarimizda toronidan gimnastika vositalari, ideomotor mashg'ulotlar, relaksatsion mashqlarni bajarish mashg'ulotlar rejasiga kiritildi.

Mashg'ulotimiz davomida maksimal mumkin bo'lgan amplituda burchak va butun harakat oralig'ida maksimal qarshilik kuchi bilan harakatni bajarish, muskul tarangligiga qarab mashqlarni bajarayotgan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni bukuvchi va yozuvchi mushakni bo'shatishga e'tibor qaratildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni muvozanatini yaxshilashda dinamik va statistik rejimdagi mashqlardan foydalanildi. Shu bilan birga, umumiy va maxsus tayyorgarlikni oshirish, tezlik mashqlarni oshirishda korreksion vositalarni qo'llash imkonini beradi. Biz tomonimizdan tavsiya etilgan metodikaning samaradorligi ham aniqlandi. Unga ko'ra pedagogik tadqiqot nogiron amputantlar va tennis bilan shug'ullanadigan uchun adaptive reabilitatsiya vositalari va sport mashg'ulotlari jarayoniga moslashtirish imkonini berdi. Mashqlar kun davomida ham bajarildi va mashg'ulotlarga kiritildi.

Tadqiqot davomida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni hissiy holat darajasi va motivatsiyaning namoyon bo'lishi ham tahlil qilindi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning psixologik reflekslarning shakllanishiga ta'siri boshning to'g'ri holati, magistral mushaklar tonusini barqarorlashtirish hamda kortikal-subkortikal markazlarning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar reaksiyalarni faollashtirish va stimulyatorlar foydalanish orqali muvozanat saqlash qobiliyati oshirib borildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda shartli refleks javob natijasida harakatlar amalga oshirib borildi. Qo'l ko'nikmalarini

rivojlantirish va nutq funksiyasini rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berildi.

Mashg'ulotlar davomida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning hissiy holatining o'zgarishi, psixologik holatining yaxshilanishi hamda ijobiy xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi qayd etildi. Fleksor va ekstansor mushaklarning selektiv va mahalliy ta'sirini aniqlashga imkon beruvchi muvozanat saqlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan vositalarning o'ziga xosligi kasallik darajasini yengillashtirishga, qo'llar va barmoqlarning nozik motorikasini shakllantirish, qo'llar mushaklari va yuqori yelkama kamar mushaklarini samarali rivojlantirishga imkon berdi. Muvozanat saqlash harakat elementlar texnikasini va individual mashg'ulotlarni davolash-reabilitatsiya muassasasidan tashqarida mustaqil ravishda o'zlashtirishga ham e'tibor qaratildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mushak kuchini rivojlantirish uchun korreksion vositalar bo'yicha muvofiqlashtirilgan murakkab mashqlarni o'zlashtira oldilar. Bundan tashqari boyin, yuqori yelkama kamar mushaklari uchun mashqlarni miya yarim falajining og'ir atonik-astatik shaklidan aziyat chekadigan talabalar mashg'ulotlarida qo'llanildi.

Xulosa va takliflar. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalari mashg'ulotida yugurish yo'lakchasida maksimal ishning umumiy vaqti sezilarli darajada oshishiga erishildi. Bunda 13,5 dan 19,0 daqiqagacha yaxshilandi hamda ishonchlilik darajasi ($p < 0,05$) dan yuqori ekanligi aniqlandi. Maksimal harakat tezligi - 1,5 dan 2,1 m/s gacha yaxshilandi. Shu bilan birga anaerob chegarasida ham o'zgarishlar kuzatildi.

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalari mashg'ulotlarida muvozanat saqlash mashqlaridan foydalanishda harakat faolligi oshirildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar tanasining jismoniy stimulyatsiyaga fiziologik reaksiyasini integral baholash natijalari ham tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotlarda 3 yildan 15 yilgacha nogironlik nozologiyasidagi shaxslar 64 nafar nogironlik boyicha ishtirok etdi. 56 erkak va 8 ayol. 6 nafar miya falajining oqibatlarini, qolgan talabalar orqam miya shikastlanishi bor bo'lgan talabalar jalb qilingan. Bundan tashqari, 34 nafar erkak va 6 nafar ayol umurtqa pog'onasi shikastlanishi natijasida muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullangan hamda harakat faolligini oshirib borgan. Xuddi shunday tashxisga ega bo'lgan 16 nafar erkak jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishgan.

ADABIYOTLAR

1. Тузлукова, М.Д. Особенности ритмограмм паралимпийцев / М.Д. Тузлукова, Ю.А. Гаврилова, О.А. Чурганов // Мат.-ли конф. «Безопасный спорт». СПб, 2017. - С. 30-32.
2. Тузлукова, М.Д. Функциональные методы контроля за тренировочным процессом слепых / М.Д. Тузлукова, Ю.О. Чурганов, К.А. Заборовский, И.В. Бобунова // Вестник Всероссийской гильдии протезистов-ортопедов. - №3. - Т.57. - 2014. - С. 104.
3. Ўринбоев Э. А., Муродов Ф.М. Соғлом турмуш тарзини муаммоларини шакллантиришда касаллик, касалланиш, ногиронлик, тушунчалари // Academic research in educational sciences"Journal 2021: Vol. 2 Iss.1 P-109-115. [13.00.00 № 2].
4. Ўринбоев Э.А. "Таянч ҳаракат аппарати шикастланган талабаларнинг ҳаракат фаоллигини такомиллаштириш" // Scientific-theoretical journal international education research 2023.- № 1. В. 20-25. [13.00.00 №1].



UO'K: 37.013.

Xabiba JABBAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi, PhD
E-MAIL: xabiba@gmail.com

Nukus innovatsiya instituti dotsent G.Izetayeva taqrizi asosida

SHARQ TAFAKKURIDA GENDER TENGLIGINING FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Maqolada sharq tafakkurida gender tenglikning falsafiy tahlili va uning jamiyatdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Sharq falsafiy an'alarida gender munosabatlari, ayollar va erkaklarning ijtimoiy rollari, ularning tengligi yoki tengsizligi masalalari turli nuqtai nazarlar asosida talqin qilingan. Ushbu maqolada Sharqning turli madaniy, diniy va falsafiy an'alarida o'ziga xos talqin va yondashuvlarga ega ekanligi yoritilgan, shuningdek, sharq falsafasida gender tengligining falsafiy tahlilini umumlashtirib, uning zamonaviy dunyodagi ahamiyatini ko'rsatadi va asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tenglik, gender tenglik, jins, ayol va erkak, siyosat, ma'naviyat, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy stereotiplar, xotin-qizlar.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ВОСТОЧНОЙ МЫСЛИ

Аннотация

В статье рассматривается философский анализ гендерного равенства в восточной мысли и его значение в обществе. В восточных философских традициях вопросы гендерных отношений, социальных ролей женщин и мужчин, их равенства или неравенства трактовались с разных точек зрения. В статье подчеркивается тот факт, что различные культурные, религиозные и философские традиции Востока имеют свои собственные интерпретации и подходы, а также обобщается философский анализ гендерного равенства в восточной философии, показывается его значение в современном мире и рассматриваются его основные принципы.

Ключевые слова: Равенство, гендерное равенство, пол, женщины и мужчины, политика, духовность, семейные отношения, социальные стереотипы, женщины.

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF GENDER EQUALITY IN EASTERN THOUGHT

Annotation

The article discusses the philosophical analysis of gender equality in Eastern thought and its importance in society. In eastern philosophical traditions, issues of gender relations, the social roles of women and men, their equality or inequality have been interpreted on the basis of various perspectives. This article covers the fact that the East has its own interpretations and approaches in various cultural, religious and philosophical traditions, as it were, summarizing the philosophical analysis of gender equality in Eastern philosophy, shows its importance in the modern world and considers its basic principles.

Key words: Equality, gender equality, gender, woman and man, politics, spirituality, family relationships, social stereotypes, women.

Kirish. Sharq tafakkurida gender tengligi masalasi qadim zamonlardan boshlab turli falsafiy va diniy qarashlar orqali tahlil qilingan. Sharq falsafasi, uning o'ziga xos madaniy va tarixiy kontekstida, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar, jamiyatdagi roli va ularga nisbatan qarashlar turlicha shakllangan. Shu bilan birga, gender tengligiga bo'lgan qarashlar asrlar davomida o'zgarib borgan, ba'zida ayollar va erkaklar o'rtasida ijtimoiy tengsizliklar kiritilgan bo'lsa, boshqa vaqt va joylarda bu tenglikka oid fikrlar o'zgarib, jamiyatda yangi tushunchalar shakllanmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda gendertenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning ilm olib, ilm-fan taraqqiyotidao'z hissalarini qo'shishlariga keng imkoniyatlar yaratilyapdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayollar huquqlarini har doim ta'minlashgaalohida e'tibor beradi. Konstitutsiyaning 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilangan. Shuningdek, 37-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi deb belgilangan. Bu esa Konstitutsiyaviy huquqdir.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to'g'risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonunda xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalgaoshirishda teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo'yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil singari usullardan foydalanilgan.

Muhokama. So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiyhayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik vaayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ulmansabdor shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosidao'qitish.

Demak, gender tengligining hamxalqaro, huquqiy ham konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligiijtimoiy tenglikni ham anglatadi.

Ilk bor Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti tashkil etildi. Gender masalalari yuzasidan O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida yuritayotgan ilg'or siyosati natijasida 2021-yilda birinchi bo'lib muloqotgaO'zbekiston raislik qildi.

Yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir 30 dan ortiq meyoriy-huquqiy hujjat qabul qilinish, amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Joriy yilning 1-mart sanasida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni hamda joriy yilning 7-martida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni xotin-qizlar bilan ishlash tizimining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi, "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" qabul qilindi.

O'z navbatida, gender tengligini ta'minlash bo'yicha muammolar ham yetarlicha. Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ishsiz xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish, ish bilan ta'minlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagani, yordamga muhtoj bo'lgan vaog'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, ularni ehtiyojmandlik holatidan chiqarishga qaratilgan ishlar samarali tashkil etilmagani, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga hamda huquqiy oqibatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lamini yetarli emasligi, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarning iqtidorlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish tizimi joriy etilmagani kabilar shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni hal etish bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish yo'lidagi asosiy vazifalar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Sharq tafakkurining dastlabki qadamlari ko'plab diniy va falsafiy ta'limotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insoniyatning ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutgan. Zardushtiylik dinining muqaddas "Avesto" kitobida oila mustahkamligi ayol erki, xotin-qizlarning jamoat ishlari, ibodat marosimlarida erkaklar bilan teng ishtiroki ham alohida ta'kidlangan [1].

Jamiyatning ayollarga ta'siri mudom bir xil bo'lmagan. Sharq Uyg'onish davrida inson aqlu zakovatiga ishonish shakllangan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan, lekin ayollarni oilaga band etish, ilm-fanga yaqinlashtirmaslik hukm surgan, sovetlar davrida esa kommunistik mafkura, totalitar ma'muriy boshqarish o'rnatilgan, ammo ayollar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok qilgan [2].

Sharq falsafasining rivojlanishi ko'pincha tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarga, shuningdek, insonning o'zaro aloqalari va hayotning ma'nosini anglashga qaratilgan. Ayniqsa, Hindistonning veda falsafasi va qadimgi Xitoyning falsafiy tizimlari, jinslar o'rtasidagi rollarni tahlil qilishda chuqur ta'sir ko'rsatgan. Konfutsiylikda ayolning ijtimoiy roli, asosan, oilaviy va uy-ro'zg'or vazifalariga bog'lanib, erkaklarning jamiyatdagi boshqaruvchi pozitsiyalari esa an'anaviy tarzda yuqori baholangan. Bu yondoshuvlar, o'z navbatida, Sharq tafakkurining murakkab va ko'p qirrali tusini aks ettiradi.

Xitoy falsafasida, ayniqsa, Konfutsiylikda jinslar o'rtasidagi ro'l taqsimoti va tenglik masalalari ijtimoiy muvozanatni saqlash va tartibni mustahkamlashga qaratilgan. Konfutsiylikda oila va jamiyatdagi tartibning muhimligi alohida ta'kidlanadi, bunda ayollar va erkaklar o'rtasidagi rollar aniq belgilangan. Ayollar oilaviy va uy-joy ishlari mas'ul bo'lib, erkaklar esa ijtimoiy va siyosiy faoliyatlarda yetakchi rolni egallaydi. Shu bilan birga, Konfutsiylikda jinslar tengligi g'oyasi an'anaviy tarzda zaifroq bo'lib, ijtimoiy tartib va ierarxiya ustun qo'yilgan [3]. Biroq, zamonaviy Sharq jamiyatlarida Konfutsiylik qadriyatlarini gender tengligi g'oyalari o'rtasida uyg'unlashuv jarayoni kuzatilmoqda. Xitoyda ayollarning oiladagi roli, asosan,

farzandlar tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlari bilan bog'liq bo'lsa-da, tarixda ayollar o'z huquqlari uchun kurashgan va bu kurash hali ham o'z ifodasini topmoqda.

Hind falsafasida esa ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha «purusha» va «prakriti» tushunchalariga bog'lanadi. Purusha erkakni, prakriti esa ayolni ifodalab, bu tushunchalar mavjudotlarning kosmik uyg'unligini aks ettiradi. Ular o'rtasidagi farq va rollar aniq belgilangan bo'lsa-da, bu tasavvur bir vaqtning o'zida hamkorlik va birlashuvni ifodalaydi. Veda va Upanishadlarda ayolning asosiy roli uy-ro'zg'or va farzandlar tarbiyasiga bog'liq bo'lsa-da, ba'zi falsafiy maktablar, ayniqsa "Shakti" yondashuvida, ayolning energiya va kuch sifatida yuksak mavqega ega ekanligini ta'kidlanadi. Ushbu davrda, ayollar va erkaklarning ilohiy tamoyillarda tengligi ta'kidlangan. Misol uchun, Shakti (ayol kuchi) va Shiva (erkak kuchi) o'rtasidagi muvozanat Hind tasavvurida muhim ahamiyatga ega. Biroq, keyinchalik Hind ijtimoiy tizimida (ayniqsa, Manu Smritida) ayollarning ijtimoiy rollari cheklangan va ular erkaklarning qo'llab-quvvatlovchisi sifatida ko'rilgan. Shunday bo'lsa-da, Hind falsafasi o'zida ayol va erkakning ilohiy tamoyillarda tengligini tan olib, ularni yagona kosmik tartibda birlashtirgan [4].

Islomda jinslar (gender) tengligi masalasi Qur'on va hadislar asosida talqin qilinadi. Islomda ayollar va erkaklarning huquq va majburiyatlari teng, ammo ularning rollari farq qilishi mumkin. Islom falsafasida ayollarning huquqlari (masalan, meros, ta'lim, ish) himoya qilingan, ammo amaliyotda bu tamoyillar turli madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Islomda ayollar va erkaklar o'rtasida tenglik tamoyillariga asoslangan fikrlar mavjud. Qur'onda, barcha insonlar, erkak yoki ayol bo'lsin, Alloh oldida tengdirlar. Ularning har biri o'z faoliyati va niyatiga ko'ra savob va jazoga duchor bo'ladi. Islomda ayollarning ta'lim, meros va ish huquqlari himoya qilingan [5].

Shunga qaramay, islomda erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha ijtimoiy va diniy an'analariga bog'liq bo'lib, bu ayrim jamiyatlarda ayollarni pastroq rolda ko'rsatilgan. Agar Islomda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik tamoyili mavjud bo'lsa-da, bu qarashlar qadim zamonlardan boshlab ijtimoiy amaliyotga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, ayollarning o'qishi, ishlashi yoki jamoat hayotida faol ishtiroki ba'zi musulmon jamiyatlarida cheklangan bo'lishi mumkin. Biroq, zamonaviy islomiy feminist harakatlar bu tushunchalarni yangilab, ayollarga berilgan huquqlarni kengaytirishga qaratilgan.

Zamonaviy jihatdan xotin-qizlarning ijtimoiy va jismoniy faolligi ilmiy-falsafiy nuqtayi-nazardan, ularning ayrim jihatlari ijtimoiy-gumanitar izlanishlarda V. Alimasov tomonidan o'rganilgan.

Sharq tafakkurida gender tengligi masalasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib bormoqda. XXI asrda, globalizm, modernizm va feminist harakatlarning ta'siri bilan gender tengligi masalasi yana bir bor ko'tarilgan. Sharq jamiyatlarida ayollarning o'z huquqlarini himoya qilish va jamiyatda faol o'rin egallashga bo'lgan intilishlari kuchaygan [6]. Masalan, boshqaruvda ayollarning ishtiroki, ta'limda gender tengligi, mehnat bozoridagi teng imkoniyatlar kabi masalalar yangi davr falsafasining asosiy jihatlariga aylanmoqda.

Xulosa va takliflar. Sharq tafakkurida gender tengligi falsafasi ko'plab murakkab va ko'p qirrali masalalarni o'z ichiga oladi. Bu tafakkur jamiyatdagi tarixiy va madaniy omillarni hisobga olgan holda, erkak va ayol o'rtasidagi ro'l taqsimoti, ijtimoiy tenglik va qadriyatlar asosida shakllanadi. Biroq, zamonaviy davrda bu tushunchalar yangilanib, gender tengligi masalasi global miqyosda muhim mavzuga aylangan. Sharqdagi turli falsafiy tizimlar va diniy e'tiqodlar, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynashda davom etadi.

Sharq falsafasida gender tengligi g'oyasi turli madaniy, diniy va falsafiy kontekstlarda har xil talqin qilingan. Sharq falsafasida gender munosabatlari ko'pincha muvozanat, hamjihatlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida tushuntiriladi. Zamonaviy dunyoda Sharq falsafiy an'analari gender tengligi g'oyalari bilan uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. –B.366-369.
2. Alimasov V.A. Gender falsafasi. -T.: Falsafa va huquq, - 2008.- 24-b.
3. Konfutsiy hikmatlari. Ruschadan Komiljon va Oybek Jo'rayevlar tarjimasi. Toshkent. 2010.172 b.
4. O'razalieva G. Gender va ayollar huquqiy madaniyati. –Toshkent: 2009.
5. Qur'oni Karim oyatlari mazmun ma'nosining O'zbekcha izohli tarjimasi / tarj. A. Inoyatov. –Toshkent: Hilol-nashr. 2022. -688 b.
6. Djabbarova H. Use of feminism in modern philosophy //Thematics Journal of Social Sciences. – 2023. – T. 9. – №. 1.
7. Jabbarova H. Philosophical concepts of masculinity and femininity in ancient philosophy //International Journal of Engineering Mathematics (Online). – 2024. – T. 6. – №. 1.



Bobur JO'RAYEV,
Mustaqil izlanuvchi
E-mail: boburjoyayev72@gmail.com

O'ZDJTU dotsenti, siyosiy fanlar doktori S. Saidov taqrizi asosida

HARBIY OPERATSIYALAR DAVOMIDA KUCH TUZILMALARI, HOKIMIYAT ORGANLARI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI HAMKORLIGINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning ilmiy-nazariy tahlili keltirilgan. Harbiy operatsiyalarning siyosiy barqarorlik, ijtimoiy hayot va iqtisodiyotga ta'siri misollar bilan ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ushbu hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun sinergiya, institutsionalizm, ijtimoiy kapital va konfliktologiya kabi nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy urushlarning evolyutsiyasi, gumanitar inqirozlar va global xavfsizlik tahdidlari kontekstida hamkorlikning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Harbiy operatsiyalar, kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari, fuqarolik jamiyati, hamkorlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy inqiroz, iqtisodiy ta'sir, sinergiya, global xavfsizlik.

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF COOPERATION BETWEEN POWER STRUCTURES, GOVERNMENT BODIES, AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS DURING MILITARY OPERATIONS

Annotation

The article provides a scientific-theoretical analysis of cooperation between power structures, government bodies, and civil society institutions during military operations. It examines the impact of military operations on political stability, social life, and the economy, supported by examples. The analysis is based on the theoretical approaches such as synergy, institutionalism, social capital, and conflictology to enhance the effectiveness of this cooperation. The article highlights the relevance of such collaboration in the context of the evolution of modern warfare, humanitarian crises, and global security threats.

Key words: Military operations, power structures, government bodies, civil society, cooperation, political stability, social crisis, economic impact, synergy, global security.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОТРУДНИЧЕСТВА СИЛОВЫХ СТРУКТУР, ОРГАНОВ ВЛАСТИ И ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ПЕРИОД ВОЕННЫХ ОПЕРАЦИЙ

Аннотация

Статья представляет научно-теоретический анализ сотрудничества между силовыми структурами, органами власти и институтами гражданского общества в период военных операций. Рассматривается влияние военных операций на политическую стабильность, социальную жизнь и экономику с приведением примеров. Анализ основан на теоретических подходах, таких как синергия, институционализм, социальный капитал и конфликтология, для повышения эффективности этого сотрудничества. В статье подчеркивается актуальность такого взаимодействия в контексте эволюции современных войн, гуманитарных кризисов и глобальных угроз безопасности.

Ключевые слова: Военные операции, силовые структуры, органы власти, гражданское общество, сотрудничество, политическая стабильность, социальный кризис, экономическое воздействие, синергия, глобальная безопасность.

Harbiy operatsiyalar har doim davlatlarning xavfsizligini ta'minlashda va milliy manfaatlarini himoya qilishda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'lgan. Ular davlatlarning xalqaro siyosiy maydondagi mavqei belgilash, ichki barqarorlikni ta'minlash va milliy xavfsizlikka qarshi qaratilgan tahdidlarga qarshi choralar ko'rishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq harbiy operatsiyalarni nafaqat harbiy kuchlarning harakatlari bilan, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog'liq deb hisoblash lozim. Ularning ta'siri milliy va xalqaro darajada keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir etadi, bu esa ularning chuqurroq ilmiy-nazariy tahlilini talab qiladi.

Harbiy operatsiyalar siyosiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular davlatni xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ko'pincha ichki va tashqi siyosiy muvozanatni o'zgartirishi mumkin. Masalan, harbiy to'ntarishlar yoki tashqi aralashuvlar natijasida siyosiy tuzilish tubdan o'zgarishi, hokimiyatning yangi shakllari yoki boshqaruv usullarining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Misol sifatida 1980-yilda Turkiyada sodir bo'lgan harbiy to'ntarishni ko'rsatish mumkin. Ushbu voqea mamlakatda siyosiy qutblanishni keskinlashtirgan, fuqarolik jamiyatining siyosiy jarayonlarga ta'sirini cheklagan va iqtisodiy tanazzulni kuchaytirgan edi. Harbiy to'ntarishdan keyin mamlakatda iqtisodiy islohotlar va siyosiy barqarorlikka

qaratilgan qator choralar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ijtimoiy-siyosiy oqibatlari uzoq vaqt davomida sezilgan.

Harbiy operatsiyalarning ijtimoiy hayotga ta'siri yanada murakkab. Urushlar va boshqa harbiy operatsiyalar nafaqat bevosita qurbonlarga, balki butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Urushlar natijasida ijtimoiy inqiroz yuzaga keladi, aholining qashshoqlashishi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining tanazzuli kuzatiladi. Bundan tashqari, urushlar aholi orasida ruhiy travmalar va psixologik buzilishlarga olib keladi. Masalan, Ikkinchi Jahon urushidan keyingi Germaniyada "yo'qotilgan avlod" fenomeni kuzatilgan bo'lib, bu o'z navbatida ijtimoiy qayta qurilish jarayonlarini murakkablashtirgan. Shu sababli, harbiy operatsiyalar ijtimoiy kapitalni tiklash va jamiyatni barqarorlik sari yo'naltirish uchun kuchli rejalashtirishni talab qiladi.

Harbiy operatsiyalarning iqtisodiy ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Urushlar va qurolli mojarolar iqtisodiy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga, ishlab chiqarish jarayonlarining buzilishiga va milliy iqtisodiyotning zaiflashishiga olib keladi. Masalan, Iroq urushi davrida mamlakatning neft eksporti sohasida jiddiy yo'qotishlar kuzatildi, bu esa iqtisodiy inqiroz va tashqi qarzlarning o'sishiga olib keldi. Shu bilan birga, urushlar iqtisodiy infratuzilmaning tanazzuliga va investitsiyalarning kamayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, harbiy operatsiyalar ko'p hollarda inflyatsiya, ishsizlik

darajasining oshishi va ijtimoiy ta'minot tizimining zaiflashishini keltirib chiqaradi.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligi alohida ta'kidlanishi lozim. Bunday hamkorlik harbiy operatsiyalarning samaradorligini oshirish va ularning salbiy ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini kamaytirish uchun zarurdir. Masalan, tabiiy ofat yoki insoniy krizis holatlarida harbiy va fuqarolik tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik aholiga yordam ko'rsatishda katta rol o'ynaydi. Bunday misolni AQShdagi Favqulodda vaziyatlarni boshqarish federal agentligi (FEMA) faoliyatidan ko'rish mumkin. U tabiiy ofatlar va texnogen holatlarda harbiy tuzilmalar va nodavlat tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qiladi.

Xalqaro maydonda harbiy operatsiyalarning ta'siri tobora ortib bormoqda. Katta davlatlar o'z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun xalqaro huquq normalarini buzgan holda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashishadi. Bunday harbiy aralashuvlar ko'pincha jiddiy ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga sabab bo'ladi. Masalan, Liviyadagi harbiy aralashuv mamlakatni siyosiy va ijtimoiy tanazzulga olib kelgan, bu esa butun Shimoliy Afrika mintaqasida beqarorlikni kuchaytirgan.

Harbiy operatsiyalarni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilishda harbiy strategiyalarning evolyutsiyasi va zamonaviy urush konsepsiyalarining o'rni alohida ahamiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmida "total urush" konsepsiyasidan "cheklangan urush" konsepsiyasiga o'tish kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik zaruratini oshirdi. Sovuq urush davrida harbiy harakatlar ko'pincha bevosita qarama-qarshiliklardan ko'ra iqtisodiy va ideologik kurash shaklida namoyon bo'ldi. Bu esa, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ko'plab murakkab siyosiy inqirozlarga sabab bo'ldi. Masalan, Vetnam urushi davomida AQSh va Shimoliy Vetnam o'rtasidagi ziddiyat nafaqat jang maydonida, balki dunyo bo'ylab ommaviy norozilik namoyishlari va fuqarolik jamiyati harakatlariga ham sabab bo'ldi.

Globalizatsiya davrida harbiy operatsiyalarning ta'siri yanada ko'p qirrali bo'lib bormoqda. Xususan, zamonaviy urushlar ko'p hollarda iqtisodiy, axborot va kiber maydonlarda olib boriladi. Kibermakon xavfsizligi masalalari harbiy operatsiyalarning yangi fronti sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, Estoniyaga qarshi 2007-yilda amalga oshirilgan keng ko'lamli kiberhujum mamlakatning siyosiy barqarorligiga jiddiy xavf solgan edi. Ushbu hujum natijasida nafaqat davlatning axborot infratuzilmasi, balki uning iqtisodiy tizimi ham zarar ko'rdi. Bu kabi hujumlar milliy xavfsizlik masalalarida fuqarolik sektorining faolligini oshirish va kuch tuzilmalari bilan yanada yaqin hamkorlikni talab qiladi.

Gumanitar inqirozlar harbiy operatsiyalarning bevosita oqibatlaridan biridir. Masalan, Suriya fuqarolar urushi natijasida yuzaga kelgan gumanitar inqiroz butun dunyo e'tiborini jalb qildi. O'nlab millionlar qochqinlar va ko'chirilgan shaxslar sifatida yangi yashash joylarini izlashga majbur bo'ldi. Bu holat xalqaro hamjamiyatning, jumladan, harbiy alyanslar va nodavlat tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatini talab qildi. Xalqaro harbiy operatsiyalar davomida gumanitar yordam ko'rsatish va tinchlikni tiklash faoliyatlari o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida amalga oshiriladi. Bunday operatsiyalar davomida inson huquqlariga rioya qilish va xalqaro gumanitar huquq qoidalariga amal qilish muhimdir.

Birinchi navbatda, harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi sinergiya tushunchasiga e'tibor qaratish lozim. Sinergetik nazariya tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u har qanday tizimning (harbiy, davlat va jamiyat tizimlari) komponentlari birgalikda faoliyat yuritganda alohida komponentlar tomonidan erishiladigan natijalardan yuqori samaradorlikka erishilishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik sektorining birlashgan faoliyati orqali kompleks muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Harbiy operatsiyalar doirasida hokimiyat organlarining roli strategik qarorlarni qabul qilish va resurslarni taqsimlash bilan

cheklanmaydi. Davlat organlari harbiy operatsiyalar davomida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, axborot kommunikatsiyasi va aholining ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi. Shu ma'noda, hokimiyat organlarining institutsional yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Institutsionalizm nazariyasiga ko'ra, har bir institut o'ziga xos vazifalari va funksiyalariga ega bo'lib, ular muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilganda tizimning barqaror ishlashi ta'minlanadi. Davlatning asosiy roli xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, harbiy operatsiyalar davomida inson huquqlari va qonun ustuvorligini kafolatlashdan iboratdir.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi axborot almashinuvi masalasi ham muhimdir. Bu yerda tizimli yondashuv tamoyillari qo'llaniladi. Tizimli yondashuv, birinchi navbatda, murakkab tizimlarning bir-biriga bog'liq bo'lgan komponentlarini tahlil qilish va ularning o'zaro ta'sirini boshqarishni talab qiladi. Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari operativ ma'lumotlarni yetkazib beradi, hokimiyat organlari esa ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, zarur qarorlarni qabul qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari esa ushbu qarorlarning bajarilishini ta'minlashda ko'maklashadi. Bu hamkorlikning muvaffaqiyati tezkorlik, aniqlik va ishonchlilik kabi omillarga bog'liq.

Shuningdek, harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda konfliktologik yondashuv tamoyillari qo'llaniladi. Konfliktologiya nazariyasiga ko'ra, har qanday ijtimoiy muammo yoki nizolarni hal qilish jarayonida barcha tomonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Ushbu nazariya harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirishga va ularni samarali hamkorlikka yo'naltirishga xizmat qiladi. Masalan, tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlarda harbiy va fuqarolik tuzilmalarining birgalikdagi faoliyati inson hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tajribalar ham harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini tasdiqlaydi. Masalan, NATOning Afg'onistondagi operatsiyalari davomida harbiy va gumanitar tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu tajriba kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ishonchni oshirish va harakatlarni muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni o'rganishda yana bir muhim ilmiy yondashuv — "gibrid urush" konsepsiyasini tahlil qilish lozim. Gibrid urushlar harbiy kuchlar, iqtisodiy bosim, axborot hujumlari va boshqa noan'anaviy vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu urushlar jarayonida nafaqat harbiy tizimlar, balki davlat boshqaruv organlari, mahalliy fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro hamjamiyat ham jalb etiladi. Bu, ayniqsa, Ukraina inqirozida yaqqol namoyon bo'ldi. Rossiya tomonidan olib borilgan gibrid urush Ukrainada fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlarning o'rni qanchalik muhim ekanligini ko'rsatdi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan sanksiyalar, gumanitar yordam dasturlari va diplomatik muzokaralar ham ushbu jarayonning muhim qismi bo'ldi.

Harbiy operatsiyalar doirasida hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga" boshqaruv modelini hisobga olish lozim. "Yuqoridan pastga" boshqaruv modeli davlat hokimiyati organlari tomonidan harbiy operatsiyalarni muvofiqlashtirish va rahbarlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu model ko'pincha markazlashgan qaror qabul qilishni talab qiladi, bu esa tezkor javob choralari uchun muhimdir. Ammo ushbu modelning cheklavlari ham mavjud: markaziy boshqaruvning ortiqcha yuklanishi, mahalliy ehtiyojlarning yetarlicha hisobga olinmasligi yoki tezkor axborot almashinuvining sustligi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. "Pastdan yuqoriga" model esa mahalliy jamoalar va fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbuskorligi, ular orqali muammolarga yaqin yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, tabiiy ofatlarda yoki ichki nizolar davomida mahalliy

jamiyatlarning muammolari hal etishdagi faol ishtiroki ushbu modelning afzalliklarini namoyon qiladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikka yangi imkoniyatlar yaratdi. Raqamli kommunikatsiyalar fuqarolar bilan tezkor aloqa o'rnatish, ularning xavfsizlikka oid ehtiyojlarini tezkor aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari orqali noto'g'ri ma'lumot tarqalishi, ijtimoiy manipulyatsiyalar va kiberxavfsizlikka tahdidlar paydo bo'lishi mumkin. Bu xavf-xatarlarga qarshi choralar ko'rishda kuch tuzilmalari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari birgalikda harakat qilishi talab etiladi. Masalan, Estoniya 2007-yilda duch kelgan kiberhujumlardan so'ng, fuqarolik va harbiy sektorlardan iborat yagona axborot xavfsizligi tizimini yaratdi. Bu tizim xalqaro miqyosda "Kiberhujumlarga qarshi koalitsiya" deb nomlanib, yangi yondashuvga asoslangan edi.

Harbiy operatsiyalar davomida hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim qismi bu — "axloqiy va huquqiy tamoyillarni hisobga olishdir". Xalqaro huquq me'yorlari harbiy harakatlar davomida inson huquqlari va insonparvarlik tamoyillariga rioya qilishni

talab qiladi. Bu tamoyillarning buzilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan jiddiy norozilikka sabab bo'ladi va harbiy operatsiyalarni murakkablashtiradi. Shu ma'noda, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati harbiy operatsiyalarni qonuniy asosda olib borishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Qizil xochning insonparvarlik missiyalari yoki BMTning tinchlikparvar operatsiyalari xalqaro huquqni amalga oshirishning amaliy misollari sifatida qoraladi.

Global xavfsizlik tahdidlari, jumladan, terrorizm, transmilliy jinoyatchilik va ekologik inqirozlar harbiy operatsiyalarning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini qayta ko'rib chiqishga olib kelmoqda. Ushbu yangi tahdidlar kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyatining yagona tizim sifatida ishlashini talab qiladi. Ayniqsa, ekologik inqirozlar (masalan, iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar) xalqaro miqyosda birgalikdagi harakatlarni talab etadi. Misol tariqasida AQShning Favqulodda vaziyatlarni boshqarish federal agentligi (FEMA) agentligi tomonidan tabiiy ofatlarga qarshi harbiy va fuqarolik koalitsiyalari tashkil etilishini keltirish mumkin. Bu jarayonda muhim omil — aholining ishonchini oshirish va ularni xavfsizlik choralariga jalb qilishdir.

ADABIYOTLAR

1. Duran B. Military and Politics in Turkey: 1980 Coup and Its Impact. Journal of Modern Political History. P 10-15. 2020 y.
2. Keegan J.A. History of Warfare. Vintage Books. p 432. P 245-260. 1993 y.
3. Stiglitz J.E., & Bilmes, L.J. The Three Trillion Dollar War: The True Cost of the Iraq Conflict. W.W. Norton & Company. p 311. P 75-92. 2008 y.
4. Haddow G.D., Bullock, J.A., & Coppola, D.P. Introduction to Emergency Management. Butterworth-Heinemann. p 497. P 210-225. 2020 y.
5. Goodhand J. Aiding Peace? The Role of NGOs in Armed Conflict. Lynne Rienner Publishers. p 298. P 120-135. 2004 y.
6. Kuperman A. J. Intervention and Statebuilding: The Case of Libya. Routledge. p 256. p 89-105. 2015 y.
7. Herring G.C. America's Longest War: The United States and Vietnam, 1950-1975. McGraw-Hill. p 394. P 201-215. 2001 y.
8. Rid T. Cyber War Will Not Take Place. Oxford University Press. p 288. P 89-102. 2012 y.



Ma'muraxon IBROXIMOVA,

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti

E-mail: alijons167@gmail.com

O'zMU professori D.Muamedova taqrizi asosida

CHARACTERISTICS OF THE STUDY OF THE PROBLEM OF PSYCHODIAGNOSTICS SYSTEM IN MANAGEMENT

Annotation

This article analyzes the specific aspects of studying the problem of the psychodiagnostic system in modern management psychology. The role of psychodiagnostic methods and methodologies in the development of managerial personnel and employees in the field of management and in increasing organizational efficiency is studied, and their importance is substantiated from a scientific point of view. Also, the problems of psychodiagnostic approaches in social research today, in particular, the use of psychodiagnostic methods in management psychology, are considered.

Key words: Assessment of emotional, intellectual and social skills, effective human resource management, validity and reliability.

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ ПСИХОДИАГНОСТИКИ В УПРАВЛЕНИИ.

Аннотация

В данной статье анализируются особенности изучения проблемы психодиагностической системы в современной психологии управления. Изучена роль методов и методологии психодиагностики в развитии руководящих кадров и сотрудников в сфере управления и повышении эффективности организации, с научной точки зрения обоснована их значимость. Также сегодня в социальных исследованиях рассматриваются психодиагностические подходы, в частности, проблемы использования психодиагностических методов в психологии управления.

Ключевые слова: Оценка эмоциональных, интеллектуальных и социальных навыков, эффективное управление человеческими ресурсами, валидность и надежность.

BOSHQARUVDA PSIXODIAGNOSTIKA TIZIMI MUAMMOSINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy boshqaruv psixologiyasida psixodiagnostika tizimi muammosini o'rganishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Psixodiagnostika metodlari va metodologiyasining boshqaruv sohasidagi rahbar kadrlar va xodimlarni rivojlantirish hamda tashkilot samaradorligini oshirishdagi roli o'rganilib, ularning ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan asoslanadi. Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy tadqiqotlarda psixodiagnostik yondashuvlar, xususan, boshqaruv psixologiyasida psixodiagnostika usullaridan foydalanish muammolari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Hissiy, intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarni baholash, inson resurslarini samarali boshqarish, validlik va ishonchlilik.

Kirish. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar doirasida, davlat fuqarolik xizmatini yuqori malakali va istiqbolli kadrlar bilan ta'minlash, ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy texnologiyalar asosida baholash hamda faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining "Rahbar kadrlarni baholash markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida ko'rishimiz mumkinki, rahbar kadrlarning kasbiy bilimi, qadriyatlar va aqliy salohiyatini aniqlash bo'yicha test sinovlari hamda psixologik so'rovnomalarni o'tkazish, faoliyat samaradorligini monitoring qilish, kadrlar ehtiyojini prognoz qilish va ularni tanlash jarayonida raqamli texnologiyalar va innovatsion baholash usullarini keng joriy etish zarurligi ta'kidlanganligi, shuningdek, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar asosida kompetensiyalar modelini va kompetensiyalarni baholash natijalari asosida rahbar kadrlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish singari ustuvor yo'nalishlar belgilab berilganligi, boshqaruv jarayonida psixodiagnostika usullariga bo'lgan ehtiyojni dolzarb masala ekanligini asoslaydi [1]. Boshqaruvda psixodiagnostika tizimi muammosini o'rganish, birinchi navbatda, zamonaviy boshqaruv strukturalarining samaradorligini ta'minlashda psixologik jihatlarning ahamiyatini anglashni taqozo etadi. Hozirgi kunda tashkilotlar va korxonalar, inson resurslari boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqishda psixologik diagnostikani kuchaytirishga intilmoqda. Bu jarayon, xususan, jamoa dinamikasi, rahbarlik uslublari va xodimlar motivatsiyasi singari masalalar bilan chambarchas bog'liqdir [10]. Psixodiagnostika, keng ma'noda, rahbar va xodimlarning hissiy, intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan

vosita sifatida qaraladi va bu, o'z navbatida, korxonaning maqsadlariga erishish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Psixodiagnostika tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida, bir qator amaliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ular orasida metodologik to'g'ri tanlov, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning boshqaruv jarayonida qanday qo'llanilishi kabi masalalar jamlanadi. Shuningdek, bu jarayonlarda insoniy omillarni hisobga olish, ya'ni, xodimlarning individual xususiyatlarini va ularning ish motivatsiyasini o'rganish hamda bu ma'lumotlarni strategik qarorlar qabul qilishda qanday foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv talablariga javob beradigan psixodiagnostika tizimining o'ziga xosligi, uning ko'p qirrali yondashuvi va malakali psixologlar tomonidan uslubiy jihatdan tayyorlanayotgan algoritmlar asosida rivojlanishi bilan belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, psixologik xizmat ko'rsatish sohasida yangiliklar va innovatsiyalarni talab qiladi. Psixodiagnostika metodlariga tayanib, bu tizimlar nafaqat bugungi kunda tashkilotlarda barqarorlik yaratishga, balki kelajakda ham xodimlar bilan turli ijtimoiy-psixologik sharoitlarni hisobga olgan holda samarali ravishda ishlashini ta'minlaydi deyishimiz mumkin. Eng muhimi, bu jarayon boshqaruvda ilg'or tamoyillarni qo'llash va e'tiborni psixologik xususiyatlarga qaratish, psixodiagnostikaning samarali tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida rahbarlarni professional boshqaruv faoliyatiga tayyorlash muammolari o'zbek psixolog olimlari G'.B. Shoumarov, E.G'. G'oziyev, V.M. Karimova, D.G. Muxamedova, Sh.X. Abdullayeva, I.I. Mahmudov, J. Qoraboyev, O.E. Hayitov,

O.R. Shamiyeva, T.M. Adizova, N. Boymurodov, N.A. Ro'ziqulov, hamda, Umumiy psixologiya fonida Psixodiagnostika usullaridan foydalanish imkoniyatlari yuzasidan A.I. Rasulov, K. Botirov, Z. Nishanova, Z. Qurbonova, S.Abdiyev, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova va boshqalar tomonidan o'rganib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Samarali boshqaruv psixologik aspektlar va inson resurslarining xulq-atvorini tushunishni talab qiladi, bu esa psixodiagnostik tizimlarni yanada rivojlantirish imkonini beradi va bundan asosiy maqsad, psixodiagnostika tizimining muammolarini aniqlash va ularni hal etish uchun zamonaviy yondashuvlarni qo'llashdan iboratdir. Bu yondashuvlar o'z ichiga metodologik yangiliklar, ilmiy tadqiqotlardan olingan yangi natijalar va mulohazalar asosida psixologik diagnostikalarining amaliyotda qo'llanilishini inobatga oladi[7].

Bundan tashqari, ko'zlangan maqsadlar qatoriga, psixodiagnostik tizimlarning o'zaro integratsiyasini va o'zaro ta'sirini kengaytirishni, shuningdek, boshqaruv jarayonlarida xulq-atvor va psixologik xususiyatlarni o'rganishni kiritish mumkin. Ushbu yo'nalishlar orqali inson resurslari, strategik rejalashtirish va tashkilot ichidagi munosabatlarni yaxshilashga erishish mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada rahbar shaxs psixodiagnostikasi va rahbarlardagi kompetentlik masalalari bo'yicha I.I.Mahmudov, J. Qoraboyev, O.E. Hayitov kabi olimlarning, shuningdek, shaxsni o'rganish usullari va metodikalari yuzasidan A.I. Rasulov singari tadqiqotchi olimlarning qimmatli ilmiy natijalari metodologik asos sifatida qabul qilingan.

Psixologik diagnostika, boshqaruv tizimlarida inson resurslarini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganishning ahamiyati, avvalo, tashkilotlar ichida psixologik jihatdan sog'lom muhitni yaratish bilan bog'liq. Psixodiagnostik metodlar orqali rahbar va xodimlarning psixologik salomatligini baholash, shuningdek, ularning potensial imkoniyatlarini ochib berish, har bir rahbar yoki xodimni yanada rivojlantirish va tashkilotning umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu jarayon, o'z navbatida, xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat va hamkorlik ruhini yaratadi, bu esa boshqaruvni yanada samarali qiladi. Shuningdek, psixodiagnostika boshqaruv jarayonining boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi. Tashkilotda xodimlarning psixologik holatini aniqlash orqali rahbar, strategik rejalashtirishni amalga oshirishi va muammolarni oldini olish choralari ko'rish mumkin [4].

Bundan tashqari, psixodiagnostika metodlari yordamida o'qitilishi zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalar aniqlanishi mumkin. Tashkilotlar o'z xodimlarining psixologik ehtiyojlarini, shuningdek, o'zaro munosabatlarini o'rganish orqali yuqori samaradorlikka erishish uchun zarur ta'lim va qo'llab-quvvatlashni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, bu o'rganish jarayoni amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni, shuningdek, ichki omillar orqali tashkilotning rivojlanishini ta'minlashni kuchaytiradi. O'rganishning ahamiyati shundaki, u boshqaruv tizimining samaradorligini kuchaytirish, xodimlarning psixologik holatini yaxshilash va natijada tashkilotning raqobatbardoshligini yuksaltirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Psixodiagnostika, psixologik baholash doirasidagi intizom sifatida, aqliy funksiyalarni, hissiy holatlarni va xatti-harakatlar hodisalarini baholashga qaratilgan turli metodlarni o'z ichiga oladi. Psixodiagnostikaning tasnifi har birining o'ziga xos xususiyatlari va maxsus ilovalariga ega bo'lgan bir nechta turlarga bo'linishi mumkin. Ushbu xilma-xil yondashuvlar amaliyotchilarga individual ehtiyojlar, muayyan psixologik muammolar asosida o'z baholashlarini moslashtirishga imkon beradi. Psixodiagnostikaning mashhur turlaridan biri bu psixometrik baholash bo'lib, u kognitiv qobiliyatlarni, shaxsiy xususiyatlarni va hissiy faoliyatni o'lchash uchun standartlashtirilgan testlardan foydalanadi [2]. Ular shaxsning psixologik profili haqida tushunchaga ega bo'lish uchun tahlil qiladigan miqdoriy ma'lumotlarni taqdim etadi, va bunday baholashlar samarali aralashuv strategiyalarini shakllantirishda ham yordam beradi.

Yana bir muhim toifa - bu ongsiz ongni (ongosti) chuqurroq o'rganadigan proyektiv usullar [8] bo'lib, bunda odamlar o'z fikrlari va his-tuyg'ularini noaniq stimullarda aks ettiradilar. Ushbu usullar asosan motivlar, qo'rqinlar va mojarolarni ochishga imkon beradi. Proyektiv baholash inson psixologiyasining murakkabligini ta'kidlab, insonning hissiy va kognitiv landshaftini nozik tushunishga ilhomlantiradi.

Bundan tashqari, kuzatish usullari va sifatli intervyular [22] psixodiagnostika doirasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy yoki boshqariladigan sharoitlarda to'g'ridan-to'g'ri kuzatish xatti-harakatlar va o'zaro ta'sirlar haqida kontekstga boy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin, bu esa amaliyotchilarga ruhiy salomatlik natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan naqshlarni aniqlash imkonini beradi. Aksincha, yarim tizimli intervyular mijozlar o'z tajribalarini ifodalashlari mumkin bo'lgan dialogni rivojlantiradi va yanada yaxlit baholashga yordam beradi. Bu turli xil psixodiagnostika turlari birgalikda psixologik baholashning murakkabligini ta'kidlaydi va ruhiy salomatlikni aniq o'lchash va qo'llab-quvvatlash uchun mos usulni tanlash muhimligini ko'rsatadi.

Psixodiagnostika usullari, psixologik holat va xususiyatlarni baholash uchun bir qator texnika va metodologiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar nafaqat individual psixologik profilarni aniq aniqlashga yordam beradi, balki boshqaruv amaliyotining umumiy samaradorligiga ham hissa qo'shadi. Mashhur metodlar orasida proyektiv testlar, shaxsni obyektiv baholash va xulq-atvorni kuzatish mavjud bo'lib, ularning har biri ish joyidagi inson xatti-harakatlarining murakkabligi haqida o'ziga xos tushunchalarni taqdim etadi.

Proyektiv testlarda shaxslar o'zlarining his-tuyg'ularini, istaklarini va ziddiyatlarini noaniq stimullarga ko'rsatadilar. Bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri so'roq qilish orqali erishib bo'lmaydigan asosiy motivatsiyalar va shaxsiyat tuzilmalarini ochib berishi mumkin. Baholovchilar xodimlarni tanlash, rivojlantirish va nizolarni hal qilish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida yetakchilik uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etib, keng qamrovli psixologik profilarni yaratish uchun ushbu testlarga javoblarni sharhlaydilar.

Bundan farqli o'laroq, shaxsni obyektiv baholash shaxsiy xususiyatlarni baholash uchun standartlashtirilgan ko'rsatkichlarni taklif qiladi [7]. Ushbu testlar statistik tahlil qilinishi mumkin bo'lgan miqdoriy ma'lumotlarni ishlab chiqaradi, bu rahbarlarga jamoa dinamikasi, muvofiqlik va aralashuvning potensial sohalari bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Xulq-atvorni kuzatish usullarining integratsiyasi shaxslararo o'zaro ta'sirlar va tashkiliy madaniyatni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini berib, ushbu baholashlarni yanada to'ldiradi. Xodimlarni turli kontekstlarda kuzatish orqali tashkilot rahbarlari jamoa ishiga, ishdan qoniqishga va umumiy samaradorlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar modellari aniqlashlari mumkin.

Boshqaruvda psixodiagnostika usullarini qo'llash nafaqat individual psixologik moyilliklarni tushunishni kuchaytiradi, balki sog'lom ish muhitini ta'minlash uchun asos yaratadi. Tizimli baholash va tahlil qilish orqali tashkilotlar ishchi kuchining psixologik ehtiyojlarini qondiradigan maqsadli strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin [9]. Oxir oqibat, ushbu diagnostika usullarini mohirona qo'llash rahbarlarga xodimlarning farovonligini oshiradigan va tashkilot samaradorligini optimallashtiradigan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, psixologik diagnostika yordamida shaxsiy holat va muammolarni aniqlashda foydalaniladigan vositalar, zamonaviy psixologiya va boshqaruv sohasida muhim ahamiyatga ega deyishimiz mumkin. Ushbu usullar, asosan, turli xil testlar, anketalar, shuningdek, boshqaruv tizimlarida rahbar yoki xodimlarning psixologik holatini baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan metodlar hisoblanadi. Psixodiagnostik metodlar va metodologiyalar, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatni chuqur o'rganishga imkon beradigan amaliy imkoniyatlar yaratadi [9]. Ushbu vositalar tadqiqotchilarga va amaliyotchilarga muayyan nuqtai nazardan, masalan, ish motivatsiyasi, stress darajasi yoki ijtimoiy munosabatlar kontekstida rahbar va xodimlarning psixologik ahvolini baholashda foydalanish imkoniyatini beradi.

Psixodiagnostika natijalari, psixologik testlar va boshqa diagnostik usullar yordamida olingan ma'lumotlarni ifodalaydi, shuningdek, shaxsiy, emosional va intellektual holatlarni baholashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu natijalar, odatda, insonning psixologik portretini shakllantiradi va uning shaxsiyati, xulq-atvoridagi o'zgarishlar va muammolarni aniqlashda qo'llaniladi.

Psixodiagnostika tizimi, inson psixikasini o'rganish va baholash uchun mo'ljallangan birlashgan metodlarni ifodalaydi, ushbu tizim, o'z navbatida, ko'plab psixologik nazariyalar va amaliyotlardan foydalanadi, lekin muammolarni aniqlash jarayoni o'zining murakkab tabiati bilan bog'liq [5]. Psixodiagnostika o'z ichiga olgan usullar va metodologiyalar, qiyin axborotlarni qayta ishlash, baholash metodlari, va individual farqlarni inobatga olish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga intiladi.

Mavjud muammolar, asosan, psixodiagnostika metodlarining validligi va ishonchligida yuzaga keladi. Validlik – o'lchovning haqiqatan ham o'lchashni niyat qilgan fazani aniqlash darajasini bildiradi. Ko'pincha, psixometriyada qo'llaniladigan testlar va anketalar, individual va guruh xulq-atvorining umumiy ko'rinishini aks ettirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa, shaxslarning psixologik holatlarini o'lchash va psixologik tavsiyalar berishda aniqlik yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Yarim tuzilgan intervyularda yoki kuzatuv usullarida ham, ruhiy holat va xulq-atvor o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil qilishda muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, psixodiagnostika tizimi samaradorligini oshirish uchun, psixologlarning ta'limi va tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish zarurati ham tug'iladi [6]. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va statistik usullar (SPSS, ANOVA, Python, Excel), psixodiagnostik jarayonlarga integratsiyalashishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu innovatsiyalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni ko'rib

chiqishda aniq va ishonchli yo'llarni taklif etishi mumkin, shuningdek, shaxsiy yondashuvlarni kuchaytiradi [3].

Umuman olganda, psixodiagnostika tizimidagi muammolarni hal qilish, ta'lim tizimini, metodologiyalarni va amaliyotni o'zaro bog'lashi zarur. Faqat shunda, psixologik xulosalar va tavsiyalar samarali va to'g'ri bo'lishini ta'minlash mumkin. Psixodiagnostik muammolarni o'z ichiga olgan chuqur tahlil, ilgariqlash va yangi yondashuvlarni ilgari surishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida, rahbar va xodimlar o'rtasida psixologik sog'lom muhitni va tashkilot samaradorligini yaxshilashga imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar. Psixodiagnostika jarayonida qo'llaniladigan usullar, masalan, anketalar, intervyu va standartlashtirilgan testlar, har bir shaxsning individual xususiyatlarini va ularning amaliy hayotga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga yordam beradi. Natijalar shaxsiy muammolarni aniqlashdan tashqari, professional faoliyat ko'rsatkichlarini ham baholashda muhimdir. Misol uchun, ish joyidagi stress, jamoa ichidagi munosabatlar yoki liderlik qobiliyatlari kabi omillar psixodiagnostika orqali aniq ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, korxona boshqaruvida, psixologik salomatlik va ish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Natijalar, nafaqat individual rivojlanish, balki tashkilotning umumiy psixologik muhitini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, psixodiagnostika natijalari ko'pincha, individual treninglar yoki rivojlanish dasturlarini yaratishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Bunda, natijalar yordamida aniqlangan muammolar va ehtiyojlar asosida muayyan strategiyalar ishlab chiqiladi hamda shaxsga mos yondashuvlar tavsiya etiladi. Shu orqali, psixodiagnostika nafaqat baholash, balki shaxsni rivojlantirish va uning psixologik holatini yaxshilashda faol vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada, psixodiagnostika natijalari zamonaviy boshqaruv tizimlarida muhim o'rin tutishi, inson omilini kiritish va rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 04.10.2024 yildagi 629-son <https://lex.uz/ru/docs/7131978>
2. Xaydarov F.I., N.I.Xalilova., Umumiy psixologiya (darslik) - T: – 2010. -321 b.
3. Maxmudov I.I., J.Qoraboyev Psixodiagnostik ekspert tizimi – Akademiya, T – 2014. - 104-b.
4. Maxmudov I.I., J.Qoraboyev Rahbar shaxs psixodiagnostikasi – Akademiya, T:– 2013. - 118-b.
5. Otamuratov R., Toshbekov H. Psixologik xizmat sohasidagi muammolar va yechimlar //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 16-22.
6. Rasulov A.I. Psixodiagnostika. O'quv metodik qo'llanma. – T.: 2010.
7. Rasulov A.I. Psixodiagnostika: Shaxsning o'rganish metodlari va metodikalari / Monografiya – T: 2019 y. – 199 b.
8. S.X. Jalilova, N.A. G'avibova. Umumiy psixodiagnostika. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 260 b.
9. Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. – М. Изд-во Института Психотерапии. 2002 – 337 с.
10. Хайитов, О.Э. (2020). Моделирование психологической компетентности руководителя: концептуальный эмпирический анализ. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 526–540.



UDK:324

Nozimaxon IMOMOVA,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: imomovanozima4@gmail.com

Professor, siyosiy fanlar doktori O.Musayev taqrizi asosida

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI BOSHQARUVCHI DAVLAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI IJTIMOIIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada tashqi mehnat migratsiyasini boshqaruvchi davlat tashkilotlari faoliyatida ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish va mehnat migrantlari hamda ularning oila a'zolarini qonuniy ximoyasini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asosan mehnat migratsion jarayonlarni tuzilishi va harakatlanishida davlat boshqaruv mexanizmining asosiy xususiyatlarini tahlil qilishni talab etilishi izohlangan.

Kalit so'zlar: Mehnat migratsiyasi, tendensiya, xuquqiy himoya, xalqaro mehnat bozori, mamlakat.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ, УПРАВЛЯЮЩИХ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИЕЙ ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕССЫ

Аннотация

В данной статье поясняется, что для разработки государственной политики по регулированию социальных процессов и совершенствованию правовой защищенности трудовых мигрантов и членов их семей в деятельности государственных организаций, управляющих внешней трудовой миграцией, главным образом требуется проанализировать основные особенности механизма государственного управления в структуре и движении процессов трудовой миграции.

Ключевые слова: Трудовая миграция, тенденция, правовая защита, международный рынок труда, страна.

THE IMPACT OF THE ACTIVITIES OF STATE ORGANIZATIONS MANAGING FOREIGN LABOR MIGRATION ON SOCIAL PROCESSES

Annotation

This article explains the need to analyze the main features of the state management mechanism in the structure and operation of labor migration processes in order to develop a state policy to regulate social processes in the activities of state organizations managing external labor migration and improve the legal protection of labor migrants and their family members.

Key words: Labor migration, trends, legal protection, international labor market, country.

Kirish. Mehnat migratsiyasi jarayonlari eng ko'p ta'sir etuvchi subyekt sifatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Asosan ushbu jarayon ishtirokchilari sifatida mamlakat aholisiga hos bo'lgan diasporalar, ijtimoiy qatlam va xalqaro migrantlar guruxlari hisoblanadi. Ushbu harakatlanayotgan guruxlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy va madaniy oqibatlariga duchor bo'lishi kuzatiladi.

Harakatlanayotgan mehnat muhojirlari hayotida ahloqiy va madaniy muxit bilan ijtimoiy moslashuvi, adaptatsiya jarayoni asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Odatda migrantlar qanchalik ijtimoiy faol xarakterda bo'lmasinlar, chet mamlakatning ijtimoiy-ahloqiy muhitdagi imkoniyatlardan foydalanishlari, yangi hayot tarzida yashashi oson bo'lmaydi. Migrantlarning til, ta'lim, an'analar xaqida tasavvur, axloqiy meyorlarini o'rganganligi an'analariga moslashuvi, ijtimoiy himoyaga ega bo'lishlari migrantlar assimilyatsiyasi uchun eng yaxshi yechim hisoblanadi. Ularni qabul qiluvchi mamlakat tilida mukammal muloqot qila olishi, ratsipiyent mamlakatning mutahassislik diplomiga ega bo'lishi migrant uchun integratsiyalashuviga va adaptatsiya qiyinchiliklarini yengishga ko'mak beradi.

Adaptatsiya jarayonining iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy qiyinchiliklari bilan bir qatorda marginallashtirish, diskriminatsiya, razizm, ksenofobiya kabi ijtimoiy-ahloqiy muammolari kam mavjud bo'lib, migrant va uni qabul qiluvchi jamiyat ushbu muammolarni birgalikda yengishlari lozim.

Asosiy qism. Amerika sotsiologiyasida, muhojirlarning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslasha olmasligi holatini ko'rsatish uchun paydo bo'lib, Chikago sotsiologik maktabi vakillari tomonidan keng talqin qilingan. Buning yaqqol misoli sifatida

R.Parkning ilmiy izlanishlari bilan bir qatorda, Tomas va Znanesskiy asarlarida ("Polyak dehqonlarining amerikaga maktubi...") empirik tadqiqotlar orqali namoyon etgan.

Ushbu jarayonni R.Park nafaqat jamiyat farovonligiga tahdid sifatida, balki ijobiy hislatini ham ifoda eta oldi. Unga ko'ra "marginal shaxs" turli jamoalar, xalqlar va irqning turli madaniyatlariga hos bo'lgan nizolarida, bular oson chiqib ketishini oqibatida bir vaqtning o'zida ikki mamlakat mavjud bo'lishga imkon beradi, natijada esa ularni har ikki davlatga nisbatan kosmopolit va begona roliga qabul qilishiga majbur bo'ladi. Bunday shaxslar o'zining madaniy muhitiga nisbatan kengroq dunyoqarashga, nafis intellektga, mustaqil va oqilona qarashlarga ega bo'lgan shaxsga aylanadi[5].

Bizning fikrimizcha, marginallashtirish tufayli jamiyatni ma'naviy qarashlari, qadriyatlarini yo'q bo'lish jarayoni, ijtimoiy guruhlarining yemirilishi, kishilar o'rtasidagi an'anaviy aloqalarning uzilishi, umuminsoniy meyorlar va qadriyatlarning yakson bo'lishi, shaxslarning ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishli bo'lgan obyektivlikni yo'qotilishi, estetik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy munosabatlarning notug'ri shakllanishi sifatida ta'riflash mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mavjud farqlarning tobora ortishi ham bu jarayonlarni jadallashtirishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sabab, mehnat migratsiyasi jamiyat aholisining ijtimoiy farovonligining hozirgi bosqichida migratsiyaning o'ziga munosib ish topishi va yuqori daromad olish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi hisoblanib, iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlarda ish o'rinlari yetarli emasligi va ish haqining nisbatan kam ekanligi muammolarini hal etishning asosiy jixatiga aylandi.

Mehnati migratsiyasini tahlil etar ekanmiz, birinchi navbatda inson kapitalining davlat iqtisodiy rivojlanishining ichki

ta'siri xaqida to'xtalamiz. Bunday yondoshuv xalqaro mehnat almashinuvi bo'yicha mutaxassis, rus iqtisodchisi Y.A.Yanovskiy[6] fikriga ko'ra, mehnat migrantlarining daromadi o'zini va oila a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlaydi, demak, bu orqali mamlakat iqtisodiy o'sadi, shu bilan birga mutahassisligi va sohasi buyicha malakaga ega bo'ladi.

Bugungi kunda migratsiyani keltirib chiqaruvchi omil dunyoning barcha davlatlarini qamrab olgan. Undagi ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri tashqi mehnat migratsiyasini shakllantiruvchi omillari O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasini jadallik bilan o'sib borishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun, O'zbekiston xorijda mehnat migratsiyasining yuqori ko'rsatkichlari qayd etilgan davlatlar qatoriga kiradi. Ayni vaqtda O'zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, tashqi mehnat migrantlari mamlakat umumiy mehnat resurslarining qariyb 22 foizini tashkil qiladi. 1991 yildan 2023 yilgacha O'zbekistonda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mustaqillikdan keyin rivojlanish davri 4 bosqichga ajratib, ularning har biri ma'lum demografik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar makro (yuqori) darajada tashqi mehnat migratsiyasining shakllanishiga ta'sir etishi bilan tavsiflandi:

1) 1990-2000 yillarda doimiy yashash uchun rus, yahudiy, tojik millatiga mansub fuqarolarning xorij tomon intilishi migratsiya oqimining ortishi natijasida sodir bo'lgan. Shu o'rinda O'zbekiston iqtisodiyotidagi ilk rivojlanish bosqichidagi inqirozlar sababli ko'plab O'zbekiston fuqarolarining majburan xorijga tirikchilik tufayli ketishi bilan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

2) 2000 yilda iqtisodiy o'sishning tezlashish davri bo'lib, 2001 yilda o'zbekistonliklarning aksariyat qismi Rossiyaga mehnat muxojiri ko'plab bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. Mehnat migrantlari vatanimizga yiliga o'rtacha 4 mlrd. AQSH dollari miqdorida pul mablag'lari yuborib, O'zbekiston iqtisodiyotining muhim bir bo'lagi bo'lib shakllandi.

1.Jadval

Mehnati migrantlarining pul o'tkazmalari dinamikasi 2000-2020 yillarda dunyoning ba'zi mamlakatlarida.

№	Nomi	Xalqaro pul o'tkazmalar AQSH dollarida		
		2000 y.	2010 y.	2020 y.
1	Hindiston	12,9	53,5	83,15
2	Xitoy	2,2	52,5	59,51
3	Meksika	7,5	22,7	42,88
4	Filippin	6,9	21,6	34,91
5	Egipet	2,9	12,5	29,60
6	Pokiston	1,1	9,7	26,11
7	Fransiya	8,9	19,9	24,48
8	Bangladesh	2,0	10,9	21,75
9	Germaniya	3,6	12,8	17,90
10	Nigeriya	1,4	19,7	17,21
11	O'zbekiston	1,5	3,4	7,01
12	Tadjikistan	0,15	2,01	2,23
13	Qirg'iziston	2,20	1,33	2,44

Manba: 2022 yilgi Jahon migratsiya ma'lumotiga ko'ra <https://www.migrationdataportal.org/international-data>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonga xorijdan pul o'tkazmalari hajmi 2,1 baravarga oshib, rekord darajadagi 16,9 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, uning 85% Rossiyadan kelgan ulushga to'g'ri keladi.

Jamiyatimiz aholisi farovolgini ta'minlanishi maqsadida, yurtboshimiz tomonidan olib borilgan tub isloxlardan biri sifatida, tashqi mehnat migrantlarini davlat tomonidan qo'llab quvatlanishi insonparvarlik siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro-huquqiy tamoyillar va normalar qabul qilingan bo'lib, bu boradagi mamlakatimiz milliy qonunchiligi ham takomillashtirilmoqda.

Insonparvarlik tamoyili asosida, davlatimiz raxbarini olib borgan siyosati 2018-yilda respublika Xalqaro migratsiya tashkilotiga a'zo bo'ldi va XMT Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilindi, unga ko'ra "Xorijda yashovchi va mehnat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha davlat siyosati konsepsiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Bu dastur mamlakatimiz fuqarolarini chet eldagi mehnat muxojirlarimiz, vatandoshlarimiz uchun birinchi marotaba tashqi mehnat migratsiyasi sohasini tartibga soluvchi eng muhim hujjatlar biri sifatida ifoda etildi.

3) 2010-2015 yillarda mamlakat iqtisodiyotining sekinlashuv davri kuzatilib, bandlik va investitsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni amalga oshirilishi natijasida yalpi ichki mahsulotning o'sishi, mehnat migratsiyasining tabiiy ko'tarilishiga yordam berdi. 2011-2013 yilda jami migrantlar soni 2,3 mln.ga yetgan, bu esa mamlakat fuqarolarining aksariyati aynan ish izlab mamlakatni tark etishi bilan izoxlandi.

4) 2016 yildan hozirga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olib, ya'ni «Yangi O'zbekiston»da demokratik o'zgarishlar, yangi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bosqichi va boshqaruvning jadal tarzda kuchayishi, keng imkoniyatlar va amaliy ishlarning transformatsiyasi jamiyatning demokratik tamoyilining mustaxkamlanishi bilan izoxlanadi. Jumladan, 2017 yilda davlat raxbari tomonidan O'zbekistonda mehnat migratsiyasi muammosiga e'tibor qaratila boshlanib, bunda mamlakat fuqarolarini chet elga vaqtincha ishlash uchun Migratsiya agentligi orqali qonuniy yo'l bilan Rossiyaga ishlashga rasman yuborila boshlandi.

XMT ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda pul o'tkazmalarining yillik umumiy soni 702 milliard AQSH dollariga yetdi, eng ko'p xalqaro pul o'tkazmalari rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tkazilishi kuzatildi.

Shuningdek, 2021-yilda respublikada mehnat resurslari soni 19,3 million kishini tashkil etdi, shundan 1,67 million kishi tashqi mehnat migrantlari – mehnatga layoqatli aholining 8,6 foizini tashkil etdi[17]. Mehnat migratsiyasining asosiy oqimi Rossiyaga - 71%, Qozog'istonga - 12%, Janubiy Koreyaga - 4% va Turkiyaga - 3% to'g'ri keladi[7]. 2021-yilda O'zbekistonga xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali tushayotgan mablag' 8,1 milliard AQSH dollarini tashkil etadi[8] yoki mamlakat yalpi ichki mahsulotining 13 foizi. Bu 2019 va 2020-yillarga nisbatan 34 foizga ko'p – 6 milliard dollar [18].

1. Albertazzi, D., & McDonnell, D. (2008). *Twenty-First Century Populism: The Spectre of Western European Democracy*. Palgrave Macmillan.
2. Inglehart, R., & Norris, P. (2016). *Cultural Backlash: Trump, Brexit, and Authoritarian Populism*. Cambridge University Press.
3. Kahneman, D., & Tversky, A. (1979). Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk. *Econometrica*, 47(2), 263-291.
4. Levitsky, S., & Ziblatt, D. (2018). *How Democracies Die*. Crown.
5. Moffitt, B. (2016). *The Global Rise of Populism: Performance, Political Style, and Representation*. Routledge.
6. Mudde, C. (2004). The Populist Zeitgeist. *Government and Opposition*, 39(4), 542-563.
7. Trump, D. J. (2015, June 16). Presidential candidacy announcement speech, Trump Tower, New York. Time.
8. Trump, D. J. (2015, July 11 – December 7). Campaign rally speeches in Phoenix (July 11), Mobile (August 21), Dallas (September 14), Richmond (October 14), Birmingham (November 21), Mount Pleasant (December 7). C-SPAN.
9. Trump, D. J. (2016, January 23 – August 31). Campaign rally and political speeches in Sioux Center (January 23), Manchester (February 8), Orlando (March 5), Rochester (April 10), Anaheim (May 25), Manchester – National Security Speech (June 13), Cleveland – Republican National Convention Speech (July 21), Phoenix – Immigration Speech (August 31). C-SPAN.
10. Trump, D. J. (2016, October 13 – November 7). Campaign rally speeches in West Palm Beach (October 13), Tampa (October 24), Manchester (November 7). C-SPAN.



UDK: 1.124.5

Abror KOMILOV,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: shixnazarmadiyrov@gmail.com

Dotsent Q.Olloyorov taqrizi asosida

GENDER MUAMMOSI VA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, Gender muammosi va gender tengligini ta'minlash masalalari hamda dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi dolzarb muammolardan biri ekanligi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida gender tengsizlik omili tufayli kadrlar sifatining yomonlashuvi bilan bog'liqligi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilishi, inson kapitalini rivojlantirishda mavjud tizim samaradorligini pasayishi va nihoyat jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikning chuqurlashishiga olib kelishi izohlanadi.

Kalit so'zlar: Insoniyat jamiyati, ayollar va erkaklar, jinslar, biologik va fiziologik farqlar, gender tengligi, qonun, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, texnologik yutuqlar.

THE PROBLEM OF GENDER AND ISSUES OF ENSURING GENDER EQUALITY

Annotation

This article discusses the issue of gender and the challenges of ensuring gender equality, highlighting it as one of the most pressing problems in many countries around the world. The paper also explains how gender inequality in economic and social spheres leads to a decline in the quality of human resources, hinders socio-economic development, reduces the effectiveness of existing systems in the development of human capital, and ultimately deepens social injustice in society.

Key words: Human society, women and men, sexes, biological and physiological differences, gender equality, law, mass media, socio-economic condition, technological achievements.

ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРА И ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблема гендера и вопросы обеспечения гендерного равенства, а также подчеркивается, что это является одной из актуальных проблем во многих странах мира. Кроме того, разъясняется, как фактор гендерного неравенства в экономических и социальных сферах приводит к снижению качества кадров, препятствует социально-экономическому развитию, снижает эффективность существующих систем в развитии человеческого капитала и, в конечном итоге, углубляет социальную несправедливость в обществе.

Ключевые слова: Человеческое общество, женщины и мужчины, полы, биологические и физиологические различия, гендерное равенство, закон, средства массовой информации, социально-экономическое положение, технологические достижения.

Gender tarixining kelajagini belgilab beruvchi muhim jihat uni boshqa tarixiy fanlar bilan bog'lash va birlashtirish muammosiga yechim topishdir. Ushbu muammoni to'g'ri hal qilish belgilari, xususan, gender tarixi va "ayollar tarixi" ni umumiy tarix makoniga integratsiyalashuvining mumkin bo'lgan usullarining asosiy tugunlari kesishgan nuqtalarda paydo bo'ladi. Bunday istiqbollar moddiy madaniyat va kundalik hayotda, so'nggi o'n yillikda esa shaxsiy hayotda va shaxslar tarixida yaqqol namoyon bo'ldi. Tadqiqotchilar asosiy e'tiborni jinsga qarab farqlanadigan fazoviy xususiyatlar va hayot ritmi, moddiy dunyo va ijtimoiy muhit, erkaklar va ayollarning aloqa tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari, "ayollar submadaniyati", "erkaklar mafkurasi" va boshqalarga qaratadi.

Gender holati jamiyatda o'rnatilgan munosabatlarning butun tizimini anglatadi. Bu nafaqat yangi tug'ilgan odamni va uning barcha gender sotsializatsiyasini o'z ichiga oladi, lekin ijtimoiy shaxsning madaniy-tarixiy taraqqiyoti mahsulini ham ko'rsatadi. Gender modellari jamiyat tomonidan yaratilgan. Shu bilan birga, gender munosabatlari barcha ijtimoiy institutlarning tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, gender tushunchasini shaxs darajasida amalga oshirish hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarining o'rnatilgan tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, u mehnatning gender taqsimotini qo'llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, gender maqomi irqi, etnik kelib chiqishi va sinfi bilan birga ijtimoiy iyerarxiya va hokimiyatni taqsimlash tizimining tarkibiy elementlaridan biridir. Ayollar fanida tabiatdan ijtimoiy munosabatlarga e'tiborning o'tishi gender masalalarini ijtimoiy tashkil topgan nazorat va bo'ysunish munosabatlari majmuasiga integratsiyalashuviga yo'l ochadi. Natijada ikkala jins ham tarixga qaytadi. Shu tarzda muhokama

qilingan gender yondashuvi ijtimoiy tarixchilar va madaniyat tarixchilari orasida tezda o'z tarafdorlarini topa boshladi [1].

Shunday qilib, ayollar tarixidan uchinchi yo'nalish - gender tadqiqotlari paydo bo'ldi. U birinchi tadqiqot paradigmasini yangiladi. Endi gender tarixchilarining tadqiqot predmeti ayollar tarixi emas, balki madaniy-tarixiy kontekstda o'zlarining jinsi o'ziga xosligini tan olgan shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy tuzilma va munosabatlarni tuzadigan erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlardir.

Jinslar o'rtasidagi munosabatlarning psixosanalitik talqinidan farqli o'laroq, "jins" tushunchasini shu tarzda muhokama qilish yanada chuqurlashdi.

O'zbeklarning ajdodlari - saklar, qanglilar, qipchoqlar, arlot, barlos, buyovut, do'rmon, jaloir, kenegas, qolmoq, qorluq, qo'ng'iroq, mang'it, ming, nayman va boshqalar insoniyat madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Bu jamiyatda ayollar ma'lum darajada hurmatga sazovor. Buyuk o'zbek xalqining jasorati va qahramonlik ruhi hatto ayollarga ham berilgan: ularning barchasi chavandoz, sabrli va mard edi. Ularning qizlari va xotinlari erkak kiyimida, jang maydonida dushman bilan jang qilib, buyuk qahramonlik namunasini ko'rsatdilar. Shunga qaramay, bu madaniyatda ayol o'zining kelajagi haqida qaror qabul qilish uchun haqiqiy tabiiy qobiliyatini to'liq anglashi kerak. Turkiy xalqlar dunyosi urush, qahramonlik va kuch-qudrat olami edi. O'zini ma'naviy jihatdan namoyon etishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, xalq ongiga ta'sir qilishi ayollarning zamon ruhiga to'g'ri kelmasligidan emas, balki bu jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari ayollarning o'z-o'zidan xoli bo'lishiga imkon bermagan. Shu bilan birga, ayolning bu holati milliy urf-odatlar bilan qonuniylashtirildi va xalq mentalitetiga yaxshi singib ketdi.

“An’anaviy tarbiyadagi gender farqlanish darajasi kuchli bo’lib, o’g’il va qizlarni o’z gender roliga qat’iy mos tarbiyalashda namoyon bo’lgan. Hozirgi paytda sotsializatsiyaning gender xususiyatida muayyan farqlanish saqlanib qolganiga qaramay, mazkur farqlanish darajasi kamayib bormoqda. Ayrim nuklear oilalarda genderga oid qarashlarning aniq chegaralanmagani yoki mo’rtligi bolaga ijtimoiy hayotning turli jabhalarida faol bo’lish uchun sharoit yaratadi. Bu holat qiz bolalarda o’ta faollik, tashabbuskorlik xislatlari kuchayishi bilan, o’g’il bolalarda esa o’z gender rolini o’zlashtirishning qiyinlashuvi bilan ifodalanmoqda [2]”.

Posovet sharoitida o’tish davrining o’ziga xos xususiyati shundaki, tadqiqot gender yo’nalishiga o’tishni, uni o’zgaruvchan ilmiy paradigмага kiritishni xohlaydi. Bu, bir tomondan, nafaqat Rossiya, balki posovet davlatlari, ya’ni tarixiy patriarxal madaniyat hukmron bo’lgan davlatlar uchun ham dolzarb bo’lsa, ikkinchi tomondan, o’tish davri jamiyatining murakkab masalalari, shuningdek, gender muammolari bilan bog’liq. Patriarxat - bu iqtisodiy hukmronlikning erkak shakli bilan bog’liq bo’lgan institusionallashgan jinslar tizimi. Gender iyerarxiyasi o’zining ijtimoiy-psixologik sabablariga ko’ra butun jamiyatga ta’sir qiladi. Bu tizim barchamiz biladigan va kamdan-kam tahlil qiladigan aniq fikrlash va xatti-harakatlarga ega. Bizning madaniyatimiz patriarxal bo’lib, erkaklar hukmronligi bilan, erkaklar hukmronligini saqlab qoladi. Erkaklik modelida yaratilgan u ayollar haqidagi seksistik e’tiqodlarga to’la (jamiyatda unga qo’shimcha rol beriladi, qonun uning uchun deklaratsiyadir). Patriarxal madaniyatda quyidagi erkak xususiyatlari amalga oshiriladi: qattiqqo’llilik, tajovuzkorlik, o’zini o’zi qadrlash, hukmronlik. U hayotning barcha sohalarida namoyon bo’ladi va o’zini o’zi tasdiqlash vositasi sifatida ko’riladi; Tabiatga munosabat, ijtimoiy masalalar, byudjet, munozarali masalalar, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi - bularning barchasi erkaklarning hukmronligini aks ettiradi. Erkaklar kuchi ularning jamiyatda rivojlanishi muammolari, istiqbollari, ustuvor yo’nalishlari va vositalarini ilmiy tushunishda ham namoyon bo’ladi. U hayotning barcha sohalarida namoyon bo’ladi va o’zini o’zi tasdiqlash vositasi sifatida ko’riladi; Tabiatga munosabat, ijtimoiy masalalar, byudjet, munozarali masalalar, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi - bularning barchasi erkaklarning hukmronligini aks ettiradi. Keng ma’noda, hokimiyat qarorlari erkaklar qo’lida va butunlay erkaklarga xosdir. Ayolning yaratilgan qiyofasi aniq erkak shovinizmini o’z ichiga oladi (buning uchun ommaviy axborot vositalariga e’tibor berish kifoya). Erkaklar kuchi ayollarni jamoat hayotida o’zini mustahkamlash imkoniyatidan mahrum qiladi. Ayollar o’zlarining motivatsiyasini yo’qotdilar va o’zlarini tasdiqlashning faol shaxsiy usullarini qidirmadilar.

O’rta Osiyodagi, qolaversa O’zbekistondagi feministik harakat haqida fikr bildirish oson emas. Uning o’ziga xos xususiyatlari bor. Bu o’zbek xalqi madaniyatida ayol dunyosining nozikligi va qadr-qimmatini ulug’laydigan an’analar mavjud edi. O’zbek xalqi madaniyati taraqqiyotida ayollarning o’rni alohida edi. Afsonaviy malika Tomiris haqida ko’plab afsonalar mavjud. “O’zbek xalqi yosh avlod tarbiyasida o’z modeliga ega bo’lib, mazkur model asrlar davomida shakllantirilgan va uchta asosiy negiz – xalq amaliy tajribalari; e’tiqodiy (zardushtiylilik va islom) hamda nazariy-falsafiy (O’rta Osiyo mutafakkirlari va jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaga oid ilg’or g’oyalari) negizga ega [2]”.

O’zbekistonda xotin-qizlar harakati mustaqillik yillarida faollashdi. Ayni paytda mamlakatimizda ayollarning reproduktiv huquqlarini himoya qilish, oilada va ko’chada ayollarga nisbatan zo’ravonlikka qarshi kurashish, ayollarning siyosiy va iqtisodiy yuksalishini ta’minlash kabi keng ko’lamli masalalarni hal etish

bilan shug’ullanuvchi bir qator xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko’rsatmoqda. Ayollarning nodavlat notijorat tashkilotlari O’zbekiston gender siyosatining mohiyati va o’ziga xos xususiyatlariga faol ta’sir ko’rsatish maqsadida davlat organlari bilan hamkorlik qilish va o’zaro hamkorlik qilishga intiladi. Davlat darajasida gender tengligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham B.M.Ubaydullayeva to’g’ri ta’kidlaganidek, “...tarbiyadagi gender tafovutlarni aniq chegaralash va bolalarni, ayniqsa, o’g’il bolalarni gender rollariga tayyorlab borish tizimini yangi mazmunda tiklash, tarbiyada ota va ona ishtirokining muqobiligini ta’minlash, erkaklar tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiruvchi vositalarni ishga solish kerak. Erkaklarning tarbiyaviy funksiyalarini faollashtirishda OAVdan foydalanish yaxshi samara beradi [2]”.

Gender muammosi va gender tengligini ta’minlash dunyoning ko’plab mamlakatlaridagi dolzarb muammolardan biridir. Bu, birinchi navbatda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida gender tengsizlik omili tufayli kadrlar sifatining yomonlashuvi bilan bog’liq. Demak, muammoning jiddiyligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga to’sqinlik qiladi, inson kapitalini rivojlantirishda mavjud tizim samaradorligini pasaytiradi va nihoyat jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikning chuqurlashishiga olib keladi.

Insoniyat jamiyati ayollar va erkaklardan tashkil topgan. Jinslar o’rtasidagi biologik va fiziologik farqlar ma’lum va o’zgarmasdir. Biroq, bu erkak va ayolning jamiyatdagi o’rni o’zgarmaydi, degani emas. Xotin-qizlar harakati tarixi, bu borada erishilgan yutuqlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rni jadal o’zgarganidan dalolat beradi. So’nggi asrlarda erishilgan texnologik yutuqlar ayollarning ham uy xo’jaligida, ham ishlab chiqarishdagi rolini o’zgartirdi.

O’zbekistonda gender tengligi borasida muayyan muammolar mavjud bo’lsa-da, ijobiy jihatlar ham ko’p. Shu tariqa, xotin-qizlar mahalliy hokimiyat boshqaruvi rahbari o’rinbosarlari lavozimlariga tayinlandi va xotin-qizlarning boshqaruvdagi rolini oshirish bo’yicha boshqa chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq shuni hisobga olish kerakki, gender tengligi faqat kadrlar siyosati bilan o’lchanmaydi. Qonunchilikka qator yangiliklar kiritish gender tengligi siyosatining bir qismidir. Mahalliy hokimiyat boshqaruv organlarda ayollar va erkaklar o’rtasida muvozanat yaratilgan. Biroq, bundan farqli ravishda, davlat institutlarida muvozanat bormi? Buni aniq aytish qiyin. Bu muvozanat bir qator hududlarda buzilgan. Masalan, ayol o’qituvchi va shifokorlar ko’proq. Boshqacha aytganda, bu sohada hali yetarlicha ish olib borish zarur. Shuningdek, bugungi vaziyatni jamoatchilikka yetkazishda ommaviy axborot vositalarining rolini past baholadi.

Shunday qilib, so’nggi yillarda, asosan, O’zbekistonning aksariyat viloyatlarida ayollar huquqlari poymol etilayotganligini kuzatish mumkin. Ommaviy axborot vositalari faqat axborot ma’lumotlari bilan kifoyalanadi. Biroq, bu hodisalar qayerdan kelib chiqqani, qanday tarqalayotganini o’rganib, ommaga taqdim etish OAV zimmasidadir. Ushbu yo’nalishda siz vaqti-vaqti bilan maqolalarni topishingiz mumkin. Asosan, ommaviy axborot vositalarida gender tengligi haqida ba’zi bir NNT tomonidan Toshkent shahri yoki viloyat markazlarida o’tkazilayotgan tadbirlar haqida maqolalar yoziladi. Bunday tadbirlarda odatda bir xil odamlar qatnashadi. Bu esa qonunning ommaviy axborot vositalariga aloqasi bo’lmagan odamlarga, asosan qishloq aholisiga etib bormasligiga sabab bo’lmoqda. Aytish mumkinki, ularda sodir bo’lgan voqealar haqida hech qanday ma’lumot yo’q. Bularning barchasini yengib o’tish, aholiga gender tengligi haqida keng ma’lumot berish uchun avvalo qishloqdan boshlash kerak. Buning uchun har bir jurnalist qishloqlarga borib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, erkak va ayol munosabatlarini o’rganishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Magubane Z. Bringing the Empire Home: Race, Class, and Gender in Britain and Colonial South Africa. Chicago: University of Chicago Press, 2003. 216 p.
2. Ubaydullaeva B.M. Ўзбекларнинг бола тарбиясига доир анъаналари ва инновациялар (XX асрнинг иккинчи ярми–XXI аср бошлари). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент, 2018. – Б.30.
3. Tekueva, M. A. Gender as a Socio-Cultural Construct of Adyghe Society: Doctoral Dissertation in Historical Sciences. – Nalchik, 2006. – 371 p.
4. Kolodina, A. A. Feminism and Gender: Interpretation of Contemporary Social Reality [Text] / Anna Kolodina. – Moscow: TRP, 2016. – 184 p.



Nasiba KULBEKOVA,

Toshkent viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i, PhD

E-mail: nasibakulbekova@yandex.ru

Sotsiologiya fanlari doktori, professor B.Karimov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF HUMAN POTENTIAL AS A BASIS FOR RAPID AND SUSTAINABLE INTERNATIONAL EXPERIENCE

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of advanced international experiences in achieving economic and social progress through the development of human potential. Effective strategies aimed at forming and enhancing human capital in leading countries are examined, including a high-quality education system, improvements in healthcare services, the introduction of innovative technologies, and labor market adaptability. The impact of these factors on rapid and sustainable development is widely discussed, with a detailed analysis of their long-term outcomes. Additionally, based on the experiences of developed countries, the article explores specific priority directions for developing human capital in Uzbekistan.

Key words: Human potential, economic development, international experience, education system, healthcare, innovations, labor market, social progress, strategic planning.

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА КАК ОСНОВА УСТОЙЧИВОГО И УСКОРЕННОГО МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Аннотация

В данной статье проводится всесторонний анализ передового международного опыта в достижении экономического и социального прогресса за счет развития человеческого потенциала. Рассматриваются эффективные стратегии, направленные на формирование и совершенствование человеческого капитала в ведущих странах, включая качественную систему образования, улучшение системы здравоохранения, внедрение инновационных технологий и адаптивность рынка труда. Широко обсуждается влияние этих факторов на ускоренное и устойчивое развитие, а также анализируются их долгосрочные результаты. Кроме того, на основе опыта развитых стран рассматриваются конкретные приоритетные направления развития человеческого капитала в Узбекистане.

Ключевые слова: Человеческий потенциал, экономическое развитие, международный опыт, система образования, здравоохранение, инновации, рынок труда, социальный прогресс, стратегическое планирование.

JADAL VA BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASHNING XALQARO TAJRIBALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson salohiyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga samarali erishish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida inson salohiyatini rivojlantirish, jumladan, sifatli ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash xizmatlarining takomillashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va mehnat bozorining moslashuvchanligi kabi omillar o'rganiladi. Ushbu omillarning jadal va barqaror taraqqiyotga ta'siri keng muhokama qilinib, ularning uzoq muddatli natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida inson kapitaliga oid aniq ustuvor yo'nalishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Inson salohiyati, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro tajriba, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, innovatsiyalar, mehnat bozori, ijtimoiy taraqqiyot, strategik rejalashtirish.

Kirish. Inson salohiyati – jamiyat taraqqiyotining asosi desak mubolag'a bo'lmaydi. Inson salohiyati – bu insonning bilim olish, rivojlanish, ijodiy fikrlash va jamiyatga foyda keltirish qobiliyatidir. Har bir insonning salohiyati cheksiz bo'lib, uni ro'yobga chiqarish uchun tegishli sharoit va imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Inson salohiyatining eng asosiy omili ta'limdir. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs nafaqat o'z kelajagini, balki butun jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Ayniqsa, bugungi raqamli davr inson imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish orqali har bir inson o'z kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Inson salohiyatining rivojlanishi uning atrof-muhitiga ham bog'liq. Jamiyatda qulay ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lsa, odamlar o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon qila oladi. Har bir inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, tinimsiz harakat qilib, bilim olish va ko'nikmalarini kengaytirishga intilsa, o'z salohiyatini rivojlantirishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy e'tibor inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy e'tiborimizni beshta ustuvor yo'nalishga qaratmoqdamiz. Bular, avvalo, sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, biznesni

rivojlantirish, korrupsiyadan holi, adolatli sud tizimini yaratish, sog'liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta'limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir[1]."

Shu bois, O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, innovatsion markazlar va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, yoshlarning zamonaviy kasblarni egallashiga ko'maklashish – bularning barchasi inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti bevosita inson salohiyatiga bog'liq. Shu sababli, har bir inson o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga intilishi va jamiyat rivojiga hissa qo'shishi muhimdir. Chunki Yangi O'zbekistonni barpo etish, eng avvalo, zamonaviy bilimli va yuksak salohiyatli insonlar qo'lida!

Inson salohiyatini yuksaltirish va iqtisodiy rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bilimli, malakali va innovatsion fikrlaydigan kadrlardir. Shu sababli, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun, eng avvalo, ta'lim tizimini rivojlantirish lozim. Bilim va kasbiy mahorati yuqori bo'lgan mutaxassislar sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsiyalar joriy etish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish mumkin emas.

Iqtisodiyot va ta'lim bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'limga katta e'tibor qaratish zarur. Bugungi kunda bilim va kasbiy malaka tizimini takomillashtirish, ilm-fan va innovatsiyani qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki mehnat bozori talablariga mos ravishda amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishi lozim. Shu boisdan bugun oliy va professional talim tizimida dual ta'lim shakli joriy etildi. Bunda, talabalar bir vaqtning o'zida ham ta'lim oladi, ham mehnat faoliyati bilan shug'ullanib, ko'nikma va malakasini oshishiga hismat qiladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishlaridan biri – tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdir. Bu esa bilimli va tashabbuskor yoshlarsiz amalga oshmaydi. Zamonaviy iqtisodiyot innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ilm-fan va texnologiyaga sarmoya kiritish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ilmiy markazlar va texnoparklar tashkil etilib, yosh olimlarning izlanishlarini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilmoqda.

Inson salohiyatini yuksaltirish va iqtisodiy rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bilimli, malakali va innovatsion fikrlaydigan kadrlardir. Shu sababli, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun, eng avvalo, ta'lim tizimini rivojlantirish lozim. Bilim va kasbiy mahorati yuqori bo'lgan mutaxassislarsiz sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsiyalar joriy etish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish mumkin emas. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Biz endi 37 millionlik katta xalqimiz. O'zbekiston hozirgi kunda aholi soni bo'yicha jahondagi eng yirik 40 ta davlatdan biri hisoblanadi. Bu raqamni islohotlarimiz, mehnatimiz, bilim va qobiliyatimiz bilan katta salohiyatga aylantirishimiz kerak[2]."

Iqtisodiyot va ta'lim bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun ta'limga katta e'tibor qaratish zarur. Bugungi kunda bilim va kasbiy malaka tizimini takomillashtirish, ilm-fan va innovatsiyani qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, mamlakat rahbari ta'kidlaganidek: "Dengizga chiqish imkoniyatini cheklanganini inobatga olib, e'tiborimizni kreativ sohalarga qaratishimiz, ularni jadal rivojlantirishimiz zarur. Jahonda kreativ sanoat mahsulotlari eksportidan yiliga milliardlab dollar daromad topayotgan mamlakatlar ko'p. Binobarin, shunday mahsulot ishlab chiqarishga bel bog'lagan ijodkor ishlabarmonlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni har tomonlama rag'batlantiramiz[3]."

Ta'lim va iqtisodiyot bir-birini to'ldiradigan jarayondir. Ilm-fan taraqqiyotni ta'minlaydi, iqtisodiy o'sish esa ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, ta'lim va iqtisodiy islohotlar birgalikda olib borilishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyot rivojlanishi uchun bilimli va tashabbuskor insonlar zarur, chunki haqiqiy taraqqiyot ilm va innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyot orqali ta'minlanadi.

Jamiyat taraqqiyoti inson salohiyatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq jarayon ekan, har bir davlat o'z tarixi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim tizimini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va inson salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Ta'lim tizimi yuqori taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz va samarali mexanizm sifatida qaratiladi. Davlat iqtisodiyotining muvaffaqiyati ko'p jihatdan malakali kadrlar tayyorlash, innovatsiyalarga yo'naltirilgan ta'lim tizimi va ilmiy-tadqiqot ishlariga asoslanadi. Shu sababli, ham ta'lim va iqtisodiy o'sish o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun sifatli ta'lim tizimi muhim ahamiyatga ega. Bir qator taraqqiy etgan mamlakatlar ta'limni iqtisodiy rivojlanishning asosiy ustuni sifatida qabul qilgan. Masalan, "Singapurda meritokratiya – insonning jamiyatdagi mavqei uning kelib chiqishi bilan emas, balki qobiliyatlari va xizmatlari bilan belgilanadigan tizim – ta'lim tizimining markaziy tamoyilidir. Talabalar va o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlariga katta e'tibor qaratilib,

ularga turli ta'lim dasturlari va oliy o'quv yurtlariga kirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beriladi. Singapur ta'lim tizimida o'quvchilarning yutuqlari ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, kuchli bilim va qobiliyatlarning obyektiv o'lchovi sifatida qaratiladi. Akademik samaradorlik kelajakdagi martaba istiqbollari va moliyaviy ahvolni belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, o'quv dasturlari maksimal darajada imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim jarayonida o'quvchilarni yuqori raqobatbardoshlik muhitiga moslashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ikki tillilik – Singapur ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biridir. Ingliz tili maktablarda o'qitiladigan asosiy til bo'lishiga qaramay, har bir o'quvchi qo'shimcha ravishda uchta rasmiy tildan biri bo'lishi mumkin bo'lgan "ona tilini" ham o'rganishi talab etiladi: xitoy, malay yoki tamil tili. Ona tili imtihoni boshlang'ich maktabni tugatish imtihonining (PSLE) hamda N-, O- va A-darajadagi sertifikatlash imtihonlarining majburiy komponentidir. Ona tilini yetarli darajada bilish Singapurdagi universitetlarga kirish uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi, biroq xorijiy talabalar ushbu qoidadan istisno qilinishi mumkin. Ikki tillilik siyosati birinchi marta 1966-yilda tasdiqlangan bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri ingliz tilini Singapurda yashovchi turli etnik va madaniy guruhlar uchun neytral muloqot tili sifatida rivojlantirish bo'lgan. Shu bilan birga, ingliz tilining "birinchi til" sifatida tan olinishi Singapurning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qilgan. Mamlakatda til va madaniy plyuralizm e'tirof etilgan bo'lib, bu o'quvchilarga o'z ona tilini o'rganish, etnik ildizlarini unutmaslik va u bilan bog'liq madaniy xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Singapur ta'lim siyosati hech bir bolani, hattoki buning uchun zarur moliyaviy mablag'ga ega bo'lmagan taqdirda ham, ta'lim olish imkoniyatidan mahrum qilmaslikka qaratilgan. Shu maqsadda davlat maktablari ham hukumat, ham turli xayriya tashkilotlari tomonidan faol ravishda subsidiyalanadi. Kam ta'minlangan oilalarga yordam berish uchun maxsus davlat dasturlari mavjud, jumladan: Moliyaviy yordam sxemasi (FAS) – bu dastur orqali oylik daromadi 1500 yoki 1800 AQSH dollaridan oshmaydigan oilalarga yordam ko'rsatiladi. Edusave dasturi – iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan oilalarning bolalarini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan. FAS dasturiga mos keladigan o'quvchilar barcha ta'lim to'lovlaridan ozod qilinadi va milliy imtihonlarga tayyorgarlik jarayonida davlat tomonidan qisman subsidiyalarga ega bo'ladi[4].

Singapur ta'lim tizimi meritokratiya va ikki tillilik tamoyillariga asoslangan bo'lib, uning muvaffaqiyati davlat tomonidan ta'limga katta sarmoya kiritilishi bilan bog'liq. Ta'lim tizimining iqtisodiy barqarorlik va jamiyat farovonligini oshirishga qo'shadigan hisssasi beqiyosdir. Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim tizimini takomillashtirish mamlakatning global maydondagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biridir.

"Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlari bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanarlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, birso'zlik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlarida shakllanadi. Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, korxona va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6 yushgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmag bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rniga katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi. Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta'lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy

maktablar o'rta ta'lim maskanlarining 2 foizini tashkil etadi. O'quv dasturlari an'anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta'lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Xususiy maktablar sanoat, til, kosmetika, gimnastika, uy xo'jaligi kabi ixtisoslashgan yo'nalishlarda ta'lim beradi. Nodavlat ta'lim maskanlari bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun Xususiy maktablar uyushmasiga birlashgan. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham ta'lim olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini puxta o'zlashtirishi uchun tayyorlov kurslari tashkil etiladi. Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura esa ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakunlarida davlat imtihoni topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. Yozgi mavsum aprel-sentabr, qishki mavsum esa oktabr-mart oylarini o'z ichiga oladi. Germaniya – Geydelberg, Kyoln, Frayburg, Tyubingen kabi qadimiy universitetlar vatani hisoblanadi"[5].

Germaniya ta'lim tizimi chuqur an'analar va innovatsion yondashuvlarga asoslangan. U inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bilim, tadqiqot va amaliyot uyg'unligi orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Xalqaro miqyosda tan olingan universitetlari va ilg'or ta'lim metodlari Germaniyani jahondagi eng yetakchi ilmiy markazlardan biriga aylantirgan.

Xitoy Xalq Respublikasi inson salohiyatini yuksaltirish yo'lida tizimli va strategik islohotlarni amalga oshirib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan yirik dasturlarni qabul qilgan. "1949-yilda Xitoy aholisi 541,67 million kishini tashkil etgan bo'lsa, davlat tomonidan olib borilgan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, tibbiy xizmatlar va sanitariya sharoitlarini yaxshilash choralari natijasida aholining umumiy soni tez sur'atlarda o'sib bordi. 1978-yilda Xitoy Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasining 11-chaqiriq 3-plenumi bo'lib o'tib, mamlakatda iqtisodiy

islohotlarning bosh yo'nalishlari belgilandi. Bu jarayonda inson salohiyatini rivojlantirish muhim o'rin tutdi, chunki islohotlarning asosiy yo'nalishi aholining ta'lim va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash edi. Xitoy hukumati "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dastur doirasida sanoatni rivojlantirish, harbiy salohiyatni mustahkamlash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga e'tibor qaratish belgilandi. Bu esa aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning iqtisodiyotdagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qildi. Islohotlarning asosiy maqsadi davlatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish bo'lib, u bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Den Syaopin rahbarligida Xitoy "sotsialistik bozor iqtisodiyoti" tizimini shakllantirib, aholining bilim saviyasini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlariga ilmiy-texnikaviy yutuqlarni joriy etishga katta e'tibor berdi. Xususan, 1992-yilda o'tkazilgan XKP 14-syezdida ta'lim va fan sohalarini teng ravishda rivojlantirish, markaziy va g'arbiy hududlarda mehnat resurslarining malakasini oshirish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilandi[6]. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatini rivojlantirish ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu tamoyil mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatini rivojlantirishda ta'lim va tarbiya birinchi o'rinda turadi. Bu mamlakatlarda har tomonlama yetuk shaxslarni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy talabi hisoblanadi. Chunki, jamiyatdagi inqilobiy o'zgarishlarni insonning o'zini o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmazligi alohida ta'kidlanadi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini takomillashtirishga, innovatsiyalarni joriy etishga va malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratadilar. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va jamiyat farovonligini ta'minlashning eng samarali yo'li sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/7585#>
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/7519>
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/7519>
4. Wikipediya 2025 https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa
5. ABT.uz 2020 <https://abt.uz/>
6. Sadibekova Bibisora Djapparovna "XITOY IQTISODIYOTI" Toshkent-2010 50-bet



Yuldash KURALOV,
CHDPU dotsenti v.b, PhD
E-mail: y.kuralov@cspi.uz

GFU dotsenti, t.f.n N.Jurayeva taqrizi asosida

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA DASTURLASH TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishda uchraydigan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu fan bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Dasturlash, raqamli texnologiya, platforma, amaliy dastur, videodars, masofaviy ta'lim.

МЕТОДОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОГРАММИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы, возникающие при преподавании языков программирования в высших учебных заведениях. Также раскрываются дидактические возможности цифровых технологий в повышении эффективности обучения по данному предмету.

Ключевые слова: Программирование, цифровые технологии, платформа, приложение, видеоурок, дистанционное образование.

METHODOLOGY FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF PROGRAMMING EDUCATION USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation

This article analyzes the problems encountered in teaching programming languages in higher education institutions. It also reveals the didactic potential of digital technologies in increasing the effectiveness of education in this subject.

Key words: Programming, digital technology, platform, application, video lesson, distance learning.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Auditoriyalar zamonaviy interaktiv doskalar, planshetlar, ilg'or kompyuter tizimlari hamda virtual reallik ko'zoynaklari bilan jihozlanib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'quv jarayonining interfaolligini kuchaytirish, talabalar uchun yanada qulay va samarali o'quv muhitini yaratishga imkon bermoqda.

Raqamli ta'lim texnologiyalari bugungi kunda nafaqat o'qitish vositasi, balki insoniyat uchun yangi o'quv muhiti sifatida shakllanmoqda. Ushbu texnologiyalar quyidagi muhim imkoniyatlarni taqdim etadi: istalgan joy va vaqtda bilim olish, individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish orqali o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mos ta'lim olishiga sharoit yaratish, o'zini-o'zi baholash imkoniyatini kengaytirish hamda o'quvchilarni faqatgina elektron ta'lim resurslari iste'molchilari emas, balki yangi ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish [8].

Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida fanlarni, xususan dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dasturlashni o'rgatishda talabalarni tayyor o'quv-ma'lumotlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvdan chekinib, ularning kundalik hayotda dasturlash bilimlarini qo'llay olishiga hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish zarur [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida dasturlashni o'rgatishning asosiy maqsadi – talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni egallab, tez rivojlanayotgan jamiyatda faol ishtirok eta oladigan, tanqidiy va mantiqiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdir. Dasturlash bo'yicha berilgan masalalarni yechish jarayonida talabalar ushbu fan asoslarini puxta o'zlashtirishi, dasturlashning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushunishi, kundalik hayotda amaliy qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda individual qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishishda

esa raqamli texnologiyalar samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi [7].

Raqamli texnologiyalarni loyihalash, ishlab chiqish va joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini L.A.Aleksandrova, A.V.Bobilev, N.A.Bogdanova, N.V.Dnepr kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari, zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish masalalari, ta'lim sifati oshirish uchun raqamli vositalarni joriy etish muammolari hamda raqamli o'qitish usullari va texnologiyalarining xususiyatlari S.V.Lapteva, O.O.Chertovskix, O.O.Djioeva, O.M.Tandelova, D.V.Chochiti, O.M.Shadrina, L.R.Gabdrakipova, D.A.Zikov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida keng o'rganilgan [14].

Xususan, S.V.Lapteva raqamli ta'lim resurslarining imkoniyatlarini, O.O.Chertovskix esa zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish masalalarini o'rganib chiqqan. O.O.Djioeva, O.M.Tandelova va D.V.Chochiti raqamli texnologiyalarning tasnifini, O.M.Shadrina esa ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish usullarini tadqiq qilgan. L.R.Gabdrakipova va O.V.Shatunova ta'lim sifati oshirishda Quizizz, Kahoot!, Padlet, Mind Meister kabi platformalarning afzalliklarini tahlil qilgan bo'lsa, N.V.Chiganova o'quvchilarga algoritmash va dasturlashni o'rgatishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini o'rganib chiqqan. O.V.Mixaleva va D.A.Zikov talabalarni umumiy madaniy, umumiy kasbiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolarini yoritgan. L.M.Semenova esa raqamli o'qitish usullari va texnologiyalarining xususiyatlari hamda imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan [13].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'qituvchiga o'quv materiallarini tizimlashtirish, optimallashtirish va oson o'zlashtiriladigan shaklda taqdim etish, darslarni yanada qiziqarli va interaktiv tarzda loyihalash hamda o'quvchilarning ta'lim

jarayonini nazorat qilish va baholash imkoniyatini beradi. O'quvchilar uchun esa bu texnologiyalar vizual shaklda mustaqil ta'lim olish, o'zini-o'zi baholash, fanga bo'lgan motivatsiyani oshirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi tahlillar oliy ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'rgatishda raqamli vositalardan foydalanish zaruriyatini ko'rsatadi. Shu sababli,

1-jadval

Maqsad	Vositalar
O'quv materiallarini vizuallashtirish va tushuntirish	Miro, AMW doska, WhiteboardFox, Webwhiteboard
O'quvchilarning mustaqil bilim faolligini oshirish	Wizer.me, Liveworksheets, Core
Elektron ta'lim resurslarini yaratish	Canva, OBS Studio, Socrative, LearningApps, Mentimeter, Timegraphics, Mindmeister, iSpring
Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish	Google Meet, Trello, Discord, Miro, VideoMost, Teams, Padlet, Zoom, BigBlueButton, Microsoft Teams, Webinar.ru, Twiddla, Project2Manage, ProjectPier
Olingan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash va nazorat qilish	Google Forms, Kahoot, Online Test Pad, Mastertest

Ushbu vositalar talabalarining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va ularning bilim, ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natija. "Keltirilgan raqamli vositalardan foydalanish dasturlash tillarini o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi".


Shuningdek, "Dasturlash asoslari" bo'limini o'qitishda videodarslardan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. A.M.Axmedova va G.Z.Xabibulinalarning ta'kidlashicha, "Informatika va axborot texnologiyalari" darslarida videodarslardan foydalanish o'quv materiallarini qulay va moslashtirilgan shaklda taqdim etish imkonini beradi. Videodars orqali o'rganish an'anaviy matn o'qish usuliga qaraganda yanada qiziqarli va samaraliroq bo'lib, istalgan vaqtda hamda istalgan joyda ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi [1].

professor-o'qituvchilar masofaviy ta'lim platformalaridan foydalangan holda darslarni samarali loyihalashtirishi lozim. Bugungi kunda masofaviy ta'lim platformalari yordamida turli taqdimotli ta'lim resurslari, animatsiya effektlari, nazorat va boshqarish tizimlarini yaratish imkoniyati mavjud [11].

T.V.Rixter va I.V.Abramovlar tomonidan tavsiya etilgan offlayn hamda onlayn rejimda ishlovchi quyidagi amaliy dasturlar va platformalar bu borada foydali bo'lishi mumkin:

Bundan tashqari, videodarslar uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini yaratib, o'quvchilarga uydin chiqmasdan o'rganish imkonini beradi. Informatika fanlarini o'qitishda videodarslardan foydalanish nafaqat turli amaliy dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga, balki dasturlash tillarida misol va masalalarni yechish hamda amaliy loyihalarni tayyorlashda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Mara Saeli, Anthemis Raptopoulou, D.A.Gatovskaya va M.I.Goncharova larning fikriga ko'ra, dasturlash tillarini o'qitishda hamda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda videodarslardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega [3]. Ularning ta'kidlashicha, videodarslardan foydalanish dasturlash tillarini o'qitishda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:



1-rasm Videodarslardan foydalanish

Yuqorida sanab o'tilgan afzalliklar oliy ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'rgatishda muhim raqamli vosita sifatida xizmat qiladi. Bunda quyidagi vazifalarni bajarishda yordam beradi:

dasturlash tilida misol va masalalarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish;

dasturlashni o'rganish uchun qulay va samarali o'quv muhitini yaratish;

dasturlash tilida misol va masalalarni mustaqil o'rganish imkoniyatini ta'minlash.

Shunday qilib, videodarslarning o'quvchilarga psixologik ta'siri quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: auditoriyadagi har bir

talabaning e'tiborini ushlab turish, uzoq muddatli xotirani mustahkamlash, o'rganilgan ma'lumotlarni yodda saqlash hamda hissiy ta'sir orqali ta'lim samaradorligini oshirish [11].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, dasturlash tillari fanida raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarining bilimlarini chuqur o'zlashtirish, ularni tizimli ravishda shakllantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu usullar dasturlashga bo'lgan qiziqishni oshirib, talabalarining motivatsiyasi, ijodiy qobiliyati va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Kuralov Y.A. Organization of control and evaluation of the formation of competencies in the process of teaching programming // Current research journal of pedagogics. <https://masterjournals.com/index.php/crjp> 2023. General impact factor – p. 72-76.
2. Kuralov Y.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri usuli // O'zbekiston milliy universiteti xabarlar. T. 2022 [1/2]-son. B. 87-89.
3. Kuralov Y.A. Talabalarni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini shakllantirish // Kasb-hunar ta'limi. T. 2023. 2-son. –B. 278-281.
4. Kuralov Y.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish // O'zbekiston milliy universiteti xabarlar. T. 2023 [1/5/1]-son. B. 76-78.

5. Kuralov Y.A Development of programming competence in continuous education system // “Algoritmlar va dasturlashning dolzarb muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Qarshi - 2023. – p. 514-516.
6. Kuralov Y.A Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetentsiyasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llanilish // Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Andijon – 2023. – B.165-167.
7. Kuralov Y.A. Ta'limda algoritmlash asoslari // Umumta'lim maktablarida aniq fanlarni o'qitish metodikasi mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari –Chirchiq 2019. – B. 184-187.
8. Kuralov Y.A. Mobil ilovalar yordamida bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetentsiyasini rivojlantirish // “Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendentsiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy anjuman. Jizzax 2023. – B. 211-214.
9. Kuralov Y.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish vositalari va metodlari // European Journal Of Interdisciplinary Research And Development Volume-14 Website: www.ejird.journalspark.org 2023. ISSN (E):2720-5746. –p. 267-272.
10. Aleksandrova L.A., Bobilev A.V., Bogdanova N.A., Dnepr N.V. (2020). Raqamli ta'lim texnologiyalarini loyihalash va joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari. Ta'lim texnologiyalari va metodikasi, 45(3), 123-137.
11. Lapteva S.V. (2021). Raqamli ta'lim resurslarining imkoniyatlari va o'quv jarayoniga ta'siri. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, 50(2), 201-213.
12. Chertovskix O.O. (2021). Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellektidan foydalanish masalalari. Innovatsion ta'lim, 7(1), 45-59.
13. Djioeva O.O., Tandelova O.M., Chochiti D.V. (2022). Raqamli texnologiyalarning tasnifi va ta'lim tizimida qo'llanilishi. Pedagogik texnologiyalar, 11(4), 78-90.
14. Shadrina O.M. (2020). Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish usullari va metodikasi. Pedagogik tadqiqotlar, 12(2), 101-110.



UDK: 159.9(575.1)

Xurinisa QARSHIBOYEVA,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti v.b
E-mail: xurinisakarshiboyeva@gmail.com.

SamDU professori, f.f.d A.Aliyev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF ASSESSMENT BASED ON THE INTERNATIONAL TALIS PROGRAM

Annotation

This article provides an analytical description of the possibilities and importance of assessment based on the international TALIS program. It focuses on the issue of assessing the performance of primary school teachers. It is argued that the results of assessing teacher performance based on this program are important for identifying shortcomings and developing development plans to improve the quality of education.

Key words: TALIS, assessment, activity, primary school teachers.

ВАЖНОСТЬ ОЦЕНКИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ TALIS

Аннотация

В статье дается аналитическое описание возможностей и важности оценки на основе международной программы TALIS. Основное внимание было уделено вопросу оценки деятельности учителей начальной школы. Было высказано мнение, что результаты оценки деятельности учителей на основе этой программы важны для выявления недостатков и разработки планов развития с целью повышения качества образования.

Ключевые слова: TALIS, оценка, деятельность, учителя начальных классов, образовательная среда.

TALIS XALQARO DASTURI ASOSIDA BAHOLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada TALIS xalqaro dasturi asosida baholash imkoniyatlari va ahamiyati tahliliy bayon etildi. Unda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini baholash masalasiga urg'u berildi. O'qituvchilar faoliyatini bu dastur asosida baholash natijalari ta'lim sifatini oshirish uchun kamchiliklarni aniqlash va rivojlanish rejalarini tuzishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: TALIS, baholash, faoliyat, boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Kirish. Jahon ta'lim tizimida kechayotgan innovatsion rivojlanish jarayoni tufayli ta'lim oluvchilarga qulay va maqbul shakllarda hamda samarali texnologiyalar asosida bilim berishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro ta'lim dasturlari va ta'lim tuzilmalari dasturilamal bo'lmoqda.

Ma'lumki maktab ta'limi tizimida boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanib, ta'lim oluvchilarning savodxonligini tarkib topirishni, ularni bilimlar olamiga olib kirishni va dastlabki tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimining boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarni keyingi umumiy o'rta va ixtisoslashtirilgan ta'lim bosqichlariga tayyorlaydi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nufuzini oshirish va ularning mas'uliyatini kuchaytirish jarayoni kechmoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta'lim tizimining boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholash va uning natijalari asosida sifatli ta'limga erishish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa bu borada TALIS, EGMA, EGRA kabi xalqaro baholash dasturlariga asosan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini baholash, olingan natijalarga ko'ra ta'limni rivojlantirish asoslarini ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi, jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichida ana shu jarayonlarga hamohang ravishda strategik islohotlar amalga oshirilayotganligi ma'lum. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da mamlakatimizda sifatli ta'limga erishish vazifasi qo'yilgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholab borish sifatli ta'limga erishishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Bu borada ayniqsa, xalqaro baholash dasturlariga asoslanish yanada samaraliligi bilan ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek pedagog olimlaridan U.Begimqulov, R.Jo'rayev, Sh. Mardonov,


R.Safarova, Sh. Olimov kabilarning tadqiqotlarida o'qituvchilarning faoliyatini o'rganish bo'yicha muhim nazariy qarashlar bayon qilib o'tilgan. O'zbek olimlaridan G.Muhamedov, S.Matchonov, U.Xodjamqulov, X.Murodov tadqiqotlarida ta'lim muhitini o'rganib borish va ular asosida ta'lim muhitini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xorijlik pedagog olimlardan K. Rojers, N. Bernshtam, A. Xumayni tomonidan dunyo mamlakatlari ta'lim faoliyatini xalqaro dasturlar asosida baholash metodlari bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020 yil 11 maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022 yil 21 dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'rida"gi Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 987-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida mamlakatimiz o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro baholash dasturi asosida o'rganib borish vazifasi belgilangan.

TALIS xalqaro baholash dasturi quyidagi masalalarni o'rganadi:

- 1) o'qituvchilar faoliyatini o'rganish;
- 2) o'qituvchilarning ish sharoitini o'rganish;
- 3) maktabning ta'lim muhitini o'rganish.

Biz tomonimizdan shakllantirilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning mazkur hududiy shaklda va markazlashgan shaklda baholash usullari yangi metodika sarasiga kirishini eslatib o'tish joiz.



2-rasm TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashning masofaviy shakli usulidan foydalanish omillari

Shunday qilib TALIS xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini masofaviy baholash usuli yangicha yondoshuvdir. Bu usulni mamlakatimiz tajribasidan o'tkazish va ommalashtirish taqozo etiladi.

Tadqiqotda bilish nazariyasining kommunikativ natijasini ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy, qiyosiy, analiz, sintez), diagnostik (so'rovnoma, kuzatish, test, suhbat), prognostik (ekspert baholash, hududiy baholash, markaziy baholash) va pedagogik eksperiment (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, ularni grafik tasvirlash) metodlari majmuidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholash mamlakatimiz ta'lim sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. Baholash quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi.

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning nazariy masalalarini o'rganish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning hududiy usulini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning markaziy usulini yaratish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholash samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning natijalari asosida tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning kasbiy bilim, kasbiy ko'nikma va o'z ustida ishlash nazariy masalalari tadqiq etilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning hududiy va markaziy baholash usullari ishlab chiqilgan, ulardan foydalanish shakllari belgilangan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning model tizimlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning amaliy samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash tizimi tarkib toptirilgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida va uning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturida o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini ko'tarish, ularga munosib ish sharoitlari yaratib berish hamda o'qituvchilar faoliyat samaradorligini oshirish vositasida sifatli ta'limga erishish vazifasi qo'yilgan. Shu jihatdan mazkur vazifaning ijrosini ta'minlashda boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini xalqaro dasturlar asosida baholash va ularning natijasiga ko'ra bu masalalarda yangi rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashning zaruriyati ularning kasbiy bilim, kasbiy ko'nikma darajalarini va o'zi ustida ishlash malakasini baholash bilan belgilanadi. Bunda TALIS xalqaro dasturining qoidalari va talablariga asoslanish muhim o'rin tutadi. TALIS xalqaro dasturining maqsad va vazifalari o'qituvchilar faoliyati, ularning ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashdan iborat.

Shu jihatdan mazkur xalqaro dastur asosida mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashda ularning ish sharoiti, malaka darajasi va faoliyat samaradorligini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholash bilan mazkur yo'nalishda yangi rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish asoslariga ega bo'linadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning nazariy masalalari ko'lamini tashkil etadi.

4. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim sifatini amalga oshirishning muhim omillaridan biri boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini muntazam baholab borishdir. Bunda ayniqsa dunyo miqyosida tajribadan o'tgan TALIS kabi xalqaro dasturlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli mazkur xalqaro dastur asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholash metodlarini ishlab chiqish muhimdir. TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashda hududiy usul amaliy ahamiyatga ega. Biz bu usulning asosini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini maktablar, tuman(shahar)lar va viloyatlar miqyosida baholashda ko'ramiz.

5. TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashning markaziy usuli strategic samarador hisoblanadi. Bu usulning asosi boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini ushbu dastur asosida markaziy ta'lim davlat boshqaruvi organlari tashabbusi, o'qituvchilarning malaka oshirish muassasalari takliflari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka binoan baholashdan iborat. Biz tomonimizdan shakllantirilgan TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashning "Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati" nomli kompyuterli masofaviy baholash usulidan foydalanish keng imkoniyatlarga egaligi bilan samarali hisoblanadi. Asosiysi bunda baholash jarayonida inson omili susayadi.

6. Biz tomonimizdan shakllantirilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning mazkur hududiy va markaziy usullari yangi metodika sarasiga kirishini eslatib o'tish joiz.

7. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning nazariy – metodik xususiyatlari samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari maxsus tizim asosida amalga oshirildi. Unda tajriba-sinov ishlari dasturi tuzilib, respondent o'qituvchilar tarkibi tanlandi. Dasturda tajriba-sinov ishlarini o'tkazishning bosqichlari belgilanib metodikasi aniqlab olindi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishdan avval pespondent boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tushuntirish berilganligi bu ishda ularning faol ishtirok etishini ta'minladi. Natijada tajriba va nazorat guruhidagi respondent boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligiga erishildi.

8. Ikki bosqichda o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini alohida – alohida tahlil qilish shu mazkur ishning samaradorligini ta'minlashdagi omillardan biri bo'ldi. Buning natijasida tajriba-sinov ishlarining ma'lumotlarini kutilgan darajada umumlashtirishga erishildi. Pedagogik tajriba-sinov

ishlari tizimli yondoshuv asosida amalga oshirilganligi uchun tadqiqotning nazariy xulosalari va amaliy metodik yondoshuvlari kutilgan darajada sinovdan o'tkazildi. Bularning barchasi pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalarini kutilgan darajada bo'lishini ta'minladi. Olingan natijalar 14,1 foizni tashkil etdi.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi takliflarni taqdim etish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1. TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholab borish ularning kasbiy va amaliy tayyorgarlik darajasini kuchaytiradi. Shu sababli bunday baholash jarayoni muntazam ravishda

o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari vositasida amalga oshirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. 2. TALIS xalqaro dasturi asosida baholash bo'yicha ko'nikmalarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarkib toptirish muhim amaliy imkoniyatlarni beradi. 3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TALIS kabi xalqaro baholash dastutrlarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirishga yo'naltirish kutilgan samarani beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdiyeva, G. B., & Qarshiboyeva, X. K. (2022). Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ixtirochilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish. *Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture*, 91-94.
2. Akhmedov, B. A., Qarshiboyeva, X. K., Razzakova, G., Karimova, F. K., Yusupova, S., & Xujamkulov, P. & Eshnazarova, MY (2023). Problems of modern urbanization. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 6-13.
3. Ergashev, U. (2022). Elektron masofaviy ta'limda axborot texnologiyalarini multimediya vositalarida o'qitishning o'rni: Ergashev Ulug'bek Erkinovich, Shodmonqulov Mirjalol Turon o'g'li, Turatov Hojakkbar Shavkat o'gli. *Журнал математики и информатики*, 2(3).
4. Jabborova O. Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish. –Ch.: "Yangi chirchiq book". 2023-128b.
5. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(4), 245-249.
6. Karimovna, Q. X. (2023). Boshlang'ich sinflarda imloviy savodxonlikni oshirishda chiroqli yozuv malakalarini shakllantirishning ahamiyati. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(23), 100-105.
7. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. 1(1), 379-382.
8. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, 1(3), 72-77.



UO'K: 7.011.17.1.(043)

Pulotjon QAXOROV,

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti, PhD

E-mail: pulatsamdu1988@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d O.G 'aybullayev taqrizi asosida

HARMONY OF HUMAN BEAUTY AND MORAL VALUES

Annotation

Beauty and moral values are interconnected, and this allows a person to understand and appreciate true beauty. A person has a need for moral improvement, and the influence of progress should be manifested in external beauty because inner beauty, ethics, and high moral values have an impact on society. Such harmony preserves respect, justice, and peace in society, which is essential not only in the personal realm but also in the social sphere.

Key words: Moral values, beauty, inner beauty, ethics, sincerity, appearance, harmony, personal development.

ГАРМОНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ КРАСОТЫ И НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

Красота и моральные ценности взаимосвязаны, и это дает человеку возможность понять и оценить истинную красоту. У человека есть потребность в моральном совершенствовании, и влияние прогресса должно проявляться во внешней красоте, потому что внутренняя красота, этика и высокие моральные ценности оказывают влияние на общество. Такая гармония сохраняет уважение, справедливость и мир в обществе, что крайне необходимо не только в личном мире, но и в социальной сфере.

Ключевые слова: Моральные ценности, красота, внутренняя красота, этика, искренность, внешний вид, гармония, личностное развитие.

INSON GO'ZALLIGI VA AXLOQIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Аннотация

Go'zallik va axloqiy qadriyatlar bir-biriga bog'liqdir va bu insonga haqiqiy go'zallikni tushunish va qadrlash imkonini beradi. Insonda axloqiy kamolotga ehtiyoj bor, taraqqiyotning ta'siri tashqi go'zallikka bo'lishi kerak, chunki ichki go'zallik, odob-axloq, yuksak axloqiy qadriyatlar kabi ijobiy fazilatlar jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Bunday uyg'unlik faqat shaxsiy dunyoda emas, balki jamiyatda juda zarur bo'lgan hurmat, adolat va tinchlikni saqlaydi.

Kalit so'zlar: Axloqiy qadriyatlar, go'zallik, ichki go'zallik, odob, samimiyat, tashqi ko'rinish, uyg'unlik, shaxsiy rivojlanish.

Kirish. "Inson go'zalligi va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi" nomli tadqiqot ishining muammosi insonning tashqi go'zalligi bilan uning ichki axloqiy qadriyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Jamiyatda go'zallik ko'pincha tashqi ko'rinish bilan bog'liq bo'lsa-da, insonning ichki fazilatlarini, xususan, axloqiy qadriyatlari ham uning haqiqiy go'zalligi sifatida qadrlanishi zarur. Maqolada aynan shu ikkala jihatning uyg'unligi va bir-birini to'ldirishi masalasi ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi – insonning go'zalligi va axloqiy qadriyatlarining bir-biriga ta'siri, uyg'unligi va ularning jamiyatdagi rolini ilmiy asosda tahlil qilishdir. Tadqiqot, tashqi go'zallik va axloqiy fazilatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi va bu ikki jihatning jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ochib beradi.

Ilmiy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

Inson go'zalligi va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash;

Tashqi ko'rinish va ichki axloqiy xususiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish;

Insonning ijtimoiy va madaniy qiymatlari nuqtai nazaridan go'zallik va axloqiy qadriyatlarni tahlil qilish.

Tadqiqot ishining dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda go'zallik va axloqning jamiyatdagi yuksak qadriyatlar sifatida o'rni tobora ortib bormoqda. Shuningdek, tadqiqot maqsadi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, insonlarning axloqiy qadr-qimmatini tushunishi va go'zallikka bo'lgan yondashuvni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan.

Ilmiy ahamiyati shundaki, maqola inson shaxsining tashqi va ichki jihatlarini ilmiy asosda o'rganib, go'zallik va axloqiy qadriyatlarining uyg'unligini va ularning jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanishdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarni axloqiy tarbiya va madaniyatga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson go'zalligi va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik masalasi falsafaning eng qadimgi va murakkab mavzularidan biridir. Bu masala turli madaniyatlar va ijtimoiy tizimlarda turlicha tahlil etilgan, har bir yurt yoki davr o'zining o'ziga xos nuqtai nazarini taklif etgan. Zero, "Go'zallik – bu tabiat va jamiyatdagi estetik ong va faoliyat asosida vujudga keladigan subyektning voqelikni idrok etish qobiliyatidir"[1]. Aslida esa, go'zallik va axloqiy fazilatlarini qanday qilib bir-biriga bog'lash mumkinligi bu masalaning markazida yotadi. Adabiyotlarda go'zallik, ko'pincha tashqi ko'rinish bilan cheklanadi, lekin uning ichki go'zallik bilan chambarchas aloqasi borligi ko'rsatiladi.

Birinchi navbatda, Platonning asarlaridagi go'zallikning haqiqiy mohiyati axloqiy yuksalish bilan chambarchas bog'langan. Platon, go'zallikni nafaqat estetik tajriba sifatida, balki axloqiy tozalikka olib boruvchi ma'naviy fazilat sifatida ko'rgan. U, inson dangasalikdan xoli, haqiqiy bilimga ega bo'lishi va go'zallikni, axloq bilan birga qabul qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Platonning muhim fikrlaridan biri shuki, go'zallikning haqiqiy namoyon bo'lishi faqat axloqiy yuksaklik va ruhiy rivojlanish orqali mumkin [2].

Aristotel esa "Nikomax etikasi" asarida axloqiy qadriyatlarni go'zallik bilan bog'lab, insonning ichki go'zalligining jamiyatda yuqori baholanishi zarurligini ta'kidlaydi. U go'zallik va axloqni bir butun sifatida ko'rib, ularning o'zaro uyg'unligini insonning yuksak axloqiy fazilatlar va odob-axloq meyorlariga rioya qilishi bilan erishishga bo'lgan yo'l sifatida ko'radi [3;89]. Shu nuqtai nazardan, go'zallik va axloqning uyg'unligi, jamiyatda etika va estetik qadriyatlar asosida insonning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Immanuel Kantning estetik va axloqiy qadriyatlarni o'zaro bog'lashga oid fikrlari ham ahamiyatli. Uning "Axloq metafizikasining asoslari" asarida go'zallikni estetik idrok orqali

baholashning subyektivligini ta'kidlar ekan, u shu bilan birga axloqiy qadriyatlarining ham insoniyat uchun umumiy va aqliy meyorlarga asoslanganligini ko'rsatgan. Kantning nazariyasi bo'yicha, go'zallikni anglashda insonning ichki axloqi va yuksak meyorlariga bo'lgan rioya etishi muhim ahamiyatga ega [4].

XX asrda esa Marta Nussbaum va Alasdair Makintre [5] kabi zamonaviy faylasuflar, axloqiy fazilatlar va go'zallik o'rtasidagi bog'liqlikni yana bir bor yoritib, insoniyatning o'z axloqiy meyorlariga asoslangan estetik tushunchasini rivojlantirgan. Nussbaum, xususan, axloqiy qadriyatlarini estetik ta'lim bilan uyg'unlashtirish va go'zallikning inson ruhidagi ta'sirini tahlil qilishga katta e'tibor qaratgan [6].

Bundan tashqari, psixologiya va sotsiologiya sohalaridagi tadqiqotlar ham go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi aloqani tahlil qilgan. Erik Erikson [7] va Abraham Maslouning shaxsiy rivojlanish nazariyalari go'zallik va axloqiy qadriyatlarining qanday qilib bir-birini to'ldirishi va ijtimoiy hayotda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Maslouning ierarxik ehtiyojlar nazariyasida, uning yuqori pog'onalaridan biri insonning o'zining ma'naviy va axloqiy yuksalishiga qaratilgan ehtiyojlar bilan bog'liqdir. Bu, o'z navbatida, go'zallik va axloqning uyg'unligi orqali erishiladi [8].

Shu bilan birga, R.Sadikovaning "Yoshlar axloqiy-estetik madaniyat kamoloti" nomli maqolasida tarbiyaviylilik – axloqiy va estetik madaniyatning ustuvor vazifalaridan biri inson hissiyotlariga ta'sir qilish, estetik kechinmalar uyg'otish va hu orqali ezgulikni yovuzlikdan farqlay bilish ko'nikmasini shakllantirish omillari tahlil qilingan [9;170].

Shu nuqtai nazardan, go'zallik va axloqiy qadriyatlarining uyg'unligi nafaqat falsafiy va estetik masala bo'lib qolmay, balki jamiyatning axloqiy meyorlarini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Adabiyotlar sharhi go'zal bo'lish va axloqiy fazilatlarining o'zaro bog'liqligini yanada chuqurroq tushunish uchun muhim asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqola doirasida inson go'zalligi va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni o'rganish uchun bir qator metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish, ularning bir-birini qanday to'ldirishi va uyg'unlashishi, shuningdek, bu uyg'unlikning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqot metodologiyasi bir necha asosiy yondashuvlarga asoslanadi:

Tadqiqotda insonlarning go'zallik va axloqiy qadriyatlar haqidagi shaxsiy fikrlarini o'rganish uchun so'rovnoma va intervyyular o'tkaziladi. Bu metod yordamida ishtirokchilarning go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi aloqalarga bo'lgan qarashlari, ularning shaxsiy tajribalari va fikrlari o'rganiladi. So'rovnoma va intervyyular yordamida ijtimoiy guruhlarining go'zallik va axloqiy qadriyatlarini qanday qabul qilishini va bu qadriyatlarini o'z hayotlariga qanday tatbiq etayotganini tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotda yuqoridagi metodlarni birgalikda qo'llash orqali, go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi aloqalarni turli nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish mumkin. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari bo'lib, ular yordamida har tomonlama va aniq natijalarga erishish mumkin.

Tadqiqotning metodologiyasi, go'zallik va axloqiy qadriyatlarining uyg'unligi va bu uyg'unlikning jamiyatdagi o'rni haqida chuqur tushuncha hosil qilishni maqsad qilgan.

Tahlil va natijalar. Ushbu ilmiy tadqiqotda inson go'zalligi va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni o'rganish maqsadida olib borilgan tahlillar bir nechta asosiy jihatlarni ko'rsatdi. Tadqiqotning asosiy yondashuvi go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash va ularning ijtimoiy,

psixologik hamda madaniy kontekstdagi o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratildi. Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilindi:

Ijtimoiy tahlil jarayonida, ishtirokchilarning go'zallik va axloqiy qadriyatlarini qanday qabul qilishlari, ularning ijtimoiy normativlar va madaniy qadriyatlarga bog'liq ekanligi aniqlandi. Jamiyatdagi estetik va axloqiy meyorlarga rioya qiluvchi shaxslar ko'proq ijtimoiy qadrlanishi va hurmatga sazovor bo'lishi mumkin. Ijtimoiy so'rovlar shuni ko'rsatdiki, go'zallik ko'pincha tashqi ko'rinish bilan bog'lanadi, ammo axloqiy qadriyatlar, xususan, adolat, hurmat va mehr-muhabbat kabi fazilatlar, jamiyat tomonidan yuqori baholanadi. Shuningdek, ijtimoiy normativlar go'zallik va axloqiy qadriyatlarining bir-biriga mosligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotda estetik va axloqiy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligi haqida ilgari ilgari surilgan nazariyalar va falsafiy qarashlarga tayangan holda, amaliy tahlil o'tkazildi. Estetik qadriyatlar faqat tashqi go'zallik bilan bog'liq emas, balki insonning ichki go'zalligi, ya'ni axloqiy ideal va ma'naviy yuksalish bilan ham chambarchas aloqadordir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, go'zallikning haqiqiy namoyon bo'lishi axloqiy qadriyatlarining yuksalishi bilan bog'liqdir. YA'ni, insonning tashqi go'zalligi, uning ichki yuksak axloqiy fazilatlar bilan uyg'unlashganda, haqiqiy go'zallik paydo bo'ladi.

Tadqiqotning so'rovnoma va intervyyu metodlari orqali olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik insonlar uchun go'zallikning ichki jihatlari (axloqiy fazilatlar, samimiyat, adolat) tashqi go'zallikdan ko'ra ahamiyatliroqdir. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar, shaxsning jamiyatdagi o'rni va uning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar go'zallik va axloqiy qadriyatlarining bir-birini to'ldirishi, balki ularning uyg'unligi odamlarning ijtimoiy muvaffaqiyatlari va baxtli hayotlariga yordam berishini ko'rsatadi.

Umuman, tadqiqot natijalari go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasida chuqur bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Go'zallik faqat tashqi ko'rinish bilan cheklanmaydi, balki uning haqiqiy ifodasi ichki fazilatlar va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Ushbu ilmiy tadqiqotda inson go'zalligi va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik masalasi keng ko'lamda tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy natijalariga ko'ra, go'zallik faqat tashqi ko'rinish bilan bog'liq emas, balki uning haqiqiy mohiyati ichki axloqiy fazilatlar, ya'ni insonning samimiyligi, adolati, mehribonligi va halolligi bilan chambarchas bog'liqdir. Go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik nafaqat shaxsiy rivojlanishda, balki jamiyatdagi ijtimoiy meyorlar, qadriyatlar va normativlar shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Zero, "Ma'naviyat tizimidagi ijtimoiy hodisalarning axloq bilan munosabatlarini mana shu qisqacha tarzda ko'rib chiqishimizning o'ziyoq bizda axloqning o'mi haqida aniq tasavvur uyg'otadi. Shu narsa ayonki, axloq mazkur ijtimoiy hodisalar markazida turadi. U nafaqat markaziy ijtimoiy hodisa, balki boshqa ijtimoiy hodisalarni harakatlantiruvchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi"[10].

Tadqiqotda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlikning psixologik va ijtimoiy o'lchamlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ishtirokchilarning aksariyati go'zallikni faqat tashqi ko'rinish bilan emas, balki uning ichki sifatleri bilan ham baholashadi. Axloqiy qadriyatlar, insonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida go'zallikni shakllantirishda va uning to'liq namoyon bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyatlariga va uning jamiyatdagi o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. G'aybullayev O.M. Nafosat falsafasi. Darslik. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tiilar instituti" nashriyoti, 2024. – bet 544.
2. Платон. Государство. – М.: "АСТ", 2021. – стр. 448. ISBN 9785170983438.
3. Аристотель. Никомахова этика. – Электронная библиотека "Гражданского общества".: Электронный ресурс, стр. 205. URL:<http://www.civisbook.ru>.
4. Immanuel Kant. Groundwork of the Metaphysics of Morals. (A German-English Edition, edited and translated by Mary Gregor and Jens Timmermann). – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – P. 236. ISBN 978-0-521-51457-6.
5. Blackledge Paul, Knight Kelvin. Virtue and Politics: Alasdair MacIntyre's Revolutionary Aristotelianism. University of Notre Dame Press, 15 June 2011. – P. 31. ISBN 978-0-268-02225-9.

6. Nussbaum, Marta C. *Cultivating Humanity: A Classical Defense of Reform in Liberal Education*. Cambridge, MA: Cambridge University Press, 1997. – P. 352.
7. Capps, Donald. *Erik Erikson's Verbal Portraits: Luther, Gandhi, Einstein, Jesus*. Lanham, MD: Rowman & Littlefield, 2014. – P. 106. ISBN 978-1-4422-4151-0.
8. Холлифорд С., Уиддет С. Мотивация: Практическое руководство для менеджеров. М.: ГИППО, 2008. – P. 24. ISBN 978-5-98293-087-3.
9. Sadikova R. Yoshlar axloqiy-estetik madaniyat kamoloti. – “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 7-sonli Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 2023. – bet 170-173.
10. Sher, Abdulla. *Axloqshunoslik. Darslik*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – bet 328.



UDK :372.891

Maxmuda QO'LDASHEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: maxmuda198026@gmail.com
Fotima OLIMJONOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD F.Xusanova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL PROBLEMS ASSOCIATED WITH THE COGNITIVE PROCESS OF CHILDREN IN EDUCATION

Аннотация

This article will talk about the results of an experimental test on the elimination of problems related to the perception, understanding of children that arise in preschool educational organizations, the primary branch of education, through new techniques, methods. For this purpose, it is advisable to study from the educational system of developed countries and apply it nationalized to our educational system. Color in children-image, gamma-assumption, mathematical calculus, objects and their elements, units of weight measurement and aimed at absorbing a lot of knowledge in a short, easy and understandable way and introducing an integrated education for this purpose. Today, even for children who are interested in inclusive education in education, training can be achieved with high results using inter-integration.

Key words: Technology, preschool education, cognitive processes, integration, innovation, interactive, game, experiment, complex, STEAM, PISA, socialization, differentiation, inclusive, trend, competence, professional education, method, principle, multimedia, methodology.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПОЗНАВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ ДЕТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье рассказывается о результатах экспериментальных испытаний по преодолению проблем, связанных с восприятием, пониманием детьми, возникающих в дошкольных образовательных организациях, являющихся начальным звеном образования, с помощью новых технологий, методов. Для этого целесообразно извлечь уроки из системы образования развитых стран и внедрить их в нашу систему образования в национализированном виде. Цветообразование, угадывание, математический расчет у детей книга направлена на краткое, легкое и понятное усвоение знаний о предметах и их элементах, единицах измерения веса и многих других, а также на внедрение интегрированного обучения с этой целью. Даже для детей, нуждающихся в инклюзивном образовании в современном образовании, обучение может быть достигнуто, если будут достигнуты высокие результаты в поддержке интеграции его.

Ключевые слова: Технология, дошкольное образование, когнитивные процессы, интеграция, инновация, интерактивный, игровой, экспериментальный, комплексный, STEAM, PISA, социализация, дифференциация, инклюзивный, тренд, компетентность, профессиональное образование, метод, принцип, мультимедиа, методология.

TA'LIMDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONI BILAN BOG'LIQ PEDAGOGIK MUAMMOLAR

Аннотация

Ushbu maqolada ta'limning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuzaga keladigan bolalarning anglashi, tushunishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yangicha texnologiyalar, metodlar orqali bartaraf etish haqida tajriba sinov natijalari haqida so'z yuritilgan. Bu maqsadda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidan o'rganilib o'zimizning ta'lim tizimimizga milliy lashtirilgan holda tadbiriq etish maqsadga muvofiqdir. Bolalardagi rang-tasvir, chama-taxmin, matematik hisob kitob, predmetlar va ularning elementlari, og'irlik o'lchov birliklari va ko'plab bilimlarni qisqsa, oson va tushunarli tarzda singdirishga va bu maqsadda integratsiyalshgan ta'limni joriy etishga qaratilgan. Bugungi kunda ta'limga inkluziv ta'limga muxtoj bo'lgan bolalar uchun ham mashg'ulotlar aro integratsiyani qo'llab yuqori natijalarga erishilsa bo'ladi.

Kalit so'zlar: Technology, preschool education, cognitive processes, integration, innovation, interactive, game, experiment, complex, STEAM, PISA, socialization, differentiation, inclusive, trend, competence, professional education, method, principle, multimedia, methodology.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda kelajak egalari bo'lmish yoshlarni sezgirlikka va xushyorlikka chorlash davr talabidir. Har bir davlat tinchligi, farovonligi, iqtisodiy yuksalishi, rivojlanishi barchasining tag zamiri ilm-fanga borib taqaladi. Shu o'rinda aytib o'tishim joiz-ki barcha davlatni xoh u iqtisodiy tomondan xoh ilm-fan tomondan yoki harbiy tomondan rivojlanganligi mamlakatning mustaxkamligi ilmga borib taqaladi.

Lekin, shu bilan birga bugungi kunda ta'lim jarayonida bir qator pedagogik muammolar uchraydi. Xususan bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanmaganligi yohud tayanch kompetensiyalari bilan bog'liq bo'lgan muammolar hisoblanadi. Bolalardagi bilish jarayoni pastligi yoki rivojlanmaganligi bu ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inidan boshlanadi albatta [1]. Hammamizga ma'lumki Maktabgacha ta'lim sohasi ta'limning boshlang'ich asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida bolalarning bilish jarayonlari bilan bog'liq muammolarni bartaraf

etish uchun turli hil metodlar va texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyalanuvchilardagi bilish jarayoni bu dunyoni anglash va tassavur etishdir. Va bilish jarayonlari bilan bog'liq har qanday jarayon yosh guruhlarida turlichadir. Bunga sabab turli yosh guruhlariga bilish jarayoni bilan bog'liq turlicha rivojlanish meyorlari qo'yilgan.

kichik guruh (3-4 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun ko'plikni taqqoslash, predmetlarni tayyorlangan materiallarini ajratish (qog'ozdan, yog'ochdan, temirdan) ;

o'rta guruh (4-5 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun geometrik buyumlarni o'xshash shakllar bilan taqqoslaydi va topa oladi, sonning miqdoriy tarkibini aytadi, tartib bilan sanaydi;

katta guruh (5-6 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi, balandligi, bo'yicha taqqoslaydi. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun 10 gacha qo'shish ayirishga doir sodd matematik

masalalarni son va +,-,= belgilardan foydalanib yechadi, 20 gacha bo'lgan sonlar doirasida ba'zi matematik amallarni bajaradi [2]. Yuqoridagi bilish jarayonini rivojlanishidagi kichik sohalar bo'lib, bilish jarayoni normal rivojlangan bolalar uchun. Biz zamonaviy yoshlar bu muammolarni yechish uchun ta'lim sohasiga yangi inovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etmog'imiz dardkor.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim jarayonidagi bolalarning bilish jarayoni bilan bog'liq pedagogik muammolar ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Bir qator tadqiqotchilarimizdan Rahimqulova Maftuna Abduhakim qizi dunyo ta'lim sohasidagi yangicha rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tizimidagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini va bilish jarayonlari muammolarini bartaraf etishda inovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan.

Jumladan YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilab qo'yilgan bolalarda erkin-ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Jahon tajribalari maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM texnologiyasi asosida o'qitishni joriy etish va bu esa ta'lim tizimini differensialashni taqazo etmoqda. Ta'limning keyingi boshlang'ich professional ta'lim bosqichlarida esa PIZA xalqaro baholash andozalariga mos ravishda bolalarga ta'lim berishni talab etadi.

Pedagogika sohasida yuqori natijalarga erishgan chex olimi Yan Amon Komenskiy ham ta'lim tizimiga bir qancha tushunchalarni olib kirgan, pedagogik muammolarni yechish yo'llarini ishlab chiqqan. Uning ta'kidlashicha "bolalar huddiki tabiatga o'xshaydi, unib o'sadi, sezgi organlari orqali esa borliqni anglaydi, bilish jarayoni rivojlanadi"- deb ta'kidlagan. Komenskiy bolani yosh davrlariga bo'lib chiqqan va bunda tabiiylik prinsipiga rioya qilgan. Bolalar yoshini 4 guruhga bo'lgan. Har bir yosh guruhida esa bolalar turlicha rivojlanishlarini ham ta'kidlab o'tgan. Tug'ulgandan to 6 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning sezgi organlarining rivojlanishi tabiatni his eta olishi, bilish orqali dunyo bilan tanishitirishga katta ahamiyat bergan [5].

Bundan tashqari Adolf Disterveg ham o'zining bir qancha nazariyalari bilan ta'limni samaradorligini oshirishga ko'plab hissa qo'shgan. Adolf Disterveg asosan aqliy tarbiyaga va bu

tarbiyani boshlang'ich maktablarda egallamoq samarali ekanligiga urg'u bergan. Uning fikricha boshlang'ich maktabda bolalarni aqliy kuch va qobiliyatlarini o'stirishga asosiy e'tibor berish kerakligini ta'kidagan. Buning uchun u boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'rganillayotgan materialni o'zlashtirish va tushunish ustida mustaqil ish olib bora olishi kerakligini aytib o'tadi. Va u o'rganillayotgan harqanday narsani ongli o'zlashtirishga urg'u bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'limda bolalarning bilish jarayonini fallashtirish ularning dunyoqarashini tivojlantirishda bir nechta usul va texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvfoqi bo'ladi. Xususan,


1.Kuzatish metodi. STEAM texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalardagi bilish jarayoni bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Bu metod bolalardagi bilish jarayonlarini rivojlantirishga va bor muammolarni bartaraf etish orqali dunyoni, o'rganillayotgan predmetlarni yanada kengroq o'rganishga yordam beradi [4]. Va bundan tashqari rivojlangan mamlakatlar qatori ta'limni sifatli tashkil etishga yordam beradi. Ushbu metod Amerikaning Masachusets Unstitutida kurslar shaklida ishlab chiqilgan bo'lib, bu o'quv yurtining shiori "Aql va qo'l" -hisoblanadi.

2.O'yin metod-bu metod bolalarni jismoniy,aqliy,ruhiy,estetik,ijtimoiy, badiiy rivojlanishlariga yordam beradi. Bolalarni faoliyatlariga va dars jarayonlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi,

3.Integratsiya metodi-bu metod orqali tarbiyachi mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga oson va samarali erisha oladi.Bu metod orqali mashg'ulot jarayonida AKT,multimediya, musiqa vositalaridan foydalanib bolalarni qiziqishlarini va bolalardagi ong osti anglash va tushunishlarini osonlashtiradi [4].

4.Eksperimental -tajriba metodi. Bilish jarayonini rivojlantirishga va mavzud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tajriba sinovdan o'tkazildi.Sinov natijalari shuni ko'rsatadiki yangi interfaol metodlar ta'limning har tomonlama samaradorligini ta'minlaydi.

Bolalarning bilish jarayonini samarali ravishda rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi omillarga e'tibor berishi kerak (1-rasm):



1-rasm. Bolalarning bilish jarayonini samarali rivojlantirish omillari

faoliyatga asoslangan yondashuv: Bolalarni o'zlari faol ishtirok etadigan jarayonlarga jalb qilish, o'rgatishning samaradorligini oshiradi. Masalan, amaliy mashg'ulotlar, tajriba qilish orqali bilish jarayoni rivojlanadi.

individdullikni hisobga olish: Har bir bola o'ziga xos tarzda o'rganadi. O'qituvchi bola ehtiyojlarini va uning o'qishdagi xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

o'rgatishning vizual va amaliy usullari: Tez o'zlashtirish va yaxshiroq eslab qolish uchun ko'rgazmali materiallardan, video va audiolardan foydalanish samarali bo'lishi mumkin.

Zamonaviy metodlar bolalarning ta'lim jarayonlaridagi samaralilikni ta'minlabgina qolmasdan balki bor yoki yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Xususan ta'lim jarayonidagi STEAM texnologiyasi bugungi kunda jadal rivojlanayotgan metodlardan hisoblanadi. Bu texnologiyaning asosiy g'oyasi bu nazariy bilim nechog'lik muhim hisoblansa amaliyot ham bundan mustasno emasligidadir.

Tarbiyalanuvchilar o'rganish jarayonida bilimlarga tez ega bo'lalilar va shu paytning o'zida amaliyotda ham bajara oladilar. Qisqa qilib aytganimizda pedagogik muammolarni bartaraf etish uchun biz avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlashimiz va bu ta'lim tashkilotida integratsiyalshgan ta'limni joriy etishimiz kerak. Integratsiyalashgan ta'limga yaqqol misol bu STEAM dir. Matematika, muhandislik, san'at, injineriing sohalari ilm asosida birlashib bolalardagi bilish jarayonlarini rivojlantiradi,muammolarni bartaraf eta oladi.

Bundan tashqari pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan bunday metodlar bolalarni kopleks rivojlanishlariga o'zining foydasini qo'shmay qo'ymaydi.Shu bilan birga amaliyotda qo'llaniladigan bunday metodlar bolalardagi qiziqishni uyg'otadi va bu o'z navbatida mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlarini,o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lishini ta'minlaydi.Bunday yangicha metodlar nafaqat tarbiyalanuvchilardagi muammo va kamchiliklarni yoki ularning ta'lim olish samaradorligini oshirish uchun balki,

tarbiyachilarning ham o'z ustida ishlashga va rivojlangan mamlakatlar pedagog kadrlari bilan raqobatbardosh bo'lishlarini kafolatlaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida qo'llangan metodologiya asosida olingan natijalar o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonidagi inovatsion metodlar ta'lim oluvchilarda quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

1. Bilish jarayonining yaxshilanishi. Bunda bolalarni tabiat hodisalarini anglashi, predmetlarni fazoga nisbatan joylashuvi, rangi, belgi-xususiyatiga ko'ra farqlash, geometrik shakllar, buyumlarni predmetlarga ajratish bilan bog'liq bilimlarni egallashlari osonlashdi.

2. Inovatsion metodning samaradorligi. Eksperiment davomida videolar, AKT va multimediy materiallari yordamida bolalar o'zlarini o'zlari bajargan ishlariga qarab baholay olish ko'nikmalari shakllandi.

3. Bolalarda refleksiya va tanqidiy tahlil qilishning rivojlanishi. Bolalar o'zlari bajargan ishni tanqidiy baholashni o'rgandilar. Bolalar bu metod orqali o'zlari uchun yangicha baholash usulini o'rgandilar.

4. Bolalarning faoliyatga bo'lgan qiziqishlari yanada ortdi. Yangi interfaol va inovatsion metodlar orqali bolalarni tanqidiy tahlil, o'z o'zlarini to'g'ri baholash va bilimlarni oson o'zlashtirishlariga erishildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi-ki ta'lim jarayoniga yangi usullarni olib kirish va bu usullarni ommalashtirish bolalarni rivojlangan mamlakatlar bilan teng holda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratadi. YA'niki bolalar ta'lim tarbiya jarayonida o'zlashtirishlarini oson va samarali usullaridan foydalangan holda to'g'ri tanqidiy va tahliliy fikrlay olishlariga olib keldi. Ayniqsa bilish jarayonidagi muammolarni bartaraf etish yoki bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish ikkitomonlama manfaatli hisoblanadi. Yuqoridagi metodlar orqali turli yosh guruhlarida mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammolar oldindan bartaraf etilishiga erishish imkoniyati bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilib olishimiz mumkinki bolalardagi bilish jarayonlariga bog'liq bo'lgan pedagogik muammolar va ularni bartaraf etish muhim hisoblanadi. Bolalardagi bu muammolar pedagogik jarayonga o'zining salbiy ta'sirini krsatadi. O'z o'rnida bu esa davlat siyosati darajasidagi yechimini topishi kerak bo'lgan muammolardan biridir. Bilish jarayonini rivojlantirish bolalarga barcha mashg'ulotlarni (matematika, nutq o'stirish, tasviriy faoliyat, musiqa, xareografiya,) mashg'ulotlarini ham oson o'zlashtirishlarida yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent. 2022. 212-bet
2. ILK QADAM o'quv dasturi. Toshkent. 2022- yil
3. Mavlonova R, Rahmonqulova N, Matnazarova K, Shirinov M, Hafizov S. Umumiy pedagogika Toshkent-2018. 56-bet
4. Davlat talablari. Toshkent 2018
5. Rayimqulova M. Bolalardagi bilish jarayonini rivojlantirishda erkin tarbiya texnologiyasidan foydallanish metodikasi. PhD dissertatsiyasi. Toshkent-2023. 76-bet.



Dostonjon QULMAMATOV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

S.f.d O. Musayev taqrizi asosida

GRANTING AN OFFICIAL THE AUTHORITY TO ASSESS PROPERTY: POTENTIAL CONSEQUENCES AND THE RISK OF CORRUPTION

Annotation

This article examines the issues of combating corruption in the process of privatizing state property. The author proposes effective measures to reduce corruption risks, ensure transparency, and strengthen legality. Additionally, the study analyzes strategies for preventing corruption based on international experience and national legislation.

Key words: Privatization, corruption, state property, transparency, legality, anti-corruption, prevention strategies.

ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ ДОЛЖНОСТНОМУ ЛИЦУ ПОЛНОМОЧИЙ ОЦЕНИВАТЬ ИМУЩЕСТВО: ВОЗМОЖНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ И РИСК КОРРУПЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы борьбы с коррупцией в процессе приватизации государственной собственности. Автор предлагает эффективные меры по снижению коррупционных рисков, обеспечению прозрачности и укреплению законности. Также анализируются стратегии предотвращения коррупции на основе международного опыта и национального законодательства.

Ключевые слова: Приватизация, коррупция, государственная собственность, прозрачность, законность, стратегии предотвращения.

MANSABDOR SHAXSGA MOL-MULKNI BAHOLASH VAKOLATINI BERISH: EHTIMOLIY OQIBATLAR VA KORRUPSIYA XAVFI

Аннотация

Mazkur maqolada davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari yoritilgan. Muallif korrupsiya xavflarini kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash va qonuniylilikni mustahkamlash borasida samarali choralarni taklif qiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribalar va milliy qonunchilik asosida korrupsiyaning oldini olish strategiyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xususiylashtirish, korrupsiya, davlat mulki, shaffoflik, qonuniylilik, oldini olish strategiyalari.

Kirish. Korrupsiyaning tarixi qadimdan boshlangan bo'lib, "Qadimgi Shumerlarda birinchi bor korrupsiyaga qarshi kurash olib borilgan. Ba'zi dinlarda, shu jumladan, Injil va Qur'oni Karimda, pora qabul qilish qoralangan. XVIII asrda davlat boshqaruvi tizimi murakkablashib, bu korrupsiyaning avj olishiga olib keldi. AQSH Konstitutsiyasida 1787-yilda pora olish impichmentga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlardan biri sifatida belgilangan. XIX-XX asrlarda korrupsiya davlatlarning huquqiy tizimi va siyosiy partiyalar orqali kamaygan. Korrupsiyaga olib keluvchi omillar sifatida mutaxassislar qonunlarning ikki xil ma'noda tushunilishini, jinoyat va ma'muriy qonunlardagi sanksiyalar va aholi huquqiy savodxonligining pastligini ko'rsatadilar. [1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Q.R.Abdurasulova korrupsiyaga qarshi kurashda qonunlardagi aniq va qat'iy jazo choralari hamda ichki va tashqi nazorat tizimining ahamiyatini ko'rsatgan. Kofi Annan korrupsiyani "makkor kasallik" sifatida tavsiflab, uning jamiyat hayotiga halokatli ta'sirini ta'kidlaydi. B.I.Ismailov xalqaro standartlar va xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari rivojini o'rganib, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhimligini urg'ulaydi. Prezident farmonlari va hukumat qarorlari korrupsiyaga qarshi islohotlarni jadallashtirishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, mol-mulkni baholash vakolatining mansabdor shaxslarga berilishi korrupsion xavfni kuchaytirishi qayd etiladi. Shu bois baholash jarayonlarini mustaqil tuzilmalar orqali amalga oshirish, shaffoflikni oshirish va javobgarlikni kuchaytirish taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda, avvalo, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularga berilgan sharhlar o'rganilib, ularning o'zaro muvofiqligi tahlil qilindi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, baholash jarayonidagi korrupsion xavflarni aniqlash uchun huquqshunos va baholovchi-mutaxassislar bilan qisqa suhbatlar

tashkil etildi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, korrupsiyani kamaytirish bo'yicha takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatdagi yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolishi korrupsiya muammosini kuchaytirishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashning turli usullari mavjud, ular orasida ichki va tashqi nazorat, saylovlar orqali kurashish kabi usullar ham bor. Ichki nazorat, ya'ni boshqaruv organlarida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar tashkil etish, Korrupsiyaga qarshi samarali kurashishga yordam beradi. Tashqi nazorat esa, ijro apparatidan mustaqil organlar orqali amalga oshirilishi lozim. Shvetsiya, Singapur, Gonkong va Portugaliya kabi mamlakatlar Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan. Ular Korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratgan va shu orqali Korrupsiya darajasini minimallashtirgan[2].

This article analyzes the states of psychological tension observed in women after childbirth and their psychological aspects. The postpartum period is accompanied not only by physical, hormonal, and emotional changes in the female body, but it can also cause mental health issues of varying degrees. Postpartum depression, anxiety states, and mental fatigue are particularly widespread and negatively affect a woman's personal life, her relationship with the child, and family dynamics.

Key words: postnatal stress, postpartum depression, anxiety, female psychology, mental health, psychological support, psychological tension, emotional state, changes after pregnancy, family support, hormonal changes, psychological pressure, and childbirth.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХИЧЕСКОГО НАПРЯЖЕНИЯ, КОТОРОЕ ВОЗНИКАЕТ У ЖЕНЩИН ПРИ РОДОВЫХ ТРАВМАХ

Аннотация

В данной статье проанализированы состояния психического напряжения, наблюдающиеся у женщин после родов, и их психологические аспекты. Послеродовой период сопровождается у женского организма не только физическими, гормональными и эмоциональными изменениями, но и может вызывать проблемы с психическим здоровьем различной степени. Особенно широко распространены послеродовая депрессия, тревожные состояния и психическая усталость, которые негативно сказываются на личной жизни женщины, её отношении к ребёнку и семейных отношениях.

Ключевые слова: Постнатальный стресс, послеродовая депрессия, тревожность, женская психология, психическое здоровье, психологическая помощь, психологическое напряжение, эмоциональное состояние, изменения после беременности, семейная поддержка, гормональные изменения, психическое давление и роды.

TUG'RUQ TRAVMALARIDA AYOLLARDA YUZAGA KELADIGAN RUHIY ZO'RIQISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tug'ruqdan keyin ayollarda kuzatiladigan ruhiy zo'riqish holatlari va ularning psixologik jihatlarini tahlil qilingan. Tug'ruqdan keyingi davr ayol organizmida jismoniy, gormonal va emotsional o'zgarishlar bilan birga, turli darajadagi ruhiy salomatlik muammolarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, tug'ruqdan keyingi depressiya, tashvishli holatlar va ruhiy charchoq holatlari keng tarqalgan bo'lib, ular ayolning shaxsiy hayoti, bolaga nisbatan munosabati va oilaviy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Postnatal stress, tug'ruqdan keyingi depressiya, anksiozlik, ayol psixologiyasi, ruhiy salomatlik, psixologik yordam, psixologik zo'riqish, emotsional holat, homiladorlikdan keyingi o'zgarishlar, oilaviy qo'llab-quvvatlash, gormonal o'zgarishlar, ruhiy ta'qib va tug'ruq.

Kirish. Inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lgan ona bo'lish jarayoni ayol organizmiga va ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tug'ruq – nainki jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham ayol uchun jiddiy sinov hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar tug'ruqdan keyingi davrda ayollar turli darajadagi ruhiy zo'riqish holatlarini boshdan kechirishini ko'rsatmoqda. Bu holatlar orasida tug'ruqdan keyingi depressiya, xavotir, o'zini yakkalikda his etish, motivatsiyaning pasayishi, xudbinlik yoki behurmatlik hissi kabi psixik muammolar keng tarqalgan.

Tug'ruqdan keyingi ruhiy zo'riqish ko'pincha nazardan chetda qoladi, chunki jamiyatda onalik tabiiy va xursandchilikka sabab bo'lishi kerak degan qarash mavjud. Biroq, bu davrda ayolning ichki dunyosida yuz beradigan o'zgarishlar, gormonal o'zgarishlar, uxlash tartibining buzilishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi uning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolada tug'ruqdan keyin ayollarda yuzaga keladigan ruhiy zo'riqishning asosiy psixologik jihatlarini tahlil qilinadi, ushbu holatlarning kelib chiqish sabablari, belgilari va oqibatlarini o'rganiladi hamda muammoni bartaraf etishda psixologik yordamning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Tug'ruq inson hayotidagi eng muhim voqealardan biri hisoblanadi. Ammo ko'pincha tug'ruqdan keyingi davr ayollar uchun faqat xursandchilik emas, balki jiddiy ruhiy sinovlar davri ham bo'ladi. Bu davrda ayollar nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham katta bosimga duch keladilar. Postnatal stress,

postnatal depressiya va boshqa ruhiy o'zgarishlar sog'lom ona va bola munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ba'zi ayollarda tuqqanidan so'ng turli xil ruhiy-hissiy buzilishlar kuzatiladi. Atrofdagilarning yaxshi munosabatidan qat'i nazar, tuqqan ayolning kayfiyati keskin o'zgarishi mumkin. Ayniqsa, sababsiz jizzakilik, tez xafa bo'lish, yig'loqlik, vahima, xavotir, uyqu buzilishi kabi belgilar ko'p kuzatiladi va ular hech qanday tibbiy-psixologik yordamsiz o'tib ketishi mumkin. Bu holatlar, ayniqsa, birinchi bor tuqqan ayollarda ko'p kuzatiladi va charchoq bilan namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatlarda umr yo'ldoshi, ota-onasi va boshqa yaqinlarining katta e'tibori, mehr-oqibati ushbu ruhiy o'zgarishlarni tezroq bartaraf etishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiuotlarning tahlili. Xollidey, K. (2010). "Postpartum Depression and Stress". Journal of Mental Health. Jeyms, M. (2015). "Psychological Impact of Birth Trauma on Women". Psychology Today. Friman, R. (2018). "Trauma and Women's Mental Health". Psychiatric Clinics of North America. Ushbu adabiyotlarda tug'ruq jarayonining ayollar ruhiyatiga ta'sirini ifodalashga empirik tadqiqotlariga va ayollarda ruhiy zo'riqishlarning oldini olish psixologik yordam strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu psixologik tadbirlarning ahamiyatiga e'tibor qaratadi. ravmadan so'nggi stress buzilishlari (PTSR) Judith Herman, "Trauma and Recovery" Ayollarda tug'ruqdan keyingi travmaga duch kelish holatida PTSR (posttravmatik stress buzilishi) simptomlari, ularning ruhiy holatiga ta'siri, jumladan, qo'rquv, ishonchsizlik, tushkunlik va

uyalish kabi holatlar bayon qilinadi. American Psychiatric Association, DSM-5 (Diagnostik va statistik qo'llanma) PTSR tashxisi uchun qo'llaniladigan mezonlar, tug'ruq bilan bog'liq holatda bu simptomlarni qanday aniqlash mumkinligi keltirilgan. Turli tadqiqot maqolalari va empirik ma'lumotlar "Postpartum PTSD: The Role of Birth Experience" – Ayers, S. (2007). Ushbu maqolada ayolning tug'ruq jarayonidagi subyektiv taassurotlari qanday qilib PTSR rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi haqida so'z boradi. Ayniqsa, qiyin tug'ruq, shifokorlar bilan munosabat, nazoratning yo'qligi va og'riq muhim omillar sifatida qayd etiladi. "Psychological impact of traumatic birth" – Beck, C. T. (2004) Tadqiqot ayollarda tug'ruqdan keyingi ruhiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Depressiya, izolyatsiya hissi, ruhiy charchoq va uyg'unlik muammolari kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'zlash metodi – tug'ruq travmalariga uchragan ayollar bilan to'g'ridan-to'g'ri suhbatlar o'tkaziladi. Bu usul bilan ayollar bilan suhbatlar olib boriladi, ularning hissiyotlari va psixoemotsional holatlari bo'yicha ma'lumotlar yig'iladi. Maxsus psixologik testlar – tug'ruq travmasi bilan bog'liq psixoemotsional holatlarni o'lchash uchun maxsus testlar, masalan, stressli holatlarni o'lchash testlari va affektiv holatlarni tekshirish testlari. Psixologik intervyular – ayollar bilan har tomonlama chuqur intervyular olib borish, ularning ichki dunyosi, stressga reaksiyasi, tug'ruq travmasiga qanday javob berishini tushunish. Analitik usullar – yig'ilgan ma'lumotlar asosida statistik tahlillar olib borish va natijalarni umumlashtirish.

Mutaxassislar fikricha, tug'ruqdan keyingi bunday psixoemotsional buzilishlar deyarli 20 % ni tashkil qiladi va bir oygacha cho'zilishi mumkin. Ayniqsa, bola chala tug'lsa, unda nuqsonlar aniqlansa, ruhiy buzilishlar kuchayadi. Aksariyat ayollarda tug'ruqdan oldingi xavotir tug'ruqdan keyin ham saqlanib qoladi. Tuqqan ayolning atrofida salbiy muhit yaratilsa, ruhiy-hissiy buzilishlar zo'rayib, og'ir depressiyaga o'tish havfi bor. Tug'ruqdan keyin o'z farzandidan voz kechish yoki o'z joniga qasd qilish holatlari shu sababli ro'y berishi mumkin.

Ruhiy-hissiy buzilishlar ichida tug'ruqdan so'ng kuzatiladigan depressiyalar alohida o'rin tutadi va bunda albatta, psixolog yordami kerak bo'ladi. Ayolning o'zi bu holatdan chiqib keta olmasligi mumkin. Tug'ruq bilan bog'liq bo'lgan depressiyalar, ayniqsa, bola o'lik yoki biror bir kamchilik bilan tug'ilgan vaziyatlarda ko'p kuzatiladi. Bola tirik tug'ilgan holatlarda kuzatiladigan depressiyaning asosiy belgilaridan biri – bu o'z bolasi va eriga qiziqishning yo'qolishi. Bunday holatlarda bolani emizish zarurligini yaqinlari ayoldan yolvorib so'rashadi. Ona esa yig'layotgan bolaga e'tiborsiz bo'ladi, chaqaloqni uning ko'ksiga olib borishsa, uni qo'liga olmaydi, qo'liga berishsa ham qaytarib beradi, o'zi ham yig'layveradi. Ba'zan esa ko'ziga yig'i kelmaydi, bolasiga yoki atrofda qilargalarga teskari o'girilib yotib oladi.

Ko'p holatlarda depressiya qo'rquv, xavotir va turli darajada ifodalangan vegetativ va somatik buzilishlar bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, niqoblangan depressiyaning tug'ruqdan so'ng yuzaga kelishi vrach uchun ham katta diagnostik qiyinchilik tug'diradi. Avvalgi boblarda aytib o'tilganidek, niqoblangan depressiya turli somatik kasalliklar yoki sindromlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun niqoblangan depressiyani to'g'ri aniqlash ham tibbiy, psixologik tekshiruvlar o'tkazishni talab qiladi. Odatda, niqoblangan depressiyada somatik buzilishlar subyektiv bo'lib, obyektiv tekshiruvlarda tasdiqlanmaydi.

Tug'ruqdan so'ng kuzatiladigan xavotirli-depressiv buzilishlarni davolashda zamonaviy antidepressantlardan keng foydalaniladi. Biroq ruhiy buzilishlarni ushbu dorilar bilan davolashda ularni emizuvchi ayolga monelik qiluvchi tomonlari, go'dakka nojo'ya ta'sirlari va ruhiy buzilishning og'irlik darajasini e'tiborga olish lozim.

Tug'ruqdan so'ng rivojlanishi mumkin bo'lgan xavotirli-depressiv buzilishlarning oldini olish o'ta muhim. Buning uchun har bir homilador ayolga "Tibbiy-psixologik anketa" to'ldirilishi va tibbiy psixolog ularni nazoratga olishi zarur. Chunki endi rivojlanib kelayotgan depressiyaning yashirin belgilarini faqat tibbiy psixolog aniqlay oladi va ularni o'z vaqtida psixoterapevtik yo'llar bilan bartaraf etadi, zaruratga qarab antidepressantlarni tavsiya etadi.

Bachadon olib tashlanishi deyarli barcha ayollar uchun endi yoshlikning orqada qolgani, hayot ma'nosiz bo'lib qolganini anglatadi. Bunday operatsiyadan keyin ayol bir necha oylab odatiy hayot tarziga qayta olmaydi, depressiya va apatiyaga tushadi, o'zini xuddi yaqin bir kishisidan judo bo'lgandek his qiladi. Bunday ayollarning somatik shikoyatlari ham ko'payadi, qornida har xil og'riqlar, oyoq-qo'llarida uvishishlar paydo bo'ladi, bel og'riqlari, tez-tez siyish, umumiy holsizlik, charchab qolish, o'z-o'zidan yig'i kelish kabi belgilar kuzatiladi.

Tibbiy psixolog psixoterapevtik muolajalarni erta boshlasa, ayoldagi mavjud psixoemotsional buzilishlar vaqtli orqaga chekinadi va u normal hayotga qaytadi. Mutaxassislar fikricha, bachadoni olib tashlangan ayollarning odatiy hayotga qaytishi 2 yilga qadar cho'zilishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, depressiyadan aziyat chekib yurgan yoki melanxolik ayollarda kuzatiladi. Albatta, tibbiy psixologning aralashuvi bu davrni bir necha oyga qisqartiradi. Ba'zan ginekologik operatsiyadan so'ng turli darajada ifodalangan vegetativ-endokrin buzilishlar kuzatiladi va ular dori vositalari bilan faol davolashni talab qiladi.

Xulosa. Tug'ruqdan keyingi davr ayol uchun faqat yangi mas'uliyatlar emas, balki yangi psixologik sinovlar davridir. Bu jarayonda yuzaga keluvchi ruhiy zo'riqishni erta aniqlash va samarali yordam ko'rsatish ayolning sog'lom va baxtli onalik rolini bajarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, tibbiyot va psixologiya sohasidagi mutaxassislar bunday holatlarga nisbatan yetarlicha e'tibor qaratishi lozim. Tug'ruq — ayolning hayotidagi eng muhim va mas'uliyatli jarayonlardan biri bo'lib, uning jismoniygina emas, balki ruhiy holatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tug'ruq paytida yoki undan so'ng yuzaga keladigan travmatik holatlar ayolda ruhiy zo'riqish, qo'rquv, xavotir, hatto depressiya kabi holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu holatlar ayolning nainki shaxsiy ruhiy sog'lig'iga, balki onabola munosabati, oilaviy muhit va kelgusidagi reproduktiv qarorlariga ham ta'sir qiladi.

To'g'ri yig'ilgan tibbiy-psixologik anamnez va bemorning shikoyatlari xronologiyasi hayz oldi sindromini aniqlashni osonlashtiradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sindromlar hayz kelishidan 5-6 kun oldin kuchayib, hayz boshlanishi bilan keskin kamayib boradi yoki butunlay o'tib ketadi. Aynan mana shu holat hayz oldi sindromini to'g'ri aniqlashga yordam beradi. Psixologik nuqtai nazardan olib qaralganda, tug'ruq travmasining oldini olish va yuzaga kelgan holatlarni bartaraf etish uchun ayollarni tayyorlash, psixologik qo'llab-quvvatlash, malakali mutaxassislar tomonidan ruhiy suhbatlar o'tkazish juda muhim hisoblanadi. Shunday qilib, tug'ruq jarayonidagi va undan so'nggi ruhiy zo'riqishlarni kamaytirish orqali ayollarning umumiy sog'ligi va hayot sifatini yaxshilash imkonini yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. WHO. Depression. Information Bulletin No. 369, October 2015.
2. Marcus M. et al. Depression: A Global Public Health Concern. WHO Department of Mental Health and Substance Abuse, 2012.
3. Schore A. N. Effects of a Secure Attachment Relationship on Right Brain Development, Affect Regulation, and Infant Mental Health. // Infant Ment. Health J., 2001. Vol. 22, pp. 7–66.
4. Kornetov N. A. Recognition and Management of Anxiety and Depressive Disorders During Pregnancy and Postpartum: A Methodological Guide. Tomsk, 2003, p. 78.
5. Kornetov N. A. Postpartum Depression – A Central Issue in the Protection of Early Motherhood Mental Health. Bulletin of Siberian Medicine, 2015. Vol. 14, No. 6, pp. 5–24.
6. Umirzaqovna, M. D. Faceted personalities of determinants of professional stress in doctors of general practice.
7. Umirzaqovna, M. D. (2022). Prevention of neuropsychic stress in future general practitioners using training sessions. № 1, 2025 "PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL * НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ * SCIENTIFIC JOURNAL 107

8. Umirzakovna M. D. Эффективность программы тренинговых занятий по профилактике нервно-психического напряжения и ситуативной тревожности у будущих врачей общей практики //Journal of biomedicine and practice. – 2022. – Т. 7. – №. 3.
9. Umirzakovna M. D. Dynamics of the level of manifestation of personal adaptation potential in future general practitioners //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 230-234.
9. Umirzakovna M. D. Prevention of neuropsychic stress in future general practitioners //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 288-294.
10. Muratova S. Психик ривожланиш хақидаги асосий назариялар //Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 9. – С. 44-48.
11. Muratova Sh.N. and Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family. NamDU scientific news release. ISN: 2181, 2019, 6th edition, published by B. 409-415 14. Muratova Sh. N. (2024). The psychological structure of the person, the person and his activity. journal of education, ethics and value, 3(10), 11–14.
12. Muratova Sh. N. (2024). Motives of Social Behavior and Personal Motivation. American Journal of Alternative Education, 1(8), 30–34



UDK: 378.016

Ирина МАТВЕЕВА,

Учительница Андиганский государственный медицинский институт

E-mail:irma.1965@mail.ru

Рецензент: Худайбердиева Л.С., доцент кафедры иностранных языков АГМИ

ВОПРОСЫ ИДЕНТИФИКАЦИИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ С УГЛУБЛЕННЫМИ ЗНАНИЯМИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Данное исследование предполагает, что углубленное знание иностранного языка положительно влияет на профессиональную подготовку студентов медицинских специальностей. Результатом изучения проблемы явились создание рекомендаций для учебных программ медицинских специальностей по интеграции углубленного изучения языка, а также разработка дополнительных языковых курсов для студентов.

Ключевые слова: Одаренная молодежь, идентификация студентов с углубленным знанием иностранного языка, определение одаренности, формирование вторичной языковой личности.

CHET TILINI CHUQUR BILGAN TIBBIY YO'NALISHLAR TALABALARINI IDENTIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot chet tilini chuqur bilish tibbiyot yo'nalishidagi talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini taxmin qiladi. Tadqiqot natijasi sifatida tibbiyot yo'nalishlari o'quv dasturlariga chuqur til o'rganishni integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda talabalar uchun qo'shimcha til kurslari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Iste'dodli yoshlar, chet tilini chuqur bilgan talabalarni identifikatsiya qilish, iste'dod tushunchasi, ikkinchi til shaxsini shakllantirish.

PROBLEMS OF IDENTIFICATION OF MEDICAL STUDENTS WITH ADVANCED FOREIGN LANGUAGE KNOWLEDGE

Annotation

This study assumes that advanced knowledge of a foreign language positively affects the professional training of medical students. The outcome of the study was the creation of recommendations for medical specialty curricula to integrate advanced language learning, as well as the development of additional language courses for students.

Key words: Gifted youth, identification of students with advanced foreign language knowledge, definition of giftedness, formation of a secondary language personality.

Введение. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4306 (03.05.2019) [1] призывает руководителей высших учебных заведений нашей республики обращать внимание на выявление талантливой молодежи в различных сферах искусства, образования, экономики, спорта, предоставлять им возможность и создавать условия для развития талантов и способностей. Кроме того, согласно приложению № 4 к решению Кабинета Министров № 312(19.05.2021) [2], доля академических групп с преподаванием предметов на английском языке в высших образовательных учреждениях к 2025 году должна составить 15% по отношению к общему количеству студентов на каждом направлении бакалавриата.

Р.Хасанов, А.Утамуродов, М.Киргизбоев[3] сделали акцент на ведущей роли молодежи в формировании сильного гражданского института в Республике Узбекистан, что является важным фактором обеспечения будущего. Особая политика проводится в отношении одаренной молодежи по всем направлениям и во всех возрастных группах.

Методология исследования. Для того, чтобы определить критерии и методы идентификации студентов медицинских специальностей с углубленным знанием иностранного языка, мы изучили существующие подходы к оценке языковой компетенции, разработали критерии идентификации студентов с углубленными знаниями иностранного языка, оценили влияние углубленного знания языка на профессиональные компетенции студентов. Для подтверждения гипотезы о том, что углубленные знания иностранного языка положительно влияют на профессиональную подготовку студентов медицинских специальностей, мы провели опросы и анкетирование

студентов для сбора данных об уровне знаний языка. Применялись качественные методы: интервью с преподавателями и студентами, анализ учебной документации и программ, а также смешанные методы: сочетание количественных и качественных методов для более глубокой оценки.

Обзор литературы по теме. Вопросами работы с одаренными студентами с углубленными знаниями английского языка за рубежом занимались К. Хеллер, К. Перлет и Т.К. Лим, Д. Фриман, Д.Ч.Сахин, С. Демир, Я. Аяйдин, Б. А. Шешен, С.Ч. Эрдоган, Ф. Нагави, Ф.Р.Ниараки, С. Ализадефард. В странах СНГ эту проблему осветили О.Н.Игна, Е.П. Ильин, О.А.Мельник, И.И. Озарко, Т.Ю.Никитюк, Ю.А. Нененко, Л.Г. Компанеева.

Мюнхенская модель одаренности, разработанная Куртом Хеллером и соавторами[4], представляет собой комплексный подход к пониманию одаренности, акцентируя внимание на множестве факторов, влияющих на её развитие. Основные аспекты модели: многофакторность, этапы развития, преднамеренная практика (deliberate practice).

Креативность представляет собой важный компонент одаренности и интеллектуального развития. Согласно мнению психолога Е.П. Торренс[5], креативность следует рассматривать как способность создавать новаторские идеи, как многогранный процесс, включающий ряд этапов - от выявления проблемы до поиска и обоснования возможных решений.

Д.Фриман[6] провела длительное масштабное международное исследование в области одаренной части молодежи, освещая проблемы отбора контингента

талантливой молодёжи, определение его потенциала, особенности психического развития талантливых детей.

Д.Ч.Сахин, Отто Шмидт[7] представили стратегии естественного и гибкого обучения языку, позволяющие

оптимизировать его усвоение и использование. Следующая таблица демонстрирует определение одарённости различными авторами.

Таблица 1. Определение одарённости в интерпретации различных авторов.

Авторы концепта «одарённость»	Определение одарённости
К.Хеллер («Мюнхенская модель одаренности»)	индивидуальный когнитивный, мотивационный и социальный потенциал, позволяющий достигать высоких результатов в одной (или более) из следующих областей: интеллект, творчество, социальная компетентность, художественные возможности, психомоторные возможности
Е.П. Торренс[5]	способность создавать новаторские идеи; выявление проблемы до поиска и обоснования возможных решений; дивергентное мышление, которое способствует анализу проблемы с различных точек зрения
Дж. Рензулли[8]	сочетание трех основных характеристик: интеллектуальных способностей (превышающих средний уровень), креативности и настойчивости (мотивация, ориентированная на задачу)
С.Ч.Демир[9]	«высокий интеллект», относится к людям, демонстрирующим более высокий уровень производительности по сравнению с своим сверстникам в области интеллекта, творчества, искусства или других специальных академических областях
О.Н.Игна[10]	уникальное сочетание способностей, обеспечивающее успешную деятельность; талантливости; умственный потенциал, целостная индивидуальная характеристика познавательных возможностей и способностей к учению; наличие задатков к развитию способностей
Беккер В.А. [11]	индивидуальное сочетание способностей, которые позволяют человеку легко, быстро, на качественно ином уровне приобретать необходимые для успешного выполнения деятельности навыки и умения
Никитюк Т.Ю. [12]	выдающиеся способности, демонстрирующие высокие результаты или имеющие внутренние предпосылки для их достижения в одной или нескольких сферах деятельности: интеллектуальной, академической, творческой, общения и лидерства, художественной, спортивной.
Липатова В.М. [13]	высокий уровень компетентности, понимаемой как способность субъекта эффективно действовать в тех или иных условиях.
Матюшкин А. М. [14]	доминирующая роль познавательной мотивации, исследовательская активность, выражающаяся в обнаружении нового, возможность достижения оригинальных решений, возможность прогнозирования и предвосхищения, способность к созданию идеальных эталонов, обеспечивающих высокие эстетические, нравственные, интеллектуальные оценки
Савенков А.И.	не статичный (константный) личностный показатель, это постоянно развивающийся потенциал, существующий только в динамике, постоянно находящийся в движении, в развитии, а потому практически непрерывно меняющийся процесс
Богоявленская Д.Б. [15]	системное развивающееся в течение жизни качество психики, которое определяет возможность достижения человеком более высоких (необычных, незаурядных) результатов в одном или нескольких видах деятельности по сравнению с другими людьми

Вышеуказанная таблица поднимает важные аспекты понимания одаренности как сложного и многогранного явления. Мы полагаем, во-первых, что одаренность нельзя свести к простой схеме, так как она включает в себя множество факторов — как внутренних (например, личностные качества, мотивация), так и внешних (социальная среда, образовательные возможности). Во-вторых, рассматривая одаренность как интегративное личностное свойство, мы должны учитывать, что она проявляется по-разному в зависимости от контекста и ситуации. Это означает, что одаренные люди могут демонстрировать свои способности в различных областях и условиях. Важно также отметить, что наш список качеств, характеризующих одаренность, не может быть исчерпывающим. С течением времени и изменением условий жизни могут возникать новые требования и критерии для оценки одаренности.

Анализ и результаты исследования. По аналогии с пунктом 2 «Мюнхенской модели одаренности» мы можем представить, что студенчество можно отнести к периоду профессионализации, на котором происходит становление молодой личности как профессионала, специалиста в выбранной профессии, приобретение фундаментальных теоретических и практических знаний, закладывание основ будущей карьеры. В Андижанском государственном медицинском институте в конце первого курса происходит отбор студентов с отличными (advanced) знаниями английского языка, которым, начиная со второго года обучения в вузе, основные специализированные предметы преподаются на английском языке. Таким образом, английский язык становится инструментом для овладения знаний — по принципам проекта “English as Medium of Instruction” (EMI). К окончанию института реализуется создание из выпускников научной профессиональной элиты, которая в будущем составит прослойку научно-профессиональной интеллигенции Республики Узбекистан в медицинском направлении, а также в руководящем аппарате нашей страны.

Мы задумались о возможности идентификации иноязычно-одарённого студента. Анализируя работу Н.Д. Гальсковой[13] «Теория обучения иностранным языкам», мы обратили внимание на феномен формирования языковой личности.

Пропуская описание нулевого и первого уровней, нам хотелось бы остановиться подробнее на втором, так как мы считаем, что контингент учащихся, отобранных в специализированные академические группы студентов с преподаванием предметов на английском языке в Андижанском государственном медицинском институте, и является представителем вторичной языковой личности в контексте изучения иностранных языков.

Выводы и предложения. Вторичная языковая личность формируется в процессе изучения иностранного языка и включает в себя адаптивность, критическое мышление, кросс-культурные компетенции.

Мы подводим итоги по идентификации иноязычно-одарённого студента и приходим к выводу, что языковая одаренность представляет собой уникальный набор навыков и способностей, которые позволяют учащимся эффективно воспринимать, использовать и творчески подходить к языкам. Она включает в себя несколько ключевых компонентов:

1. Когнитивные способности: умение анализировать, синтезировать и интерпретировать информацию на иностранном языке. Учащиеся с высокой языковой одаренностью могут легко понимать сложные грамматические конструкции и лексику.

2. Коммуникативные навыки: одаренные учащиеся могут не только понимать язык, но и активно использовать его в различных контекстах. Это включает в себя как устную, так и письменную речь, а также способность адаптироваться к различным стилям общения.

3. Творческий подход: языковая одаренность также проявляется в способности к креативному использованию языка. Это может включать написание стихов, рассказов или создание оригинальных диалогов, что требует не только знания языка, но и воображения.

4. Интерес к культуре: учащиеся с языковой одаренностью часто проявляют интерес к культуре стран, где говорят на изучаемом языке. Это позволяет им глубже понять контекст использования языка и его нюансы.

5. Способности к обучению: такие учащиеся могут быстрее осваивать новые языки благодаря своим навыкам обучения и памяти, что делает их более успешными в языковом обучении.

Поддержка и развитие языковой одаренности могут включать в себя специальные программы, углубленное

изучение языков, участие в языковых конкурсах и олимпиадах, а также возможности для общения с носителями языка.

Возвращаясь к характеристике типов языковой личности, мы можем отметить, что признаки вторичной языковой личности присутствует у всех студентов, отобранных в специальные группы для преподавания предметов на английском языке. Опираясь на идентификацию, описанную нами выше, мы можем предположить, что отобранный контингент Андиганского государственного медицинского института способен к восприятию новой иноязычной медицинской информации, осуществлению межпредметных связей, обсуждению и интерпретации полученных знаний, самооценке и самоанализу усвоенных компетенций, использованию навыков добычи информации и осмысления процессов в

научных изысканиях, интеграции теории и практики медицинской науки, и открыт для участия в международных проектах, конференциях молодых учёных, программах студенческой мобильности, учёбе в клинической ординатуре и магистратуре в университетах мира, зарубежных стажировках и курсах повышения квалификации после получения диплома о медицинском образовании.

Следует отметить, что студенты Андиганского государственного медицинского института высоко мотивированы к получению образования в таких группах, и к концу обучения на первом курсе стремятся пройти селекционный отбор, который осуществляется первично по рекомендации преподавателей предмета «Иностранный язык в медицине» или по личному желанию аппликанта, затем проходят тестирование на знание английского языка и устное собеседование.

ЛИТЕРАТУРА

1. ПП № 4306 от 3 мая 2019 года «О мерах по организации непрерывной системы выявления одаренной молодежи и подготовки высококвалифицированных кадров».
2. Вазира Махамасининг 2021 йил 19 майдаги 312-сон қарорига 4-илова. Таълим тизимида чет тилларига ўқитиш тизимини такомиллаштиришга оид мақсадли кўрсаткичлар.
3. Хасанов Р., Утамуродов А., Киргизбоев М.. Фукаролик жамияти. Марузалар курси. Тошкент, 2019. – Б. 292-298.
4. Хеллер К.А., К.Перлет, В.Сирвальд. Лонгитюдное исследование одарённости. Вопросы психологии. Экспериментальные исследования. 1991, № 2. – С. 120-127.
5. Torrance E.P. Predictive validity of the Torrance Tests of Creative Thinking // J. of Creative Behavior. 1972. N 6. P.236 — 252.
6. Freeman, J. Educating the Very Able: Current International Research. London: The Stationery Office, 1998.- 72 с.
7. Çiğdem Şahin. Teaching English Activities for the Gifted and Talented Students. Journal for the Education of the Young Scientist and Giftedness. 2014, Volume 2, Issue 1, 15 p.
8. Рензулли Дж. Модель обогащающего школьного обучения: практическая программа стимулирования одаренных детей // Основные современные концепции творчества и одаренности / Дж. Рензули, С. М. Рис. – М. : Молодая гвардия, 1997.
9. Serkan Demir. Effects of learning style based differentiated activities on gifted students' creativity. Journal for the Education of Gifted Young Scientists, 9 (1), 2021. - P.47.
10. Игна О. Н. «Слагаемые» лингвистической одаренности и способностей к иностранным языкам. Актуальные проблемы лингводидактики, лингвокультурологии и межкультурной коммуникации. Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 10 (125). Томск, 2012. - 5 с.
11. Беккер В.А. Одарённость в детском возрасте. Всегда ли учитель может понять, что перед ним одарённый ребёнок? Эксперимент и инновации в школе, № 3, 2012. – 3 с.
12. Липатова В.М. Компетентностный подход при работе с одаренными студентами//Профессионально-личностное развитие преподавателя и студента: традиции, проблемы, перспективы: материалы II Всероссийской научно-практической конференции (с международным участием).-Тамбов: ТРОО «Бизнес-Наука-Общество», 2014.- 3 с.
13. Матюшкин, А. М. Концепция творческой одаренности / А. М. Матюшкин //Вопросы психологии. – 1989. – № 6. – С. 29 – 33.
14. Савенков, А. И. Психология детской одаренности : учебник для среднего профессионального образования / А. И. Савенков. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 334 с.
15. Богоявленской Д.Б., Шадрикова В.Д., Бабаевой Ю.Д., Брушлинского А.В.. Рабочая концепция одаренности. М., 2003. – 39 с.



UDK:796.08:316.3 (575.1)

Исажан МИРЗАКУЛОВ,

Доцент Ташкентского государственного транспортного университета

E-mail: mirzakulov.isajon@bk.ru

Мухаммадиев К.Б. и.о. профессор, заведующий кафедры “Физического воспитания и спорта” ТГТУ

SPORTCHI-TALABALARNI SPORT MUSOBAQALARIDA ISHTIROK ETISHLARIDAN OLDIN OLIB BORILADIGAN TAYYORGARLIK JARAYONLARINING NAZARIY JIHATLARI

Аннотация

Maqolada sportchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi muammolari, sportga bo'lgan qiziqishni oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Musobaqalarda yuqori natijalarga erishish uchun mashg'ulot yuklamalari ko'rsatkichlari. Mashg'ulot jarayonining asosiy shart-sharoitlari. Bayon etilgan shart-sharoitlar sportchilarning musobaqalarga bo'lgan xatti-harakatlari bo'yicha asosiy texnologik operatsiyalarni belgilash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Sport, tahlil, jismoniy tayyorgarlik, sportchilar, psixologik tayyorgarlik, pedagogik tayyorgarlik, murabbiy, yuklama.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ ПЕРЕД ИХ УЧАСТИЕМ В СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЯХ

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы предсоревновательной подготовки спортсменов, повышение интереса к спорту. Показатели тренировочных нагрузок для высоких достижений в соревнованиях. Базовые предпосылки тренировочному процессу. Изложенные предпосылки позволяют наметить основные технологические операции по поведению спортсменов к соревнованиям.

Ключевые слова: Спорт, анализ, физическая подготовка, спортсмены, психологическая подготовка, педагогическая подготовка, тренер, нагрузка.

THEORETICAL ASPECTS OF THE PREPARATION PROCESSES OF STUDENT ATHLETES BEFORE THEIR PARTICIPATION IN SPORTS COMPETITIONS

Annotation

The article examines the problems of pre-competition training of athletes, increasing interest in sports. Training load indicators for high achievements in competitions. Basic premises of the training process. The presented prerequisites allow us to outline the main technological operations for athletes' behavior towards competitions.

Key words: Sports, analysis, physical training, athletes, psychological training, pedagogical training, coach, load.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan hozirgi kungacha aholini sog'lomlashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish hamda jismoniy tarbiya va sport sohasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada respublikamizda juda katta ishlar amalga oshirildi. Sportchilarimiz respublika, osiyo va jaxon maydonlarida yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Sport turlarining yurtimizda rivojlanishida Muhtaram Prezidentimizning 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi, shuningdek, aholining keng qatlamalarini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish maqsadida Yengil atletika sport turining bunday ommaviy tus olishida, Davlatimiz rahbari va xukumat rahbarlarining O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirishda aholi orasida jismoniy madaniyatni ommalashtirishga, jismoniy barkamol bo'lib o'sishiga, ularning salomatligini mustahkamlashga, yoshlarni vatan himoyasiga va mehnatga tayyorlashga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda musobaqa natijalarining zichligi sezilarli darajada oshdi, musobaqa kurashining raqobatbardoshligi oshdi. Shu munosabat bilan musobaqaoldi tayyorgarligini optimallashtirish va xususan, malakali sportchilarni tayyorlash jarayonini maqsadli boshqarish muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sport mashg'ulotlarini boshqarish uning uslubiy arsenalini kengayishi va aniqlanishi bilan bog'liq holda katta qiziqish uyg'otadi.

Murabbiy boshqaruv faoliyatining asosiy metodologik muammosi pedagogikada muhim va kerakli kategoriyalarining nisbati hisoblanadi. Bu muammo inson faoliyatining maqsadga muvofiq xarakterini tadqiq qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalar doirasini birlashtiradi.

Murabbiyning pedagog sifatidagi faoliyati “maqsad”, “vosita”, “natija” kategoriyalarining muayyan o'zaro munosabati bilan tavsiflanadi. Buni real voqelik taqozo etadi, chunki murabbiy qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur (uning nuqtayi nazaridan) vositalar yordamida sportchiga faol ta'sir ko'rsatishga, ya'ni shug'ullanuvchini (ya'ni sportchini) maqsadning ideal shaklidan (lozimlik shaklidan) faoliyat natijasining real shakliga o'tkazishi kerak bo'lgan kuchga murojaat qiladi.

Olimlar pedagogik hodisalarni tadqiq qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tahlil qilar ekanlar, o'rganilayotgan obyektning jismoniy va ruhiy holatining sezilarli darajada o'zgaruvchanligini ta'kidlab o'tadilar, bu ayniqsa yuqori malakali sportchilar uchun xos ekanligini isbotlab berdilar. Bunda murabbiyning faoliyati umumpedagogik vazifalar bilan bir qatorda ba'zi o'ziga xos vazifalarga ham ega bo'lishi kerak, xususan:

mashg'ulot jarayoni hozirgi vaqtgacha qanday tuzilganligi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

sportchini tayyorlashning haqiqiy jarayoni haqiqatda qanday kechayotganligi haqida ma'lumot olish; qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun mashg'ulot faoliyati tizimi qanday bo'lishi kerakligini tahlil qilish va oldindan ko'ra bilish.

Biroq har doim ham faoliyat natijalari qo'yilgan maqsadga mos kelavermaydi. Haqiqiy va kerakli narsalarning mos kelmasligi mavjud tizimni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Natijada ko'rsatkichlar holati va maqsadga erishishga

yo'naltirilgan faoliyat jarayoniga tadqiq qilish zarurati tug'iladi. Samarali mashg'ulot faoliyati to'g'risidagi har qanday yangi tasavvur ishlab chiqiladi va qayd etiladi. Kutilmagan natijalarni hisobga olish, o'rganish va tahlil qilish predmeti sifatida qabul qilinadi. Dalillar asosida mashg'ulot jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, eng samarali mashg'ulot faoliyati xarakteri to'g'risida yangi tasavvurlar ishlab chiqiladi.

Ushbu davriy takrorlanuvchi ish davomida mashg'ulot jarayonining real borishi ilgari qanday amalga oshirilganligi va hozirgi paytda qanday kechayotganligi to'g'risidagi bilimlar hamda bo'lajak, hali amalga oshirilmagan jarayonni qanday qurish kerakligi to'g'risidagi bilimlar shakllanadi. Murabbiy uchun muammoli vaziyat yuzaga keladi, tartibga solish usullarini tanlash, natijalarni tahlil qilish, sportchi va o'zining faoliyatini baholash bilan bog'liq tashkiliy-boshqaruv rejasi vazifalari majmuini hal qilishga to'g'ri keladi. Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan pedagogik faoliyat tuzilmasini ochib bergan va uni muammoli pedagogik vazifalarni hal qilish jarayoni sifatida belgilagan nazariy konsepsiyaga tayanib, shuni ta'kidlash mumkinki, mashg'ulot jarayonini maqsadli boshqarish muammosi (ayniqsa, musobaqalarga tayyorgarlikning yakuniy bosqichida) jiddiy takomillashtirishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy sport olamida sportchilarni tayyorlash tizimida musobaqa oldi tayyorgarligi asosiy o'rinni egallaydi. Bu davrda sportchi bo'lajak musobaqalarda maksimal darajada tayyorgarlik ko'rish, texnik-taktik mahoratini mustahkamlash va jismoniy holatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Maqolada ushbu jarayonning nazariy asoslarini ko'rib chiqamiz, mavjud adabiyotlarni, tadqiqot metodologiyasini, shuningdek, ushbu muhim davrda sportchilar oldida turgan maqsad va vazifalarni tahlil qilamiz.

Birinchi navbatda, musobaqa oldi tayyorgarligi sportchilarning jismoniy, psixologik va texnik holatini optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu mavzuni o'rgangan turli mualliflar har bir sportchiga individual yondashuv zarurligini ta'kidlaydilar. Masalan, A.A. Smirnov va I.I. Petrovlarining ishlarida musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishning asosiy omillari sifatida jismoniy holat va ruhiy tayyorgarlikni hisobga olish muhimligi haqida gapiriladi.

Sport va jismoniy tayyorgarlik sohasidagi xorijiy olimlarning sharhi yuklama fiziologiyasi, sportchilar psixologiyasi, natijalarni yaxshilash texnologiyalarini qo'llash va mashg'ulot usullari kabi keng ko'lamli mavzularni qamrab oladi. Ko'plab tadqiqotchilar sport fanining turli jihatlariga katta hissa qo'shdilar, bu esa sportchilarning o'z yutuqlarini qanday yaxshilashi, jismoniy va psixologik to'siqlarni qanday yengishi mumkinligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Bu sohada ko'zga ko'ringan olimlardan biri professor Jonatan Xaar bo'lib, u yuklamalar fiziologiyasi va organizmning mashg'ulotlarga moslashuvi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Uning turli xil mashg'ulot rejimlarining yurak-qon tomir tizimi va metabolizmga ta'siri haqidagi ishlari ko'plab zamonaviy murabbiylar va sport shifokorlari uchun asos bo'ldi.

Yana bir nufuzli olim sport psixologiyasi bo'yicha ixtisoslashgan doktor Rebekka Smirnovdir. U vizualizatsiya va meditatsiya kabi aqliy strategiyalar sportchilarga stressni yengishga va diqqatni jamlash darajasini oshirishga qanday yordam berishini o'rganadi. Uning sportchini musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlash bo'yicha amaliy tavsiyalari murabbiylik amaliyotida faol qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, sport mashg'ulotlariga texnologiyalarning ta'siri bilan shug'ullanuvchi doktor Mikaela Fosterning ishlarini ham ta'kidlash joiz. U o'z tadqiqotlarida taqiladigan elektronika va monitoring tizimlari sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini batafsil kuzatish va mashg'ulot dasturlarini aniq ehtiyojlarga

moslashtirish orqali ularning tayyorgarligini qanday yaxshilashi mumkinligini o'rganadi. Ushbu olimlarning har biri ilmiy qiziqishning keng sohasining bir qismini tashkil etadi, bu yerda tadqiqotlar sportni yanada xavfsiz va samarali qilishga qaratilgan. Ularning ishlari, yangilanayotgan bilimlari va mashg'ulotlarga bo'lgan yondashuvlari kelajakda sport fanida va xalqaro maydonda sportchilarni tayyorlashda erishilgan yutuqlarga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili asosida ma'lum bo'ladiki, musobaqa oldi tayyorgarligi mashg'ulotlarni rejalashtirish, psixolog bilan ishlash, oldingi chiqishlarni tahlil qilish, texnobaza kabi turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu davrda sifatli tayyorgarlik sportchining muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishi mumkin, chunki bu stress ta'sirini minimallashtirish va optimal jismoniy holatni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu sohada tadqiqot metodologiyasi ham sifat, ham miqdoriy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar musobaqa natijalariga hissiy holatning ta'sirini aniqlash uchun kuzatish va so'rov usullaridan foydalanadilar. Boshqalar ma'ruza ma'lumotlarini tahlil qilish va muvaffaqiyatlarni turli tayyorgarlik omillari bilan bog'lash uchun statistik usullarni qo'llaydilar. Shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotlar ko'pincha ma'lum sport turlariga qaratilgan bo'lib, bu umumiy xulosalarga ta'sir qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Sport va jismoniy faollik sohasidagi tadqiqotlar tahlili va natijalari tadqiqot maqsadlari va usullariga qarab turli xil yondashuvlarga duch kelishi mumkin. Dastlab tadqiqot gipotezasini aniq ifodalab olindi. Bu, masalan, ma'lum bir mashg'ulot usullari sportchilarning chidamliligi yoki kuchiga ta'sir qiladi degan taxmin bo'lishi mumkin. Keyin tadqiqot eksperiment dizaynini ishlab chiqish bosqichiga o'tib, ma'lumotlarni to'plash qanday amalga oshirilishi aniqlandi. Keyingi bosqichda ishtirokchilar tanlab olindi. Tadqiqot havaskorlarni ham, professional sportchilarni ham qamrab olgan va tanlanma reprezentativ holatda tuzildi. Bu natijalar noxolislikka yo'l qo'ymaslikka yordam berdi va xulosalarni keng populyatsiyaga qo'llash mumkinligini ta'minladi. Shundan so'ng ma'lumotlarni yig'ish jarayonining o'zi amalga oshirildi. Tadqiqot maqsadlariga qarab, ishtirokchilarning psixologik holatini baholash uchun standart kuch va chidamlilik testlaridan tortib anketa so'rovlarigacha bo'lgan turli usullardan foydalanilgan. O'lovlar yurak-qon tomir tizimining ko'rsatkichlarini, masalan, yurak urish tezligi, qondagi kislorod darajasi va boshqa fiziologik parametrlarni o'z ichiga olgan.

O'tkazilgan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Ma'lumotlarni qayta ishlash, shuningdek, statistik usullarni qo'llash uchun taqsimotning normalligini va boshqa shartlarni baholashni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari ilgari surilgan faraz va mavjud adabiyotlar kontekstida talqin qilingan. Agar natijalar gipotezani tasdiqlasa, bu sinovdan o'tgan usullardan mashg'ulot jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatishi mumkin. Agar ma'lumotlar kutilgan samara kuzatilmayotganini ko'rsatsa, bu mashg'ulot usullarining ta'siri va ularni o'zgartirish zarurati haqida yangi tushunchaga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, natijalarni muhokama qilish muhim jihat bo'lib, bunda tadqiqotda olingan ma'lumotlar uchun mumkin bo'lgan tushuntirishlar taklif qilingan, ishtirokchilar soni yoki aralashuv davomiyligi kabi tadqiqot cheklovlarini hisobga olingan va keyingi tadqiqotlar uchun tavsiyalar berib o'tilgan. Bu sportchilarning jismoniy tayyorgarligi va ularning ish faoliyatini boshqaradigan mexanizmlarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan kelajakdagi tajribalar uchun asos yaratadi.

Tadqiqotning statistik hisoboti: musobaqa oldi tayyorgarligining sportchilar natijalariga ta'siri

Parametrlari	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Minimal qiymat	Maksimal qiymat
Ishtirokchilar yoshi (yil)	25.4	3.2	20	32
Tayyorgarlik vaqti (hafta)	8.5	1.5	6	12
Jismoniy tayyorgarlik (ballar)	78.2	5.4	65	90
Psixologik tayyorgarlik (ball)	82.6	4.8	72	95
Texnik tayyorgarlik (ballar)	75.4	7.1	60	89
Yakuniy natija (daqiqqa)	15.3	1.2	13.0	17.5

Tahliliy xulosalar: Ishtirokchilarning yoshi: Tadqiqot ishtirokchilarining o'rtacha yoshi 25,4 yoshni tashkil etdi, bu tajribali sportchilarning yosh toifasiga to'g'ri keladi.

Tayyorgarlik vaqti: Musobaqa oldi tayyorgarligining umumiy vaqti o'rtacha 8,5 haftani tashkil etadi, bu maksimal natijalarga erishish uchun optimal hisoblanadi.

Jismoniy, psixologik va texnik tayyorgarlik: Ushbu parametrlar yuqori o'rtacha qiymatlarga ega bo'lib, bu tayyorgarlikka sifatli yondashuvni ko'rsatadi.

Yakuniy natijalar: O'rtacha yakuniy natija (musobaqa vaqti) 15,3 daqiqani tashkil etadi, bu kelgusi chiqishlarni baholash uchun asosiy ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi.

Umuman olganda, sport mashg'ulotlari bo'yicha tadqiqot ishlarida pedagogik nazoratning mazmuni, uning shakl va usullari aniqlangan. Boshqaruv nuqtayi nazaridan yetakchi rol joriy nazoratga tegishli ekanligi ko'rsatilgan, chunki ma'lumki, har qanday tizimning optimal ishlashi birinchi navbatda uning joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlar orqali ta'minlanadi. Shunday qilib, sport fanlaridagi tahlil va tadqiqot natijalari ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u miqdoriy va sifat ma'lumotlari o'rtasidagi sinergiyani, shuningdek, sport amaliyoti va rivojlanishiga maksimal foyda keltirish uchun ma'lumotlarni diqqat bilan tushunish va talqin qilishni talab qiladi.

Bayon etilgan nazariy shart-sharoitlar sportchilarni musobaqalarga olib kelishning asosiy texnologik operatsiyalarini belgilash imkonini beradi. Ushbu jarayonning tartibga solingan tizimini kompleks ravishda belgilaydigan uchta asosiy turdagi vazifalar aniqlanadi:

birinchisi - haqiqiy, hozirgi vaqtidagi tayyorgarlik va tayyorgarlik darajasi va holatini aniqlash (pedagogik nazorat vazifalari);

ikkinchisi - o'tmishda sportchi ba'zi vaqtlarda bo'lgan tayyorgarlik va tayyorgarlik holatini baholash (bu oldingi tayyorgarlik darajalari va holatlarini tahlil qilish, ularning parametrlarini bugungi kundagi haqiqiy vaziyat ma'lumotlari bilan taqqoslash, mashg'ulot ta'sirlarining o'ziga xos xususiyatlariga qarab tayyorgarlik va tayyorgarlik darajasi va holatining o'zgarishiga olib keladigan sabab-oqibat aloqalarini aniqlash imkonini beradi);

uchinchisi - sportchi oldinda turgan muayyan vaqtda qanday holatda va tayyorgarlik darajasida bo'lishi mumkinligini oldindan ko'ra bilish (bu sportchining muayyan vaqt oralig'ida, ya'ni musobaqalar muddatida kutilishi mumkin bo'lgan holatlarini aniqlashga yordam beradi).

Ushbu muammolar majmuasini hal qilish quyidagilarga imkon beradi:

1) sportchining tayyorgarligi va tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish va baholash tizimini tartibga solish va aniqlashtirish;

2) mashg'ulot ta'sirlarining o'ziga xos xususiyatlari va tayyorgarlik jarayonida pedagogik vositalarning yo'nalishiga qarab tayyorgarlik va tayyorgarlikning mumkin bo'lgan holatlarini bashorat qilish;

3) obyektiv ma'lumotlar asosida mashg'ulot jarayonini tahlil qilish va tuzatishni amalga oshirish.

Tadqiqotning maqsadi: musobaqaoldi tayyorgarlik muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi: Ushbu vazifalarni bajarish har bir omilning umumiy tayyorgarlik samaradorligiga qanday hissa qo'shishini to'liqroq tushunishga imkon beradi, masalan:

jismoniy tayyorgarlikning chiqish natijalariga ta'sirini tahlil qilish;

psixologik tayyorgarlikning rolini o'rganish;

sportchilarni tayyorlashning texnik jihatini o'rganishdan iborat.

Xulosa. Musobaqa oldi tayyorgarligi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, tizimli yondashuvni va barcha nozik jihatlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Mavjud tadqiqotlarga qaramay, har bir yangi tadqiqot aynan musobaqa oldi tayyorgarligining natijalarga ta'sir mexanizmini tushunishga katta hissa qo'shishi mumkin. Sportchilarning musobaqalarda yuqori natijalarga erishishiga yordam beradigan yanada samarali tayyorgarlik usullarini ishlab chiqish uchun bu sohadagi chuqur tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Shunday qilib, musobaqa oldi tayyorgarligining nazariy asoslari ilmiy munozara va amaliyot uchun dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda, bu esa sportchilar va murabbiylar uchun yangi ufqlarni ochadi.

ADABIYOTLAR

Yuqorida tahlil qilingan (sharhlangan) har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqi (hatti-harakati) ni o'zgarlar uchun yoriq yoki mahdud muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bu o'rinda odam xohlaydimi yoki yo'qmi bundan qat'i nazar mazkur sharoitga moslashmog'i (ko'nikmog'i) zarur, degan aqidaga amal qilinadi. Rsixologiyada rsixogenetik yondoshish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki rsixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga yega deb hisoblaydi. Ushbu yondoshi-shning uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Xulosa va takliflar. YE.Shrranger "O'stirinlik davri rsixologiyasi" degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning yasa 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o'zgarishlar YE.Shrranger bo'yicha: a)shaxsiy "Men"ni kashf qilish, b)refleksiyani o'sishi, v)ozining individualligini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini ye'tirof qilish, g) hayotiy yezgu rejalarining raydo bo'lishi, d) o'z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustanovkasi va hokazo. Uning fikricha, 14–17 yoshlarda vujudga keladigan inqirozning mohiyati ularga kattalar-ning bolalarcha munosabatidan qutulish tuyg'usini tug'ilishidan iboratdir. 17–21 yoshlarning yana bir xususiyati – o'zining tengqurlari va jamoatchilik qurshovidan "uzilish inqirozi" va tanholik tuyg'usining raydo bo'lishidir. Bu holatni tarixiy shartlanganlik shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adartatsiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

ADABIYOTLAR

1. Andreeva G., Social Psychology. Moscow: M., 1998.
2. Psycholog T.y: A Field of Study, 1994.
3. Karimova V., The Foundations of Social Psychology. Tashkent: T., 1994.
4. Muratova Sh. N., "Social aspects of preparing adolescent boys for family life," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 91–95, 19.00.00 No. 10.
5. Muratova Sh. N., "Scientific and theoretical basis of the problem of preparing children for family life and its state of education," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 82–86, 19.00.00 No. 10.
6. Muratova Sh. N. and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
7. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091–5446, no. 6 (124), pp. 100–105,
8. Muratova Sh. N., "The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life," Scientific Journal of Psychology of BUH DU, ISSN: 2181–5291, no. 3, pp. 84–90, 2021.
9. Muratova Sh. N., "Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family," NamDU Scientific News Release, ISN: 2181, no. 6, pp. 409–415, 2019.
10. Muratova Sh.N., "Problems of youth for family life," Mental Health and Education Journal, pp. 282–291.
11. Muratova Sh. N., "Socio-psychological issues of preparing young men for family life," Journal of Educational Research, ISSN: 2660–5562, vol. 2, no. 3, pp. 27–30, March 2021. [Online]. Available: <https://scholarzest.com>.



UO'K 378.1:316.4(575.1)

Sevinch MUSTAFAYEVA,

O'zMU Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD J. Yusubov taqrizi asosida

REFORMS IMPLEMENTED IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM AND THEIR PROSPECT

Annotation

This article provides an analytical overview of the reforms implemented in the higher education system and their prospects. It focuses on ensuring the quality of higher education. It reveals some important aspects of the development of the higher education system in Uzbekistan.

Key words: Higher education, reform, knowledge, teaching staff, information technology, innovation, student.

РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО ПЕРСПЕКТИВ

Аннотация

В данной статье проанализированы реформы, реализуемые в системе высшего образования, и ее перспективы. Особое внимание было уделено вопросу обеспечения качества высшего образования. Раскрыты некоторые важные аспекты развития системы высшего образования в Узбекистане.

Ключевые слова: Высшее образование, реформа, знания, преподавательский состав, информационные технологии, инновации, студент.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA UNING ISTIQBOLLARI

Аннотация

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va uning istiqbollari tahliliy bayon etildi. Unda oliy ta'lim sifatini ta'minlash masalasiga urg'u berildi. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlanishining ayrim muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, islohot, bilim, pedagog kadr, axborot texnologiya, innovatsiya, talaba.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, shuningdek ta'lim tizimi, jumladan oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ta'lim sohasini rivojlantirish, uni jahon andozalariga mos ravishda isloh qilish, bilim, malaka va ko'nikmalarga ega zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi.

Bugungi kunda dars mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiya va innovatsion usullar bilan o'tkazish davr talabi hisoblanadi. Bugungi zamon o'quvchilarining bilim olishi uchun avvalgi an'anaviy dars mashg'ulotlari yangilik emas. Hozirgi texnika va texnologiyalar davrida an'anaviy dars mashg'ulotlari tinglovchining e'tiborini tortmaydi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizga ayniqsa, ta'lim sohasiga zamon bn uyg'unlashgan davr talablariga "labbay" deb javob bera oladigan pedagogik kadrlar kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[1.]gi PQ-289-sonli Qarori misolida ko'rishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son Farmonida[2.] ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlashdan iborat. Ta'lim jarayonida talabalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637 sonli Qonunining[3.]13-moddasida: Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun

qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida[4.], O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlari ilgari surildi.

O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qitish metod va usullarini tanlashda o'qitiladigan fanning xarakteri, talabalarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi. Ta'lim metodlari va usullarini tanlash o'qituvchi tomonidan darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. YA'ni yangi materialni bayon etishda bir xil metod va usul qo'llanilsa, uni mustahkamlashda boshqa xil usul, mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylangan va samarali usullar va metodlarni tanlash juda muhimdir. Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'lidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 4-bobi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish"ga qaratilgan bo'lib, unda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy

ta'lim muassasalariga qamrov darajasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun tegishli choratadbirlarni amalga oshirish, har bir hududda nodavlat oliy ta'lim muassasalarini sonini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "...birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" [5]. Shu jihatdan, o'zgarayotgan O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida ta'kidlanganidek, oliy ta'lim jahonda barqaror iqtisodiy o'sishning yetakchi omiliga aylanmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, shu bilan birga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish va bu orqali kadrlar tayyorlash sifatiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy tahlilning tizimli, tarkibiy-funksional, statistik, qiyosiy va sotsiologik usullaridan foydalanilgan holda tahlillar asosida ochib berishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlari ajratish mumkin[6]:

1. Fan ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar talabalar onigini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta'lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni o'rganishga qaratilgan yangi fanlarni o'z ichiga oladi. Professor o'qituvchilar va talabalarining axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda.

2. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni ta'lim va tarbiyada ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Bu ta'lim jarayoni shaxsning o'ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf, parallel, ta'lim muassasasining rivojlanishini o'rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan.

4. Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, individual o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman, ta'lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan.

5. Ta'lim texnologiyalari. O'quv jarayonini ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda.

6. Didaktik texnologiyalar. Ular ta'lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi. O'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ko'nikma va ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam e'tiros bo'ladi. Ta'lim jarayonlarida albatta, har bir pedagog innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanmasligining iloji yo'q. Avvalo, innovatsiya so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, innovatsiya so'zi lug'aviy jihatdan "Innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovation) "yangilik kiritaman" degan

ma'noni anglatadi. Mazmunan va ma'no jihatidan olib qaraydigan bo'lsak, tushuncha negizida innovatsiya tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Respublikamizda va xorijiy davlatlarda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, inson kapitalini ro'yobga chiqarish hamda ilmiy tadqiqotchilik va innovatsion faoliyatini tashkil etish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur farmon asosida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat sohalarini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqildi[4]. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish strategiyasi ta'lim sifati va pedagogik ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tizimida islohotlarni jadallashtirish uchun ishlab chiqilgan yana bir muhim hujjatlardan biri – "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori bo'lib, 2024-yil 20-yanvarda qabul qilingan. Ushbu qaror talabalar va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, madaniy meros obyektlariga turistik tashriflar va boshqa faolliklarni qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan [7].

Imtihon va qabul tizimida 2024/2025-o'quv yilidan boshlab oliy ta'limga kirish imtihonlari yangi tizim asosida amalga oshiriladi. Abituriyentlar dastlab test sinovida qatnashib, so'ngra o'z ballariga ko'ra ta'lim muassasasini tanlashadi. Bu jarayonda kasbiy va ijodiy imtihonlar ham mavjud bo'lishi belgilandi [8.]. Ta'lim sifatini oshirishda esa oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan o'tkazish, oliy ta'lim sohasini raqamlashtirish va xalqaro darajaga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda. Yetakchi oliy ta'lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilish orqali xalqaro reytinglarda o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini yaratuvchi bir nechta asosiy strategiyalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish: o'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, o'qitishning yangi uslub va yondashuvlarini o'rganishi, ta'limning so'nggi tendensiyalariga amal qilishi kerak. Buning uchun u professional kurslar, seminarlar va konferensiyalarda qatnashishi, maxsus adabiyotlarni o'qishini tashkil etish va inobatga olish talab etiladi.

2. Jamoaviy ishini tashkil etish: o'qituvchi ta'lim muassasasi jamoasi ishida faol ishtirok etishi kerak. Hamkasblar bilan tajriba almashish, muammolarni muhokama qilish va birgalikda yechim topish kasbiy mahoratni rivojlantirishga yordam beradi. Bunda jamoaning asosiy maqsadi ta'lim muassasasining missiyasi va strategiyasiga mos kelishiga e'tibor qaratish lozim.

3. Professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash: o'qituvchining faoliyati va natijalari muntazam ravishda baholanishi kerak. Buning uchun SWOT tahlil orqali kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga va ularni yaxshilashga e'tibor berish kerak. Hozirgi kunda kasbiy faoliyatni baholashning ko'plab manbalari tadqiq etilgan.

4. Innovatsion usullardan foydalanish: o'qituvchi yangi texnologiya va o'qitish usullaridan foydalanishga tayyor bo'lishi kerak. O'qitish amaliyotiga innovatsiyalarni joriy etish darslarni ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va samarali o'tkazishga yordam beradi.

5. Shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish: o'qituvchi o'zining empatiya, bag'rikenglik, ijodiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari kabi

shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi kerak. Bu talabalarda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi va yanada muvaffaqiyatli o'rganishni ta'minlaydi.

6. Talabalarining ehtiyojlari va maqsadini aniqlash: Pedagog o'z ishini ularga moslashtirish uchun talabalarining ehtiyoj va qiziqishlarini doimo tahlil qilib borishi kerak. Bu individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish yoki qo'shimcha darslarni taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin.

7. Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar: o'qituvchi talabalarining ota-onalari bilan faol aloqada bo'lishi, ota-onalar yig'ilishlari va maslahatlar o'tkazishi kerak. Bu talabalarni tarbiyalash va ta'lim olishda birlashgan front yaratishga yordam beradi. Umuman olganda, o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyasi uzluksiz o'rganish, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va ta'lim muhitidagi o'zgarishlarga moslashishga asoslangan bo'lishi kerak. Bu esa o'qituvchining o'z ishida yana-da muvaffaqiyatli va samarali bo'lishiga yordam beradi[9]. Professor-o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirishning muhim omillaridan biri talabaning qoniqish darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishda o'qituvchining motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham aniqlash muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni imzolangan bo'lib, unga asosan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi. Kontsepsiyaga muvofiq oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar belgilandi. Jumladan: oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, yuqori

malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

Bu islohotlar O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, yoshlarning oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirishga va ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va uning istiqbollari quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, universitetlar sonining ortishi: Yangi xususiy va xorijiy oliy o'quv yurtlari ochilmoqda, ta'limga kirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Ikkinchidan, ta'lim sifatining oshishi: Xalqaro standartlarga mos dasturlar, reyting tizimlari joriy qilinmoqda, o'qituvchilar malakasi oshirilmoqda.

Uchinchidan, masofaviy ta'lim rivoji: Pandemiya keyin onlayn ta'lim tizimi keng qo'llanilmoqda, bu chekka hududlar uchun qulay.

To'rtinchidan, amaliyot va ta'lim integratsiyasi: Talabalarining amaliyoti kengaytirilmoqda, sanoat bilan hamkorlik rivojlanmoqda.

Beshinchidan, ilm-fan va innovatsiyalar: Ilmiy-texnologik markazlar ochilmoqda, grantlar va ilmiy tadqiqotlar qo'llab-quvvatlanmoqda.

Oltinchidan, qabul tizimi shaffoflashmoqda: Test jarayonlari oshkorligi ta'minlanmoqda, texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan ishlarning barchasida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning istiqbollari ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь.
6. Sh.I.Siddiqova. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samarali usullari. O'quv qo'llanma. –T.: 2024, 5-bet.
7. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori, 36-son, 20.01.2024 yil, www.lex.uz
8. <https://president.uz/oz/lists/view/7256>
9. Xalmuradov R.. Ilmiy axborotnoma. 4-son, Gumanitar fanlar seriyasi, 2023, 4-bet.



Dilrabo MUXAMMADIYEVA,
Toshkent farmatsivtika instituti dotsenti, PhD
E-mail: dilrrabo68@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD M.Ma'rufov taqrizi asosida

SPORTCHILAR ORGANIZIMIDA GIDROTATSIYA JARAYONINI NAZORAT QILISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada sportchilar organizimidagi suvsizlanishni nazorat qilishning ilmiy asoslangan usullari haqida fikr yuritilgan hamda suvsizlanish natijasida organizimda bo'ladigan funksional va fiziologik xolatlar natijadorligi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sport, tayyorgarlik, gidratatsiya, regidratatsiya, suvsizlanish, natija, terlash, suv muvozanati.

КОНТРОЛЬ ПРОЦЕССА ГИДРОТАЦИИ В ОРГАНИЗМЕ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются научно обоснованные методы контроля обезвоживания в организме спортсменов, а также представлены результаты исследований эффективности функциональных и физиологических состояний в организме в результате обезвоживания.

Ключевые слова: Спорт, подготовка, гидратация, регидратация, обезвоживание, результат, потоотделение, водный баланс.

CONTROL OF THE HYDRATION PROCESS IN THE ATHLETES' BODY

Annotation

This article examines scientifically based methods for controlling dehydration in athletes' bodies and presents research results on the effectiveness of functional and physiological states in the body as a result of dehydration.

Key words: Sport, preparation, hydration, rehydration, dehydration, result, sweating, water balance.

Kirish. Zamonaviy sportning barcha turlari bilan shug'illanadigan sportchilar organizimining jismoniy yuklamalarga chidamliligi, uning toliqishiga va natijadorligi sabab bo'luvchi xolatlardan biri, organizmdagi gidrotatsiya jarayoni hisoblanadi.

Gidrotatsiya – bu organizmdagi suv balansi holati bo'lib, u tananing normal fiziologik jarayonlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Sportchilar uchun gidrotatsiya juda ahamiyatli, chunki jismoniy faoliyat jarayonida tanadan ko'p miqdorda suv va elektrolitlar yo'qotiladi. Agar ushbu yo'qotishlar o'z vaqtida qoplanmasa, organizm suvsizlanishi (degidratatsiya) mumkin, bu esa ish qobiliyatining pasayishiga, charchoqning ortishiga va hatto jarohatlar xavfining oshishiga olib keladi. Gidrotatsiyaning ahamiyati, bu e'tiborli suv balansi mushaklarning yaxshi ishlashini va uzoq muddatli chidamlilikni ta'minlaydi. Tananing haroratini nazorat qilib, terlash orqali tanani sovutishda suv muhim rol o'ynaydi. Gidrotatsiya qon aylanishini yaxshilaydi va toksinlarni chiqarishga yordam beradi. Fikrlash va diqqatga ta'siri sifatida – yetarli suv miqdori miya faoliyatini yaxshilaydi, reaksiya tezligini oshiradi.

Sportchilar uchun gidrotatsiyaning muhimligi. Jismoniy mashg'ulotlardan oldin, mashg'ulotlar davomida va mashg'ulotdan so'ng suv ichish, terlash holatlarida elektrolitli ichimliklardan foydalanish, suvsizlanish belgilarini (og'iz qurishi, charchoq, boshning qizarishi) kuzatish, mashg'ulotdan keyin yo'qotilgan vaznga qarab suv iste'molini moslashtirish hamda to'g'ri gidrotatsiya qilish sportchilarning samaradorligini oshirish va jarohat xavfini kamaytirishda muhim omildir. Terlash va chanqoqlik hissigacha e'tibor olib o'rtacha ichimlik qabul qilish mumkin. Ko'p hollarda terlash orqali organizmda ko'plab suyuqlik yo'qotiladi, yo'qotilgan suyuqlikning o'rnini qoplash uchun faol gidratatsiya zarur bo'ladi. Sportchilar turli musobaqa oldidan sportchilar organizimi uchun suv balansini meyorda saqlab turib o'ta muhim hisoblanadi. Ba'zan musobaqa kunidagi o'rtacha gipogidratatsiya kuch va vazn nisbatini yaxshilashga imkon beradi.

Mashg'ulotdan oldin va keyin suyuqlik muvozanatini muntazam ravishda o'lchash, tana vaznini ter bilan suyuqlik yo'qotilishini baholash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlar yetarli darajada nazorat qilish, tana vaznining o'zgarishiga

nisbatan doimiy energetik muvozanat sharoitida kattalardagi gidratatsiyani 2 haftagacha ta'minlash mumkin. Uzlaksiz vaqt davomida tanada sodir bo'ladigan o'zgarishlar organizimdagi gidratatsiyani nazorat qilishga qaratilgan usulining aniqlash imkonini kamaytiradi [9].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Degidratatsiya muammosi ayniqsa musobaqalar vazn toifalari tamoyili bo'yicha tashkil etiladigan sport turlarida, xususan yakkakurashlarda (boks, kurash, sharq yakkakurashlari va shu kabilarda) o'ta dolzarbdir. Kerakli vazn toifasiga ishtirok etish uchun sportchilar katta iroda bilan va har qanday holatda ham o'z vaznini kamaytirishga tayyor turadilar. A.V. Kergaard, R.B. Sallagova (2017) ma'lumotlariga ko'ra, yakkakurashchi sportchilarning 60 dan 90% gachasi vazn yo'qotishga harakat qilishadi, aksariyat hollarda bu jarayon ya'ni tana vaznining kamayishi musobaqadan 7-10 kun oldin boshlanadi. 24-48 soat ichida majburiy vazn yo'qotish keng tarqalgan amaliyot bo'lib, bu sportchilarning suyuqlik iste'molini kamaytirish, termal himoya kostyumlaridan foydalanish, hammom va saunaga borish, ba'zi hollarda WADA tomonidan taqiqlangan peshob haydovchi preparatlarni (diuretiklarni) qo'llash orqali gipogidratatsiyaga majbur bo'ladi. Mualliflar suvsizlanish va gipertermiya natijasida tez vazn yo'qotish (7 dan 10 % gacha) dan foydalanganda sportchilarning o'lim holatlarini qayd etadilar [4].

Ma'lum suvsizlanish sportchining funksional holati va sog'lig'iga salbiy ta'siri yuqori. Degidratatsiya oqibatlarida mashg'ulot og'irligini subyektiv his qilishning kuchayishi va jismoniy sifatlarning yomonlashishi, tiklanish jarayonlarining sekinlashishi, termoregulyatsiyaning buzilishi, aqliy funksiyalarning pasayishi (ishchi xotira, vizual va psixomotor ko'nikmalar), bosh og'rig'i, uyquning buzilishi kabi xolatlar bilan kuzatiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot anonim anketa so'rovnomasi usulida o'tkazilgan bo'lib, unda dzyudo, karate, sambo, taekvondo, boks kabi sport turlari bilan shug'ullanuvchi Toshkent davlat transport universiteti talabalari ishtirok etgan. Ishtirokchilar orasida 18 nafar o'g'ilbola va 10 nafar qizlar bo'lib, ulardan 20 nafari sport ustaligiga nomzod, 5 nafari sport ustasi, 3 nafari birinchi toifali sportchilardan iborat. Ishtirokchilar yakkakurash bilan shug'ullanish tajribasi 5 yildan 10 yilgacha

bo'lib, ularning o'rtacha yoshi 19-20 yosh tashkil qildi. Tadqiqotda foydalanilgan so'rovnomalar musobaqalar oldidan qo'llaniladigan gipogidratatsiya bilan bog'liq savollarni, shuningdek, sportchilarning gidratatsion holatni baholash va tartibga solish usullari to'g'risida xabardorlik darajasini aniqlash bilan bog'liq savollarni o'z ichiga oldi.

Tadqiqotning maqsadi. yakkakurashchi sportchilarning suv balansini baholash va saqlash masalalari bo'yicha xabardorligini aniqlashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Sportchilar organizmida kechadigan maqbul gidratatsiya – shug'illanuvchilarning sog'lig'i va mashg'ulot davomiyligi va natijadorligi uchun uchun muhim omillarda biri bo'lib hisoblanadi. Inson organizmdagi umumiy suv miqdori tanasi og'irligining taxminan 66-67 % ni tashkil qiladi. Umumiy suv hajmi hujayra ichida taxminan 37 % gacha va hujayra tashqarisida esa taxminan 29 % gacha bo'ladi. Hujayra tashqarisidagi barcha suvni, shu jumladan oraliq to'qima (taxminan 24 %) va plazma hajmini (taxminan 5 %) o'z ichiga oladi. Bu bo'limlar o'rtasida doimiy almashinuv bo'lib turadi. Suyuqlikning umumiy hajmi va taqsimlanishi juda o'zgaruvchan bo'lib, yoshga, jinsga, jismoniy faollikka, salomatlik holatiga, terlashga, atrof-muhit holatiga (harorat, shamol tezligi va namlik) bog'liq. Bundan ko'rinadiki, organizmning gidratatsiya holati turg'un va bir xil emas, aksincha, u doim o'zgaruvchan xolatda bo'ladi va muntazam o'zgarit turadi [1].

Oddiy odam har kuni buyrak, o'pka, oshqozon-ichak trakti, shuningdek, terlash va to'g'ridan-to'g'ri bug'lanish orqali tana vazni, jinsi, yoshi va boshqa omillarga qarab 1000 dan 2500 ml gacha suv yo'qotadi [2]. Jadal jismoniy ish paytida suyuqlik yo'qotilishi bir necha bor ko'payadi, bu asosan terlash hisobiga sodir bo'ladi va u bir sutkada 10 litr va undan ortiq bo'lishi mumkin [3]. Bu yo'qotishlar ovqat va ichimlik bilan kiradigan suyuqlik hisobiga qoplanishi kerak, chunki organizmning yengil suvsizlanishi ham ish qobiliyati va chidamlilikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri gidratatsiya sog'liq va jismoniy faollikning optimal holatiga yordam beradi. Tana massasi (TM) ning bazaviy kattalikka nisbatan o'zgarish diapazoni $\pm 1-2$ % oralig'ida bo'lishini ta'minlaydigan suyuqlik iste'moli qilish optimal hisoblanadi [1]. Odatda, 2 % va undan ortiq TM miqdorida suyuqlik yo'qotish, chanqash hissi, sportchilarda chidamlilikning pasayishi bilan birga keladi; 3 % vazn yo'qotish kuchning pasayishiga olib keladi; 5 % vazn yo'qotish so'lak va peshob ajralishining pasayishiga, pulsning tezlashishiga, apatiyaga, mushaklarning zaiflashishiga, ko'ngil aynishiga olib keladi [1]. Suv tanqisligi 6 % dan 10 % gacha bo'lganda og'ir gipogidratatsiya jismoniy yuklamaga chidamlilik yanada yaqqolroq ta'sir ko'rsatadi, yurak urishi, ter ajralishi, teri va mushak qon aylanishini kamaytiradi [6]. Inson tanasining 10 % dan ko'proq suv yo'qotilishi uning hayot uchun jiddiy xavfga olib keladi [7].

Ma'lum sharoitlarda sportchilar gipergidratatsiyaga duch kelishlari mumkin, bunda jismoniy yuklamani bajarish jarayonida suyuqlik iste'mol qilish uning ter, peshob va nafas yo'llari bilan yo'qotilishidan oshib ketadi. Bu holat ko'pincha qon plazmasida natriy miqdorining pastligi (giponatriemiya) bilan birga keladi, bu klinik jihatdan qorin dam bo'lishi, ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rig'i, og'ir hollarda esa shish, hushning chalkashishi, vasvasa, tutqanoq, nafas olish yetishmovchiligi, hushini yo'qotish va zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatilmaganda o'lim bilan birga keladi [6].

Gidratatsiya holatini baholashning ishonchiligi qo'shimcha laboratoriya va instrumental diagnostika vositalaridan foydalanish orqali aniqlanadi, masalan:

ertalabki peshobning hajmi va rangi (oz miqdordagi to'q rangli peshob) organizmning suvsizlanganligini bildiradi. Bu usul arzon, oddiy va tezda mashg'ulotdan oldin gidratatsiya holatining ko'rsatkichini aniqlaydi. Biroq, u bir qator kamchilik va cheklavlarga ega, masalan, peshob rangi ba'zi biologik faol moddalarni yoki vitaminlarni qabul qilishga bog'liq. Hozirgi vaqtda bozorlarda ko'chma, ixcham peshobni tahlil qilgichlar mavjud bo'lib, ular namunaning rangini bir necha gradatsiyalar bo'yicha obyektiv baholash imkonini beradi [11].

sutkalik peshob chiqarish (diurez) gidratlanish holatini taxminiy baholash imkonini beradi; bir sutkada 500 ml dan kam

peshob ajralishi suyuqlik iste'molining yetarli emasligini, 1500 ml dan ko'p bo'lishi esa ortiqcha ekanligini ko'rsatadi [10].

- peshobning solishtirma zichligi va elektrolitlarini aniqlashda (suv muvozanatining normal holatida) peshobning solishtirma og'irligi 1,020 g/l dan oshmaydi; o'rtacha degidratatsiya – 1,020 – 1,029 g/l; sezilarli suvsizlanish – $> 1,030$ g/l; gidratatsiya holatining eng muhim ko'rsatkichi – peshobdagi natriy darajasiga bog'liq; peshob bilan natriy ajralishining tayanch miqdorlar (sutkalik peshob): erkaklarda – 40-220 mmol/sutka; ayollarda – 27-287 mmol/sut. – ter va so'lak tarkibidagi elektrolitlarni baholash.

- mashg'ulot vaqtida kurak sohasiga yopishtiriladigan maxsus plastirlardan foydalanish. AQSDagi (Cantimer) kompaniyasi tadqiqotlarida aniqlashicha inson so'laki tomchisi orqali organizmning degidratatsiya darajasini o'lchashning turli yo'llarini aniqlagan.

qon elektrolitlarning osmotik konsentratsiyasi va hajmi, qon zardobning normal osmolyalligi 275-295 mosm/kg oralig'ida o'zgarib turadi va o'rtacha 285 mosm/kg suvni tashkil qiladi. Qon tarkibidagi natriy konsentratsiyasining meyori - 136-145 mmol/l.

gemokonsentratsiya biomarkerlari. Gidratatsiya holatining indikator mochevina (karbamid) azotining kreatinga nisbati. Mochevina/kreatinin nisbatining referent qiymatlari - 8-15 mg/dl. Gemokonsentratsiya meyori yuqori darajada bo'lsa organizmida kasallik kuzatiladi - 20 mg/dl.

organizm va tanadagi bioimpedansli tahlili.

Eugidratatsiyani qo'llab-quvvatlash tamoyillari. Jismoniy zo'riqishdan oldin, zo'riqish davomida va undan keyin to'g'ri gidratatsiya qilish sport bilan samarali, sog'lom va xavfsiz shug'ullanishning ajralmas qismidir [7].

Bir xil atrof-muhit sharoitida va bir xil jismoniy zo'riqishda tanasida yog' miqdori yuqori bo'lgan sportchilar suvsizlanish xavfiga ko'proq duchor bo'ladi.

Ayollar odatda erkaklarga qaraganda kichikroq tana o'lchamiga, yuqori yog' to'qimalari miqdori yuqori ammo terlash ko'rsatkichlari pastroq, shuning uchun ular gipergidratatsiya va giponatriemiya xavfiga moilligi ko'proq bo'ladi.

Atrof-muhitning yuqori harorati va namligi bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda suvsizlanish va va issiqlik buzilishi xavfini keltirib chiqaradi.

Ba'zi dorilar yoki yaqinda kasal bo'lganligi, ayniqsa oshqozon-ichak kasalliklari (masalan, qusish, diareya) va isitma, sportchining gidratatsiyasi holatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [7].

Musobaqa oldidan gidratatsiya. Ba'zi sportchilar issiq ob-havo yoki kun davomida bo'lib o'tgan mashg'ulotlar "vazn yo'qotish" tufayli suvsizlantirilgan holatida musobaqalarga kirishadilar. Sutkalik diurez (peshob haydash) miqdorining yetarli emasligi va peshob rangining haddan tashqari to'yinganligi suvtuz muvozanatining buzilganligidan dalolat beradi. Bunday holatda musobaqa boshlanishidan 2-4 soat oldin 1 kg tana vazniga 5-10 ml hisobida suyuqlik qabul qilish zarur. Musobaqaga tushishdan 15 daqiqa oldin 250-500 ml suyuqlik ichish nihoyatda zarur [9]. Suyuqlik yoki ichimliklar bilan organizimga qabul qilinadigan natriy sportchi tanasidagi suvni ushlab turish uchun yordam beradi [5].

Musobaqa vaqtida gidratatsiya. Jismoniy ish vaqtida organizm bir soat davomida ter bilan 0,3 dan 2,5 l gacha suyuqlik yo'qotadi. Agar jismoniy faollik 60 daqiqadan ortiq davom etsa, suyuqlik tanqisligi tana vaznining 2 % dan oshmasligi uchun sportchilar yo'qotilgan suyuqlik o'rmini qoplashlari kerak. Mashg'ulotdan oldin va keyin muntazam ravishda vazn o'lchash orqali ter bilan suyuqlik yo'qotilishini aniqlash mumkin. 1 kg vaznini yo'qotish taxminan 1 l tanadagi suvni yo'qotishga teng keladi. Bevosita mashg'ulotlar va musobaqalar davomida sportchilar terlash orqali yo'qotadigan 50-70 % suyuqlik yetishmovchiligini to'ldiradilar [10].

Qulay haroratda bir-ikki soat davom etadigan musobaqalarda chanqoqni qondirish uchun suv ichish kifoya. Issiq sharoitda 90 daqiqadan ortiq davom etadigan intensiv jismoniy mashqlar davomidan organizm talab qilingan suyuqlikni muntazam ravishda ichishni mumkin, ayniqsa intensiv terlash bo'lganda (shuningdek, 1 g/min uglevod iste'mol qilish maqsadga muvofiq) [11].

Suv yoki boshqa ichimlik qabul qilish xar bir sportchi uchun individual bo'lib u sportchining fiziologik imkoniyatlardan shoib ketmasligi lozim (eng yuqori qiymat - 1,2 l/soat bo'lmishi kerak). Bu sportchining jismoniy xolati va suvsizlikka bo'lgan chidamliligiga, suyuqlik qabul qilishga qarab 0,4 dan 0,8 l/soatgacha bo'ladi. Muntazam 15-20 daqiqada 120 dan 250 ml gacha suyuqlik istemol qilish eng maqbul bo'lib xolat.

Ko'p miqdorda ter chiqarish natijasida ($> 1,2$ l/soat) ter bilan elektrolitlarning yo'qotilishi (sho'r ter) sportchilarga (> 2 soat) tarkibida 0,4-1,2 g/l natriy bo'lgan ichimliklarni iste'mol qilish tavsiya etiladi. Ularning tarkibiga uglevodlar ham kirishi mumkin (konsentratsiyasi 6-8 % dan oshmaydi). Issiq havoda va havo namligi yuqori bo'lganda suyuqlik tarkibida 1:19 nisbatda glitserin bo'lgan ichimliklarni iste'mol qilish maqsadga muvofiq [7].

Sportchilarda gidratatsiya muammolarini yechish yo'llari.

Tayyorgarlik bosqichida atrof-muhit haroratini (150C) hisobga olgan holda terlash tezligi hisob-kitoblarini ishlab chiqish va sportchining jismoniy faollik paytida 2-3 % gacha vazn yo'qotishini klinik baholash. Mashg'ulotdan oldin tarozida tortish (ertalab och qoringa defekatsiya (xojatga chiqqandan)dan so'ng peshob pufagi bo'shatilgan holda (49,5 kg). - mashg'ulot davomiyligini hisoblash (105 daqiqa $\approx 1,75$ soat). - mashg'ulotdan keyin tarozida tortish (47,9 kg) va ter bilan yo'qotishni hisoblash (49,5 kg - 47,9 kg = 1,6 kg $\approx 1,6$ l). - jismoniy faollikning ushbu turida 1 soat davomida terlash tezligi (1,6 l/1,75 soat = 0,91 l/soat). - sportchining klinik holatni baholash ma'lumotlariga ko'ra ($\approx 1,3$ kg) 2-3 % gacha bo'lgan vazn yo'qotishni yaxshi qabul qilishi bir necha martalik monitoring o'tkazishi bilan aniqlandi.

Musobaqa paytida gidratatsiya hajmini hisoblash (havo harorati 140S bo'lganda, yugurishning taxminiy davomiyligi 2

soat 33 daqiqa ($\approx 2,5$ soat). - yugurishning davomida ter bilan suyuqlik yo'qotilishini taxminiy hisoblash ($0,91$ l/soat $\times 2,5$ soat = $2,3$ l ($\approx$ tana vaznining 4,65 %). - yo'qotishning 80 % gacha o'rnini to'ldirishning tavsiya etilgan hajmi ($0,8 \times 2,3$ l = $1,84$ l; $1,84$ l/2,5 soat = $0,73$ l/soat $\approx 0,7$ l/soat). - yugurish davomida tavsiya etilgan gidratatsiya hajmi: $2,3$ kg - $1,3$ kg = 1 kg ≈ 1 l suyuqlik yugurish vaqtida esa (1 l/2,5 soat $\approx 0,4$ l/soat).

Jismoniy yuklamadan keyin regidratatsiya. Aksariyat sportchilar organizmda suyuqlik yetishmovchiligi bilan musobaqani yakunlaydilar va suv hamda elektrolitlar muvozanatini tiklashga muhtoj bo'ladilar. Suyuqlik va minerallarning izotonik uglevod-elektrolit eritmaları uglevod yetishmovchiligini to'ldirishning optimal vositasi bo'lib hisoblanadi. Qabul qilinadigan ichimlik tarkibida 2:1 miqdorda glyukoza va fruktozaning borligi mushak to'qimalaridagi glikogenining sintez sur'atini jadal tezlashtiradi, bu, ayniqsa, takroriy musobaqa yoki mashg'ulotlarda qabul qilinadigan yuklamalar uchun o'ta muhimdir [10].

Xulosa va takliflar. Suv va natriyni iste'mol qilish peshob bilan yo'qotishlarni minimallashtirish uchun o'tacha tezlikda bo'lishi kerak. Terlash va diurez musobaqadan keyingi davrda ham davom etishi sababli, samarali regidratatsiya suyuqlikni ortiqcha iste'mol qilishni ham talab qilishi mumkin (har bir yo'qotilgan kilogramm tana vazniga taxminan 1,25-1,5 l). Sportda suvsizlanish yoki gidratatsiya bo'yicha umumiy qabul qilignan tavsiyalar yetarli darajada mavjud emas. Organizmdagi sarflangan suyuqlikni to'ldirish yo'lini tanlash har bir sportchi uchun individual bo'lishi kerak. Regidratatsiya rejaları atrof-muhit, iqlim sharoitlari va bo'lib o'tadigan musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorgarlik mashg'ulotlar davomida oldindan ishlab chiqilgan bo'lishi foydadan xoli bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Арансон М. В. Коррекция массы и состава тела в единоборствах / М. В. Арансон, Э. С. Озолин, О. В. Тупоногова // Наука и спорт: современные тенденции. 2019. № 4, Т. 9. С. 19–24.
2. Выборная К.В. Современные методы оценки дегидратации у спортсменов / К.В. Выборная, И.В. Кобелкова, С.В. Лавриненко, Г.А. Пузырева, А. И. Соколов, Д. Б. Никитюк // Вестник спортивной науки. 2018. № 3. С. 22–29.
3. Дмитриев А. В. Спортивная нутрициология / А.В. Дмитриев, Л. М. Гунина. М.: Спорт, 2020. 640 с.
4. Кергаард А. В. Распространённость и проблемы быстрой сгонки массы тела в единоборствах (обзор зарубежной литературы) / А.В. Кергаард, Р.Б. Цаллагова // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. 2017. № 9(151). С. 160–164.
5. Парастаев С.А. К вопросу об актуализации проблемы обезвоживания в спорте / С.А. Парастаев, Ю.В. Мирошникова, Т.А. Пушкина, В.А. Курашвили, Т.А. Яшин, И.Т. Выходец, М.В. Купеев, М.Д. Дидур // Вестник РГМУ. 2017. № 6. С. 13–18.
6. Рябов, Г.А. Синдромы критических состояний / Г.А. Рябов. – М.: Медицина, 1994. – 368 с.
7. Розенблум А. Питание спортсменов. Руководство для профессиональной работы с физически подготовленными людьми / А. Розенблум. – Киев : Олимпийская литература, 2005. – 535 с.
8. Дмитриев А.В. Основы спортивной нутрициологии / А.В. Дмитриев, Л.М. Гунина – СПб: Издательство ООО «РА «Русский Ювелир». – 2018. – 560 с.
9. Пшендин, П.И. Рациональное питание спортсменов / П.И. Пшендин. – М., 2005. – 76 с.



UDK: 304.444

Utkirjon MUXTAROV,
Andijon davlat redagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: muxtarovutkir1984@gmail.com

Andijon davlat universiteti MG'MAHT kafedrası mudiri, PhD, dot. Sh.Amirxo 'jayev taqrizi ostida

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISHDA INSON KAPITALINING AHAMIYATI

Аннотация

Inson karitalini rivojlantirish ishsizlikni kamaytirishda muhim strategik omil bo'lib, mehnat bozori talablariga moslashuvchan va malakali ishchi kuchini shakllantirishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada inson karitaliga investitsiya kiritish va uning ishsizlik darajasiga ta'siri tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim, kasbiy qayta tayyorlash va innovatsion bilimlarga sarmoya kiritish mehnat bozorining barqarorligi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Inson karitali, ishsizlik, kambag'allik darajasi, ta'lim, investitsiya, kasbiy ta'lim.

ЗНАЧЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СНИЖЕНИИ БЕЗРАБОТИЦЫ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Развитие человеческого капитала является важным стратегическим фактором в снижении безработицы, обеспечивая формирование квалифицированной и адаптивной рабочей силы в соответствии с требованиями рынка труда. В данной статье проанализированы инвестиции в человеческий капитал и их влияние на уровень безработицы. Результаты показывают, что вложения в образование, профессиональную переподготовку и инновационные знания оказывают положительное влияние на стабильность рынка труда и экономический рост.

Ключевые слова: Человеческий капитал, безработица, уровень бедности, образование, инвестиции, профессиональное обучение.

THE IMPORTANCE OF HUMAN CAPITAL IN REDUCING UNEMPLOYMENT IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Annotation

The development of human capital is an important strategic factor in reducing unemployment, ensuring the formation of a skilled and adaptable workforce in accordance with labor market demands. This article analyzes investments in human capital and their impact on the unemployment rate. The results show that investments in education, professional retraining, and innovative knowledge have a positive impact on labor market stability and economic growth.

Key words: Human capital, unemployment, poverty level, education, investment, professional training.

Kirish. Inson karitali alohida shaxslarning qobiliyatlari, ko'nikmalari va bilimlarining yig'indisi sifatida tushuniladi, ammo inson karitali miqdorini emirlik aniqlash muammo hisoblanadi, chunki inson karitali bevosita kuzatiladigan ko'rsatkich emas. Inson karitalini miqdoriy va sifat jihatdan baholashning relevant usullarini ishlab chiqish uning aholi kambag'alligini qisqartirish bilan bog'liqligini tadqiq etish uchun zarurdir.

Kambag'allik darajasini kamaytirish barqaror rivojlanishning (ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda) asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, unga erishish iqtisodiy o'sish natijalarini alohida shaxslar o'rtasida adolatli taqsimlashga yordam beradigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi. Daromadlarni adolatli taqsimlash inklyuziv o'sishga - barcha toifadagi odamlar taraqqiyotga hissa qo'shadigan va iqtisodiy o'sishdan foyda oladigan jarayonga asos solishga imkon beradi. Boshqa tomondan, daromadlardagi yuqori tengsizlikka olib keladigan davlat siyosati institutlari zararli doirani yaratadi, buning natijasida boylar va kambag'allar o'rtasidagi daromadlardagi tafovut doimiy ravishda ortib boradi. Inson karitali taraqqiyotning katalizatori sifatida qaraladi va undan to'g'ri foydalanilganda O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf etish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Shu bois hukumat 2017-yildan buyon mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar va siyosatni amalga oshirmoqda.

Rezident Shavkat Mirziyoyev inson karitalini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratib, ushbu yo'nalishda bir qator muhim nutqlar so'zlagan. Uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqida, inson karitalini rivojlantirish va ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tadi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis rahbarlarining qo'shma majlisidagi nutqida: "Aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va ishsiz fuqarolarni davlat hisobidan malakali kasb-hunarga o'qitish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ehtiyojmand aholini manzilli qo'llab-quvvatlash orqali 2026-yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya sohasida boshqaruv tizimi isloh qilinib, ijtimoiy xizmatlarning sifati yaxshilanadi va ko'lamini kengaytiriladi" deb ta'kidlab o'tadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz ilm-fani va iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, barcha sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamlashtirish yechimlarini joriy etish bo'yicha muhim maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Asosiy maqsadlardan biri - mamlakatning jahon maydonidagi raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida inson karitalini rivojlantirishdir.

Bugungi globallashuv jarayonida ishlab chiqarishda mehnat kabi resursdan to'liq va oqilona foydalanish hamda ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, ishsizlikni kamaytirish bo'yicha faol choralar ko'rish davlatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Inson karitalining rivojlanishi qashshoqlikni kamaytirishga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning tadqiqotlari ta'lim, kasbiy malaka oshirish va sog'liqni saqlash kabi omillarning aholi daromadlarini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatiga e'tibor qaratganlar.

Gilfason va Zoega turli mamlakatlarda o'rta ta'lim bilan qamrab olish darajasi, ta'limga ajratilgan davlat xarajatlarning

milliy daromadga nisbati hamda bolalar va yoshlarning kutilayotgan ta'lim olish muddatining "Jini koeffitsiyenti" bilan o'lganadigan daromadlar taqsimotiga va iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rgandilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu ta'lim ko'rsatkichlari daromadlar tengligi bilan bevosita bog'liq ekan. Davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan keng qamrovli va sifatli ta'lim iqtisodiy o'sishga yordam berishi, shu bilan birga daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, ta'lim nafaqat inson karitalini, balki moddiy va ijtimoiy karitalni ham ko'raytirish va takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Self va Grabovskiy ta'limning Hindistondagi daromadlar o'sishiga ta'sirini o'rganib, ta'limning har bir bosqichi iqtisodiy o'sishga tasodifiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash uchun uni boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim bosqichlariga ajratdilar. Bundan tashqari, ta'lim ko'rsatkichlari jinslar bo'yicha ham tahlil qilindi va tasodifiy natijalarning jinslarga qarab farqlanishi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim o'rta ta'limga nisbatan o'sishga kuchliroq tasodifiy ta'sir ko'rsatar ekan. Bundan tashqari, barcha bosqichlardagi ayollar ta'limi iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi mumkinligi ma'lum bo'ldi, erkaklar ta'limi esa o'sishga faqat boshlang'ich bosqichda bilvosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.


Ararat Rossiya Federatsiyasida ta'limning iqtisodiy o'sishga roli va ta'sirini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotda oliy ta'limning iqtisodiy o'sishga ehtimoliy ta'siridagi turli vaqtlarini hisobga oluvchi endogen iqtisodiy o'sish modeli hamda chiziqli va logarifmik-chiziqli tenglamalar tizimi baholanadi. Model baholash shuni ko'rsatdiki, ta'lim darajasi iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Tenglamalar tizimi natijalari shuni ko'rsatdiki, aholining oliy ta'lim olish imkoniyatini oshirish uzoq muddatli istiqbolda aholi jon boshiga YAIM o'sishi uchun ijobiy natijalar beradi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar sonining ko'rayishi barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor inson karitali rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini aniqlashga qaratilganligi sababli, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv, tizimli tahlil va boshqalarni o'z ichiga olgan quyidagi iqtisodiy usullardan foydalanish zarur. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2015-2022-yillardagi vaqtli qator ma'lumotlaridan foydalanildi. To'rlangan ma'lumotlar elektron shaklda bo'lib, tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlarni yig'ish usulidan foydalanildi. Ma'lumotlar Davlat statistika agentligi va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlar zaxiralaridan olingan. Ma'lumotlar tahlili tadqiqot savollariga javob berish uchun ham tavsifiy, ham sabab-oqibat tahlilini o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasida "Inson qadri uchun" tamoyillariga asoslangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasini faol amalga oshirish boshlandi. Iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar 2026-yilga borib kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish maqsadidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy sharti makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir.

Xususan, 2026-yilda aholi jon boshiga yalri ichki mahsulotni hozirgi 2000 dollardan 2800 dollarga yetkazishga qaratilgan. Bu 2030-yilda o'rtacha daromadli mamlakatlarning birinchi guruhiga kirishga yo'l ochadi.

Tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olishning barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmogda (2019-yildagi 40% dan 2021-yilda 62% gacha). 2024 yilda 75% "Yangi O'zbekiston" strategiyasiga ko'ra, 2026-yilga qadar maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizga yetkazish maqsad qilingan (1.rasm).




4.2.1. rasm. 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish tendensiyasi.

Ayniqsa, 2019-yilga qadar, ta'limning barcha darajalarida bo'lgani kabi, an'anaviy ravishda o'g'il bolalarni qamrab olish darajasidan rast bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida qizlarni qamrab olishning o'sishi ijobiy tendensiyadir. Tizimga xususiy sektorni jalb etishni faol rag'batlantirish va oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari sonining ko'rayishi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni oshirishga yordam berdi shu jumladan kam ta'minlangan oilalar bolalarini ham.

Qishloq joylardagi bolalarni maktabgacha ta'limga faol jalb qilish va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'rnlardan yanada samarali foydalanish (2021-yilda 100 o'ringa 104 bola,

taqqoslash uchun 2010-yilda 76 bola) ga qaramay, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni notekis taqsimlash muammosi dolzarbligicha qolmogda. Ushbu natijalarga qaramay, 2022-yilda e'lon qilingan so'nggi MICS (Multiindikator klaster kuzatuv) ma'lumotlariga ko'ra, davomtdagi tafovutlar hali ham gender tafovutlari, qishloq joylardagi tafovutlar va daromadlar bilan bog'liq. Boshlang'ich ta'limga qabul qilishning rasmiy yoshidan bir yil oldin bolalarning tashkillashtirilgan ta'limda ishtirok etish darajasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ko'rsatkichlari 2015-yildan 2024-yilgacha 3 barobardan ortiq yaxshilandi (4.2.2.-rasm).




4.2.2.-rasm. Bolalarning tashkil etilgan ta'limda ishtirok etish darajasi (rasmiy boshlang'ich maktabga kirish yoshidan bir yil oldin) jinslar bo'yicha tahlil qilinishi.

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishda bo'lgani kabi maktabga tayyorlash tizimida qiz bolalarni qamrab olish ketma-ket ikkinchi yil o'g'il bolalarni qamrab olishdan oldinda. Oliy ta'lim muassasalari, jumladan, xorijiy OTM va xususiy OTM filiallari sonining o'sish tendensiyasi (4.2.3-rasm),

oliy ta'limga davlat kvotalarini oshirish, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan va kam ta'minlangan oilalardan o'rta ta'lim bitiruvchilariga alohida kvotalar ajratish (4.2.4.-rasm) yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmogda (4.2.5-rasm).




Rasm 4.2.3. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan OTMlar sonining o'sish tendentsiyasi.



Rasm 4.2.4. 2021-yilda jismoniy cheklovlari bo'lgan yoshlar va kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan yoshlar uchun ajratilgan alohida kvotalar soni.

Yosh ayollarni oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2015-2024-yillarda 5 barobar yaxshilandi, ammo erkaklar bilan taqqoslaganda hali ham 4 foizga past.



Rasm 4.2.5. Yoshlar (18-22 yosh) orasida oliy ta'lim bilan qamrovning o'sishi, %.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'nikmalariga ega bo'lgan aholi ulushi 2021-yilda 2019-yilga nisbatan o'rtacha 1,6 foiz runktga oshgan. 2022-yilda ta'lim tizimida raritet indeksi (qishloq va shahar joylarida, farovonlik darajasi) dinamikasi

Ko'rsatkich	2017 yil (%)	2024 yil (%)
1. Elektr energiyasi bilan ta'minlanish	99.0%	99.8%
2. Ta'lim maqsadlari uchun Internetga kirish imkoniyati	87.9%	92.5%
3. Ta'lim maqsadlari uchun kompyuterlar bilan ta'minlanish	87.3%	97.7%
4. Cheklangan imkoniyatlarga ega o'quvchilar uchun moslashtirilgan infratuzilma va materiallar	—	38.0%
5. Ichimlik suvi uchun asosiy manbalar	34.4%	86.5%
6. Ajratilgan minimal darajadagi jihozlangan hojatxonalar	15.4%	81.3%
7. Qo'l yuvish uchun asosiy vositalar	59.0%	90.9%

Rasm 4.2.6. Umumta'lim maktablarining zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanganligi.

Ta'lim muassasalarini qo'l yuvish uchun bazaviy vositalar, ichimlik suvi manbalari va alohida minimal jihozlangan hojatxonalar bilan ta'minlash ko'rsatkichi sezilarli darajada oshdi.

muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimining raritet indeksi bo'yicha shahar va qishloq o'rtasidagi farqlanish 0,022 f.r.ni tashkil etadi. 2017-2022-yillardagi kvintillar bo'yicha yaxshilanish birinchi (0,11 f.r.) va beshinchi kvintillarda (0,06 f.r.) qayd etiladi. O'quv maqsadlari uchun internetga ulangan va o'quv maqsadlari uchun kompyuterlar bilan ta'minlangan maktablarning ulushi 2024-yilda 92,5% gacha oshgan.

Xulosa. Inson kapitalini rivojlantirishning kambag'allikni qisqartirishga ta'siri uning siyosatga, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, O'zbekistonga ta'sirini hisobga olgan holda muhim ahamiyatga ega. Biz ushbu maqola orqali inson karitalini rivojlantirishning ayrim elementlari va O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqdik.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. –T.: O'zbekiston, 2022.
2. Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики. – Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Плеханова Г.В.», 2023.
3. Gylfason, T. and Zoega, T. "Education, Social Equality and Economic Growth: A View of the Landscape". CESifo Economic Studies, 49, 2003.
4. Self et al (2004): "Statistics on Child Labour and Hazardous Child Labour in brief" mimeo, Bureau of Labour Statistics, ILO, Geneva.
5. Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики. – Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В. Плеханова», 2023.
6. Мухтаров, Уткиржон Муталибжанович Янги Ўзбекистон шароитида ишсизлик муаммоси ва уни бартараф этишнинг ижтимоий омиллари // ORIENSS. 2024. №21.
7. www.xs.uz
8. www.lex.uz



UDC:37(045)(575.1)

Nohida MUXTOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi
E-mail: nohidamuxtorova@tsul.uz

TDYU pedagogika fanlari doktori, professor D. Xashimova taqrizi asosida

CHET TILLARINI O'QITISHDA MADANIY TUSHUNCHALARNI YETKAZISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida madaniy tushunchalarni yetkazish usullarining samaradorligi va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, interkultural kompetensiya va ta'lim metodikasining rivoji asosiy mavzular sifatida ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy pedagogik paradigmalariga asoslangan holda, til o'rganishda madaniyatning integratsiyasi, o'quvchilarning lingvistik va madaniy bilimlarini kengaytirishi hamda o'qitish jarayonidagi innovatsion yondashuvlarni yoritadi.

Kalit so'zlar: Chet tillar, madaniy tushunchalar, til o'rgatish, interkultural kompetensiya, ta'lim metodikasi, pedagogika, til va madaniyat, innovatsion usullar.

МЕТОДЫ ПЕРЕДАЧИ КУЛЬТУРНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация

В данной статье рассматриваются методы передачи культурных представлений в процессе обучения иностранным языкам, их эффективность и значение. Исследование уделяет особое внимание взаимосвязи между языком и культурой, развитию межкультурной компетенции и современным педагогическим подходам. Статья анализирует интеграцию культурного контекста в языковое обучение, демонстрируя, как правильное представление культурные аспекты, способствующие расширению лингвистических и коммуникативных навыков учащихся.

Ключевые слова: Иностранные языки, культурные представления, преподавание, межкультурная компетенция, образовательная методика, педагогика, язык и культура, инновационные методы.

METHODS OF CONVEYING CULTURAL CONCEPTS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Annotation

This article examines the methods of conveying cultural concepts in the teaching of foreign languages, focusing on their effectiveness and significance. The study emphasizes the interrelationship between language and culture, the development of intercultural competence, and contemporary pedagogical approaches. The article analyzes the integration of cultural context into language education, demonstrating how proper representation of cultural aspects contributes to the enhancement of learners' linguistic and communicative skills.

Key words: Foreign languages, cultural concepts, language teaching, intercultural competence, educational methodology, pedagogy, language and culture, innovative approaches.

Kirish. Chet tillarini o'qitish jarayonida madaniy tushunchalarni yetkazish uzoq yillardan beri dolzarb masala hisoblanadi. Globalizatsiya, axborot texnologiyalari va madaniy aloqalarning kuchayishi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda til o'rgatishda nafaqat grammatik va leksik bilimlar, balki madaniy kontekst va an'analar ham hisobga olinmoqda. O'quvchilarning til va madaniyat o'rtasidagi munosabatini shakllantirish, ularning xalqaro madaniyatlar bilan tanishuvini ta'minlash va o'zaro hurmatni rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Ushbu maqolada til o'rgatishda madaniy tushunchalarni yetkazish usullarining samaradorligi va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqsad – mavjud metodik yondoshuvlar va ta'lim strategiyalarini o'rganish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, o'qituvchilar va metodistlar uchun yangi tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot davomida G'arb va mahalliy tajribalar, shuningdek, empirik kuzatuvlar asosida madaniyatning til o'rgatish jarayonidagi o'zaro ta'siriga e'tibor qaratildi.

Misol uchun, rivojlangan mamlakatlarda darslarda mahalliy madaniyat namunalarini kiritish, kino, adabiyot va san'at asarlaridan foydalanish o'quvchilarning til bilimlarini mustahkamlash hamda madaniy idrokni oshirishda samarali ekanligi aniqlangan. Shuningdek, o'zbek ta'lim tizimida ham madaniyatni o'qitish metodikalariga e'tibor ortmoqda va bu borada yangi tajribalar sinovdan o'tkazilmoqda. Bunday yondoshuv o'qitishda nafaqat til bilimlariga, balki o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mazkur maqola o'qituvchilarning zamonaviy pedagogika va interkultural kompetensiya asosida o'z o'quv jarayonlarini qayta ko'rib chiqishiga turtki bo'ladi. Ta'lim tizimidagi bu yangilanish madaniy tushunchalarni nafaqat o'quvchilarga yetkazish, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, bu mavzu kirish, metodologiya, adabiyotlar tahlili va tahlil-muhokama bo'limlari orqali batafsil yoritiladi, natijada til o'rgatish jarayonida madaniyatning o'rni va ahamiyati aniq ko'rsatiladi.

Metodologiya. Maqolada foydalanilgan metodologik yondoshuv asosan nazariy tahlil, empirik kuzatuv va taqqoslash usullariga asoslanadi. Avvalo, xalqaro va mahalliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ta'lim tajribalarining tahlili o'tkazildi. Shu bilan birga, o'qitish jarayonida madaniy materiallar va dars metodikasini o'rganish uchun amaliy darslar ham kuzatildi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan interaktiv metodlar, sinf darslari va tajriba sinovlari natijasida olingan empirik ma'lumotlar asosida madaniy tushunchalarni yetkazish usullari tahlil qilindi. So'rovnomalari, intervyular va fokus-guruh muhokamalari orqali o'quvchilarning madaniy ta'limga bo'lgan munosabati aniqlangan. Har bir metodning samaradorligi, afzalliklari va chegaralari batafsil ko'rib chiqildi.

Ushbu metodologik yondoshuv orqali til o'rgatish jarayonida madaniy kontekstning ahamiyati yanada ravshanlandi. Darslarda madaniyatni ifodalovchi turli materiallar – adabiyot, musiqa, kino va vizual san'at namunalaridan foydalanish orqali, o'quvchilarning madaniy ongini shakllantirish ko'zda tutilgan. Topilgan natijalar ta'lim jarayonida innovatsion usullarni qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Metodologiya tahlilida, aniq misollar va

statistik ma'lumotlar orqali madaniy tushunchalarni yetkazish modelining samaradorligi va uning til o'rgatishdagi roli baholandi. Shu tarzda, tadqiqotning empirik va nazariy qismi uyg'unlashtirilib, yangi pedagogik tavsiyanomalar ishlab chiqishga asos yaratildi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili sohasida til o'rgatish va madaniy tushunchalarni integratsiyalash bo'yicha boy ilmiy meros mavjud. G'arb olimlari, xususan, Johnson [2], Kramsch va Byram [3] singari tadqiqotchilar til o'rgatishda madaniyatning o'rni va uning o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasiga ta'sirini batafsil tadqiq qilganlar. Ularning ishlarida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, interkultural kommunikatsiyaning rivojlanishi va madaniy resurslardan foydalanish asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, Pearson [6] va Byram [1] metodik yondoshuvlarni tahlil qilib, til o'rgatish jarayonida interaktiv usullar va muloqotga asoslangan darsliklarning ahamiyatini ta'kidlaganlar.

O'zbekiston olimlari orasida, Masudov A. [5] va Rahmonov S. [7] singari tadqiqotchilar madaniy elementlarni til o'rgatish jarayoniga qo'shish zarurligini ta'kidlagan. A. Masudov o'z tadqiqotida til o'rgatishda an'anaviy grammatik metodlardan tashqari, madaniy va ijtimoiy elementlarni ham o'z ichiga olgan kompleks yondoshuvni tavsiya etadi. S. Rahmonov esa o'quvchilarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda o'qituvchining rolini hamda o'quv jarayonidagi interaktiv metodlarni yoritadi. Ularning tadqiqotlari xalqaro tajribalar bilan solishtirganda, madaniy tushunchalarni o'zlashtirishning global pedagogik paradigmalarga mos kelishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Kramsch va Byramning [3] tadqiqotlari madaniyatni til o'rgatish jarayoniga integratsiyalash texnikalari va strategiyalarini yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Jahon adabiyotlarida interaktiv texnologiyalar, raqamli platformalar va vizual ko'rgazmali materiallar orqali madaniy resurslarni yetkazish samaradorligi ko'rsatildi. Shu tarzda, rasmiy dars dasturlarida madaniy elementlarni kiritish o'quvchilarning til bilimlarini yanada chuqurlashtirish va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maxsus o'rganishlar shuni aniqladiki, til o'rgatishda madaniy kontekstni inobatga olish o'quvchilarga nafaqat tilni, balki madaniyatning an'anaviy va zamonaviy jihatlarini ham tushunishga yordam beradi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, aniq misollar va statistik tahlillar orqali, innovatsion darsliklar va interfaol ta'lim modellarning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu adabiyotlar tahlili til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratib, keyingi bosqichdagi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy poydevor tayyorlaydi. Shu bilan birga, olingan natijalar kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun yangi metodologik yondoshuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil va muhokama. Til o'rgatishda madaniy tushunchalarni yetkazish usullari analiz qilinayotgan paytda, bir qator amaliy tajribalar va nazariy yondoshuvlar asosida chuqur tahlil o'tkazilishi zarur. Darslarda madaniy kontentning kiritilishi o'quvchilarning til bilimlarini mustahkamlashda qanday rol o'ynashi, ularning kelajakdagi muloqot qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylangan. Masalan, AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida o'qituvchilar adabiyot, kino, musiqa va san'at asarlarini dars jarayoniga kiritish orqali til mashg'ulotlarini yanada interaktiv hamda mazmunli qilmoqda. Bunday yondoshuv o'quvchilarga nafaqat tilni, balki madaniyatga oid o'ziga xosliklarni ham chuqurroq idrok etishga yordam beradi. Mahalliy darsliklarda esa, tarixiy va antropologik yondoshuvlar orqali o'zbek madaniyatining boyligi aks ettiriladi, bu esa o'quvchilarning milliy o'zlik bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

Xalqaro tajribada madaniy tushunchalarni o'rgatishning turli usullari qo'llaniladi. Masalan, AQSHda chet tillarini o'qitishda "Cultural Capsules" (madaniy kapsulalar) usuli keng qo'llaniladi [8]. Bu usulda o'quvchilarga ma'lum bir madaniyatga oid qisqa, ammo mazmunli ma'lumotlar beriladi. Masalan, fransuz tilini o'rgatishda o'quvchilarga Fransiyadagi nonushta odatlari haqida ma'lumot berilib, bu jarayonni vizual materiallar (rasmlar, videolar) bilan boyitish orqali o'quvchilarning qiziqishi oshiriladi. Ushbu usul o'quvchilarning madaniy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Yaponiyada esa ingliz tilini o'qitishda "Role play" (rol o'ynash) usuli keng qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar Yaponiyaga kelgan sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi muloqotni sahnalashtiradilar. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki madaniy muloqot qoidalarini ham o'rganadilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu usulni qo'llagan o'quvchilarning 75 foizi tilni o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishgan [9].

O'zbekistonda chet tillarini o'qitishda madaniy tushunchalarni yetkazish bo'yicha bir qator innovatsion yondoshuvlar qo'llanilmoqda. Masalan, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster Universitetida ingliz tilini o'qitishda "Cultural Immersion" (madaniy sho'ng'ish) usuli qo'llaniladi. Ushbu usulda o'quvchilar ingliz tilida muloqot qilish bilan birga, ingliz madaniyatiga oid turli tadbirlarda ishtirok etadilar. Masalan, "British Tea Party" tadbiri orqali o'quvchilar inglizlarning choy ichish odatlari, ularning tarixiy va madaniy ahamiyati bilan tanishadilar. Bu usul o'quvchilarning madaniy idrokini oshirish bilan birga, ularning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini ham kuchaytiradi [9].

Bundan tashqari, Samarqand davlat chet tillar institutida o'qituvchilar dars jarayonida o'zbek va chet el madaniyatlarini taqqoslash usulidan foydalanadilar. Masalan, o'zbek va ingliz madaniyatidagi to'y marosimlari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki madaniy tafovutlarni ham o'rganadilar. Ushbu yondashuv o'quvchilarning interkultural kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [7].

Tadqiqot davomida Toshkent shahridagi 5 ta maktabda o'tkazilgan tajriba darslari natijalari tahlil qilindi. Ushbu darslarda madaniy tushunchalarni o'rgatish uchun quyidagi usullar qo'llanildi:

Vizual materiallardan foydalanish: O'quvchilarga turli mamlakatlarning madaniyatiga oid videolar va rasmlar namoyish etildi. Masalan, AQSHdagi Rojdestvo bayrami va O'zbekistondagi Navro'z bayrami o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilindi. Natijada, o'quvchilarning 80 foizi ushbu mavzuni o'zlashtirishda yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Madaniy o'yinlar: O'quvchilar bilan "Guess the Culture" (Madaniyatni toping) o'yini o'tkazildi. Ushbu o'yinda o'quvchilarga turli mamlakatlarga oid madaniy belgilar (milliy kiyimlar, taomlar, bayramlar) ko'rsatilgan va ular qaysi madaniyatga tegishli ekanligini aniqlashlari kerak edi. Ushbu usul o'quvchilarning madaniy bilimlarini oshirishda samarali bo'ldi.

Madaniy hikoyalar: O'quvchilarga turli mamlakatlarning madaniyatiga oid qisqa hikoyalar o'qib berildi. Masalan, ingliz tilida "The Legend of King Arthur" (Qirol Artur afsonasi) hikoyasi o'qib berilib, uning madaniy ahamiyati tahlil qilindi. Ushbu usul o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini 70 foizga oshirdi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, madaniy tushunchalarni o'rgatish usullari o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajribalar va mahalliy yondoshuvlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, madaniy elementlarni dars jarayoniga kiritish o'quvchilarning nafaqat lingvistik, balki interkultural kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, madaniy tushunchalarni o'rgatishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, madaniy elementlarni o'z ichiga olgan darslar o'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasini 60-80 foizga oshiradi. Bu esa madaniy yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu sababli, o'qituvchilar dars jarayonida madaniy materiallardan keng foydalanishlari va o'quvchilarning madaniy idrokini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til o'rgatishda madaniy tushunchalarni yetkazish usullari kashfiyot va innovatsiyalar bilan to'la jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniy kontekstning integratsiyasi o'quvchilarning til bilimlarini mustahkamlash va ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda sezilarli ahamiyatga ega. O'qituvchilar tomonidan aniq misollar, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar yordamida darslarni boyitish

o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning intellektual va madaniy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Maqolada ilgari surilgan metodik yondoshuvlar va amaliy tajribalar til o'rgatish jarayonida madaniyatning o'rni va ahamiyatini yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon yaratdi. Zamonaviy pedagogika tendensiyalari, interfaol darslar va innovatsion texnologiyalar yordamida madaniy tushunchalarni o'rgatish samaradorligi oshib bormoqda. Ushbu yondoshuv nafaqat til bilimlarini o'z ichiga oladi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va global fikrlash qobiliyatlarining kengayishiga ham turtki beradi.

Maqola o'qituvchilar, metodistlar va ta'lim siyosatini belgilovchilar uchun amaliy tavsiyalar va kelajakdagi tadqiqotlar uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi. Yangi texnologiyalarni qo'llash orqali, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik kuchaytirilishi lozim. Natijada, xalqaro miqyosda ta'lim sifati oshib, o'quvchilar global maydonda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umuman olganda, til o'rgatishda madaniy tushunchalarni yetkazish usullari zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan deb xulosa qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.
2. Johnson, M. (2005). Cultural Dimensions in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Kramsch, C. & Byram, M. (2000). Cross-cultural Approaches in Language Education. Oxford: Oxford University Press.
4. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
5. Masudov, A. (2015). Til va madaniyat: Zamonaviy ta'limda yondoshuvlar. Toshkent: O'zbekiston Pedagogika Nashriyoti.
6. Pearson, J. (2008). Integrating Culture in Language Curriculum. New York: Routledge.
7. Rahmonov, S. (2017). O'zbek til o'rgatishida madaniy yondoshuvlar. Samarqand: Samarqand Universiteti Press.
8. Smith, R. (2010). Global Perspectives in Language Education. London: Sage Publications.
9. Valieva, N. (2012). Intercultural Communication in Language Teaching. Moscow: Progress Publishers.



UDK:373.3:37:02:39

Almira NEMATJONOVA,
NamDU professori, f.f.d
Xayrixon RAXMATOVA,
Xalqaro Nordik universiteti magistranti
E-mail: nematjonova@gmail.com

Tarix fanlari nomzodi A.R.Raxmatullayeva taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqola boshlang'ich sinif o'quvchilarini tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an'alarimizga qadriyatlarimizga hurmat, vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashni o'rganadi.

Kalit so'zlar: O'quvchilar, xalq og'zaki ijodi, xalq odobnomasi, xalq pedagogikasi, madaniy qadriyatlar, madaniy me'ros, ananalar, san'at, adabiyot, doston, qo'shiq, topishmoq, ertak.

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ОБРАЗОВАНИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В данной статье речь идет о роли народного творчества в воспитании младших школьников. Он учится воспитывать в обществе высокие нравственные качества, воспитывать молодежь в духе уважения к нашему богатому культурному наследию, жизненным традициям, нашим ценностям, любви к Родине, верности идеалам независимости.

Ключевые слова: Учащиеся, фольклор, народный этикет, народная педагогика, культурные ценности, культурное наследие, традиции, искусство, литература, эпос, песня, загадка, сказка.

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF FOLK ORAL ART IN THE EDUCATION OF PRIMARY STUDENTS

Annotation

This article is about the role of folk art in the education of primary school students. He learns to cultivate high moral qualities in society, to educate young people in the spirit of respect for our rich cultural heritage, lifelong traditions, our values, love for the motherland, and loyalty to the ideals of independence.

Key words: Pupils, folklore, folk etiquette, folk pedagogy, cultural values, cultural heritage, traditions, art, literature, epic, song, riddle, fairy tale.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali usullarini ishlash va ularni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an'alarimizga qadriyatlarimizga hurmat, vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha isloxlarning bosh omilidir.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab-mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir qiladi. Umum ta'lim maktab o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, umrboqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda sinfdan va maktabdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarining samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib, joriy etishdir. Zero, bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, hoxishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, unda dasturning rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, hayot bilan bog'liqligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda, dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarning nechog'li ahamiyatga molik ekanligi, inson hayotidagi ahamiyati, hayotdagi pok, vijdonan, insoniylik ko'zi bilan qarashga o'rgatish, xulosa chiqarish, o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xalqimiz o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros yaratgan. Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Xalq og'zaki ijodiyoti asrlar bo'yi mehnat jarayonida insonning orzusi negizida shakllanib borgan barkamol insonga qaratilgan xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida, ya'ni ertak, doston, qo'shiq, topishmoq, tez aytish, masal, matal, maqol, rivoyat va hikoyatlarida o'z aksini topgan. Xalq og'zaki ijodiyoti asta-sekin keng tus olib, rivojlanib borgan. Shu zaylda insonlarda pedagogik madaniyat va merosga ixlos, intilish vujudga kelgan hamda unga amal qilina boshlangan.

O'zbek xalq pedagogikasi» qamrovi nihoyatda keng, bag'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalq paydo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi. Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plangan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi. Ilk bor yaratilayotgan «O'zbek xalq pedagogikasi» da dono xalqimizning ta'lim tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlari va uning ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas Qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad Rasulullohning muborak hadisi shariflariga suyangan holda yoritish mo'ljallangan. Tadqiqotda Oллоhning ilohiy mo'jizasi —hayot sarvari Insonning ona qornida paydo bo'lishidan tortib, to tug'ilganiga qadar, ilk tarbiyasidan tortib, to voyaga yetguncha

hamda oila qurgunga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo'lgan axloqiy, aqliy, estetik mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek jismoniy chiniquish bilan bog'liq o'yinlar, xalq pedagogik an'analarning hozirgi zamon yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o'ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag'oyat dolzarb mavzularni yoritishga ham harakat qilinadi.

Tahlil va natijalar. Shaxsning eng jadal rivojlanishi maktabgacha yoshda sodir bo'ladi. Bu davrda bolani o'z xalqi bilan ko'rinmas tarzda bog'laydigan his-tuyg'ular va xarakter xususiyatlari rivojlana boshlaydi. Bu bog'lanishning ildizlari xalq tili, qo'shiqlari, musiqalari, o'yinlari, kichik bir odamning o'z ona yurti tabiatidan oladigan taassurotlarida, o'zi yashayotgan xalqning kundalik turmushi, urf-odat va an'analari tafsilotlaridir. Xalq ijodiyoti pedagogik materialning bitmas-tuganmas manbai, nutq, axloqiy, estetik va vatanparvarlik tarbiyasining asoslaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda rus xalqining madaniy merosidan foydalanish va ularni o'zlashtirish unga qiziqishni shakllantiradi, pedagogik jarayonni jonlantiradi, shaxsning hissiy va axloqiy jihatlariga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Asrlar davomida yaratilgan kichik folklor shakllarining she'riy materiali voqelik bilan qo'shilib, oddiy holatda bo'lib, uni asta-sekin o'zgartirib boradi va natijada oddiy narsa va hodisalarning she'riylashuvi ularning haqiqiylikni ta'kidlab, ayni paytda oddiylikni yuksaltiradi, bola nutqini boyitadi.

Xalq madaniyatining tarbiyaviy salohiyati, A.A. Danilov, axloqning eng muhim kategoriyalari va tushunchalarining umumiy ma'nosini tushunishga yordam beradi: yaxshilik - yomonlik, saxiylik - ochko'zlik, or-nomus, hayo, burch va boshqalar. Bu yerda folklor materiali va uning axloqiy mohiyatiga ustuvor ahamiyat beriladi. Rus madaniyatining keng va boy dunyosiga murojaat qilish, ayniqsa, zarurdir, chunki u kichkina odamga hayot beruvchi va tozalovchi ta'sir ko'rsatadi. Shu musaffo buloqdan mast bo'lib, o'z ona xalqini ko'ngli bilan taniydi, an'analarning ma'naviy vorisi bo'ladi, demak, chinakam inson bo'lib voyaga yetadi.

Bolani axloqiy tarbiyalashda ertaklar alohida o'rin tutadi. Ular bolalarga do'stlik yovuzlikni engishga yordam berishini ko'rsatishga yordam beradi ("Qishki chorak"); mehribon va tinchliksevar qanday g'alaba qozonadi ("Bo'ri va etti echki"); bu yomonlik jazolanadi ("Mushuk, xo'roz va tulki", "Zayushkina Izbushka"). Ertaklardagi axloqiy qadriyatlar hayvonlar haqidagi ertaklarga qaraganda aniqroq tasvirlangan. Ijobiy qahramonlar, qoida tariqasida, mardlik, jasorat, maqsadlarga erishishdagi qat'iyatlilik, go'zallik, maftunkor to'g'ridan-to'g'rilik, halollik va xalq oldida eng yuqori qadriyatga ega bo'lgan boshqa jismoniy va axloqiy fazilatlariga ega. Qizlar uchun bu qizil qiz (aqlli, hunarmand...), o'g'il bolalar uchun esa yaxshi sherik (jasur, kuchli, halol, mehribon, mehnatkash, Vatanni sevuvchi). Bola uchun ideal - bu o'z harakatlari va harakatlarini ideal bilan taqqoslab, intiladigan uzoq istiqboldir. Bolalikda erishilgan ideal ko'p jihatdan uni shaxs sifatida belgilaydi. Ertakda bolalarga to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar berilmaydi ("Ota-onani eshit", "Kattalarni hurmat qil", "Uydan ruxsatsiz chiqma" kabi), lekin

uning mazmunida har doim ular asta-sekin idrok etadigan, ertak matniga qayta-qayta qaytadigan saboq mavjud. Axloqiy tarbiya xalq ertaklarining barcha turlari orqali mumkin, chunki axloq dastlab ularning syujetlarida singib ketgan.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ertaklardan bolalarga hayot xavfsizligi asoslarini o'rgatish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin. Bolalar ertak haqida mulohaza yuritib, ijobiy va salbiy belgilarni aniqlashni va ularning harakatlarini to'g'ri baholashni o'rganadilar. Ular qahramonlarning qaysi biri yomon ekanligini, aldangan va xafa bo'lganlarga qanday yordam berishni, uni qanday himoya qilishni bilishadi. Bolalar mo'rt va zaif psixikaga ega va ertaklar bizga hayotdagi salbiy narsalar haqida aytib berish va ma'naviy va hissiy zararlarsiz zamonaviy voqelik bilan parallellik qilish imkonini beradigan universal vositadir.

Axloqiy tarbiyaning vazifalaridan biri Vatanga muhabbatni tarbiyalashdir. Xalq og'zaki ijodi asarlari vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ta'sir qiluvchi alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalq ijodiyoti bolalar uchun ochiq va qiziqarli bo'lgan o'ziga xos tasvir va ranglarni o'z ichiga oladi. Xalq amaliy san'ati asarlari jamiyat hayotining turli jabhalariga ijobiy, hissiy munosabatni shakllantirish va o'z ona yurtiga muhabbatni tarbiyalashning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin: agar xalq amaliy san'ati bilan tanishish maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyat hayotining hodisalari bilan tanishtirishning umumiy tizimining ajralmas qismi bo'lsa; vatanparvarlik tuyg'ulari tamoyillarini rivojlantirishga ko'proq yordam beradigan xalq amaliy san'ati asarlari tanlab olingan bo'lsa; agar bolalarda turli xalqlar ijodida muayyan o'ziga xos va umumiy xususiyatlarni farqlash qobiliyati rivojlangan bo'lsa.

Bolalarni sehrli va qahramonlik ertaklari bilan tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Bu ertaklarning g'oyaviy mazmuni - qahramonlarning o'z ona yurtini, o'z xalqini yovuzlik, zo'ravonlik, dushmanlar va yot bosqinchilardan ozod qilish yo'lidagi jasoratlari vatanparvarlik g'oyalarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bolalarda xalq amaliy san'atining turli namunalari qiziqishning paydo bo'lishi o'z ona yurtiga, uning tarixiga, tabiatiga, xalq mehnatiga muhabbat tuyg'usining paydo bo'lishining ko'rsatkichi sifatida ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Bolalarning topqirligini tarbiyalash va zehni o'tkirlashtirishda, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda topishmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'z xususiyatiga ko'ra topishmoq ikki va undan ortiq bolalar o'rtasida mustaqil fikrlash yo'li bilan, qizg'in savol-javob usulida, tortishuvlar, bahslar orqali olib boriladi.

Topishmoq bolalarni tobora ko'proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi.

Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun ham ular bola tarbiyasida, xususan axloq va odobiga ijobiy ta'sir etishda samarali ta'sir ko'rsatishga qodir. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli va meyorida foydalanib yondoshish oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga yaqindan yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ismoilov Z. "Tarbiyaviy ish metodikasi" Toshkent.: "Istiqlol" 2003
2. Mirtursunov Z. «Xalq pedagogikasi». T.1994 yil.
3. Mo'yidinov va boshqalar. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. – T.: Fan nashriyoti, 2006.
4. Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya darslik. Toshkent, 2022,229 b.
5. Qambarov M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik komponentlarini shakllantirish//NamDU Ilmiy axborotnomasi - Namangan, 2021-y. №11.B.681-686.6.
6. No'monov T. va boshqalar. Maqol va hikmatlar. "Ona tilimiz duru javohiridir". – Namangan, 2013.
7. Xoshimov K., Safo Ochil. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 2000 yil.



UDK:004.7.17.316.7

Sobirjon NIYAZOV,

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: niyazov-s @gmail.ru

Shahrisabz davlat pedagogika institute professor B.Omonov taqrizi asosida

EKOESTETIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarda ekoestetik tafakkurni shakllantirishning regulativ imkoniyatlari falsafiy tahlil qilingan. Bunda ekoestetik tafakkur hodisasi, uni shakllantiruvchi obyektiv va subyektiv omillar, bundan tashqari ekoestetik tafakkurning individuallik jihatlari ochib berilgan. Maqoladagi eng muhim jihatlardan biri unda ekoestetik tafakkurning dunyoda sodir bo'layotgan global ekologik muammolarni hal etishdagi regulativ, boshqaruv imkoniyatlari va ushbu imkoniyatlardan foydalanish istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ekoestetik tafakkur, regulatsiya, obyektiv va subyektiv omillar, individuallik, ekologiya, go'zallik, nafosat, estetika, globallashuv, boshqaruv, badiiy obraz, dunyoni estetik o'zlashtirish.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОГО ОБЗОРА

Аннотация

В статье осуществляется философский анализ формирования экоэстетического мышления и ее регулятивные возможности. Изучается экоэстетическое мышление как социально-философское явления, а также объективные и субъективные факторы которые формируют экоэстетическое мышления. Кроме того раскрывается индивидуальные аспекты экоэстетического мышления. Один из важных моментов в статье анализировалась регулятивные возможности экоэстетического мышления в решении глобальных экологических проблем.

Ключевые слова: Экоэстетическое мышление, регуляция, объективные и субъективные факторы, индивидуальность, экология, красота, прекрасное, эстетика, глобализация, управление, художественный образ, эстетическое усвоивание мира.

POSSIBILITIES AND PROSPECTS OF FORMING ECOESTHETIC REVIEW.

Annotation

The article provides a philosophical analysis of the formation of eco aesthetic thinking and its regulatory capabilities. Eco-aesthetic thinking is studied as a social philosophical phenomenon. As well as objective and subjective factors form eco aesthetic thinking. In addition, individual aspects of eco aesthetic thinking are revealed. One of the important points in the article analyzes the regulatory capabilities of eco aesthetic thinking in solving global environmental issues.

Key words: Eco aesthetic thinking, regulatory, objective and subjective factors, individualy, ecology, beauty, aesthetics, globalization, rule, artistic, aesthetic learning of the world.

Kirish. Jamiyat ekologik ongi va madaniyati asosida tabiatga estetik munosabatni shakllantirish murakkab ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Bunda bir tomondan, biosfera tabiiy ekologik muvozanatni tiklashga doir tarixiy tajribalarni umumlashtirib, tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish amaliy faoliyatini tashkillashtirish, ikkinchi tomondan, tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni realistik badiiy obrazlarda ifodalash va uni ommaga yetkazib berish usul-vositalaridan ijodiy foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bugungi kunda global ahamiyatga ega bo'lgan ekoestetik tafakkurni shakllantirish va uning regulativ imkoniyatlaridan oqilona foydalanish muammolarini falsafiy tahlilini amalga oshiramiz.

Ekologik voqelikni estetik idrok qilish va badiiy ifodalashdan iborat ma'naviy hodisasi, tabiat muhofazasining eng umumiy va obyektiv qonuniyatlarini namoyon qiladi. Bu qonuniyat, o'z navbatida, "tabiat-jamiyat-inson-san'at" tizimi munosabati yo'nalishlarining ekologik yoki antiekologik xarakterini belgilab berishi bilan san'atning ekologik borliqqa ta'siridagi subyektiv omil maqomini, vujudga kelishining obyektivligini hamda, funksiyalarining yaxlitligini ifodalaydi.

Shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni shakllantirishga ta'siri, ularning barcha sohalarini uchun universalligini, maqsadga muvofiqligini, imkoniyati realligini ta'minlaydi. Ularning funksional rolini

aniqlash uchun bir tomondan, estetikaning tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga ta'sir yo'nalishlarini, ikkinchi tomondan, ekoestetik qadriyatlarini yaratish usullarini va vositalarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi. M.A.Vostrikova, R.S.Gaysina, YE.V.Luneva asarlarida ekologik vaziyatda yuz berayotgan o'zgarishlar va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zaruriyati, A.Kumar, YE.V.Matveyeva, A.V.Karanda asarlarida xalqaro, mintaqaviy va milliy ekologik munosabatlar xarakteridagi o'zgarishlar. Umuman, ekologik muammolarga optimistik, pessimistik, skeptik, realistik, fatalistik va boshqa yondashuvlar san'at asarlarida, falsafiy qarashlarda hilma-xil munosabatlarni keltirib chiqargan. Bu masala hind yozuvchisi Robindranat Tagorning "Adabiyotning mazmuni" nomli maqolasida umumlashtirilib, "tashqi dunyo bizning ongimizga ta'sir qilib, unda boshqa dunyoni vujudga keltiradi. Bu dunyo tashqi dunyoda hosil bo'lgan bo'yoqlar, obrazlar, tovushlar va boshqalarga liq to'la bo'lish bilan birga, bizning yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tushunchalarimiz ham, qo'rqish, ajablanishlarimiz ham, qayg'u va shodliklarimiz ham, u bilan chambarchas bog'liq, uning turli-tuman tashqi ifodasi ma'naviy dunyomizdagi xazinamizga bog'liqlidir [1;36]", deb ta'kidlagan edi.

Tabiatdagi uyg'unlik, tabiat go'zalligi, unga estetik munosabatni ifodalash mohiyatini ham, mazmunini ham, shakllarini ham, usul-vositalarini ham belgilab beradi. Chunki ekologik ong va madaniyatning tabiatga estetik munosabatni shakllantirishdagi funksional roli obyektiv voqelikni emosional-hissiy aks ettirishi bilan bog'liq holda ijtimoiy xarakter kasb etadi. "Bu hodisani badiiy adabiyot yoki monumental san'at misolida aniqlashtiradigan bo'lsak, ular – inson tomonidan tabiat va narsalarning ijodiy o'zlashtirib, ideallashtirilgan hamda "moddiylashgan" obrazlar shaklidagi obyektivlashgan inson ruhidir [1]".

Shuni alohida qayd etish kerakki, tabiatdagi uyg'unlik, ekologik muvozanat san'atning doimiy ifodalash va badiiy o'zgartirish obyekti, predmeti bo'lib kelgan. YA'ni ijodkor tomonidan obyekt badiiy "o'zgartirish", qayta yaratish – san'at estetik funksiyasining bilvositaligini ko'rsatib turadi. Lekin, shaxsning ekologik ongi va madaniyati asosida tabiatga estetik ta'sir jarayonida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishdagi roli bevositaligi, uning estetik ong bilan zaruriy, obyektiv aloqadorligini izohlashga asos bo'ladi.

Tabiatga estetik munosabatning regulativ funksiyasi, tabiatni muhofaza qilish orqali insoniyat hayotini va kelajagini saqlab qolishga yo'naltirilgan ma'naviy-ruhiy salohiyatni, intellektual potentsialni "moddiylashtirish" hamda reallashtirishdan iborat imkoniyatdir. Bundan tashqari, "ekologik ong va madaniyat ham, ularni estetik "reallashtirish" faoliyati ham, ushbu faoliyatning usul-vositallari ham, ijtimoiy amaliyotning dinamik rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadi [2]". YA'ni, shaxsning ekoestetik yo'nalishdagi ijtimoiy-tarixiy faoliyati, mohiyati va funksional ahamiyatiga ko'ra, insoniyat hayotini, insoniyat sivilizatsiyasi istiqbollari ta'minlash ehtiyojini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqanligi uchun ham, obyektiv hodisa hisoblanadi.

Bu obyektiv qonuniyatning amal qilishi, inson tafakkur tarzi, inson omilining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Lekin har qanday vaziyatda va holatda ham, uning obyektivligi subyektivlik jihatlarini istisno qilmaydi, aksincha taqozo qiladi. Bundan tashqari, muayyan tarixiy davrda, ayniqsa, ekologik muammolar keskinlashuvi va globallashtirish sharoitida shaxs ekologik ongi va madaniyatiga asoslangan har qanday faoliyat, shu jumladan tabiatga estetik munosabat ham insoniyatning tabiat muhofazasini oqilona tashkillashtirishga xizmat qilishini asoslash yaxlit-tizimli tadqiqotlarga muhtoj.

Bundan tashqari, shaxs ekologik ongining tabiatni muhofaza qilish faoliyatini, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish orqali tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishdan iborat regulativ funksiyasini: 1) tabiatga estetik munosabat ekologik amaliyotni ideallashtirilgan badiiy obrazlarda aks ettirishning usullari va vositalarini takomillashtirish; 2) ekologiya tarixida yaratilgan tarixiy merosni, ijtimoiy-ekologik tajribalarni badiiy obrazlarda umumlashtirish; 3) ekologik estetik qadriyatlarni saralash, an'analarini saqlab, ijodiy rivjlantirib yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun ekologik ong va madaniyatni "estetik borliqqa" ko'chirishning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillarini uyg'unlashtiruvchi imkoniyatlarni qidirib topish hamda reallashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda asosiy muammo, fikrimizcha, ekologik ong va madaniyatning estetik tafakkur usul va vositalari rivojlanishini ta'minlaydigan inson omili intellektual potentsiali, maqomini, xarakterini reallikka mos o'zgartirishdan iborat. Zero, hozirgi davr falsafasi va ekoestetikaga doir maxsus adabiyotlarda inson tomonidan tabiatni badiiy obrazlarda o'zgartirish va o'zlashtirish jarayonini muayyan ekologik makonda o'z-o'zini shaxs sifatida anglash imkoniyati tarzida e'tirof etilishi ham tasodifiy emas.

Tabiatga estetik munosabat, jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi sifatida, ekologik axborotni uning subyektlari tomonidan obyektlariga yetkazib berish ehtiyojiga asoslanadi. Bunda uzatilayotgan axborot mazmunan hamda shaklan ekologik borliqning mavjud holatiga va rivojlanish tendensiyasiga mutanosibligi alohida ahamiyatga ega.

Umuman, "shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabat xarakteriga va yo'nalishlariga ta'siri jarayonida badiiy axborot, san'at janrlari va turlarining maxsus funksional yo'nalishlari va xususiyatlari shakllanadi [3]". Ularning ekologik voqelikka mutanosibligini belgilaydigan universal mezon insonning tabiatga estetik munosabatini badiiy obrazlarda, san'at asarlarida hissiy-emotsional ifodalash va uni uzatish usullari, vositalari samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga, shaxs ekologik ongi va madaniyati fenomenining tabiatga estetik munosabati bir tomondan individual xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy-ekologik mohiyatini badiiy obrazlarda ifodalaydi va maxsus usullar, vositalar orqali ma'naviy hayot sohalariga aylantiradi. Ikkinchi tomondan esa, shaxs ekologik ongi, madaniyati, estetik tajriba asosida, dunyoning ekologik manzarasini "badiiy o'zgartirishi" bilan, uning funksional ahamiyatini namoyon qiladi va asosiy vazifalarini belgilab beradi.

Tahlil va natijalar. "Shaxs ekologik ong va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni shakllantirishiga ta'siri murakkab dialektik jarayon bo'lib, insoniyatning tabiatni muhofaza qilish tarixiy tajribasini umumlashtiruvchi badiiy obrazlarda namoyon bo'ladi [4]". unda badiiy obrazlarning real ekologik voqelikka mutanosibligi, uning nisbiy mustaqilligini inkor qilmaydi, aksincha obyekt va subyektning funksional uyg'unligini namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ekologik ong va madaniyatning estetiklashuvi boshqa ijtimoiy ong shakllarini ham tabiatni muhofaza qilish maqsad-manfaatlari doirasida birlashtiradi. O'z navbatida, ekologik borliqni estetik idrok qilishning ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo'lib, kelajakda ham o'z mavqeini yo'qotmaydi.

Ekologik ong darajalarining tabiatga estetik munosabatni shakllantirish maqsadi, imkoniyati, vositalari va natijasi o'rtasida dialektik ziddiyat mavjud, ya'ni, tabiatga estetik munosabat natijasida ekologik vaziyatni, muammoni badiiy obrazlarda nisbatan mukammal aks ettirishi mumkin, lekin ekologik ongning barcha qirralarini to'liq aks ettirib bo'lmaydi. Chunki ekologik ongning individualligi aniq shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lganligidan ijtimoiylik chegaralari g'oyat nisbiy, o'zgaruvchan va shartlidir.

Ekologik ongning shaxs estetik tajribasi subyektiga va obyektiga, madaniyat shakliga aylanishi jarayonida konservativ – eskilik bilan progressiv – yangilik, real voqelik bilan badiiy haqiqat ilmiy nazariya bilan ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi ziddiyat doimiydir. Shu bilan birga, shaxs ekologik ong va madaniyatini estetik usul-vositalar, badiiy adabiyot janrlari va san'at shakllari bilan ommaga transformatsiya qilish orqali ongda shakllangan psixologik aqidalarni o'zgartirish muayyan vaqtga taqozo qiladi.

Tabiatga ekologik munosabatni badiiy obrazlarda ifodalashning real voqelikdan nisbiy mustaqilligi, xususan, orqada qolishi, bir tomondan, mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimning volyuntaristik g'oyaviy-mafkuraviy ta'siridan mutlaq xoli bo'la olmasligi natijasidir. Ikkinchi tomondan, ekologik ong va madaniyatning globallashtirish jarayonida milliy, hududiy qadriyatlar integratsiyasida birlashtiruvchi subyekt va integratsiyalashuvchi obyekt o'rtasidagi muayyan ziddiyatlarni bartaraf qilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi ziddiyatlar kelib chiqadi. Umuman, ijtimoiy hayot ziddiyatlari tizimining ekologik ongga ham, uni estetik ifodalash usul-vositallari rivojlanishiga ham bevosita ta'sir qilishini

boshqarish ushbu sohadagi manfaatlarni uyg'unlashtirishga bog'liqdir.

Jamiyat ekologik borlig'idagi ushbu ko'rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf qilish zaruriyati ekologik ong va madaniyatning nafaqat tabiatga estetik munosabatini shakllantirishga, balki uning boshqa ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirishga ham bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, "ekologik ong va madaniyatning ijtimoiy ong shakllarini integratsiyalashtiruvchi imkoniyatini, aynan uning o'zini rivojlantiruvchi imkoniyati tarzida olib qarash lozim [5]". Chunki ekologik ong estetiklashuvi kuchayishi bilan, boshqa ijtimoiy ong shakllari ekologiyalashuvining yangi yo'nalishlari, masalan, ekologik-huquqiy ong, ekologik-iqtisodiy ong, ekologik-siyosiy ong va boshqa ong shakllari va ularning institutsional tizimi paydo bo'lmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, ekologik ong va madaniyatni estetik vositalar orqali ifodalashga ta'sir ko'rsatuvchi subyektiv omillarning yaxlitligini, tizimlilikini ta'minlab beradi. Zero, ekologik ong individualligi va ijtimoiyligini, ekologik madaniyatning moddiyligi va ma'naviyligini ifodalashda badiiy-estetik obrazlar ham, texnika, texnologiya, dizayn estetikasi ham ijtimoiy ong shakllari ekologiyalashuvini baholashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki insonning tabiatni muhofaza qilishi bilan bog'liq emotsional-ruhiy, ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini qondirmaydigan estetik qadriyatlar har qanday ijtimoiy ong va faoliyatdan uzoqdir. Shuning uchun ham tabiatga estetik munosabat natijasini ijtimoiy ong shakllari ekologiyalashish yo'nalishida tahlil qilish dunyoning ekologik manzarasi haqida nisbatan to'liq tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday fan va ijtimoiy ong "dunyo ekologik manzarasi haqidagi ilmiy ta'limotlari umumiylikni ifodalaydi. Pirovard natijada, ularning integratsiyalashuvi dunyoning yaxlit ekologik manzarasini yaratadi [6]".

Jamiyat ekologik ongi va madaniyatining estetik tafakkur natijasida namoyon bo'lishi, inson ijodkorligining ma'naviy ekologik qadriyatlarni yaratish va rivojlantirish faoliyatidir. Bu faoliyat samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlarini anglash darajasiga mos keladi, chunki muayyan ehtiyojlarni qondirish, insonning

ongli faoliyati qonuniyatidir. Shuningdek, tabiatga estetik munosabat natijalarini o'zlashtirishning intensivligi ham, ko'lam ham, ularni transformatsiya qilishning usul-vositalarini rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Bu tizim elementlari o'rtasidagi funksional muvofiqlikni ta'minlash ekoestetik qadriyatlar obyektini tanlash, adekvat usul va vositalarini aniqlash, metodologik plyuralizmga asoslanish, rivojlanish tendensiyasini va istiqbollarini belgilash kabi manfaatlardan kelib chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, ekologik ongning estetiklashuvi tabiatning badiiy obrazlarini yaratish ehtiyoji va uni o'zlashtirish imkoniyatlari bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, bunday bog'liqlik, umuman dunyo ekologik manzarasining yaxlitligini, xususan uning global ekoestetik maqsadga muvofiq ekanligini ta'minlaydi.

Jamiyatning tabiatga estetik munosabat ehtiyojlari va manfaatlari ekologik ong va madaniyat rivojlanishining harakatlantiruvchi motivi va asosiy harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Shunga ko'ra, shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni belgilash imkoniyati har qanday tarixiy davrda jamiyat tomonidan belgilab berilgan aniq vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Shu sababdan ham, uning vazifalari ekologik muammolarning ustuvor yo'nalishlariga mos tarzda turli davrlarda turlicha talqin qilingan.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida, ekologik borliqqa estetik munosabat, mohiyati va xarakteriga ko'ra, shaxs ekologik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyo ekologik manzarasining xaritasini, voqelik xarakterini belgilashda ekoestetik tafakkur tabiatga estetik munosabat rivojlanish tarixi va uning davrlari uchun asosiy mezon va ko'rsatkichdir. Bundan tashqari ekologik ong va madaniyatning tabiatga estetik munosabatni shakllantirish imkoniyatlari, uni ifodalash usullarini, vositalarini ham qamrab oladi. Tabiatga estetik munosabat bilan ekologik ong va madaniyat rivojlanish darajasi o'rtasida korrelyatsion bog'lanish mavjud bo'lib, biri ikkinchisining rivojlanishini rag'batlantiradi. Ekologik ongning boshqa ijtimoiy ong shakllarini integratsiyalashtiruvchi potentsiali tabiatga estetik munosabatni funksional jihatdan universalashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 368 б.
2. Ғайбуллаев Отабек. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. – Тошкент: CHASHMA PRINT, 2008. – 160 б.
3. Айматов А.Қ. Шахсининг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик онгнинг роли. Самарқанд. 2019. 245 б.
4. Мамашокиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности.: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Ташкент: 1997. – 56 с.
5. Усмонов Э. Экологик муносабатларнинг глобаллашуви // Тафаккур. – Тошкент, 2009. – №4. – Б. 15-17.
6. Қосимов А. Табиат, жамият ва рухият уйғунлиги // Имом Ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2005. – №1. – Б. 38-57.



UDK: 140.8

Sardor NORBOYEV,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: norboyevsardor@buxdpi.uz

BuxDU dotsenti, f.f.d B.Turdiyev taqrizi asosida

**DEMOKRATIK JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH OMILLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY
TAHLILI**
Annotatsiya

Mazkur maqola demokratik jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish omillarining ijtimoiy-falsafiy tahliliga bag'ishlanadi. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 09.01.2019 yildagi PF-5618-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida" 29.08.1997 yildagi 466-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorining ahamiyati tahlil etilgan. Ushbu normativ huquqiy hujjatlarda mamlakat demokratik rivojlanishi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishi, huquqiy ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojning har doimgiga nisbatan ortib borishi va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilayotganligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada huquqiy madaniyatning tarkibiy vositalari, asosiy yo'nalishlari va uni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining va islohotlarining natijalari yoritib berilgan. Rivojlanish qonunlarining Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyatni barpo etish, xalq farovonligini oshirish va huquqiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan istiqbolli islohotlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, milliy dastur, mamlakat, taraqqiyot, jamiyat, davlat, islohot, siyosat, qonun, inson huquqlari.

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В
ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ**

Аннотация

Данная статья посвящена социально-философскому анализу факторов повышения правовой культуры в демократическом обществе. Проанализировано значение Указа Президента Республики Узбекистан от 09.01.2019 г. No УП-5618 "О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе" а также Постановления Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 29.08.1997 г. No 466-I "О Национальной программе повышения правовой культуры в обществе". В этих нормативно-правовых актах освещается, что демократическое развитие страны, повышение правосознания и правовой культуры, возрастающая потребность в правовом образовании и воспитании как никогда ранее служат общественному прогрессу. Также в статье освещены структурные компоненты правовой культуры, основные направления и результаты государственной политики и реформ по её развитию. Раскрыта сущность перспективных реформ в Новом Узбекистане, направленных на построение просвещённого общества, повышение благосостояния народа и обеспечение эффективности правового воспитания в соответствии с законами развития.

Ключевые слова: Правовая культура, национальная программа, страна, развитие, общество, государство, реформа, политика, закон, права человека.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF FACTORS ENHANCING LEGAL CULTURE IN A DEMOCRATIC SOCIETY

Annotation

This article is dedicated to a socio-philosophical analysis of factors contributing to the enhancement of legal culture in a democratic society. The significance of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-5618 "On Fundamentally Improving the System of Raising Legal Awareness and Legal Culture in Society" dated 09.01.2019, and the Resolution of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan No. 466-I "On the National Program for Raising Legal Culture in Society" dated 29.08.1997 is analyzed. These normative legal documents highlight the democratic development of the country, the advancement of legal awareness and legal culture, the increasing need for legal education and upbringing compared to previous times, and how these factors serve social progress. The article also elucidates the structural elements of legal culture, its main directions, and the outcomes of state policies and reforms aimed at its development. It reveals the essence of prospective reforms in New Uzbekistan, which are directed towards establishing an enlightened society, enhancing the well-being of the people, and ensuring the effectiveness of legal education, in accordance with the laws of development.

Key words: Legal culture, national program, country, development, society, state, reform, policy, law, human rights.

Kirish. Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyatni barpo etish va buni amalga oshirish uchun avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya masalasiga e'tibor berish kundan kunga kuchayib, sayqallanib bormoqda. Sababi, bu orqali shubhasiz, huquqiy madaniyatning yuksalishi kuzatilishi va biz xohlagan ma'rifiy jamiyat yaratishimiz mumkin. Biz xohlagan ma'rifiy jamiyat huquqiy madaniyatli fuqarolardan iborat bo'lsa, yurt ravnaq topadi, mamlakat rivojlanadi. Bu bo'yicha demokratik jamiyatga asoslangan Yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilishdan oldin huquqiy madaniyat tushunchasiga ta'rif berib o'tishimizni afzal deb bildik.

"Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya

qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi"[1]. Huquqiy madaniyat - demokratik jamiyat yuksalishining muhim shartidir va shuningdek, demokratik jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish dolzarb va muhim masalalardan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz raisi, akademik Akmal Saidov ta'biri bilan aytganda: "Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola tadqiqotida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 09.01.2019 yildagi PF-5618-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni,

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida” 29.08.1997 yildagi 466-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorining ahamiyati falsafiy-nazariy yondashuv, sistemali yondashuv, ma'lumotlar tahlili, taqqoslash usuli orqali tahlil etilgan. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish omillari ham ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinib, bunda O'zbekistonning demokratik va ijtimoiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan baholandi.

Natijalar va muhokama. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” 09.01.2019 yildagi PF-5618-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni hamda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida” 29.08.1997 yildagi 466-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bugungi kunda mamlakatimizda biz xohlagan ma'rifiy va demokratik jamiyatda huquqiy madaniyatning va uning ildizi bo'lmish huquqiy ongning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan farmonga ko'ra demokratik jamiyatni qurish yo'lidagi qilinadigan ishlar quyidagicha belgilab berilgan.

“Birinchidan, “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

Ikkinchidan, “Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishtirish;

Uchinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashkilot — jamiyat” prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etish;

To'rtinchidan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi bo'yicha vazirlik va idoralar rahbarlari tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar bo'lishi ta'minlash;

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilash masalalari har doimgidan ham ko'ra ko'rilishi shart bo'lgan va bajarilishi lozim bo'lgan chora tadbirlar qilib belgilandi”[3].

“Har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi, huquqiy qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo'l qo'yilmaydigan, qonun ustuvor bo'lgan adolatli jamiyat ta'limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi” - degan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning shiddat bilan o'sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo'lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta'minlab bergan ko'plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o'rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi”[4].

Demokratik jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, taraqqiy ettirish uchun bevosita inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish va qabul qilish asnosida ularni ijrosini bekami ko'st ta'minlash muhim shartli jarayonlardan biridir. Bundan tashqari, huquqiy ta'lim masalasi ham ko'ndalang qo'yilishi kerak bo'lgan masalalardan biri. Yoshlar orasida huquqiy ta'limni rivojlantirish orqali ham huquqiy madaniyat yuksalishi mumkin. Fuqarolar aynan olgan ilmi va bilimi evaziga madaniyatini yuksaltiradi. Zero, hamma muammolarning kaliti, yechimi – ta'limda.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi bo'yicha ham demokratik jamiyatni mamlakatimizda jadallashtirish borasida ham qator ishlar qilindi va qilinyapti. Xususan, ushbu dastur bilan belgilab qo'yilgan masalalardan biri -

biz yuqorida belgilab o'tgan huquqiy ta'lim va tarbiya masalasi. Huquqiy ta'lim va tarbiyani yuksaltirish dasturning alohida yo'nalishlaridan biridir. Unga ko'ra, huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirishning asosiy choralari quyidagilardan iborat:

“Birinchidan, davlat huquqiy tarbiya va ta'limning asosiy tashkilotchisi sifatida ta'lim va tarbiyaning usullari va vositalarini, bu faoliyat bilan bevosita shug'ullanayotgan muassasalar tuzilmasini muntazam ravishda takomillashtirib boradi, huquqiy tarbiya va huquqiy ta'limning muqobil tizimlarini shakllantirishga yordam beradi;

Ikkinchidan, aholi huquqiy madaniyatini oshirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash; ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, kechiktirib bo'lmaydigan va istiqboldagi vazifalarni aniqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va yuristlar jamoat birlashmalari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan bo'lib qolishiga erishish;

Uchinchidan, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning ularni maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim maktablarida olib borilishini nazarda tutuvchi normativ va o'quv-uslubiy mezonlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda yangi o'quv fanlarini joriy qilish;

To'rtinchidan, ta'lim va tarbiya muassasalariga daxldor bo'lmagan shaxslarning (ishchilar, xizmatchilar, uy bekalar, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy tarbiyasi va huquqiy ta'limi tizimini takomillashtirish. Bu ishga davlat yuridik o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, huquqshunos olimlar va boshqalarni jalb qilish;

Beshinchidan, yuridik o'quv yurtlarining moddiy-texnika negizini mustahkamlash.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, siyosiy-huquqiy tizimni takomillashtirish sharoitlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yangi vositalari va usullarini joriy etish lozim”[5].

“Bundan tashqari huquqiy targ'ibot-tashviqot olib borish ishlari ham bir muncha yaxshilangan. Mahallalarda, joylarda malakali huquqshunoslar tomonidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Qonun ijodkorligi faoliyatiga aholining keng qatlamini jalb etish maqsadida “Telegram” messengeridagi “Huquqiy axborot” kanalida maxsus “Qonunchilikka taklif” boti ishga tushirilgan. Mazkur bot orqali fuqarolardan minglab takliflar kelib tushadi va ko'rib chiqilib inobatga olinadi. Ushbu loyiha Prezidentimizning “qonunlarning bevosita ijodkori xalq bo'lishi kerak”, degan so'zlarining amalga tadbiriq etilishining ko'rinishidir. Huquqiy targ'ibot tashviqot sohasini yaxshilashga xususiy hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlar modimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun “Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi” ko'krak nishoni ta'sis etildi. Yana huquqiy mavzularni tizimli va tahliliy yoritib berish hamda aholini qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga doir teleko'rsatuvlar ko'lami kengaytirilmoqda”[6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, demokrtik jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari bevosita qabul qilinadigan qonunlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va shuningdek huquqiy ta'lim va tarbiyani jadallashtirishda namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistonda qabul qilingan davlat strategiyalari va konsepsiya, dasturlari jamiyat siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotini o'zgartirib, insonlar siyosiy tafakkurida kelajakka ishonch hissini shakllantirishda hamda biz xohlagan va xohlayotgan demokratik, ma'rifiy jamiyatni barpo etishda huquqiy madaniyatni yuksaltirish vazifasini ochiq oydin ko'rsatib berayotgani hech kimga sir emas. Islohotlar doirasida erishilayotgan yutuqlar va natijalar demokratik jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyani rivojlantirish omillarini va sabablarini isbotlab beryapti. Bu kabi ishlarning amalga oshirilishi inson huquqlarini ta'minlashga, ularning huquqiy tarbiyasini o'sishiga, qisqa qilib aytganda, inson qadrini ulug'lanishiga xizmat qilayotir.

ADABIYOTLAR

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: “Adolat”, 2018. – 286 b.

2. Saidov A. Tojimonov U. Huquq nazariyasi. Darslik. - T.: "Adolat", 2001. - 22 b.
3. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 09.01.2019 yildagi PF-5618-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>
4. <https://buxdu.uz/yangiliklar/2863/jamiyatda-huquqiy-madaniyatni-yuksaltirish-konsepsiyasi-asosida-yoshlarda-huquqiy-ong-va-odob-axloq-normalarini-shakllantirish/>
5. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida" 29.08.1997 yildagi 466-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-249352>
6. Hojiyev R.B., Muzaffarov U.I. "Huquqiy madaniyat tushunchasini vujudga kelishishi va rivojlantirishning asosiy vositalari" ilmiy maqola. – T.: "Central Asian Academic Journal of Scientific Research", ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2022. - B.198



UDK: 371.84.(9)

Xulkar PIRMATOVA,
Tashkent State Transport University Teacher of the Department of "Foreign Languages"
E-mail: justhulkar@gmail.com

PhD U.Yo 'ldoshev taqrizi asosida

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS CREATIVE ABILITIES THROUGH INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Аннотация

In this article This article analyzes the theoretical foundations of developing students' creative abilities using innovative pedagogical technologies. Creativity, that is, the ability to develop new ideas and solutions, is of great importance in the overall personal development of students and in the educational process. Innovative pedagogical technologies help to improve the quality of education through modern teaching methods, multimedia tools, Internet resources and interactive programs. Methods such as problem-based learning, cooperative learning and the use of technologies are presented as effective tools for developing students' creative thinking. Innovative technologies provide students with the opportunity to generate new ideas, solve problems in innovative ways, and develop creative solutions in collaboration. At the same time, the article pays special attention to the advantages of developing creativity in education, including an individual approach and increasing student participation.

Key words: Innovative pedagogical technologies, traditional education, traditional teaching technology, designed education, personal development, educational technology, teaching process, multimedia.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье анализируются теоретические основы развития творческих способностей учащихся с использованием инновационных педагогических технологий. Креативность, то есть способность разрабатывать новые идеи и решения, важна для общего личностного развития учащихся и образовательного процесса. Инновационные педагогические технологии способствуют повышению качества образования за счет современных методов обучения, мультимедийных средств, интернет-ресурсов и интерактивных программ. Такие методы, как проблемно-ориентированное обучение, кооперативное обучение и использование технологий, представлены как эффективные инструменты развития творческого мышления учащихся. Инновационные технологии предоставляют студентам возможности генерировать новые идеи, решать проблемы инновационными способами и разрабатывать креативные решения посредством сотрудничества. В то же время в статье особое внимание уделяется преимуществам развития креативности в образовании, включая индивидуальный подход и повышение вовлеченности учащихся.

Ключевые слова: Инновационные педагогические технологии, традиционное образование, традиционные технологии обучения, проектное образование, развитие личности, образовательные технологии, учебный процесс, мультимедиа.

INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARNI KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada Mazkur maqola innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qiladi. Kreativlik, ya'ni yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati, talabalarning umumiy shaxsiy rivojlanishida va ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Innovatsion pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'qitish metodlari, multimedia vositalari, internet resurslari va interaktiv dasturlar orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Muammoga asoslangan o'qish, kooperativ o'quv va texnologiyalardan foydalanish kabi metodlar, talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vositalar sifatida taqdim etiladi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarga yangi g'oyalar yaratish, muammolarni innovatsion usullar bilan hal qilish, hamda o'zaro hamkorlikda ijodiy yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, maqolada ta'limda kreativlikni rivojlantirishning afzalliklari, jumladan individual yondashuv va talabalar ishtirokini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, an'anaviy ta'lim, an'anaviy dars texnologiyasi, loyihalashtirilgan ta'lim, shaxsning rivojlanishi, ta'lim texnologiyasi, o'qitish jarayoni, multimedialar.

Introduction. Creativity, as a person's ability to create new ideas, solutions and visions, is an important characteristic for a student. The development of creative thinking among students can be carried out using innovative pedagogical technologies. Innovative pedagogical technologies serve to develop students' creativity by introducing new approaches, methods, tools and techniques into the teaching process. One of the pressing issues is to improve the quality of personnel training in Uzbekistan, create the necessary conditions for training highly qualified specialists based on international standards, establish close cooperation between each higher educational institution and the world's leading scientific and educational institutions, widely introduce advanced pedagogical technologies, curricula and teaching and methodological materials based on international educational standards into the educational process, and effectively use

interactive methods to develop modern professional knowledge and creative abilities of students, scientific and pedagogical personnel. In this regard, the Development Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan sets out such priority tasks as "further improvement of the system of continuing education, increasing the opportunities for quality educational services, supporting and realizing the creative and intellectual potential of the younger generation". Accordingly, the development of students' creative abilities based on interactive teaching methods is of great importance. The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev No. PQ-3151 dated July 27, 2017 "On measures to further expand the participation of sectors and branches of the economy in improving the quality of training specialists with higher education" emphasizes the need to increase attention to the process of

personnel training in higher education, and scientific research should be carried out based on the real needs of sectors of the economy. One of the most important factors in accelerating the development of society and socio-economic development is the implementation of an effective innovation policy, the introduction of new, advanced technologies and new forms of management based on the achievements of scientific and technological progress, as well as the results of major inventions.

Analysis of literature on the topic. Currently, teaching methods in modern educational conditions are experiencing a difficult period associated with changing educational goals and developing a new generation of state educational standards based on a competency-based approach. The Decree of our President Sh. Mirziyoyev No. PF-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" sets the 4th goal in the 4th direction: Increasing the level of coverage of higher education to 50 percent and improving the quality of education. On this basis, a plan was developed to increase the level of coverage of youth with higher education to 38 percent in 2022 and bring higher education to a qualitatively new level. Education is an objective process occurring in society, which has a developmental nature. The goal of education is to form a person who has the ability to independently build his own life in the process of development. It is clear that acquaintance with various options for organizing life does not solve the problem of education, since: the development of the student occurs when he himself is active, interacting in life, the nature of this activity is determined by the subjective free attitude of the individual, pedagogical influence directs the student to a certain attitude to social values, the entire process of interaction between the teacher and the student should be carried out at the level of modern culture and in accordance with the purpose of education. Therefore, in order to determine the components of pedagogical technology, it is necessary to answer a number of questions:

- 1) what elements pedagogical technology consists of;
- 2) what is their necessary and sufficient presence;
- 3) how are they related;
- 4) what are the general and specific tasks of each element.

The basis of education should not be subjects, but methods of thinking and acting. First of all, one of the most important tasks of each teacher in further improving the knowledge of the younger generation is to correctly approach the younger generation, taking into account its worldview, and to harmonize the concepts of love for the profession and love for the country, and to further improve, organize and stimulate their knowledge. Nowadays, it is advisable to combine these concepts with social and humanitarian sciences in order to strengthen the necessary knowledge and skills in young students, as well as to correctly direct their activities in the profession. Based on the experience of using innovative methods in pedagogical activity, some of their advantages can be distinguished: they help teach students the most active methods of mastering innovative knowledge; provide an opportunity to develop a high level of personal social activity; create conditions for students to acquire knowledge in the educational process; stimulate students' creative activity; We believe that ensuring the application of theoretical knowledge in practice will help to form not only knowledge, skills and qualifications in science, but also an active life position.

Let us briefly discuss the traditional methods and techniques that have been used by our teachers so far and are still used by most teachers in the classroom:

The quality of the educational process depends on many factors, among which the methods and techniques of teaching are of decisive importance. Methods and techniques contribute to the conscious and deep assimilation of knowledge by students, the development of independence and creative activity in them. When choosing teaching methods and techniques, the nature of the subject being taught, the characteristics of the students and their youth, the level of preparation, etc. are taken into account.

The choice of teaching methods and techniques depends on the problem that the teacher intends to solve in the lesson. That is, if one method and technique is used to present new material, then another method is used to consolidate it, and another method is used to generalize the topic. For this, it is necessary to use a

system of methods aimed not at presenting ready-made knowledge to students, memorizing and repeating it, but at independently mastering knowledge and skills by students in the process of active cognition. Some traditional teaching techniques and methods are one of the reasons for this loss of interest. In order to develop students' interest in learning science, it is necessary to use traditional teaching methods using methods that contribute to motivating students to practical and intellectual activity. formation and development of cognitive interest and abilities; development of creative thinking, as well as elements of innovative technologies (problem-based, student-oriented elements of education, information and communication technologies, etc). The success of the lesson and the solidity of knowledge are directly proportional to the level of development of students' cognitive interest in science. The interaction between the teacher and the students in a higher sense means more than just mutual influence on each other. In order to achieve mutual communication, the interlocutors must perceive each other as equal subjects of this dialogue, which is not very common in practice in the "teacher-student" system.

Research methodology. The technology for assessing students' educational achievements was developed within the framework of pedagogical experiments, and the goal of the technology is to ensure the implementation of the principles of student-centered education development at the control stage.

The main tasks of modern pedagogical technology:

-to determine how the student acquires the skills to use knowledge, that is, to what extent the training corresponds to modern educational goals;

-to develop the student's ability to independently evaluate the results of his own actions, self-control, find and correct his own mistakes;

Such technologies allow us to move to a qualitatively new stage of education. The teacher provides information about the topic and objectives of the lesson, which does not contribute to the emergence of cognitive interest in students. The search for a solution is reduced to the presentation of ready-made knowledge, that is, explanations of the material that do not guarantee understanding of the material by most groups.

The main task of the carrier of "objective knowledge" that the teacher is trying to convey to the student today is to encourage students to show initiative and independence in discovering new knowledge, to search for ways to apply this knowledge in solving various problematic issues. At the stage of finding a solution, the teacher encourages students to put forward and test hypotheses, that is, to ensure the "discovery" of knowledge. Thus, modern pedagogical technologies are of great importance in solving the problem of creating a new developing educational environment.

Analysis and results. A systematic approach to education as an important feature of the concept of "pedagogical technology" is reflected in the UNESCO definition, according to which pedagogical technology is a systematic method of creating, applying and defining the entire process of teaching and learning, which represents the consideration of technical and human resources and their interaction, aimed at optimizing forms of education. Any pedagogical technology must meet the basic methodological requirements. Conceptuality - each pedagogical technology must be oriented towards a specific scientific concept, including the philosophical, psychological, didactic and socio-pedagogical substantiation of achieving educational goals. Consistency - pedagogical technology must have all the properties of a system: the logic of the process, the interconnection of all its parts, integrity. Controllability implies the ability to set diagnostic goals, plan, design the educational process, step-by-step diagnostics, change tools and methods for correcting results. Efficiency - modern pedagogical technologies must be competitive, effective in terms of results and cost-effective, and guarantee the achievement of a certain educational standard.

Conclusions and suggestions. Today, we need to master advanced technologies in the field of pedagogy more broadly and deeply, and redevelop them in accordance with our region. The concept of pedagogical technology is currently given various definitions. The important thing is that pedagogical technology is

a process that represents the achievement of the intended goal as a guaranteed result. Pedagogical technology and educational technology are often used synonymously, since the modern interpretation of the term “education” also includes the upbringing of the personality, giving it a certain look. Summarizing the above, it should be noted that in a general sense, the technologization of the pedagogical process is its development

trend, which is aimed at increasing the effectiveness of the educational process, ensuring that students achieve the planned educational results. Today, in order to successfully conduct a modern lesson, you need to understand your position in a new way, understand why changes are needed, and first of all, change yourself.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida “O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/>
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-sonli qarori.
3. Афанасева И.В. Вопросы интеграции науки и образования. Таълим технологиялари. – № 4. Тошкент, 2007. – С. 24-25.
4. Енш Э.Р. Зур Эидетик унд Интеграцион Тйпологиe, 1941. Философский энсклопедический словарь ред.-сост. Е.Ф. Губский и др, 2003. – С.128.
5. Ochilov M. “O'qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti” // “Xalq ta'limi” 1999-y, 6-son 32-35 betlar



UDK:1.123;(33.334)

Muxiddin PRIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası professorı, f.f.n
Nilufar RIZAYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
E-mai: rizayevanilufar15@gmail.com

TDIU professorı, f.f.d Z.Davronov taqrizi asosida

FEATURES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE NEW UZBEKISTAN (SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Annotation

This article explores the historical origins of the concept of small business, its essence, role, necessity in the economy, and its relevance based on socio-economic analysis. The research examines the development stages of small businesses, their contribution to economic growth and employment, as well as government support measures. The impact of small businesses on the economy is analyzed using global experience and the case of Uzbekistan, with a focus on their prospects and existing challenges.

Key words: Small business, economy, entrepreneurship, socio-economic analysis, innovation, employment, world economy, technological progress, economic recovery, economic diversification.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация

В данной статье рассматриваются история возникновения понятия малого бизнеса, его сущность, роль и необходимость в экономике, а также его актуальность на основе социально-экономического анализа. В исследовании анализируются этапы развития малого бизнеса, его вклад в экономический рост и повышение занятости, а также меры государственной поддержки. На примере мирового опыта и Узбекистана изучено влияние малого бизнеса на экономику, уделено внимание его перспективам и существующим проблемам.

Ключевые слова: Малый бизнес, экономика, предпринимательство, социально-экономический анализ, инновации, занятость.

YANGI O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Аннотация

Ushbu maqolada kichik biznes tushunchasining kelib chiqish tarixi, uning mohiyati, iqtisodiyotdagi o'rni va zarurligi hamda dolzarbli ijtimoiiy-iqtisodiy tahlil asosida yoritilgan. Maqolada kichik biznesning Markaziy Osiyoda rivojlanishi tahlil qilingan. Yangi O'zbekistonda kichik biznesning aholi turmush tarizni yaxshilashga ta'siri yoritilgan. Mamlakatimizda kichik biznesning ahamiyati va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, iqtisodiyot, tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, innovatsiya, bandlik, dunyo iqtisodiyoti, texnologik taraqqiyot iqtisodiy tiklanish iqtisodiy diversifikatsiya.

Kirish. Bugungi kunda kichik biznesning rivojlanishi dunyo iqtisodiyoti va O'zbekiston uchun juda dolzarb hisoblanadi. Bunga qo'yidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Post-pandemiya davrida iqtisodiy tiklanish – COVID-19 pandemiyasidan keyin ko'plab mamlakatlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy tiklanishni tezlashtirmoqda.

2. Mamlakatimizda ish o'rinlari yaratishga bo'lgan talab – Bugungi kichik biznes bilan shug'ullanish aholinining daromadga ega bo'lishi va yangi ish o'rinlarini vujudga keltiradi.

3. Texnologik taraqqiyot – Kichik biznes subyektari hozirgi kunda onlayn savdo orqali ham o'z faoliyatlarini yuritib kelishmoqda.

4. Davlat tomonidan kichik biznesning qo'llab-quvvatlanishi - Bu borada 2023 yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 306-son qarori juda katta imkoniyatlarni yaratdi.

5. Iqtisodiy diversifikatsiya – O'zbekiston va boshqa mamlakatlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun kichik biznes muhim rol o'ynaydi.

Kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omildir. U yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda kichik biznesning rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga ajratilayotgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlov dasturlari uning yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shu

boisidan, kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz bugun yoritayotgan mavzu xorij olimlari R.B.Seppay, D.Leyung, R.Anderson, R.Kuper, S.Xarvi, V.Volgin, Y.Mazilov, V.Visokov, V.Tishkov, S.Polzikovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yurtimiz olimlari N.Q.Muradova, Q.Q.Mambetjanov, A.Oripov va A.Abdullayev va boshqa ko'plab va boshqalar ham kichik biznes mavzusini talqin etishgan. M.R. Boltaboev, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergasheva va boshqalar hammuallifligida yozilgan "Kichik biznes va tadbirkorlik" kitobini va Ishmuxamedov va A.A. Abdurashidovning "Kichik biznes va tadbirkorlik" kitoblarini shu mavzuga bagishlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adabiyotlarni o'rganish, statistik tahlil, taqqoslash usuli, empirik tadqiqot kabi usullar qo'llanildi. Kichik biznes bo'yicha ilmiy maqolalar, iqtisodiy hisobotlar, hukumat qarorlari va xalqaro tashkilotlar tahlillari o'rganildi. Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini tahlil qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini O'zbekiston bilan solishtirish orqali samarali strategiyalarni aniqlandi. O'zbekiston misolida kichik biznesning real iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash uchun mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kuzatish orqali xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznesning rivojlanish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi va u turli bosqichlarda shakllangan:

1. Qadimgi davrlar: Kichik biznes faoliyati savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar va chorvadorlar shaklida paydo bo'lgan.

Bu davrda bozorlar, yarmarkalar va shaharlarda kichik hajmdagi ishlab chiqarish va savdo asosiy iqtisodiy faoliyat sifatida rivojlangan.

2. O'rta asrlar (XIV-XVII asrlar): Gildiya tizimlari shakllangan bo'lib, hunarmandlar va savdogarlar kichik biznesning asosiy namoyandalari edi. Ular ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat olib borganlar.

3. Sanoat inqilobi (XVIII-XIX asrlar): Sanoat inqilobi tadbirkorlik va biznes rivojida burilish nuqtasi bo'ldi: Texnologik taraqqiyot yangi ishlab chiqarish usullarini joriy qildi. Tadbirkorlar yirik zavod va fabrikalarni tashkil eta boshladi. Ushbu davrda Richard Kantillon va Adam Smit kabi iqtisodchilarning ishlari tadbirkorlik faoliyatini nazariy jihatdan o'rganishga asos bo'ldi. Richard Kantillon (XVIII asr) tadbirkorlikni bozor sharoitida riskga asoslangan faoliyat sifatida ta'riflagan. Adam Smit tadbirkorlikni bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmi sifatida qaradi. Qolaversa, yirik zavod va fabrikalar paydo bo'lishi bilan kichik biznesni tashkil qilish murakkablashdi. Shu bilan birga, kichik biznes xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida mustahkam o'rinni saqlab qoldi.

4. XX asr va keyingi davr: XX asrning ikkinchi yarmida kichik biznes rivojlangan davlatlarning iqtisodiy strategiyasining muhim qismiga aylandi. Xalqaro savdo va iqtisodiy globallashuv tadbirkorlikning ko'lamini kengaytirdi. Joseph Schumpeter (XX asr) tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb ta'riflagan. Uning fikriga ko'ra, tadbirkor innovatsiyalar orqali iqtisodiy tizimni yangilaydi.

Tadbirkorlik tushunchasi Garbda paydo deyilgan bo'lsa-da uning mohiyati Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da ham talqin etiladi. "Avesto" tadbirkorlikka to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan aniq tushunchalarni keltirmasa-da, unda tadbirkorlik faoliyatining asosini tashkil etuvchi qadriyatlar va prinsiplar ko'p o'rin olgan. "Avesta" halol mehnat qilishni va adolatli bo'lishni insonning muqaddas burchi sifatida ta'kidlaydi. Halol mehnat orqali jamiyat farovonligini ta'minlash va umumiy manfaat uchun harakat qilish tadbirkorlikning axloqiy tamoyillariga mos keladi. "Avesta"da dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo iqtisodiy hayotning asosiy sohalar sifatida ta'riflangan. Savdo va ishlab chiqarishning ahamiyati ta'kidlanadi, bu esa tadbirkorlik faoliyatining dastlabki ko'rinishlariga ishora qiladi.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyatni tasvirlab, undagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning tamoyillarini ko'rsatib bergan. Asarda bevosita "tadbirkorlik" atamasi qo'llanilmagan bo'lsa-da, unda iqtisodiy faoliyatning muhim jihatlari va jamiyat hayotidagi o'rni haqida qimmatli fikrlar mavjud. Forobiy jamiyatda mehnatni yuqori qadrlaydi va boylikni halol yo'l bilan topish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatda har bir inson o'ziga xos qobiliyat va kasb orqali ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga hissa qo'shishi kerak. Bu tamoyil tadbirkorlikning asosiy g'oyalariidan biri – halol mehnat orqali boylik yaratish bilan mos keladi.

"Temur tuzuklari" asarida bevosita "tadbirkorlik" atamasini ishlatmasada, undagi ko'plab g'oyalar tadbirkorlik faoliyatiga bevosita taalluqlidir. Amir Temur jamiyatning iqtisodiy asoslarini rivojlantirish uchun barcha sohalarida halol mehnatni targ'ib qilgan. U jamiyat a'zolariga mehnatsevarlikni o'rgatish va ularga ishlash uchun shart-sharoit yaratishni muhim deb bilgan. "Temur tuzuklari"da shunday deyiladi: "Yerlarni obod qilish va xalqni farovonlikda saqlash mening asosiy burchimdir." Bu fikr tadbirkorlik faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri — Amir Temur o'z davlatida hunarmandchilik va savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. U shaharlar va qishloqlarda hunarmandlar uchun maxsus ustaxona va bozorlar tashkil qilgan. Savdogarlar va hunarmandlarni ko'plab-quvvatlash orqali mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashni maqsad qilgan. Bu fikrlar kichik biznes va tadbirkorlikning jamiyatdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Amir Temur tadbirkorlar va dehqonlar faoliyatini ko'plab-quvvatlash maqsadida adolatli soliq tizimini yo'lga qo'ygan. "Temur tuzuklari"da aytiladi: "Mening vazirlarim xalqdan adolatli soliq yig'mog'i lozim. Kimda-kim ortiqcha soliq oladigan bo'lsa, qattiq jazoga tortiladi." Bu yondashuv tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi iqtisodiy sharoit yaratishning muhim qismi hisoblanadi. Amir Temur tadbirkorlarni

rag'batlantirish uchun ularga maxsus himoya va imtiyozlar bergan. Savdogarlarning erkin harakat qilishlari uchun xavfsiz karvon yo'llarini ta'minlagan. Hunarmandlar va dehqonlarga yer va mulkni obod qilish uchun rag'batlantiruvchi shart-sharoit yaratgan. Bu tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar edi. iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shish bilan bog'liq.

Amerikalik iqtisodchi Yozef Shumpeter "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida shunday deydi: "Tadbirkorning maqsadi yangi ixtirolar va kashfiyotlarni amalda qo'llash orqali ishlab chiqarish usullarini yangilashdan iborat. To'liqroq aytadigan bo'sak tadbirkorning vazifasi yaqinda ochilgan bozor hamda xom ashyo bazasi asosida noyob tovar ishlab chiqarish va eskirib qolganini zamonaviylashtirish uchun yangi texnika va texnologiyalar ishlatishdan iborat."

O'rganish natijasida shuni aytish lozimki, xorijda ham yurtimizda ham hali tadbirkorlikning umume'tirof etilgan ta'rifi yo'q.

Kichik biznes — bu o'z miqyosiga ko'ra kichik korxona, xususiy tadbirkorlik, oilaviy korxona yoki yakka tartibdagi faoliyat ko'rinishida tashkil etiladigan xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, asosiy maqsadi bozor ehtiyojlarni qondirish va foyda olishdan iboratdir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Moslashuvchanlik ya'ni bozor talabiga tez javob berish qobiliyati.

2. Kam xarajatli boshqaruv, resurslardan samarali foydalanilishi.

3. Innovatsion faoliyat.

Yangi O'zbekistonimizda kichik biznes mavjudligining ahamiyati va zarurligi mana bu yo'nalishlarda muhim sanaladi:

Kichik korxonalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida yangi imkoniyatlar va xizmatlarni taqdim etadi.

U davlatning soliq bazasini kengaytiradi va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Shu boisdan, kichik biznesni ko'plab-quvvatlash va rivojlantirish ko'plab davlatlar iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Kichik biznesning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, kichik biznes iqtisodiyotning asosiy bo'lasi bo'lib, quyidagi asosiy mohiyatga ega:

1. Moslashuvchanlik: Kichik korxonalar o'zining hajmi va boshqaruv tizimi tufayli bozor sharoitlariga tez moslasha oladi.

2. Innovatsion rivojlanish: Kichik biznes yangi g'oyalar va texnologiyalarni tez joriy etish qobiliyatiga ega.

3. Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish: Mahalliy resurslardan samarali foydalanadi va ichki bozor talablarini qondiradi.

4. Ijtimoiy vazifalar: Aholining bandligini ta'minlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

5. Kapitalning samarali ishlatilishi: Kichik biznes kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi.

Bugungi kunda kichik biznes dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. AQSH: Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining qariyb 50% hissasini tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi: Yevropada kichik va o'rta biznes (SMEs) barcha korxonalarning 99% dan ortig'ini tashkil qiladi. Osiyo davlatlari: Xitoy va Hindistonda kichik bizneslar hududiy rivojlanish va ish o'rinlarini yaratishda asosiy omildir.

Biz yuqorida tilga olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorining mazmuni qo'yidagi yo'nalishlarda aks etadi:

1. "Uzluksiz xizmatlar zanjiri" dasturi

Kichik biznesni ko'plab-quvvatlash bo'yicha integratsiyalashgan xizmatlar tizimi yaratiladi. Bu dastur kichik biznes subyektlariga moliyaviy, texnik va institutsional yordam ko'rsatishni maqsad qiladi.

2. Biznesni rivojlantirish banki

Kichik biznesni moliyaviy ko'plab-quvvatlashning asosiy institutiga aylantiriladi. Bank bu dasturni samarali amalga oshirish va takomillashtirish bo'yicha bosh tayanch organ sifatida belgilangan.

3. Biznes portalining ishga tushirilishi

2023-yil uch oy muddatda xalqaro moliya institutlari texnik ko'magidan foydalanib, biznes jarayonlarini

avtomatlashtirish va muvofiqlashtirish uchun maxsus raqamli platforma – Biznes portal ishga tushiriladi.

4. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar

2024-yil 1-yanvardan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida: Kreditlar 3 yilgacha muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, Yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz yuqori stavkada ajratiladi.

5. Moliyalashtirish hajmi

Dasturni amalga oshirish uchun quyidagi mablag'lar yo'naltiriladi:

Davlat budjeti hisobidan 6 trillion so'm, Xalqaro moliya institutlaridan 1,2 milliard AQSH dollari miqdorida mablag' jalb qilinadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations).

Kichik korxonalar moslashuvchanligi, kam xarajatlil boshqaruvi va yangi texnologiyalarni tez joriy etish imkoniyati bilan ajralib turadi. Dunyo miqyosida AQSH, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarida kichik biznes iqtisodiy drayver sifatida tan olingan. O'zbekiston ham bu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar olib bormoqda. Bu borad 2023-yil 14-sentabrda PQ-306-son qarori dasturul amaldir. Ushbu qarorga binoan "Uzluksiz xizmatlar zanjiri" dasturi, Biznesni rivojlantirish banki, raqamli biznes portali va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

bo'yicha imtiyozli kreditlar tizimi joriy etildi. Ushbu tashabbuslar kichik biznesni moliyaviy va institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish – imtiyozli kreditlar va davlat grantlari hajmini oshirish orqali tadbirkorlarning startaplarini rivojlantirishga ko'maklashish.

2. Soddalashtirilgan soliq tizimini takomillashtirish – kichik biznes uchun soliqlarni kamaytirish yoki yengilliklar berish orqali ularning barqarorligini oshirish.

3. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish – biznes portalining imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlarning onlayn platformalardan samarali foydalanishini ta'minlash.

4. Ta'lim va maslahat xizmatlarini kuchaytirish – kichik biznes egalari uchun maxsus treninglar va konsultatsiyalarni tashkil etish, startap loyihalar uchun mentorlik tizimini yo'lga qo'yish.

5. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – kichik biznes uchun eksport imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish.

Ushbu chora-tadbirlar kichik biznesning rivojlanishini jadallashtirish, uning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini oshirish va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'RQ-630-son qonuni 24.07.2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent sh., 2018-yil 24-noyabr, PF-5583-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-son qarori.
4. Aripov O.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019.
5. Abdullayev A, Muftaydinov K, Aybeshov X. Kichik biznesni boshqarish. Darslik. -T., "Moliya" nashriyoti, 2023-yil.
6. Mambetjanov Q., Sarmanov A.. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining rivojlanish tendentsiyalari. // Иктисодиётнинг реал сектори / реальный сектор экономики. Иктисод ва молия / экономика и финансы, 2023. 9 (169).



UDK: 159.923:004.89

Lola RAZIKOVA,
Samarqand davlat Tibbiyot universiteti, f.f.n., professori
Email: lolarazikova87@gmail.com
Tel: (91) 329-01-54

SamDU professori, taqrizi asosida

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CLINICAL PSYCHOLOGY: PROBLEMS AND PROSPECTS

Annotation

This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in the field of clinical psychology. It discusses the potential of AI in diagnostics, treatment, and patient monitoring using modern information technologies. Possible problems and ethical issues arising from the application of AI in clinical practice are also addressed.

Key words: Artificial intelligence (AI), clinical psychology, therapeutic assistance, psychological diagnosis, automated psychological services, machine learning, clinical recognition, ethical issues of artificial intelligence, digitalization of medicine, psychological stress and artificial intelligence.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КЛИНИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

В данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта (ИИ) в области клинической психологии. Рассматриваются возможности ИИ в диагностике, лечении и мониторинге пациентов с использованием современных информационных технологий. Также обсуждаются возможные проблемы и этические вопросы, возникающие при применении ИИ в клинической практике.

Ключевые слова: Искусственный интеллект (ИИ), клиническая психология, терапевтическая помощь, психологический диагноз, автоматизированные психологические услуги, машинное обучение, клиническое распознавание, этические проблемы искусственного интеллекта, цифровизация медицины, психологический стресс и искусственный интеллект.

KLINIK PSIXOLOGIYADA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada klinik psixologiya sohasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining roli tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, SI vositalarining tashxis, davo va patsiyent monitoringidagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, SIning klinik amaliyotdagi qo'llanilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va etik masalalarga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zi: Sun'iy intellekt (SI), klinik psixologiya, terapevtik yordam, psixologik diagnoz, avtomatlashtirilgan psixologik xizmatlar, mashina o'rganish, klinik aniqlash, sun'iy intellektning etik muammolari, tabobatning raqamlashtirilishi, psixologik stress va sun'iy intellekt.

Kirish. Klinik psixologiya insonning ruhiy salomatligini o'rganish, tashxislash va davolash bilan shug'ullanadigan fan sohasidir. Oxirgi yillarda axborot texnologiyalari va ayniqsa, sun'iy intellekt (SI)ning jadal rivojlanishi klinik psixologiya sohasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat yangi imkoniyatlarni ochmoqda, balki turli muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada SIning klinik psixologiyadagi rolini, imkoniyatlarini va dolzarb muammolarini tahlil qilamiz.

Shu bilan bir qatorda klinik psixologiya – inson ruhiy salomatligi bilan bog'liq muammolarni o'rganadigan va ularni bartaraf etishga qaratilgan fan hisoblanadi. Oxirgi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari psixologiya sohasiga ham faol kirib kelmoqda. Ushbu jarayon klinik amaliyotdagi an'anaviy usullarga yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) tartibga solish muhim va rivojlanayotgan mavzudur. Shu nuqtai nazardan xalqaro sammitda "Sun'iy intellekt tizimlarini tartibga solishning me'yoriy, axloqiy normalarini ishlab chiqarish" mavzusida taqdimot qildik.

SI texnologiyasi rivojlanib borar ekan, undan mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishni ta'minlash uchun axloqiy me'yorlar va qonunchilik asoslarini yaratish zarurati paydo bo'ladi. Xususan, SI texnologiyalaridan foydalanishda bir necha tavsiyalarga amal qilish orqali har bir mamlakatning axborot xavfsizligini ta'minlash mumkin. Sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Buning ajablanarli joyi yo'q. Chunki, kundalik aqlli qurilmalarning qariyb 80 foizi o'zida sun'iy intellektning qandaydir ko'rinishini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bennett, C. C., & Hauser, K. (2013), Luxton, D. D. (2016), Shatte, A. B. R.,

Hutchinson, D. M., & Teague, S. J. (2019). Hozirgi va kelajakdagi qo'llanilishlar va oqibatlar. Aqlni mashina o'rganish orqali yaxshilash: Usullar va qo'llanilishlar bo'yicha ko'lamli sharh. Ushbu adabiyotlarda sun'iy intellekt (SI) orqali tibbiyotda insoniy munosabatlarni tiklash imkoniyatlari yoritilgan. Psixik kasalliklarni aniqlashda SI texnologiyalarining imkoniyatlari batafsil ko'rib chiqilib, yoshlarda uchraydigan ruhiy kasalliklarni bartaraf etishda onlayn terapiya va onlayn psixoterapiya platformalarida SIning rolini va uning real samaradorligi va mashinali o'rganish texnologiyalari orqali depressiya, stress va boshqa psixik holatlarni aniqlash imkoniyatlari to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yana bir ahamiyatli jihati shuki, sun'iy intellekt tufayli qator kasblar va sohlar faoliyati yakunlanishi, mazkur sohalarda insonlar faoliyati tugatilishi mumkin. Lekin psixologiya sohasini insonlarsiz ya'ni psixologlarsiz tasavvur qilish qiyin. Demak, psixologiya va sun'iy intellekt birgalikda yaxlit kombinatsiyani hosil qilgandagina o'z samarasini ko'rsatadi: a) tashxis va baholash. Sun'iy intellekt turli hil psixologik kasalliklarni va muammoli vaziyatlarni diagnozida ularni baholashda qo'l kelishi mumkin; b) virtual terapiyalar ruhiy salomatlikni qo'llab quvvatlash bilan birga ularga psixologik maslahatlar, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishda foydalanilishi mumkin va eng asosiysi, ularda vaqt chegaralanmagan ya'ni dam olish kunisiz va xohlagan vaqtda bu terapiyadan foydalanish mumkin; kognativ jarayonlarning hisoblash modellarini yaratishda sun'iy intellekt qo'l keladi. Bu esa tadqiqotchilarga psixologik tadqiqotlar jarayonlarida odamlarni qanday fikrlashi, shuningdek, qaror qabul qilishini tushunishga yordam beradi; v) neyroimaging tahlili: cun'iy

intellekt algoritmlari FMRI (Funksional magnit-rezonanztomografiya) va EGG (elektroensefalogram-ma) skanerlari kabi neyroimaging ma'lumotlarini tahlil qilishda yordam beradi; g) Individual davolash rejalari. Psixologik kasalliklarga individual rejalarni tuzishda bemor ma'lumotlarini tahlil qilishda va bemorning o'ziga xos ehtiyojlariga nisbatan davolashni rejalashtirishda sun'iy intellekdan foydalanish natijalarni optimallashtiradi; d) xulq-atvor tahlili.

Psixologiya va sun'iy intellektning birlashuvi natijasida mazkur sohada qator yutuqlarga ham erishilgan. Misol tariqasida sun'iy intellekt algoritmlari orqali turli psixologik kasalliklarga aniq diagnoz qo'yishda va profilaktik choralarni kuchaytirishda foydalanilayotganligining o'ziyoq yuqoridagi so'zning isboti bo'ladi. Sun'iy intellekt standartlashtirilgan psixologik testlar javoblari orqali shaxsiyat xususiyatlari, psixopatologiya va boshlarni oldindan aytib bera oladi. Yana bir ustunligi esa psixologlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilish imkonining mavjudligi, psixologik muolajalarning avtomatik tarzda diagnoz qo'yish, tavsiyalar berish orqali barcha uchun hamyonbop bo'lishidir. Aynan sun'iy intellekt va psixologiya sohasini birlashuvi misoli sifatida Amerikaning Janubiy Kaliforniya Universiteti (USC) tadqiqotchilari yangi avlod sun'iy intellekt orqali virtual agentlardan foydalangan holda Loyiha tuzdilar. Simsensie deb nomlangan ushbu loyiha psixologik terapiya uchun psixologlar bilan birga ishlashga mo'ljallangan. Texnologiya tilni jismoniy imo-ishoralarni, fiziologik o'zgarishlarni va ijtimoiy signallarni kompyuterda ko'rish, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, harakterning tashqi ko'rishidan ko'ra ma'lum vaziyatlardagi o'zaro aloqasi muhimroq sanaladi.

Sun'iy intellekt yordamida zamonaviy yoshlarda intellektual ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari texnologiya, ta'lim va inson rivojlanishining ajoyib kesishishini anglatadi. Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda sun'iy intellektning ta'lim sharoitlariga qo'shilishi yoshlarning muhim bilim qobiliyatlarini o'rganish va egallash usullarini inqilob qildi.

Tahlil va natijalar. Tashxislashda aniqlik va tezlik: SI asosidagi algoritmlar depressiya, shizofreniya, stress va boshqa ruhiy kasalliklarni yutuqli aniqlashda yordam beradi; Mashinali o'rganish vositalari orqali bemorning nutqi, mimikasi va xatti-harakatlarini tahlil qilish mumkin; Chatbot va virtual terapevtlar yordamida bemorlarga 24/7 yordam ko'rsatish imkonini. Masalan, "Woebot", "Wysa" kabi ilovalar SI orqali asosiy kognitiv terapiya uslublarini qo'llaydi; Elektron tibbiy kartalar orqali bemorning ruhiy holatidagi o'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish; SI har bir bemorning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng samarali terapiya turini tavsiya etishi mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellektning zamonaviy yoshlarda intellektual ko'nikmalarni shakllantirishga ta'siri sinfdan tashqarida. Yoshlar hayotlarining turli jabhalarida SI bilan ishlaydigan texnologiyalar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ular raqamli asrning murakkabliklarini boshqarish uchun muhim bo'lgan raqamli savodxonlik va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar. SI adaptiv ta'limni rivojlantirishga yordam beradi, unda adaptiv o'rganishda ma'lumotlar qazib olish, aqlli o'qitish tizimlari, o'quv tahlillari va real vaqtda tahlil qo'llaniladi. Adaptiv ta'lim talabalar ta'lim engillashtirish uchun adaptiv ta'lim tizimiga test, ta'lim, ta'lim va amaliyot barcha jihatlarni o'z ichiga urinishlar. Adaptiv ta'lim tizimi talabalarning o'quv xatti-harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashi, talabalar qobiliyatlarini tahlil qilish asosida talabalar uchun maqbul o'quv yo'lini rejalashtirish va o'quv tarkibini onlayn o'qitish videolari sifatida surish orqali yopiq tsiklli o'quv jarayonini yakunlashi mumkin. Sinfini o'rganishdan keyin duch kelgan va hal qilinmaydigan ba'zi muammolar mavjud, SI tomonidan taqdim etilgan inson-kompyuter o'zaro ta'siri texnologiyasi o'qituvchilarga talabalar uchun onlayn savollarga javob berishda yordam berishi mumkin.

Sun'iy intellekt va klinik psixologiya: Sun'iy intellekt klinik psixologiyada diagnoz qo'yish jarayonini tezlashtiradi va aniqlashtirishda yordam beradi. Mashina o'rganish (machine learning) va tabiiy tilni ishlash (natural language processing) texnologiyalari, bemorlarning simptomlarini tahlil qilish va psixologik holatlarni o'zgarishlarini oldindan bilish imkonini beradi. Masalan, SI ko'p jihatdan depressiya, anksioz va boshqa psixiatriya muammolarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. (Psixologik testlar va baholash): Sun'iy intellekt psixologik testlar va baholashning samaradorligini oshiradi. Bemorlar bilan ishlashda, SI inson emotsiyalarni va psixologik holatlarni tahlil qilishda yaxshilangan vositalar taqdim etishda yordam beradi. SI asboblari odamning reaksiyalarini va nutqini ko'rib chiqish orqali muammolarni tez aniqlash imkonini beradi.

Psixoterapevtik usullar:

Sun'iy intellekt terapevtik seanslarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, internetdagi virtual terapevtlar, kimlar bilan ishlashda insonga yordam berish uchun sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish mumkin. Ushbu texnologiyalar psixoterapiyani osonlashtiradi, insonlarning emotsional holatlarini tez aniqlash va individuallashtirilgan muolajalarni ta'minlash imkonini beradi.

Sining hozirgi raqamli ta'lim tizimi bilan birlashishi ta'limning yangi g'oyasini keltirib chiqardi. Ta'limning klassik an'anaviy usullari mobil raqamli kurslardan tortib onlayn ma'lumotnomalar va virtual sinflarga qadar ta'limdagi sun'iy intellekt tomonidan butunlay o'zgartirildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalari kognitiv qobiliyatlarining yaxshilanishiga, shu jumladan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va xotirani saqlashga olib kelishi mumkin. 2. Adaptiv ta'lim: SI algoritmlari tarkib va yiqinchilik darajalarini talabani ishlashiga qarab moslashtirishi mumkin, bu esa ularga tegishli darajada e'tiroz bildirilishini ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, adaptiv ta'lim tizimlari murakkab tushunchalarni chuqurroq jalb qilish va o'zlashtirishga yordam berish orqali kognitiv ko'nikmalarni oshirishi mumkin. 3. Ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar: SI talabalarning bilim qobiliyatlarini yaxshilash tendentsiyalari, naqshlari va sohalarini aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Axloqiy va maxfiylik masalalari: Ruhiy holat haqidagi ma'lumotlar juda shaxsiy va himoya qilingan bo'lishi kerak. SI platformalarida ma'lumotlar xavfsizligiga kafolat qanchalik ishonchliigini aniqlash uchun quyidagilar keltirib o'tiladi: - SI inson emotsiyalari va kontekstni to'liq anglay oladimi? - murakkab holatlarda inson psixologlarining empatiyasi bilan SI ni taqqoslash mumkinmi? - SI asosidagi tashxislar va tavsiyalar uchun kim javobgar Tibbiyot va psixologiya sohasida SI dan foydalanishda aniq huquqiy me'yorlar mavjud emas. (Ishonch va qabul qilish masalalari) - bemorlar va mutaxassislar SI ga qay darajada ishonadi? - ayrim odamlar sun'iy yordamdan qo'rqishi yoki rad etishi mumkin.

Sun'iy intellekt klinik psixologiyada katta salohiyatga ega. U tashxis, terapiya va bemorlarga yordam ko'rsatish jarayonlarini tezlashtirishi va yaxshilashi mumkin. Biroq, axloqiy, huquqiy va amaliy muammolarni hal etmasdan turib, SI ni to'liq joriy etish mumkin emas. Avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali insonning sub'ektiv ehtiyojlari e'tiborsiz qolishi ehtimoli bor. Agar o'qitilgan ma'lumotlar noaniq yoki bir tomonlama bo'lsa, SI ning xulosalari ham noto'g'ri yoki g'ayriinsoniy bo'lishi mumkin. Klinik psixologiyada sun'iy intellekt qator afzalliklarga ega bo'lsa-da, uning to'g'ri va etik foydalanilishi uchun jiddiy choralar ko'rilishi lozim. Inson va mashina hamkorligida har ikki tomonning imkoniyatlari to'g'ri uyg'unlashtirilishi kerak. Psixologiyada eng muhim omil – inson qalbini to'g'ri anglash va his etishdir, buni faqat mashina texnologiyasi orqali amalga oshirish mushkul.

ADABIYOTLAR

1. Wilson R.S., Scherr P.A., Schneider J.A., Tang Y., Bennett D.A. Relation of cognitive activity to risk of developing Alzheimer disease. *Neurology*. 2007; 69(20): 1911–20.

2. Bherer L. Cognitive plasticity in older adults: effects of cognitive training and physical exercise. *Ann. NY Acad. Sci.* 2015; 1337: 1–6. DOI: 10.1111/nyas.12682.
3. Brickman A.M., Siedlecki K.L., Stern Y. Cognitive and brain reserve. In: C.A. Depp, D.V. Jeste (eds). *Successful Cognitive and Emotional Aging*. American Psychiatric Publishing, Inc.; Arlington, USA; 2010: 157–72.
4. Palmer K., Wang H.X., Bäckman L., Winblad B., Fratiglioni L. Differential evolution of cognitive impairment in nondemented older persons: results from the Kungsholmen Project. *Am. J. Psychiatry*. 2002; 159(3): 436–42.
5. Patton D. Reality orientation: its use and effectiveness within older person mental health care. *J. Clin. Nurs*. 2006; 15(11): 1440–9.
6. Spector A., Orrell M., Davies S., Woods B. WITHDRAWN: Reality orientation for dementia. *Cochrane Database Syst. Rev.* 2007 Jul. 18; 3: CD001119.
7. 10. Basics of Psychological Self-Regulation: Textbook for University Students / G.R. Shagivaleeva, V.R. Bildanova.– Yelabuga:EGPU Publishing,2009.– 116 p.
8. 11. Razykova, L.T., Igamova, I.S., Rakhmatova, F.G., Muratova, Sh.N., Mamadiyarova, D.U., & Kuchkarova, O.O. (2019). Effectiveness of Pedagogical Communication in Training Doctors. *Science and Education Today*, (11 (46), 55-57.
9. 13. Tuychievna R. L., Tohirova F. Z. Mental processes the state of the human in the ir violation //Archive of Conferences. – 2020. – T. 10. – №. 1. – C. 179-182.
10. Tuychiyevna R. L. The content and conditions of the implementation of a personcentered approach in the educational process //Web of Scientist: International
11. Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 1220-1224. Vol 2|No 1 (2025): *American Journal of Alternative Education*110.
12. Tuychiyevna R. L. COMMUNICATION AS A MEANS OF PEDAGOGICAL COOPERATION //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 4. – C. 374-377.
13. Разыкова Л.Т. Проблемные технологии обучения в литературном образовании //наука, образование и культура. – 2022. – №. 2 (62). – с. 42-45.
14. Разыкова, Лола Туйчиевна. "Этический климат организации или (неэтичное поведение на рабочем месте)". *Boshqaruv va etikaqoidalari onlayn ilmiy jurnali* 2.8 (2022): 54- 58.
15. Muratova Sh.N., "Problems of youth for family life," *Mental Health and Education Journal*, pp. 282–291.
16. Muratova Sh. N., "Socio-psychological issues of preparing young men for family life," *Journal of Educational Research*, ISSN: 2660–5562, vol. 2, no. 3, pp. 27–30, March 2021. [Online]. Available: <https://scholarzest.com>.



UDC: 81'25(045)(575.1)

Nigorakhon RUZIBAeva,
Acting Associate Professor at Tashkent State University of Law
E-mail: n.ruzibaeva@tsul.uz

Reviewed by Professor G. Gulyamova, PhD in Philology

THE ROLE OF CASE STUDIES IN ESP TEACHING TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

Annotation

This article explores the critical role of case studies in the teaching of English for Specific Purposes (ESP), with a particular focus on Legal English instruction for first-year law students at Tashkent State University of Law. In an era where traditional language teaching methods are increasingly being questioned, the case study methodology has emerged as an effective student-centered approach that connects theoretical language knowledge with real-world legal practice.

Key words: ESP, Case Studies, Legal English, Experiential Learning, Critical thinking, Pedagogical Innovation, Constructivism, Empirical Data.

KEYS-STADI METODINING ESP O'QITISHDAGI O'RNI (TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETIDA YURIDIK INGLIZ TILINI O'QITISH MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini (ESP) o'qitishda, xususan, Toshkent davlat yuridik universitetining birinchi kurs talabalari uchun yuridik ingliz tilini o'qitishda keys-stadi usulining ahamiyatini yuzasidan tadqiqot natijalari haqida ma'lumot beradi. An'anaviy til o'qitish uslublariga qiziqish kundan-kun so'nib borayotgan bir davrda, keys-stadi metodi o'zini samaraliligi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanganligi bilan hozirgi zamon ta'lim jarayoni markazidan joy olib kelmoqda. Bu yondashuv nazariy til bilimlarini real yuridik amaliyot bilan bog'laydi.

Kalit so'zlar: ESP, keys-stadi, yuridik ingliz tili, tajribaviy o'qitish, tanqidiy fikrlash, pedagogik innovatsiya, konstruktivizm, empirik ma'lumotlar.

РОЛЬ КЕЙС-СТАДИ В ПРЕПОДАВАНИИ ESP (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЮРИДИЧЕСКОГО АНГЛИЙСКОГО В ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ)

Аннотация

В данной статье рассматривается важнейшая роль кейс-методов в преподавании английского языка для специальных целей (ESP), с особым акцентом на обучение юридическому английскому для студентов первого курса юридического факультета Ташкентского государственного юридического университета. В эпоху, когда традиционные методы преподавания языка всё чаще подвергаются сомнению, методология кейс-методов зарекомендовала себя как эффективный, ориентированный на студента подход, который связывает теоретические знания языка с реальной юридической практикой.

Ключевые слова: ESP, кейс-методы, юридический английский, обучение через опыт, критическое мышление, педагогические инновации, конструктивизм, эмпирические данные.

Introduction. In recent decades, the field of English for Specific Purposes (ESP) has evolved dramatically in response to the growing demand for discipline-oriented language teaching methods that address the real-world needs of professionals and students alike. One method that has particularly garnered significant attention among educators is the case study approach. The integration of case studies in ESP classes is based on the premise that contextualized and experiential learning enhances students' ability to apply language skills to their specific academic or professional domains. For law students, whose future careers rest on the precise use of legal terminology and the interpretation of intricate legal arguments, the use of authentic legal cases in the ESP classroom emerges as a critical teaching strategy.

At Tashkent State University of Law, the ESP module – with a particular focus on Legal English – is an integral component of the first-year curriculum. The program seeks not only to develop language proficiency but also to encourage problem-solving, analytical thinking, and the application of legal reasoning.

Literature review. A substantial body of research has examined diverse methodologies in ESP teaching, and the case study method, in particular, has received considerable scholarly attention. Early pioneers in ESP such as Dudley-Evans and St John (1998) argued that language learning for specialized purposes is inherently tied to the context in which the language is used. Their insights set the stage for subsequent investigations that sought to validate the effectiveness of contextually rich, problem-based learning strategies. Over the past two decades, case studies

have emerged as a robust pedagogical approach – especially significant in fields requiring both theoretical knowledge and practical competence.

One of the foundational theoretical frameworks supporting the use of case studies is constructivist learning theory. Dewey [2] posited that knowledge is actively constructed rather than passively absorbed, a view that is central to experiential learning approaches. Kolb's [6] experiential learning cycle further emphasizes the importance of concrete experience and reflective observation—two elements that are naturally embedded in the analysis of real-world cases. In the context of Legal English, the case study approach allows students to engage in active learning by simulating courtroom scenarios, debating legal precedents, and critically evaluating judgments.

Hutchinson and Waters [5] explored how context-specific tasks greatly enhance the acquisition of ESP. They maintained that traditional language instruction often falls short of addressing the specialized needs of learners, particularly when abstract grammar exercises fail to reflect the complexities of professional communication. By incorporating case studies derived from real legal cases, instructors can expose students to authentic language use—thereby fostering an understanding of the nuanced legal register, pragmatic conventions, and critical discourse.

Recent work by Basturkmen [1] has underscored the importance of aligning ESP instruction with learners' future professional contexts. His research indicates that learners who engage in realistic problem-solving exercises display higher levels of motivation, improved retention of subject-specific vocabulary,

and increased confidence in using just-in-time language skills. In Legal English classrooms at institutions like Tashkent State University of Law, this alignment is particularly important; first-year law students are introduced to both legal theory and the corresponding linguistic competencies required to navigate legal texts and proceedings effectively.

Another important contribution to the literature is the work of Flowerdew [4], who argued that ESP learners benefit from teaching methods that emphasize both form and function. He demonstrated that case studies, by their very nature, allow students to see the functional applications of language—in this instance, legal language—thereby fostering a deeper appreciation of the relationship between language form and communicative intent. This dual focus is crucial in Legal English, where precision of language is a matter of professional competency.

Methods and analysis. At Tashkent State University of Law, the ESP curriculum for first-year students has been meticulously designed to combine theoretical instruction with practical learning experiences. From the very first semester, students are introduced to Legal English as a critical tool for their academic and professional futures. Due to the increasing complexity of legal language and the high stakes of legal practice, the faculty has adopted a case study approach as a cornerstone of its teaching methodology. The implementation process begins with a thorough needs analysis to determine the specific language skills required by law students. Faculty members analyze past performance data, review professional legal documents, and consider feedback from practitioners to pinpoint areas where students typically struggle with legal English. Based on this analysis, instructors design case studies that reflect real-life legal scenarios, ranging from contract disputes and intellectual property cases to human rights litigation and international arbitration.

A typical session in the ESP Legal English course involves the following components:

Presentation of a Legal Case: The instructor introduces an authentic legal case with a brief overview of its significance, background, and key legal issues.

Group Analysis: Students work in small groups to analyze the case, review key documents, identify legal terminology, and debate legal arguments, fostering collaboration and diverse perspectives.

Language-Focused Activities: Groups engage in exercises like vocabulary building, analyzing legal syntax, and summarizing legal arguments to apply legal language in context.

Reflective Writing and Feedback: Students write reflections on the case and its legal reasoning, receiving feedback to improve their language skills.


Simulated Legal Proceedings: Advanced sessions include mock trials where students take on roles like lawyers and judges, reinforcing legal vocabulary and developing public speaking and critical reasoning skills.

By embedding these elements into the curriculum, Tashkent State University of Law ensures that its first-year students begin their legal education with a robust grounding in both legal theory and the practical use of Legal English. The case study approach provides a scaffolded learning environment where students progressively build their competence, confidence, and critical thinking abilities while simultaneously mastering the specialized language required in legal settings.

A notable example of this approach involved the analysis of a landmark contract dispute case. In this study, students were asked to read the complete case file, identify key legal arguments, and draft a hypothetical legal opinion. This exercise required intensive use of legal terminology and an understanding of complex syntactic structures. The group work component allowed students to compare interpretations and collectively reach a consensus on the legal issues at hand. The instructor then led a debriefing session, emphasizing both the linguistic nuances and the legal reasoning demonstrated throughout the discussion.


To provide empirical support for the benefits of the case study method in ESP teaching, quantitative data were collected from several cohorts of first-year law students at Tashkent State University of Law. Two key visualizations have been generated to illustrate the outcomes of the pedagogical shift.

A pie chart (Figure 1) was created based on survey data reflecting the proportion of different instructional methods employed in the Legal English curriculum. The chart indicates that approximately 40% of class time is devoted to case study-based learning, with traditional lectures accounting for 30%, online modules contributing 15%, and group discussions making up the remaining 15%. This distribution reflects the institution's commitment to providing a balanced curriculum where interactive, real-life case studies form the cornerstone of language acquisition.



A bar chart (Figure 2) comparing student performance before and after the implementation of case study-based instruction further underscores the method's effectiveness. Examination results, reflective essays, and practical assessments were analyzed from cohorts using traditional teaching methods

versus those employing case studies. The data indicate that students exposed to the case study approach demonstrated, on average, a 15% improvement in critical language tasks, compared to an 8% improvement among those taught by conventional methods.



The generation of these charts involved collecting detailed data from classroom surveys, assignment outcomes, and examination scores. The improvements observed are statistically significant and underscore the positive impact of integrating case studies into the ESP curriculum. The practical insights gleaned from these data not only justify the continued use of case studies but also provide a concrete basis for further pedagogical innovations in ESP teaching at the university.

Discussion. The analysis in this article demonstrates that the case study method significantly enhances ESP teaching by actively involving students in their learning process. Grounded in constructivist and experiential learning theories, this approach enables first-year law students to acquire specialized Legal English vocabulary and grammar while simultaneously developing critical thinking and problem-solving skills. Feedback from students highlights that working with real legal cases makes abstract concepts more tangible and boosts their confidence in using legal English. Additionally, group discussions and simulated legal proceedings foster collaboration and debate, preparing students for professional environments where teamwork and effective communication are essential.

Another key advantage of the case study method is its adaptability, allowing instructors to tailor case complexity to students' proficiency levels. This ensures that even those initially struggling with legal language can gradually meet the subject's

demands. Empirical data, supported by pie and bar charts, reveal a 15% improvement in critical language tasks with case study methods, surpassing traditional instruction. These findings underscore the method's value not only for Legal English but for broader ESP contexts, offering a replicable model that bridges academic learning with real-world applications, essential for preparing students for professional challenges.

Conclusion. The adoption of case studies in teaching Legal English within the ESP framework has proven to be a transformative strategy, as demonstrated by practices at Tashkent State University of Law. This article has highlighted the theoretical foundations, critical literature, practical applications, and empirical data that collectively validate the effectiveness of this method. By immersing first-year law students in context-rich, active learning experiences, educators enhance both linguistic proficiency and the critical thinking skills essential for legal practice. Empirical data, represented through pie and bar charts, further confirm that students exposed to case study approaches achieve better academic outcomes and a deeper understanding of legal discourse.

The case study method represents a shift toward dynamic, learner-centered approaches in ESP teaching. For institutions like Tashkent State University of Law, this strategy effectively bridges the gap between theoretical knowledge and professional application, addressing the unique demands of legal education.

REFERENCES

1. Basturkmen, H. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Palgrave Macmillan.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. Macmillan.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge University Press.
4. Flowerdew, J. (2000). Discourse community, legitimate peripheral participation, and the case of English for academic purposes. *English for Specific Purposes*, 19(1), 27–44.
5. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press.
6. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centred approach*. Cambridge University Press.



Dilnoza SADANOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilnoza.sadanova81@gmail.com

Dotsent Q.Olloyorov taqrizi asosida

MANFAAT TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY – FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Insonning ijtimoiyligi uning tur, jonzod sifatida mavjudligiga emas, balki uning o'z hayotiga ongli tarzda yondashishida, yon-atrofga, borliqqa anglangan qiziqishini, manfaatini yo'naltirganidadir. Aynan qiziqishning, manfaatning anglanganligi insonni olamga, o'z hayoti va faoliyatiga rasional yondashishini keltirib chiqaradi. Mazkur maqolada inson manfaatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili, barqaror, o'zgaruvchan va mavhum manfaatlarining mohiyati, shuningdek manfaatlarining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inson manfaatlari, barqaror manfaaatlar, o'zgaruvchan manfaatlar, mavhum manfaatlar, aqlu idrok, rasional, ma'naviy imperativlar, hayot dinamizmi, o'zgaruvchan borliq, uyg'unlashtirish.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF INTEREST

Annotation

A person's social nature lies not in their existence as a species or being, but in their conscious approach to life, and in the ability to direct their realized curiosity and interest toward the surrounding world and existence. It is precisely the awareness of curiosity and interest that leads a person to rationally approach the world, their life, and activities. This article presents a socio-philosophical analysis of human interests, the essence of stable, changing, and abstract interests, as well as the role of interests in the development of society.

Key words: Human interests, stable interests, changing interests, abstract interests, intellect and reasoning, rationality, spiritual imperatives, dynamism of life, changing existence, harmonization.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ИНТЕРЕСА

Аннотация

Социальная сущность человека заключается не в его существовании как вида или живого существа, а в его сознательном отношении к жизни, в способности направлять осознанный интерес и любознательность к окружающему миру и бытию. Именно осознание интересов и любознательности приводит человека к рациональному отношению к миру, своей жизни и деятельности. В данной статье рассматривается социально-философский анализ интересов человека, сущность устойчивых, изменчивых и абстрактных интересов, а также роль интересов в развитии общества.

Ключевые слова: Интересы человека, устойчивые интересы, изменчивые интересы, абстрактные интересы, разум и рассудок, рациональность, духовные императивы, динамизм жизни, изменяющееся бытие, гармонизация.

“Manfaat” subyektning biror obyektga, voqeaga, narsaga bo'lgan ma'lum bir qiziqishini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi. Shu tarzda insonda hayot, umr mazmuni, yashash hikmati, o'zining olamdagi o'rnini haqida tasavvurlar shakllanadi. Barqaror manfaatlar mazkur tushunchalarning ifodasi, ma'lum bir hosilasi sifatida keladi. Aflotun va Arastu “demos”, “polis demokratiyasi” kabi iboralarni ishlatishganida xalqning davlat boshqaruvida qatnashishidan siyosiy manfaatdor ekanligidan kelib chiqishgan. Demokratiya, ular fikricha, boshqarishning bad ko'rinishi bo'lsa-da, xalq, ko'pchilik manfaati bilan bog'liq idora usuli edi [1].

Mazkur yondashishni keyinchalik T.Gobbs, J.Lokk, I.Bentam, J.Mill, ayniqsa Gegel va I.Kant rivojlantirishadi. Aynan Gegel va I.Kant inson manfaatlari tushunchasini ilmiy iste'molga olib kirib, uni huquq, axloq, ma'naviy imperativlar bilan bog'lashdi. Masalan, I.Kantning fikriga ko'ra, inson manfaatlariga muvofiq faoliyat yuritadi, huquq manfaatlarini regulatsiya qilganidek, inson o'z manfaatlarini qondirishga axloqiy, ma'naviy imperativlardan ham kelib chiqadi. Ushbu imperativlar bois manfaatlar va faoliyat insoniy qadriyatlarga aylanadi [3].

Bu o'rinda I.Kant biz nazarda tutgan barqaror manfaatlariga yaqin qarashini bayon qilayotgani ayon bo'ladi. Mazkur mavzu bo'yicha ilgari surilgan nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson manfaatlari masalasi qadimdan mutafakkirlar diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, Aflotun va Arastu demokratik boshqaruv mohiyatini xalqning siyosiy manfaatdorligi bilan bog'lagan bo'lsalar, I.Kant va Gegel ushbu tushunchani huquq, axloq, ma'naviy imperativlar bilan uzviy aloqador holda izohlaydi. Ayniqsa, I.Kant tomonidan ilgari surilgan axloqiy imperativlar nazariyasi inson manfaatlarining faqat utilitar emas, balki ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar

doirasida baholanishini taqozo etadi. Bu esa manfaat tushunchasining jamiyatda ijtimoiy adolat, barqarorlik va ma'naviy yuksalish bilan bog'liq ko'p qirrali mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Barqarorlik – taraqqiyot ko'rsatkichi. Barqarorlik yo'q joyda subyekt yoki obyektida nima, qanday o'zgarishi, transformatsiya kechayotgani anglab bo'lmaydi. Bu fikr manfaatlariga ham taalluqlidir.

Barqarorlik turg'unlik emas, u kechayotgan jarayonlarning ma'lum bir ifodasi. Bu ifoda ma'lum bir qonunlarda, ko'rsatkichlarda yoki bajarilgan reja, maqsad va vazifalarda aks etadi. Manfaatlarning qondirilgani yoki qondirilmagani, ta'minlangani yoki ta'minlanmagani ularda namoyon bo'ladi. Shuning xalq, jamiyat manfaatlari to'g'risida gap ketganida, qabul qilingan qaror yoki rejaning qanday bajarilganiga (bajarilmaganiga) murojaat etiladi, yutuqlar va kamchiliklar tahlil qilinadi. Shu tariqa jamiyat, davlat barqaror manfaatlar ifodachisi, himoyachisi, tarafdori sifatida keladi.

Manfaatlarining barqarorligi Sharq xalqlari uchun o'sha muhim ahamiyatga ega. Ular manfaatlar barqarorligini ijtimoiy hayot barqarorligi, shaxsning jamiyat e'zozlayotgan qadriyatlarini qo'llab-quvvatlashi, o'z hayot tarzini shakllangan an'analarga muvofiq olib borayotganining ifodasi, deb biladi. Falsafa fanlari doktori F.Najimovning yozishicha, aynan Sharq mentaliteti barqaror qadriyatlarga, an'analarga, madaniy boyliklarga tayangani bois G'arb mentaliteti, madaniyatidan, an'alaridan farq qiladi, ular markazida mudom inson, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq manfaatlari turgan [4].

Barqarorlik narsa- hodisalar mohiyatini, maqsadi va vazifalarini, ularning ichki xususiyatlarini, boshqa ijtimoiy jarayonlarga qanchalik taalluqli ekanini anglash imkonini beradi.

Tinmay o'zgarishiga moyil ijtimoiy hayot insonni chayqashtirishi, o'y-xayollari va rejalarini buzib yuborishi mumkin. Bunday hayotdan inson qoniqish, diliga orom, taskin olamaydi, balki, aksincha, unda qoniqmaslik, tushkunlik, hatto nigimistik tuyg'ular uyg'onadi. Fridrix Nissheni olaylik. U Yevropa hayotida kechayotgan uzluksiz o'zgarishlardan g'aflatga botadi, natijada G'arb sivilizatsiyasi halokatining jarchisi sifatida shakllanadi. U Yevropa erishgan barcha madaniy boyliklarni "mutlaq nigimist" sifatida rad etadi, ularning tanazzulga uchrashini bashorat qiladi, ular o'miga yangi jamiyat, yangi, yangi din, yangi axloq yaratmoqchi bo'ladi [5]. Ming afsuski, faylasuf nigimizm yukini ko'tarolmay umrining oxirgi o'n yilini telbaxonada o'tkazadi [6]. Ijtimoiy hayotdagi uzluksiz, goho besamar, bemaqsad o'zgarishlar inson ruhiga, dunyoqarashi va tasavvurlariga ta'sir etmay qolmaydi, Fr.Nissheni kabi "o'ta nozik tabiatni N. Galevi qobiliyat va ijod egalari esa ularidan ozor chekmay qolmaydi. Shuning uchun ham yangi davrdan beri tushkunlik, ruhiy hastalik, "jamiyatdan begonlashuv", yakkalik, G'arb faylasuflarining sevimli mavzulari bo'lib keladi.

Jamiyatdagi tarixiy - madaniy an'analarning boqiyliqi, muqaddasligi va ularning e'zozlanishi barqarorlik tufaylidir. Umuman jamiyatdagi barqarorlik barqaror manfaatlar tufaylidir. O'zbekiston xalqidagi barqaror manfaatlar uning ajdodlar merosiga, tarixiy-madaniy an'analarga sodiqligida, islomiy qadriyatlarini e'zozlashida, insondagi go'zal, olijanob ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ardoqlashida namoyon bo'ladi. Ushbu etnomadaniy boyliklarni asrash, ularga tayanish istagi o'zbek xalqi manfaatlarini barqaror hodisaga aylantirgan. Shuningdek, xalqimizdagi barqaror manfaatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi strategik maqsadlarni qo'llab-quvvatlayotganida ko'rinadi. Muqaddimaga ko'ra, inson huquq va erkinliklariga sodiqlik, O'zbekiston mustaqilligini qadrlash, xalqimizning davlatchilik an'analari davom ettirish, demokratik huquqiy davlat va insonparvar jamiyat barpo etish strategik maqsadlar hisoblanadi [7]. Demak, jamiyatning rivojlanishi, insonning o'z hayotidan, yon-atrofidan qoniqish olib yashash, ertangi kuni va kelajagini ravshan tasavvur etishi barqaror manfaatlarining mavjudligiga bog'liqdir.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, "hayot bir joyda turmaydi, u mudom o'zgarishda, yangilanishda davom etadi" [8]. Haqiqatan ham, burungi hayot mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar, modernizatsiyalash hamda dunyoda kechayotgan globallashuv ta'sirida juda tezlashgan. Axborotlar va xalqaro aloqalarning kengayishi, oshib borishi hayot oqimini tezlashtirib yubormoqdaki, ular kishilar tasavvurlariga, qiziqishlari va manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Demak, manfaatlarning hayot oqimi talablariga muvofiq o'zgarishi tabiiy holdir.

O'zgaruvchan manfaatlarini barqaror manfaatlarga qarshi qo'yimaslik lozim. O'zgaruvchan manfaatlar tufayli inson hayot oqimiga, dinamizmiga moslashadi, hayotdagi rang-baranglikni ilg'ab, yangi - yangi narsalarni kashf etadi, yaratadi, hayot talablari va dinamizmiga moslanmagan manfaatlar oxir natijada mutaassiblikka yoi bosadi. Manfaatlarning o'zgarishi idealdagi, e'tiqod va ishonchdagi beg'uborlik emas u inson dunyoqarashidagi istaklari va intilishlaridagi yangilikka moyillik ifodasidir. Modernizatsiyalash ijtimoiy hayot, tuzum, munosabatlar manfaatlarining o'zgarishini shart qilib qo'yadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yuqoridagi ma'ruzasida kechagi yutuqlar bilan maqtanib, qoniqib yashash mumkin

emasligini "jonajon Vatanimiz, olijanob xalqimizning ishonchini qozonish, uning orzu umidlarini ro'yobga chiqarish uchun faqat tinimsiz mehnat, izlanish va tashabbus ko'rsatib yashash kerak, odamlar buni kundalik hayotida sezishi, ko'rishi kerak", deb ta'kidlaydi. Tinimsiz mehnat, izlanish va tashabbus esa o'zgarayotgan dunyo, davr talablariga muvofiq yashashni, manfaatlarini ularga uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki o'zgarish inson, xalq manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin. Tarix guvohki, bunday manfaatlarining natijadagi maqsadi ayon bo'ladi, ularni shakllantirgan destruktiv kuchlar qoralanadi. Shunday salbiy holler yuzaga kelmasligi uchun umuminsoniy qadriyatlar va meyorlarga amal qilish taraqqiyot talabi, mezonni hamda ko'rsatkichi sifatida olinadi. Insonga, jamiyat taraqqiyotiga o'zgarishlarning o'zi emas balki umuminsoniy manfaatlarga xizmat qilish muhim. Shuning uchun ham I.Kant "axloqiy imperativlarni umuminsoniy qadriyatlarga kiritadi" [3]. Nimaiki, mazkur imperativ va qadriyatlarga zid kelsa, u shubhasiz destruktiv ahamiyat kasb etadi, kishilarni buzg'unchi g'oyalar ortidan ergashtirishga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgaruvchanlik inson xarakteridagi o'zgaruvchanlikka tayanadi. Inson qotib qolgan, dogmalarga tayanadigan turmush tarzidan ko'ra yangilanishga moyil ijtimoiy hayotdan ko'proq zavq oladi, mohiyat topadi. Globallashayotgan dunyo aslida o'zgarayotgan, tinmay yangilanishga, izlanish va yaratishga moyil dunyodir. Inson manfaatlarini nafaqat ular ta'sirida shakllanadi, shu bilan birga ularni in'ikos ham etadi. In'ikos qonuniga muvofiq inson aqlu idrokiga, rasional tasavvurlariga muvofiq keladigan manfaatlarga ergashib, ularni himoya qilib yashaydi. Demak, manfaatlar rasional, aqlu idrok tafakkur talablariga muvofiq kelishi shart. Buyuk bobimiz Alisher Navoiy aytganidek: "Ki har ishniki, qildi odamizod, tafakkur birla qildi odamizod" [9]. Tafakkur va manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat shaxsni buzg'unchi deviant xulq - atvorga yetaklashi, unda g'ayriijtimoiy talablarni shakllantirishi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat aqlu idrok, tafakkur talablari doirasidagi manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Mavhum manfaatlar deganda biz inson qiziqishlari va intilishlarida aniq ko'rinish kasb etmagan, shaxsning o'zi ham yetarli anglab yetmagan manfaatlarini nazarda tutamiz. Insonning barcha xatti-harakatlari ham manfaatlar tarzida namoyon bo'lavermaydi. Manfaat mudom anglanganlik, aniq tasavvur etish, bilish bilan bog'liq. Anglanmagan xatti-harakatlarni manfaatga aylantirish uchun shaxs hayotiy maqsadi va idealiga murojaat etadi. YA'ni xatti-harakatini hayotiy maqsadi va idealiga muvofiqlashtiradi. To uni bu jarayon amalgam oshmaguncha manfaat mavhum turadi. Demak, mavhum manfaatga anglanganlik, barqarorlik baxsh etish uchun inson uni hayotiy maqsadi, ideali, aqlu idroki va tafakkuri sintezidan o'tkazish darkor. Aslida inson xatti-harakatlari va intilishlarida to'la anglanmagan, beqaror omillar juda ko'p. Aynan ushbu ong osti omillarga diqqatini qaratgani uchun Z.Freyd ta'limoti ilm ahli orasida juda mashhur.

Bizning ishonchimiz komilki, anglanmagan, mavhum manfaatlarining negizini, inson xatti-harakatlariga ta'siri mexanizmlarini tadqiq etish, topish va ularni anglangan insoniy manfaatlar aylantirish qonunlarini kashf etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu bilan biz barkamol avlodni shakllantirishning yana bir ijtimoiy-amaliy masalasini yechgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Платон. Сочинения в 3 т. Т.3. Ч.1 – Москва : "Мысль" 1971
2. Аристотел, Сочинения в 4 т. т. 2. -Москва : "Мысль" 1974
3. Кант И. Сочинения в 6 ч т 3 - Москва: "Мысль", 1977
4. Нажимов Г. Культура и народные традиции. – Тошкент: "Фан", 1996
5. Ницше Ф. Воля к власти. Переоценка всех ценностей. - Москва ТОО "Транспорт", 1993
6. Галеви.Н Фридрих Ницше. – ТОК Товариш, 1992
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: "Ўзбекистон" 2014
8. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, катъийлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Халқ сўзи, 2017-йил 17-январ
9. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. - Тошкент: 1995



Malika SUVANKULOVA,

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tadqiqotchisi

S.f.d F.Jurakulov taqrizi asosida

MANTIQIY FIKRLASH ORQALI INGLIZ TILINI O'RGATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish usullari tahlil qilingan. Mantiqiy fikrlashning tilni anglash, tahlil qilish va ifoda etishdagi o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari talabalarda mantiqiy fikrlash rivojlangan sari ingliz tilini o'zlashtirish darajasi yuqorilashini ko'rsatdi. Maqolada ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mantiqiy fikrlash, ingliz tili, samaradorlik, ta'lim usullari, tahlil, kognitiv yondashuv.

МЕТОДИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ЧЕРЕЗ ЛОГИЧЕСКОЕ МИШЛЕНИЕ

Аннотация

В статье рассматриваются методы повышения эффективности преподавания английского языка за счёт формирования логического мышления у студентов. Раскрыта теоретическая значимость логического мышления в процессе понимания, анализа и выражения иноязычной информации. Результаты исследования показали, что по мере развития логического мышления уровень усвоения английского языка значительно возрастает. На основе полученных данных разработаны методические рекомендации, применимые в образовательной практике.

Ключевые слова: Логическое мышление, английский язык, эффективность, методы обучения, анализ, когнитивный подход.

METHODS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH THROUGH LOGICAL THINKING

Annotation

This article explores methods for enhancing the effectiveness of English language teaching through the development of students' logical thinking skills. It emphasizes the theoretical significance of logical reasoning in the processes of understanding, analyzing, and expressing linguistic content. Research findings indicate that as logical thinking develops, students' ability to acquire English improves significantly. Based on the results, methodological recommendations applicable in educational practice have been developed.

Key words: Logical thinking, English language, effectiveness, teaching methods, analysis, cognitive approach.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida integratsiya jarayonlari chuqurlashar ekan, chet tillarini, xususan, ingliz tilini samarali o'rgatish ta'lim sohasining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, ingliz tili – ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, siyosat va xalqaro hamkorlik sohalarida asosiy muomala vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimiz kamida ikki, uchta chet tilini bilishi ularning kelajakda munosib hayot kechirishi uchun eng muhim shartlardan biridir".

Biroq tilni samarali o'zlashtirishda ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning orasida, ayniqsa, mantiqiy fikrlashning o'rni alohida ahamiyatga egadir. Mantiqiy fikrlash — bu insonning tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, tanqidiy mulohaza yuritish qobiliyatidir. Tilni o'rganish jarayonida esa bu tafakkur mexanizmlari bilimlarni faqat yodlash emas, balki chuqur anglash va amalda qo'llash imkonini beradi.

Mantiqiy fikrlash kognitiv qobiliyatlar tizimining markaziy elementi hisoblanib, u til qoidalarini anglash, ma'noiy tuzilmalarni yechimlash, matn tahlili, muloqot strategiyalarini qo'llashda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, ingliz tili singari grammatik jihatdan tizimli, leksik jihatdan boy tilni o'rganishda mantiqiy fikrlash orqali faol o'quv faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu boradagi zamonaviy tadqiqotlar til o'rganuvchining muvaffaqiyati faqat eslab qolish qobiliyatiga emas, balki uning aqliy faolligi, fikrlash tezligi va muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatiga ham bog'liq ekanini isbotlamoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali ularda ingliz tilini o'rganish imkoniyatlarini oshirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi.

Maqolada ilk bor talabalar mantiqiy fikrlash darajasiga ko'ra guruhlanib, ularning til o'zlashtirish jarayonidagi farqlari

o'rganiladi, statistik tahlillar va diagrammalar asosida xulosalar chiqariladi hamda zamonaviy ta'limda foydalanish mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

1-BOB. Mantiqiy fikrlash va til o'rganish jarayoni o'rtasidagi bog'liqlik

1.1. Ilmiy-nazariy asoslar

Mantiqiy fikrlash inson tafakkurining yuqori bosqichi hisoblanib, murakkab bilimlarni anglash, qayta ishlash va samarali qo'llashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U – tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, dalillar asosida fikr yuritish, savol qo'yish va yechim topish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar til o'rganishda ayniqsa muhim, chunki til o'rganish – bu faqat grammatik qoidalarini yodlash emas, balki ma'noni anglash, to'g'ri kontekstda qo'llash va fikr almashish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir.

Til va fikrning tarixiy-ilmiy bog'liqligi

Til va fikr o'rtasidagi chuqur bog'liqlik masalasi qadimdan falsafa, lingvistika va psixologiyaning markaziy muammosi bo'lib kelgan.

Arastu (m.a. IV asr) tilni fikrning ifodasi deb baholagan va mantiqiy fikrlashni to'g'ri xulosalarga olib boradigan vosita sifatida tavsiflagan. Uning "Analitika" asarida mantiqiy qoidalar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu model til orqali fikr yuritishning ilk nazariy asoslarini yaratdi. Arastu ta'limni insonning mantiqiy salohiyatini rivojlantirish vositasi deb bilgan.

Gumboldt (XVIII–XIX asrlar) til har bir millatning fikrlash tarziga mos shaklda rivojlanishini aytgan. U tilni faqat aloqa vositasi emas, balki "fikr tug'ilishi jarayoni" deb baholagan. Demak, til – fikr yuritish mexanizmi va milliy ong ifodasidir. Bu qarash til va mantiqiy fikrlashning bir-birini shakllantiruvchi xususiyatini ochib beradi.

Jan Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalar mantiqiy fikrlashning aniq bosqichlaridan o'tadi. U fikrlash va til o'rtasidagi bog'liqlikni tajribalar orqali o'rgangan

va bolalarda tilni o'zlashtirish jarayoni assimilyatsiya (mavjud bilimga yangi bilimni moslash) va akkomodatsiya (bilish sxemasini o'zgartirish) orqali kechishini isbotlagan.

Lev Vigotskiy esa inson fikrlashi va nutqi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tadqiq qilgan. Uning fikricha, nutq – fikrni shakllantiruvchi vosita bo'lib, fikrlash jarayoni nutq orqali namoyon bo'ladi. U ta'lim jarayonida "yaqin rivojlanish zonasi"ni shakllantirish orqali talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan.

Zamonaviy nazariy yondashuvlar

Hozirgi tilshunoslik va ta'lim nazariyasida mantiqiy fikrlashning kognitiv va metakognitiv modellari keng o'rganilmoqda.

Stiven Krashen, Noam Xomskiy, Govard Gardner kabi olimlar fikrlash va til o'rganish o'rtasidagi bog'liqlikni neyropsixologik, kognitiv va intellekt nazariyalari asosida yoritishgan. Xususan, Krashen tilni o'zlashtirishda ichki kognitiv jarayonlarni faollashtirishni birinchi o'ringa qo'yadi. Xomskiy esa til qobiliyati inson ongida genetik ravishda mavjud deb hisoblaydi va unda mantiqiy tuzilmalarning mavjudligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi nazariy qarashlar shunga olib keladiki, mantiqiy fikrlash va til o'rganish o'zaro bog'liq, fanlararo jarayonlardir. Mantiqiy fikrlash bilimni anglash va qo'llashda intellektual poydevor vazifasini bajaradi. Ingliz tilini samarali o'rganish uchun talabada shunchaki lug'at zaxirasi emas, balki o'rganilayotgan ma'lumotni mantiqan anglash va ifoda etish qobiliyati bo'lishi kerak.

2-BOB. Amaliy tadqiqot natijalari: mantiqiy fikrlash va ingliz tilini o'zlashtirish o'rtasidagi bog'liqlik

Mantiqiy fikrlash darajasi	Talabalar soni	Ingliz tili test natijasi (o'rtacha ball)
Yuqori	30 nafar	88 ball
O'rtacha	30 nafar	72 ball
Past	30 nafar	55 ball



Diagrammada ham aniq ko'rinib turibdiki, mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalar intensiv va faol til o'zlashtirish qobiliyatini namoyon etgan. Ular grammatik konstruksiyalardan to'g'ri foydalangan, kontekstda so'z ma'nolarini anglay olgan, va matnlar bilan ishlashda tahlilga asoslangan yondashuvni qo'llagan.

Past darajadagi talabalar esa asosan mexanik yodlashga asoslangan, yangi leksik birliklarni qo'llashda ikkilanayotgani kuzatilgan.

Ilmiy xulosa:

Mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalar tilni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyati ko'proq tahlil, qiyos va xulosa qilish asosida shakllangan.

Bu natijalar til o'rgatish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Test natijalari statistik jihatdan ham o'zaro bog'liqlikni (correlation) namoyon etdi.

2.3. Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat berdiki, mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalar ingliz tilini o'zlashtirishda tahlil, qiyos va xulosa qilish kabi tafakkur jarayonlaridan samarali foydalanadilar. Ular grammatik va leksik bilimlarni anglashda mustaqillik va ongli yondashuv namoyon qilishdi.

Past mantiqiy fikrlash darajasidagi talabalar esa asosan mexanik yodlashga suyanan, tahlil va mustaqil fikrlashda qiyinchilikka duch kelgan. Bu holat til o'rganish jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish zarurligini yanada yaqqolroq asoslab berdi.

2.1. Tadqiqot mazmuni va metodikasi

Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universitetining chet tillar fakulteti 2-kurs talabalari o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqotda umumiy hisobda 90 nafar talabalar qatnashdi. Ular mantiqiy fikrlash qobiliyati darajasi va ingliz tilini o'zlashtirish samaradorligini baholash maqsadida uchta yo'nalish bo'yicha testlardan o'tkazildi:

Mantiqiy fikrlash testlari — deduktiv va induktiv fikrlashga oid topshiriqlar, misollar, muammoli savollar;

Intellekt kartalari (mind-mapping) — talabalar ma'lum bir mavzuda gap tuzish, matn tuzish va ayrim so'zlar orasidagi mantiqiy aloqalarni belgilash topshiriqlarini bajarishdi;

Ingliz tili bo'yicha diagnostik test — grammatika, leksika va reading comprehension asosida tuzilgan 50 ballik testlar.

Talabalar mantiqiy fikrlash natijalariga ko'ra uch guruhga ajratildi:

Yuqori daraja – mantiqiy tahlil va xulosalarda mustaqillik ko'rsatganlar;

O'rtacha daraja – savollarga qarama-qarshi javoblarni tanlashda ikkilanuvchi, tahlili noto'liq bo'lganlar;

Past daraja – tanqidiy fikrlash namoyon etmaganlar.

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotda 90 nafar 2-kurs talabasi ishtirok etdi. Ular logik fikrlash testlari, intellekt kartalari, hamda ingliz tili bo'yicha diagnostik testlar asosida baholandi.

2.2. Tadqiqot natijalari: jadval va tahlil

Test natijalariga ko'ra, mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalar ingliz tilini o'zlashtirish natijalari sezilarli darajada yaxshiroq bo'lgani aniqlandi:

3-BOB. Mantiqiy fikrlash asosida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishning amaliy yo'nalishlari

3.1. Metodik yondashuvlar: mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan ta'lim.

Tadqiqot natijalariga asosan, ingliz tilini o'qitishda mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi quyidagi metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi:

1. Muammoli ta'lim (Problem-based learning)

Talabalarga aniq grammatik qoidalarni emas, muammoli voqea yoki savollar orqali anglash, tahlil qilish va hal etish imkoni beriladi. Masalan, "if" qoidalari so'zsiz, real hayotdan vaziyat berish orqali o'rgatiladi.

2. Tanqidiy fikrlash mashqlari

Maqsad: talabalarni til elementlari ustida mustaqil fikr yuritishga o'rgatish. Buning uchun:

"Nima uchun bu jumla aynan shu qoida ishlatilgan?" deb savol berish.

"Agar bu jumla o'zgartirsak, ma'nosi qay darajada o'zgaradi?" kabi tahlillarga yo'naltirish.

3. Intellekt-karta (Mind-mapping) va Venn diagrammalar

Gap tuzish, leksik birliklar orasida bog'liqlik o'rnatish, tushunchalarni qiyoslash va umumlashtirish orqali talabalarda tartibli fikrlash qobiliyati shakllanadi.

4. Case-study va debating (bahslashuv) usullari

Fikrni dalil bilan ifoda etish, ingliz tilida erkin mulohaza yuritish va logik quvvatni ishga solish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon talabalarda mantiqiy bog'liq nutq va tahlil qobiliyatini rivojlantiradi.

3.2. Amaliy keys: Mantiqiy fikrlash asosida tashkil etilgan dars

Hokimlikka yozilgan elektron murojaat matni asosida o'quv mashqi:

“Hurmatli hokim! Bizning mahallamizdagi 29-maktabda internet aloqasi uzluksiz ishlamaydi. Bu maktab o'qituvchilari va o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'dirmoqda. Iltimos, ushbu masalani hal qilishda yordam bersangiz.”

Topshiriq:

Talabalar mazkur maktubdagi mantiqiy tizimni, so'z tanlovini, iltimos ifoda qilish uslubini tahlil qiladi. Keyin, ular o'zlari shu mavzuda mantiqan asoslangan va xushmuomala, rasmiy ruhda yozilgan yangi murojaat matnini ingliz tilida tuzadilar.

Bu mashq quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

So'z va gaplar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tushunish

Axborotni to'g'ri tuzish va izchil bayon etish

Maqsadga yo'naltirilgan fikr yuritish

Ingliz tilida mantiqan ishlangan rasmiy muloqotni shakllantirish.

3.3. Ta'lim tizimi uchun tavsiyalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini samarali o'rgatishda mantiqiy fikrlashni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu ilmiy xulosalardan kelib chiqqan holda, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dars jarayonida mantiqiy tahlil elementlarini tizimli joriy etish

Ingliz tili darslariga mulohazali savollar, qiyoslash mashqlari, fikrni dalil bilan ifoda qilish, “nega?”, “qachon?”, “qanday holatda?” kabi tahliliy savollardan foydalanish amaliyotini kiritish.

2. Metodik qo'llanmalarni qayta ko'rib chiqish va ularga mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi vazifalar qo'shish

Mavjud darsliklar va vazifalar ko'proq eslatma asosida emas, balki tahlilga yo'naltirilgan mashqlar bilan boyitilishi lozim. Masalan:

“Gapni to'ldiring” emas,

“Nima uchun shu jumlada aynan shu gap tuzilishi to'g'ri?” degan tahliliy yondoshuv.

3. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida “mantiqiy fikrlash + til o'rgatish” modullarini joriy etish

Kelajakda ingliz tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari bo'yicha alohida modullar tayyorlash lozim. Bu o'qituvchi-talaba munosabatlarini yangi bosqichga ko'taradi.

4. Baholash tizimida tanqidiy va mantiqiy yondoshuvlarni inobatga olish

Talabalarni baholashda faqat natija emas, balki jarayondagi fikrlash tarzi, deduktiv va induktiv xulosalari, iqtiboslardan to'g'ri foydalanish kabi ko'nikmalar ham inobatga olinishi zarur.

5. Ingliz tili darslarida muammoli vaziyatlardan foydalanishni doimiy amaliyotga aylantirish

Har bir grammatik yoki leksik mavzuga aloqador hayotiy voqelik asosida vaziyatli keyslarni taklif etish. Bu talabalarining fikrlash qobiliyati bilan birga hayotiy anglash qobiliyatini ham shakllantiradi.

6. Talabalarda mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyatni oshirish

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun talabalarining faqat darsda emas, mustaqil mashg'ulotlar orqali ham o'z ustida ishlashi talab etiladi. Shu maqsadda “refleksiya kundaligi” kabi o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi globallashuv jarayonida chet tillarini, xususan, ingliz tilini samarali o'rgatish masalasi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur maqolada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali ingliz tilini o'zlashtirish samaradorligini oshirish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etildi.

Ta'limda mantiqiy fikrlash — faqat aqliy qobiliyat emas, balki tilni to'g'ri va maqsadli anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, fikrni ifoda etish, munosabat bildirish kabi kompleks bilim va ko'nikmalar majmuasidir. Mahz shu tufayli til o'rganish jarayonida mantiqiy fikrlash elementlarini rivojlantirish ta'limning mazmun va shaklini takomillashtirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalar ingliz tilini o'zlashtirishda sezilarli ustunlikka ega ekanligini isbotladi. Test natijalari va statistik tahlillar ushbu bog'liqlikni amalda tasdiqlab berdi.

Maqolada mantiqiy fikrlashni shakllantirishga asoslangan ta'limiy modellar, interaktiv metodlar, keyslar va tahliliy yondoshuvlar orqali til o'rgatish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular orasida muammoli ta'lim, tanqidiy savollar, intellekt-kartalar va debating elementlari alohida o'rin tutadi.

Shu asosda, quyidagi ilmiy xulosalarni bildirish mumkin:

Ingliz tilini o'rgatishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish talabalarining anglash, tushunish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi.

Til o'rgatish jarayonidagi an'anaviy yodlashga asoslangan yondashuvlar kognitiv rivojlanishni cheklaydi.

Mantiqiy fikrlash va til o'rganish jarayoni o'zaro bog'liq va biri ikkinchisini rivojlantirishda qo'llovchi rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni joriy etish — nafaqat tilni, balki umumiy tafakkur salohiyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, til o'rgatish jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan, interaktiv va tahliliy metodlarning joriy etilishi talabalarining tilga bo'lgan munosabatini o'zgartiribgina qolmay, ularni mustaqil fikrlovchi, bilimli va dunyoqarashi keng shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Аналитика. — Москва: Наука, 1983. — 112-6.
2. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков. — Москва: Прогресс, 1985. — 59-6.
3. Пиаже Ж. The Language and Thought of the Child. — London: Routledge, 1959. — 45-p.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 1999. — 89-6.
5. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. — Cambridge: MIT Press, 1965. — 28-p.
6. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. — Oxford: Pergamon Press, 1982. — 85–110-p.
7. Гарднер Г. Структура разума. Теория множественного интеллекта. — Санкт-Петербург: Питер, 2007. — 35–60-6.
8. Taron B. Critical Thinking and Language Learning. — Oxford: Oxford University Press, 2011. — 101–118-p.



UDK:321.(51)

Sirojbek SULTANOV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sirojbek.sultanov@mail.ru

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

IJTIMOIIY DAVLAT G'OYASINING GENEZISI, FALSAFIY VA HUQUQIY TAHLIL ASOSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy davlat g'oyasining genezisi, nazariy va falsafiy tahlil asosi hamda Ijtimoiy davlat tushunchaning nazariy huquqiy tahlili asoslari hamda kelib chiqish tarixi yoritib o'tilgan. ijtimoiy davlat g'oyasining kelib chiqishi (genezisi), uning falsafiy va huquqiy asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan bo'lib, Aristotel, Platon, Jon Lokk, Jan-Jak Russo, Karl Marks va boshqa mutafakkirlarning qarashlari orqali shakllangan. Ushbu g'oya XIX-XX asrlarda industrial jamiyat rivojlanishi bilan yanada takomillashdi. Shuningdek Ijtimoiy davlatning kiritish zarurati hamda ushbu tushunchaning mazmun mohiyti yoritib berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, tarix, erkinlik, tenglik, adolat, shaxs, ijtimoiy adolat, ijtimoiy siyosat, qonun, ijtimoiyong, inson huquqlari, konstitutsiya.

GENESIS OF THE IDEA OF THE SOCIAL STATE, PHILOSOPHICAL AND LEGAL ANALYSIS BASIS

Annotation

This article covers the genesis of the idea of the social state, the basis of theoretical and philosophical analysis, and the foundations of theoretical legal analysis of the concept of the Social State, as well as the history of its origin. The origin (genesis) of the idea of the social state, its philosophical and legal foundations are scientifically analyzed. The concept of the social state has developed since ancient times and was formed through the views of Aristotle, Plato, John Locke, Jean-Jacques Rousseau, Karl Marx and other thinkers. This idea was further improved with the development of industrial society in the 19th-20th centuries. The need for the introduction of the Social State and the essence of the content of this concept are also highlighted.

Key words: Social state, history, freedom, equality, justice, personality, social justice, social policy, law, social consciousness, human rights, constitution.

ГЕНЕЗИС ИДЕИ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА, ОСНОВЫ ФИЛОСОФСКОГО И ПРАВОВОГО АНАЛИЗА

Аннотация

В статье рассматриваются генезис идеи социального государства, основы теоретико-философского анализа и основы теоретико-правового анализа концепции социального государства, а также история ее возникновения. Научно проанализировано зарождение (генезис) идеи социального государства, ее философские и правовые основы. Концепция социального государства развивалась с древнейших времен и формировалась через взгляды Аристотеля, Платона, Джона Локка, Жан-Жака Руссо, Карла Маркса и других мыслителей. Эта идея получила дальнейшее развитие с развитием индустриального общества в XIX-XX веках. Также подчеркивается необходимость введения социального государства и сущность содержания этого понятия.

Ключевые слова: Социальное государство, история, свобода, равенство, справедливость, личность, социальная справедливость, социальная политика, право, общественное сознание, права человека, конституция.

Kirish. "Ijtimoiy davlat" tushunchasi dastlab 1850-yilda davlat arbobi va iqtisodshi Lorens fon Shteyn tomonidan ishlatilgan. Shteynning ijtimoiy davlat nazariyasi Gegel falsafasi ta'sirida ilgari surilgan. Ijtimoiy davlat – nemissha so'z olingan. Ushbu tushunsha davlatning boshqaruv modeli bo'lib, ya'ni mavjud siyosatga har bir davlat fuqarosining munosib turmush darajasiga yerishish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga yordam berish va ijtimoiy adolat tamoyillariga ko'ra barsha boyliklarni qayta va teng taqsimlashdir. Lorens fon Shteyn davlatning fuksiyalari ro'yxatiga "barsha turli xil ijtimoiy tabaqalar ushuni, o'z hokimiyati orqali shaxsiy o'zini o'zi belgilaydigan shaxs ushuni huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlash" ni kiritdi. Shteynning fikriga ko'ra, davlat o'z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga hissa qo'shishi shart, shunki bunda birinshisi rivojlanmay turib ikkinshisining rivojlanishi mumkin yemas deb hisoblaydilar va bu omillar ijtimoiy davlatni rivojlantiruvshi yelemntlar hisoblanadi deya ta'kidlaydi. [1] "Ijtimoiy" so'zi "arabsha - jamoa, jamiyatga oid hamda inson va jamiyat hayotiga oid" degan lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Ijtimoiy davlat - insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatshilik rivojining maxsus bosqishi. Dastlab ijtimoiy davlat g'oyasi qadimgi sharqda, shuningdek, bizning buyuk mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy ma'rifatlil insonlar jamoasini, ideal jamiyat g'oyasini o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida aytib o'tgan. Xusasan

ijtimoiy davlat barro yetishni buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ham yezgu orzusi bo'lgan. U insonlarning baxtli va farovon yashashi ushuni munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma'rifatlil davlat boshqaruvi, adolatlarvar va odil hukmdor, insonlar o'zaro mehr-oqibatli va bag'oyat axloqiy bo'lish kabi qarashlarni ilgari surgan yedi. Ijtimoiy davlat konsersiyasi XIX asrning o'rtalarida Yevrorada sanoatlashtirish jarayoni natijasida vujudga kelgan ijtimoiy muammolarga javoban shakllangan. "Nemis iqtisodshisi va huquqshunosi Lorens fon Shteyn (1815-1890) birinshi bo'lib "ijtimoiy davlat" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan olim hisoblanadi" [2]. "U 1850-yilda o'zining "Bugungi fransuzlik kommunizmi va sotsializmi tarixi" asarida davlatning ijtimoiy funksiyasi g'oyasini ilgari surgan" [3]. Fon Shteynning fikrishga, davlat barsha fuqarolarning farovonligi va teng huquqliligini ta'minlashi va bu orqali jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf yetishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy davlat g'oyasining ildizlarini qadimgi Yunoniston va Rim faylasuflari asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. "Aristotel o'zining "Siyosat" asarida davlatning asosiy maqsadi sifatida umumiy farovonlikka yerishishni qayd yetgan" [3]. O'rta asrlarda va Uyg'onish davrida ham mutafakkirlar adolatli ijtimoiy tartib haqidagi g'oyalarni rivojlantirganlar. "Tomas Mor (1478-1535) o'zining "Utoriya" asarida tenglikka asoslangan ijtimoiy tuzumni tasvirlagan bo'lsa",

"Jan-Jak Russo (1712-1778) "Ijtimoiy shartnoma" asarida ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalari ilgari surgan" [4].

Ijtimoiy davlat konsersiyasining rivojlanishini quyidagi asosiy bosqishlarga bo'lish mumkin:

Birinshi bosqish (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlari)

Bu davrda ijtimoiy davlat g'oyasining nazariy asoslari shakllandi. "Germaniya kansleri Otto fon Bismark (1815-1898) dunyoda birinchi bo'lib davlat tomonidan boshqariladigan ijtimoiy sug'urta tizimini joriy yetdi. 1883-1889-yillarda Germaniyada kasallik, baxtsiz hodisalar, nogironlik va keksalik sug'urtasi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi". Bu islohotlar "Bismark modeli" nomini oldi va ko'rlab Yevrora davlatlari ushuna namuna bo'lib xizmat qildi.

"Shu davrda ingliz siyosatshisi lord Beverij (1879-1963) "Universal Welfare State" (Umumiy farovonlik davlati) konsersiyasini ishlab shiqdi. Uning 1942-yilda nashr etilgan "Beverij hisoboti" Buyuk Britaniyada ikkinshi jahon urushidan keyingi ijtimoiy islohotlar ushuna asos bo'lib xizmat qildi" [4].

Ikkinshi bosqish (XX asrning 30-70 yillari)

Bu bosqish iqtisodiy inqiroz davrida boshlandi va "keynsshilik" nomi bilan mashhur bo'lgan iqtisodiy nazariya asosida ijtimoiy davlat modelining amaliy tatbiq yetilishi bilan xarakterlanadi. "Jon Meynard Keyns (1883-1946) iqtisodiy nazariyasi davlatning iqtisodiy jarayonlarga faol aralashuvi zarurligi g'oyasiga asoslangan yedi". Keynsning g'oyalari bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosatning muvozanatli rivojlanishiga turtki berdi.

1949-yilda Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasida birinshi bor "ijtimoiy davlat" tushunshasi konstitutsiyaviy maqomga yega bo'ldi. "Konstitutsiyaning 20-moddasida "Germaniya Federativ Respublikasi – demokratik va ijtimoiy federativ davlatdir" deb belgilandi" [5].

"Bu davrda shved iqtisodshisi va siyosatshisi Gunnar Myrdal (1898-1987) iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bergan nazariyani ishlab shiqdi". "Shvetsiya modeli" sifatida tanilgan bu tajriba yuqori darajadagi ijtimoiy himoya va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirish imkonini berdi.

Ushinshi bosqish (XX asrning 70-yillaridan XXI asr boshigacha)

Bu davrda globallashuv va texnologik inqilob ta'sirida ijtimoiy davlat konsersiyasi transformatsiya jarayonini boshdan keshirdi. "Neftni yeksrtor qiluvshi davlatlar tashkiloti (OREK) mamlakatlari tomonidan neft narxlarining ko'tarilishi va iqtisodiy inqiroz natijasida G'arb davlatlari ijtimoiy xarajatlarni ortimallashtirishga majbur bo'ldilar" [6].

Bu davrda neoliberalistik g'oyalar ta'siri ostida "AQShda Ronald Reygan (1911-2004) va Buyuk Britaniyada Margaret Tetsher (1925-2013) rahbarligida davlatning iqtisodiy roli kamaytirildi, bozor mexanizmlariga ko'roq ye'tibor qaratildi" [7]. Ammo shu bilan birga, ijtimoiy davlat konsersiyasi yanada rivojlandi, unga inson huquqlari, yekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish kabi yangi asreklar qo'shildi.

To'rtinshi bosqish (XXI asr boshidan hozirgi kungacha)

Zamonaviy bosqishda ijtimoiy davlat konsersiyasi globallashuv, raqamlashtirish va demografik o'zgarishlar ta'sirida yanada transformatsiya bo'lmoqda. "Jozef Yudjin Stiglis va Tomas Riketti kabi zamonaviy iqtisodshilar ijtimoiy tengsizlikning o'sishi muammosini ko'tarib shiqmoqdalar". Axborot jamiyati va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati ta'lim, sog'liqni saqlash va inson karitalini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa shiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Bugungi kunda ijtimoiy davlat konsersiyasi nafaqat

ijtimoiy ta'minot va himoya masalalarini, balki fuqarolarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga shiqarish ushuna sharoit yaratishni ham qamrab oladi. "Zamonaviy ijtimoiy davlat inklyuziv iqtisodiy o'sish, inson huquqlari va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi".

Ijtimoiy davlatning bir nesha nazariy modellari mavjud:

Liberal model (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada) – davlat tomonidan minimal ijtimoiy kafolatlar ta'minlanadi, ijtimoiy xizmatlar asosan bozor mexanizmlari orqali taqdim yetiladi. "Fuqarolarning shaxsiy tashabbusi va mas'uliyati yuqori darajada rag'batlantiriladi" [8].

Konservativ-korrorativ model (Germaniya, Fransiya, Avstriya) – ijtimoiy xizmatlar asosan sug'urta to'lovlari orqali moliyalashtiriladi. "Ijtimoiy himoya darajasi shaxsning mehnat faoliyati bilan bog'liq. Ijtimoiy sheriklik va subsidiarlik tamoyillari muhim ahamiyatga yega" [9].

Sotsial-demokratik model (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya) – universal ijtimoiy xizmatlar tizimi mavjud, ijtimoiy himoya shoralari barsha fuqarolarga tatbiq yetiladi. "Yuqori soliqlar hisobiga davlat ijtimoiy dasturlarni keng moliyalashtiradi" [10].

O'tish davri modeli (Markaziy va Sharqiy Yevrora mamlakatlari) – "joriy yetilgan bozor mexanizmlari bilan davlat ijtimoiy kafolatlarini uyg'unlashtirishga intilish".

Osiyo modeli (Yaroniya, Janubiy Koreya) – "an'anaviy oilaviy qadriyatlar va korrorativ ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan ijtimoiy himoya tizimi".

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy davlat konsersiyasi uzoq tarixiy va nazariy yevolyutsiyani bosib o'tdi. Bu jarayonda u inson huquqlari, ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik g'oyalari o'zida mujassamlashtirdi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy davlat nafaqat ijtimoiy himoya mexanizmlarini ta'minlaydi, balki fuqarolarning salohiyatini ro'yobga shiqarish ushuna sharoit yaratadi, jamiyatning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi. "Turli mamlakatlarda ijtimoiy davlat turli modellarga yega bo'lib, ular milliy an'analar, tarixiy tajriba va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga muvofiq rivojlanadi".

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy davlat g'oyasi insoniyat tarixida uzoq yevolyutsion rivojlanish jarayonini bosib o'tgan bo'lib, uning asoslari falsafiy, siyosiy va huquqiy tamoyillarga tayanadi. Ushbu konsersiya qadimgi davrlardagi adolat va tenglik haqidagi qarashlardan boshlab, zamonaviy demokratik jamiyatlardagi ijtimoiy himoya mexanizmlarigacha bo'lgan bosqishlarda shakllangan. Falsafiy jihatdan, ijtimoiy davlat adolat, tenglik va inson huquqlari tamoyillariga asoslanadi. Huquqiy nuqtayi nazardan yesa, ushbu konsersiya xalqaro huquqiy hujjatlar va davlatlarning konstitutsiyalarida o'z aksini torgan. Ijtimoiy davlatning maqsadi jamiyatdagi har bir fuqaroning asosiy huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy farovonlikni oshirishdan iboratdir.

Bugungi kunda ijtimoiy davlat tamoyillarining amaliy qo'llanilishi turli mamlakatlarda har xil shaklda namoyon bo'lsa-da, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Davlatlar ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolar farovonligini oshirish ushuna ushbu modelni takomillashtirishda davom yetmoqda. Shu sababli, ijtimoiy davlat konsersiyasining ilmiy jihatdan shuqur o'rganilishi va rivojlantirilishi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy xususiyatlari kushli ijtimoiy himoya siyosatini, ta'lim sifat yuqoriligi va u insonravarlik, inson huquq va yerkinliklariga himoya qilishga, kushli jamoatshilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari ta'siri kushli yekanligi, barsha davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslari inson va jamiyat oldida mas'ulligi, javobgarligi hamda ularning manfaatlariga xizmat qilishi, korrsuriya deyarli sezilmaydigan daraja mavjud bo'lishi ushuna o'z fuqarolarini doimo himoyalamoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ritter, G. A. (2010) "Der Sozialstaat: Entstehung und Entwicklung im internationalen Vergleich", Oldenbourg Wissenschaftsverlag, München, s. 11-12.
2. Shteyn, L. (1850) "Istoriya sotsialnogo dvijeniya Fransii s 1789 goda", SPb.: Tip. A.M. Kotomina, s. 27-31.
3. Aristotel. (2020) "Siyosat", Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, b. 73-75.
4. Mor, T. (2015) "Utopiya", Toshkent: "Akademnashr", b. 42-48.
5. Russo, J.J. (2010) "Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy huquq prinsiplari", Toshkent: "O'zbekiston", b. 65-72.

6. Hennock, E.P. (2007) "The Origin of the Welfare State in England and Germany, 1850-1914", Cambridge University Press, p. 123-128.
7. Beveridge, W. (1942) "Social Insurance and Allied Services", London: HMSO, p. 14-19.
8. Keynes, Dj.M. (2018) "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi", Toshkent: "O'zbekiston", b. 35-42.
9. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (1949), Artikel 20.
10. Myrdal, G. (1960) "Beyond the Welfare State", New Haven: Yale University Press, p. 52-58.
11. Pierson, P. (2001) "The New Politics of the Welfare State", Oxford University Press, p. 97-103.
12. Harvey, D. (2007) "A Brief History of Neoliberalism", Oxford University Press, p. 72-78.



UDK:372.891

Nodirjon SUYAROV,

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

NamDPI ART pedagogikasi kafedrasida dotsenti PhD A.Tadjibayev taqrizi asosida

MODERN REQUIREMENTS FOR TEACHING STUDENTS TO APPRECIATE AND USE LOCAL ETHNOMANGUAGE TRADITIONS

Annotation

This article examines the importance of the globalized world in education of local ethnocultural traditions, issues on the connection of traditions with cultural heritage, development of a sense of values and belonging among students, modern requirements for teaching students to appreciate local ethnocultural traditions and use in educational institutions. As such, the need to include traditions in curricula, the role of teachers in increasing cultural literacy, and the growing influence of globalization have been highlighted.

Key words: Ethnocultural traditions, appreciation of culture, education, pedagogy, globalization, identity, cultural heritage, curriculum integration.

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ ЦЕНИТЬ И ИСПОЛЬЗОВАТЬ МЕСТНЫЕ ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ТРАДИЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные для глобализованного мира вопросы значимости местных этнокультурных традиций в образовании, связи традиций с культурным наследием, особенности развития ценностей и чувства принадлежности среди учащихся, современные требования к обучению студентов ценить местные этнокультурные традиции и использовать их в учебных заведениях. Он также освещает проблемы, связанные с необходимостью включения традиций в учебные программы, ролью учителей в повышении культурной грамотности и растущим влиянием глобализации.

Ключевые слова: Этнокультурные традиции, оценка культуры, Образование, Педагогика, глобализация, самобытность, культурное наследие, интеграция учебных программ.

TALABALARNI MAHALLIY ETNOMADANIY AN'ANALARNI QADRLASH VA UNDA FOYDALANISHGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY TALABLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashtirilgan dunyoning mahalliy etnikmadaniy an'analarining ta'limdagi ahamiyati, an'analarining madaniy meros bilan bog'lanishi bo'yicha masalalar, qadriyatlar va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish o'quvchilar o'rtasida o'ziga xos jihatlari, talabalarni mahalliy etnik-madaniy an'analarni qadrlash va ta'lim muassasalarida foydalanishga o'rgatishning zamonaviy talablari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, an'analarni o'quv dasturlariga kiritish zarurati, madaniy savodxonlikni oshirishda o'qituvchilarning roli va globallashtirish ta'sirining kuchayishi bilan bog'liq muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Etnomadaniy an'alar, madaniyatni qadrlash, ta'lim, pedagogika, globallashtirish, o'ziga xoslik, madaniy meros, o'quv dasturlari integratsiyasi.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimlari o'quvchilarni mahalliy o'ziga xoslik va an'analarni saqlab qolgan holda globallashtirilgan dunyoga tayyorlashdek ikki tomonlama muammoga duch kelmoqda. Mahalliy urf-odatlar, ye'tiqodlar, tillar va amaliyotlarni o'z ichiga olgan yetnomadaniy an'alar jamiyatning o'ziga xosligi va merosining ajralmas qismidir. Talabalar uchun bu an'analarni tushunish va qadrlash o'zlariga tegishlilik tuyg'usini, ularning ildizlari bilan faxrlanish va atrofdagi dunyoni kengroq tushinishda muhim ahamiyatga ega [1].

Zamonaviy ta'lim yondashuvlari global ta'sirlar va mahalliy o'ziga xosliklar o'rtasidagi ushbu dinamik o'zaro ta'sirni hal qilishi kerak. Texnologik taraqqiyot va ijtimoiy medianing yuksalishi dunyoni bir-biri bilan yanada bog'langan bo'lsa-da, ular mahalliy madaniyat va qadriyatlarining susayishiga ham olib keldi. Bunday sharoitda o'quvchilarni mahalliy yetnomadaniy an'analarni qadrlash va undan foydalanishga o'rgatish nafaqat ilmiy izlanish, balki ijtimoiy zaruratga ham aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mahalliy etnomadaniy an'analarning ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishini tahlil qilgan adabiyotlar orasida M. Abdurahmonov, Sh. To'raqulov, B. Sultonov kabi ilmiy izlanishlar mavjud. Ular o'z tadqiqotlarida an'anaviy madaniyatni o'qitish va yoshlarni tarbiyalash jarayonida qanday samarali usullarni qo'llash kerakligi haqida mulohazalar yuritadilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqilgan qo'llanmalar va metodik materiallar ham talabalarni mahalliy madaniyat bilan tanishtirishda qo'llaniladigan eng muhim manbalardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Yetnomadaniy an'alar, ayniqsa, boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lgan hududlarda ta'limning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu an'alar talabalarga o'z jamiyatining tarixi, qadriyatlari va ijtimoiy amaliyotlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bularni o'quv dasturiga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro hurmatni rag'batlantiradigan mustahkam madaniy asoslarni yaratishga yordam berishi mumkin [2].

Yetnomadaniy an'analarni ta'limga kiritish talabalarga quyidagilarga yordam beradi:

Madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish: Mahalliy urf-odat va an'analarni tushunish o'quvchilarning o'ziga xoslik va o'zini o'zi qadrlash hissini kuchaytiradi. Kuchli madaniy o'ziga xoslik talabalarga ko'r madaniyatli muhitda ishonch bilan harakat qilish imkonini beradi [3].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Yetnomadaniy an'alar ko'rinishida murakkab dunyoqarash va falsafalarni o'zida mujassam yetgan. Ushbu an'alar bilan shug'ullanish orqali talabalar madaniy taxminlar va qadriyatlar haqida tanqidiy fikrlashga da'vat yetiladi.

Ijtimoiy mas'uliyatni rag'batlantirish: Mahalliy urf-odatlarini o'rganish ijtimoiy mas'uliyat hissini uyg'otadi, chunki talabalar o'zlarining madaniy merosini saqlash va targ'ib qilishdagi rolini tushuna boshlaydilar.

Global kompetensiyani oshirish: O'z madaniyatini chuqur anglash talabalarga boshqalarning madaniyatini yaxshiroq qadrlash va hurmat qilish, global kompetensiya va yemratiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim muassasalarida yetnik-madaniy an'analarni samarali o'rgatish uchun o'qituvchilar bir nechta asosiy talablarni bajarishlari kerak:

O'quv dasturlari integratsiyasi: Yetnik-madaniy mazmun o'quv dasturiga mazmunli kiritilishi kerak. Buning uchun an'anaviy bilimlarni zamonaviy ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtiruvchi ruxta rejalashtirilgan yondashuv talab etiladi. Tarix, adabiyot va san'at kabi fanlar ushbu integratsiya uchun tabiiy rlatformalar beradi, ammo o'qituvchilar madaniyatshunoslikni fan va texnologiya sohalariga qo'shish yo'llarini ham o'rganishlari kerak.

O'qituvchilarni tayyorlash va sezgirlik: O'qituvchilar madaniy bilimlarni berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarning o'z madaniy merosi bilan shug'ullanishini osonlashtiradigan mazmuni ham, redagogik strategiyalarni ham yaxshi bilishlari kerak. O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari yetnik-madaniy an'alar va ularni interaktiv, inklyuziv va dolzarb bo'lgan usullarda o'qitish usullariga oid modullarni o'z ichiga olishi kerak [4].

Texnologiya va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish: Bugungi raqamli asrda texnologiya yetnik-madaniy an'analarni o'rgatish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Virtual sayohatlar, multimedia taqdimotlari va madaniy kontentning onlayn omborlari talabalarga o'z merosini interaktiv va qiziqarli usullarda o'rganish imkonini beradi. Ijtimoiy media rlatformalari, shuningdek, talabalarga o'zlarining madaniy bilimlarini kengroq auditoriya bilan bo'lishish va nishonlash imkoniyatini beradi.

Inklyuziv redagogika: Yetnomadaniy ta'lim inklyuziv bo'lishi kerak, sinfdagi barcha o'quvchilarning turli madaniy kelib chiqishini hisobga olgan holda. O'qituvchilar o'quv dasturi bir madaniy guruhni boshqasidan ustun qo'ymasligini ta'minlashi kerak, aksincha, o'quvchilarni o'z jamiyatidagi turli xil madaniy ifodalarni o'rganishga va qadrlashga undaydi.[5]

Talabalarning faolligi: Talabalar madaniy bilimlarni rassiv qabul qiluvchilar bo'lmashligi kerak. Zamonaviy redagogik usullar faol ta'limga urg'u beradi, bunda talabalar loyihalar, yekskursiyalar, chiqishlar va boshqa amaliy mashg'ulotlar orqali an'alar bilan shug'ullanishadi. Bunday tadbirlar o'quvchilarga o'z madaniy merosini bevosita his qilish imkonini beradi, bu yesa o'rganishni yanada mazmunli va yesda qolarli qiladi.

Uning ahamiyatiga qaramay, yetnomadaniy an'analarni o'rgatishda bir qancha muammolar mavjud.

Globallashuv: Global madaniy meyorlarning tez tarqalishi ko'rincha mahalliy an'analarga soya soladi. Ko'r hollarda talabalar o'zlarining yetnik-madaniy merosidan ko'ra global ror madaniyati bilan ko'rroq tanish bo'lishi mumkin, bu yesa mahalliy an'analarni targ'ib qilishga urinayotgan o'qituvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Urbanizatsiya va migratsiya: harakati aholining shaharlarga borishi, shuningdek, migratsiya sur'atlarining oshishi mahalliy madaniy aloqalarning zaiflashishiga olib keldi. Kosmorolit shaharlarda yashovchi talabalar uchun yetnik-madaniy ta'limning kundalik hayotida ahamiyatsiz bo'lishiga olib keladigan qishloq yoki mahalliy an'alar bilan bog'lanish qiyinroq bo'lishi mumkin [6].

Til to'siqlari: Ko'rgina yetnik madaniy an'alar yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan muayyan tillar bilan bog'langan. O'z ota-bobolarining tilini bilmaydigan talabalar uchun an'anaviy hikoyalar, qo'shiqlar va marosimlarda o'rnatilgan madaniy bilimlar bilan to'liq shug'ullanish qiyin kechadi.

Resurslarning yyetishmasligi: Ba'zi maktablar va jamoalarda yetnik-madaniy an'analarni samarali o'rgatish uchun zarur bo'lgan resurslar yyetishmasligi mumkin. Bunga darsliklar, o'quv materiallarining yetishmasligi yoki o'z tajribasini talabalar bilan baham ko'rishi mumkin bo'lgan bilimdon jamiyat a'zolaridan foydalanish imkoniyati kiradi (1-rasm).



1-rasm. Qiyinchiliklarni yyengish uchun strategiyalar

Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar va siyosatchilar faol yondashuvni qo'llashlari kerak:

Jamiyatlar bilan hamkorlik: Madaniy bilimlarni o'quvchilarga yyetkazish uchun maktablar mahalliy hamjamiyat bilan yaqindan hamkorlik qilishi kerak[7] Bu mahalliy oqsoqollar, rassomlar va madaniyat amaliyotchilarining maktab tadbirlarida ishtirok yetishi va o'z tajribalarini baham ko'rishlari uchun taklif qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Mahalliyashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish: Milliy ta'lim standartlari muhim bo'lsa-da, turli mintaqalarning o'ziga xos madaniy kontekstlarini aks yettiruvchi mahalliyashtirilgan o'quv dasturlari asoslari muhim ahamiyatga yega. Ushbu ramkalar talabalarning madaniy muhitiga mos keladigan va aks yettiruvchi ta'lim olishlarini ta'minlashi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maktablar o'quvchilarga o'zlarining yetnik-madaniy an'analarni tushunishlari va qadrlashlarini namoyish qilish imkonini beradigan madaniy festivallar, ko'rgazmalar va srektaklar tashkil yetishlari mumkin:

tadbirlar nafaqat talabalarga o'z merosi bilan shug'ullanishga yordam beradi, balki madaniyatlararo almashinuv uchun imkoniyatlar yaratadi;

- maktablar o'quvchilarning ona tillarida ham, milliy yoki global tillarda ham ravon garirishlarini ta'minlash uchun ko'r tilli ta'limni rivojlantirishi mumkin;

- ikki tilli yondashuv talabalarga ham zamonaviy, ham an'anaviy bilimlardan foydalanish imkonini beradi.

- hukumatlar yetnik-madaniy an'analarni o'rgatish bo'yicha dasturlarni yyetarli darajada moliyalashtirishi kerak. Bu o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va madaniy ta'limni barcha talabalar uchun ochiq qiladigan raqamli resurslarni yaratishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Globallashuv zamonaviy jamiyatlarni shakllantirishda davom yetar yekan, ta'lim tizimlari o'quvchilarni ko'r madaniyatli va o'zaro bog'liq kelajakka tayyorlash bilan birga madaniy xilma-xillikni saqlash yo'llarini torishi kerak. Yetnikmadaniy an'analarni o'quv dasturiga kiritish, o'qituvchilarni tayyorlash va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali maktablar madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Shu bilan birga, ular talabalarni global jamiyatda rivojlanish uchun zarur bo'lgan madaniy savodxonlik va hamdardlik bilan jihozlaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent.2022. 212-bet
2. Taxirovich S.N. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida etnomadaniy kompyetyensiyani milliy-hududiy matyeriallar vositasida rivojlantirish.
3. Taxirovich S.N. Use of the regional component in fine arts classes 5-7 //archive of conferences. – 2021. – c. 1-3.
4. Кремлева Н. А., Евтушенко И. Н. Формирование этнокультурной компетентности педагогов дошкольной образовательной организации.
5. Степанова О. Н. Концептуальные основы формирования этнокультурной компетентности ребенка в поликультурной среде дошкольного образовательного учреждения //Наука и школа. – 2007. – №. 5. – С. 73-76.



UDK: 370:(86.01)

Nilufar TALIPOVA,

Institute of National Variety Arts named after Batyr Zakirov under the state Conservatory of Uzbekistan "Uzbek language, sports and social sciences" department associate professor v. b.

E-mail: javani779@mail.ru

Tel: +998909280200

Based on the review of Doctor of Philology, Associate Professor M.A.Abdullaeva

THE ROLE OF INNOVATIVE-INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING STUDENTS CREATIVE ABILITY

Annotation

This article discusses the role of innovative-interactive methods in developing students' creativity and the content of developing students' creative abilities based on innovative technologies, a competent approach, information technology, information media, multimedia, electronic albums, electronic atlases, virtual stands, imitation virtual simulators, audio and video visual materials, video animations.

Key words: Student, technology, method, methodology, Creative thinking, education, technical support, innovative-interactive methods.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННО-ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль инновационно-интерактивных методов в развитии креативности учащихся и содержание развития творческих способностей учащихся на основе инновационных технологий, компетентностного подхода, информационных технологий, информационных носителей, мультимедиа, электронных альбомов, электронных атласов, виртуальных стендов, имитационных виртуальных тренажеров, аудио- и видеовизуальных материалов, видеоанимаций.

Ключевые слова: Ученик, технология, метод, методика, Творческое мышление, образование, техническое обеспечение, инновационно-интерактивные методы.

TALABALARNING KREATIV QOBILYATI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION-INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalarning kreativlikni rivojlantirishda innovatsion-interfaol metodlarning o'rni hamda talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish mazmuni, komretentli yondashuv, axborot texnologiyasi, axborot vositalari, multimedia, yelektron albom, yelektron atlas, virtual stendlar, imitatsion virtual trenajyor, audio va video vizual materiallar, video animatsiyalar haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, texnologiya, metod, metodologiya, Kreativ fikrlash, ta'lim –tarbiya, texnik ta'minot, innovatsion-interfaol metodlar.

Introduction. Currently, innovative modules for self-development and improvement of creative abilities of future teachers are being implemented in educational institutions of the world. In line with the recognition of "Education as the main driving force of development and a key activity leading to the achievement of sustainable development goals" in the UNESCO Incheon Declaration, which is planned for 2030, systematic work is being carried out to improve the professional competence of qualified specialists, identify qualities related to creativity and non-standard thinking, and implement large-scale projects aimed at developing the creative qualities of the individual in the education system.

Literature review. In educational and scientific research institutions around the world, scientific research is being conducted to increase the competitiveness of graduates based on a creative approach to education, develop the creative qualities of teaching staff, create modern methodological support for designing the educational process, develop creative qualities in students, as well as to ensure the quality of higher education, improve organizational and didactic design, and improve innovative and interactive technologies.

In his book "New Uzbekistan Development Strategy", the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev said, "We all see how fierce competition is taking place on a global scale. We can adequately respond to this fierce competition only through the widespread introduction of modern science, high technologies and innovative achievements." Therefore, there are and are many studies conducted by our country and foreign scientists that show the close connection between creativity and knowledge.

Research methodology. During the research, scientific pedagogical principles such as systematicity, theoretical-deductive inference, analysis and synthesis, historicity and logic, comparative-comparative analysis were used. The concept of creativity was first introduced by American and European scientists. The issues of creativity and the development of individual creativity were first used as a basic concept by Ray M. Simpson in the USA in 1922, while the first theoretical and practical research belongs to the American psychologist J.P. Guilford: he introduced the term "creativity" in 1959, calling it a special type of thinking - divergent ("divergent, going in different directions") thinking, which provides many ways to solve a problem, leading to unexpected conclusions and results. Such thinking is compared with convergent, aimed at the only correct solution. Convergent (from Latin convergere - in one way) is a form of thinking that involves choosing only the only correct one from several solutions to a problem. Convergent thinking is based on intelligence, therefore it is also called intellectual thinking. Among the scientists from the countries of the Commonwealth of Independent States on creativity, Y.R. Varlakova conducted scientific research on the development of creativity in future bachelors of pedagogical education in higher educational institutions, N.M. Gnatko on the problem of creativity and the phenomenon of imitation, L.D. Lebedeva on the creativity of primary school students, V.F. Lugovaya on creativity as a component of the adaptive potential of the individual, L.A. Zatsepilova, O.G. Pozdnyakov, O.N. Ovsyannikova conducted scientific research on the development of creativity in students of higher military educational institutions.

As a result of scientific research, we can say that the process of creativity includes the development of initial ideas, their research and analysis, and, if necessary, their rejection. A creative approach to the educational process is used not only to work with students who have lost interest in learning, mastering the basics of academic subjects, but also to engage in lively, interesting, lively communication, and to encourage them to be active in acquiring knowledge.

Thus, an important condition for the development of students' creative qualities is to create an atmosphere of creativity during classes, because only in this case there is an opportunity to demonstrate abilities in various educational activities. At the same time, it should be noted that the contribution of each individual to the common cause is important, it is necessary to stimulate interest, develop interests, increase motivation, freedom of speech and action. This helps to reduce the level of fear of saying or doing something that goes beyond the boundaries established by the static, existing educational system. R.Y. Musinova's scientific views emphasize that the process of creative self-management itself can be presented in the form of conditional, consistent actions, including the selection and implementation of a creative goal, the understanding and accounting of individual creative, creative opportunities, the formation of ideas about the construction of a sequence of actions, the establishment of norms and criteria for evaluating information and results, the construction of programs to achieve a creative goal. According to I.M. Sirojiddinova, the stability of the process of developing professional and creative abilities depends on the student's age, level of education, individual characteristics of the individual and the characteristics of the educational work of the higher educational institution, how it can generalize its educational impact on students with their activities in this area.

In our view, creativity is understood as a process carried out by a person, having its own unconventional qualities and leading to the creation of new ideas, then creativity is considered as a person's intellectual potential, an internal resource. It is known that creative activity makes our everyday life more attractive, science and art cannot be imagined without creativity. We are always creating when we express a complex thought or darken a blank sheet of paper with text. If we can do this effectively and unusually, we can truly be called creative people. G.N. Ibragimova shows the need to create a paradigm based on the acquisition of new knowledge by students, creativity and thinking criteria, which reflects such aspects as the content of education, methods, organizational forms, and personnel supply on a wide scale, bringing educational problems to the forefront as a separate urgent issue. This, he argues, has created requirements for the modern teacher, who independently organizes and manages the educational process, ensuring the creative and intellectual development of each student, by humanizing, liberalizing, and personalizing the "teacher-student" relationship in the educational process.

In particular, Y.M. Asadov, in his scientific views, the most valuable feature of creative potential is its high role in the field of innovation. Innovation is the most systematic and visual result of using creative potential as an intellectual series, which is primarily a product of the human mind. And accordingly, he emphasizes that it is innovations that have the greatest impact on the development of scientific and technological progress. According to T.CH. Aliboyev, creativity is the ability to create many ideas of practical value, which allows you to save time and effort, and ensures the creation of a product that is convenient for use in all respects. The activity of a person with this quality reflects the ability to consistently put forward new ideas, make rational decisions in finding a solution to a problem, interpret the product in a unique way, enrich it with original elements, which creates a result (product) of practical value. G.N. Ibragimova argues that creativity is a set of skills related to a person's creative and inventive qualities, which includes a high level of sensitivity to problems, intuition, the ability to foresee results, fantasy, research, and reflection.

In our opinion, in order to become a creative person in the educational environment, students of military education faculties must have the necessary and sufficient knowledge, skills,

qualifications and abilities provided for in the State Educational Standard and the qualification requirements of military education faculties, be highly motivated, show interest in learning and creative activity, demonstrate originality and fluency of thinking.

The formation and development of a creative person depends on his adaptation to changes in his internal and external world, socio-economic conditions and the content of human ontogeny, that is, from birth to the end of his life, which requires continuity and succession. This activity, of course, determines the result of the socialization of the individual. In connection with the prioritization of the creative potential of the individual for society, it is considered appropriate that the main focus in modern education should be on encouraging the child's freedom and individuality, self-control, openness to new ideas, and participation in creative games. The formation of an innovative educational environment confirms that the development of individual intelligence is the basis for the effective use of human capital. After all, the effective use of human capital ensures the development of society. Therefore, the need to develop individual intelligence and form the ability to think critically, creatively, and imaginatively is becoming increasingly urgent worldwide. The experience of world education has confirmed that the upbringing of a creative personality and the training of qualified specialists, relying on the capabilities of STEAM disciplines - science, technology, engineering, design (art), mathematics, which play an important role in the development of modern society, guarantee the rapid development of society in social, economic, and cultural terms. The conference "STEM - forward" (Jerusalem, 2014) recognized the appropriateness of assessing the level of student mastery using the criteria of communication, cooperation, critical thinking, and creativity. In addition, the fact that, starting in 2021, PISA (Programme for International Student Assessment), which allows assessing students and young people in general secondary schools in areas such as mathematics, natural sciences, and computer literacy, is being enriched with the criterion of creativity, shows that it is becoming increasingly important.

CIS scientists have also been engaged in issues related to creativity, the formation of cultural values of the individual, creative abilities, creative activity and a systematic approach to the study of the individual and have managed to find various effective solutions in their research. For example, S.L. Rubinstein, T.A. Gartung, S.P. Osipenko, I.K. Shylaring and others have conducted research. Theoretical and practical models of filling cultural gaps that allow the formation of creative abilities of adolescents have been revealed in the research of others. It is worth dwelling on their separate scientific research, since their research focuses on the pedagogical possibilities of forming creative abilities of modern higher education students based on a creative approach and on the definition of creativity in pedagogical work as a component of the value orientation of a teenager.

Also, a number of scientific studies have been carried out on the concept of the creative approach as a source of self-personal and creative development of higher education students (Y.V. Bugakova), the psychological conditions for the development of creativity in adolescents in the educational process (O.A. Khalifayeva), and the cognitive foundations of creativity (I.K. Shhai).

A person develops and achieves progress through active creativity. "Creativity expands the boundaries of human spiritual and mental activity. A person acquires the status of a creator only through creative skills, mental and physical labor." Analysis of the scientific research conducted and the study of the problem of socialization of adolescents through the formation of creativity on the basis of a creative approach require the harmonious application of existing technologies, psychological and pedagogical conditions and opportunities for their implementation in a creatively oriented educational environment in this process.

The formation of creativity in students is a complex process, and this process requires a step-by-step implementation. The scientific research carried out within the framework of the research problem - the scientific works of Wallace Graham, Betty B. Rossman, Alex Osborn, Dwight H. Perkins, Don Koberg, James F. Bandrowsky, Scott G. Isaacsen, Robert Fritz, Sidney J.

Parns, and their models of creative thinking, led to the conclusion that the development of creative qualities in students occurs in the following stages:

1. Adaptive stage
2. Development stage
3. Practical-active stage
4. Analysis-evaluation stage

Conclusion. The development of creative skills in students is one of the urgent tasks of today, and based on the above theoretical foundations, the following conclusion can be drawn: Interactive educational methods and technologies are of particular importance in the formation of creative abilities in students, and the interactive educational process aimed at developing creativity in students has its own specific content,

tools, pedagogical conditions, features and methods. The concept of "creative pedagogy" has not been used in modern pedagogy for so long. However, the need to establish innovative and creative approaches to the educational process ensured the formation of "Creative pedagogy" as an independent subject among the pedagogical disciplines. The basis of this subject is the methodological ideas of such disciplines as the history of pedagogy, general and professional pedagogy and psychology, teaching methods of special subjects, educational technology and professional ethics. The general principles of the discipline of "creative pedagogy" serve to create the necessary conditions for the professional development of specialists, including students. The professional development and development of a person as a specialist is, by its very nature, a process.

REFERENCES

1. SH.M. Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent, 2022. – 124 b.
2. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.
3. Мухаммаджон Ходжаев, Мавлуда Қаҳҳорова. Чет тили ўқитиш методикаси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 148 бет
4. Komilova, V. (2022). O'qituvchining kommunikativ qobiliyati. Scientific progress, 3(4), 1150-1155



UDK: 37.01+316.72.+316.647.5

Eldor TANGIROV,

Samarqand davlat Tibbiyot universiteti Pedagogika-psixologiya kafedrası mudiri

E-mail: e.tangirov@inbox.ru

SamDTU dotsenti, p.f.d. Sh.N.Muratova taqrizi asosida

IMPROVING THE METHODOLOGY OF EDUCATING ETHNOCULTURAL TOLERANCE AMONG YOUTH STUDENTS

Annotation

This article analyzes the issues of developing ethnocultural tolerance in students of medical higher educational institutions and improving its methodological foundations. In the context of the modern process of globalization, specialists in the field of medicine must have not only professional skills, but also the cultural competence necessary to work in a multinational environment. In this regard, the article examines methods of educating ethnocultural tolerance, approaches and innovative techniques.

Key words: Ethnocultural, tolerance, social and moral creation, seminar–trainings, tests, contests, competitions, clubs, centers, xenophobia, ethnocentrism, extremism, intellectual potential, professional ethics, customs, principles of tolerance, ethnographic, Zoroastrianism and Islamic philosophy.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ВОСПИТАНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы формирования этнокультурной толерантности у студентов медицинских высших учебных заведений и совершенствования ее методологических основ. В условиях современного процесса глобализации специалисты в области медицины должны обладать не только профессиональными навыками, но и культурной компетентностью, необходимой для работы в многонациональной среде. В связи с этим в статье рассматриваются методы воспитания этнокультурной толерантности, подходы и инновационные методики.

Ключевые слова: Этнокультурный, толерантность, социально–нравственное созидание, семинар–тренинги, тесты, конкурсы, соревнования, клубы, центры, ксенофобия, этноцентризм, экстремизм, интеллектуальный потенциал, профессиональная этика, обычаи, принципы толерантности, этнографический, зороастризм и исламская философия.

TALABA-YOSHLAR O'RTASIDA ETNOMADANIY BAG'RIKENGLIKNI TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarida etnomadaniy bag'rikenglikni shakllantirish va uning metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Bugungi globalashuv jarayonida tibbiyot sohasidagi mutaxassislar nafaqat kasbiy malakaga, balki ko'p millatli muhitda ishlash uchun zarur bo'lgan madaniy kompetentsiyalarga ham ega bo'lishi lozim. Shu bois, maqolada etnomadaniy bag'rikenglikni tarbiyalash usullari, yondashuvlari va innovatsion metodlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zi: Etnomadaniy, bag'rikenglik, ijtimoiy–ma'naviy bunyodkorlik, seminar–treninglar, testlar, bellashuvlar, tanlovlar, klublar, markazlar, ksenofobiya, etnotsentrizm, ekstremizm, intellektual salohiyat, kasb etikasi, urf–odatlar, tolerantlik tamoyillari etnografik, Zardushtiylik va islom falsafasi.

Kirish. O'zbekistonda hamjihatlikda yashash madaniyati yeng qadimgi davrlardan shakllangan bo'lib, o'zbek xalqining milliy xususiyatlaridan biriga aylangan. Zardushtiylik va islom fal safasida bag'rikenglik tafakkurini o'ziga chuqur singdirgan ijtimoiy faol insonni tarbiyalash masalasi ustuvorlik kasb yetadi. Hadisi sharifda ta'kidlanganidek, "Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chi-roylil qilinglar". Shunga ko'ra, birinchidan, mamlakatimizda bag'rikenglik milliy g'oyaning tarkibiy qismi qilib belgilangan. Ikkinchidan, bag'rikenglik ijtimoiy ham-korlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tushunchalar mazmuniga kiritilgan. Uchinchidan, bag'rikenglik yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashning uzviy qismi bo'lib, bugungi kunda muhim vazifa sifatida qayd yetiladi.

O'zbekiston Respublikasi Rrezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 3 maydagi RQ–4307–sonli "O'zbekiston Respublikasida ma'naviy–ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora–tadbirlar" nomli Qarorida: "Ma'naviy–ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish masalasiga ye't ibor kuchaytirilishi, tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf–odatlariga hamda insonravarlik g'oyalarga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish; aholining ijtimoiy–ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash" kabi

masalalar belgilab berilgan. Turli davlatlarning tajribasi va qiyosiy tahlil (Literature reviyew). Talabalarda diniy bag'rikenlik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning redagogik shart-sharoitlari va mexnizmlarini yuzasidan o'lmilar, YE.Yusurov2, I.Xoliqov3, M.Quronov4, A.Mavkulov5, M.Qahharova6, M.A.Sobi-rova7, N.B.Nigmanova8, A.Akra-mov9, O.T.Abdug'aniyyev10, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'ruhida tarbiyalashning ijtimoiy– redagogik, rsixologik va falsafiy jihatlarini tadqiq yetishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda yetnik va madaniy xilma–xillik jamiyat rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiyot sohasidagi mutaxassislar turli millat va madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilishi talab yetiladi. Shu sababli, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talaba–yoshlar o'rtasida yetnomadaniy bag'rikenglikni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, tibbiyot sohasida ta'lim olayotgan yosh mutaxassislar uchun yetnomadaniy bag'rikenglikni shakllantirish va rivojlantirish juda muhim ahamiyat kasb yetadi. Chunki tibbiyot xodimlari turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qiladi, ularning urf–odatlari, an'analari va qadriyatlarini hurmat qilishlari talab yetiladi.

Yetnomadaniy bag'rikenglik – bu nafaqat turli yetnik guruh vakillariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, balki ularning madaniy merosini tushunish, qadrlash va o'z kasbiy faoliyatida inobatga olish qobiliyatini anglatadi. Shu bois tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarda yetnomadaniy

bag'rikenglikni shakllantirish va rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Mavzuning maqsadi – oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlar o'rtasida yetnomadaniy bag'rikenglikni shakllantirishga yo'naltirilgan samarali metodikani ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy yetish. Tibbiyot sohasida mutaxassislik olayotgan talaba-yoshlar uchun yetnomaaniyat muloqoti muhim ahamiyat kasb yetadi. Bemorlar va hamkasblar bilan samarali aloqa o'rnatish, kasb yetikasini rioya qilish va insonravarlik tamoyillariga amal qilish tibbiyot sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda muhim omillardan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talaba-yoshlarda bag'rikenglikni singdirishda redagogik hamkorlik va integratsion omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday yekan, ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarning yaxlit andazasini ishlab chiqish, samarali shakl, vosita va uslublarini aniqlash muhim ahamiyat kasb yetadi. Zamonaviy XXI asr takomilini bag'rikenglik tafakkurisiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Chunki, bag'rikenglik tafakkuri millatlar, yelatlal, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va hurmat asosida yashash tartibi va jarayonlarini bildiradi.

Redagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil yetishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi ko'rib chiqiladi. Yoshlar bilan ishlash jarayonida ular quyidagi ish faoliyatlari asosida belgilangan redagogik maqsadga yo'naltiriladi:

- rasmiy ravishda belgilangan yoshlar guruhlarida ishlash(belgilangan ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha dars soatlaridan unumli foydalanish);
- yoshlar bilan yakka tartibda ishlash (referatlar, ijodiy torshiriqlar, maxsus torshiriqlar berish, ba'zi bo'sh va muammoli yoshlar uchun yakka tartibda redagog-yoshlar munosabatlarini tashkil yetish);
- maxsus tashkil qilingan talabalar guruhlarida ish olib borish (bag'rikenglikni rivojlantirish maqsadida tashkil qilingan turli kurslar, seminar-treninglar, testlar, bellashuvlar, tanlovlar, klublar, markazlar, fakultativ mashg'ulotlar, yoshlarning qiziqishlari bo'yicha to'garaklar);
- guruhlararo raqobat va bellashuv asosida ish olib borish (bag'rikenglik maqsadlariga yo'naltirilgan turli ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, turnirlar, diskussion va yyetakchilik klublari, davra suhbatlari va bahslar, uchrashuvlar, savol-javob turnirlari, intellektual o'yinlarni tashkil qilish);
- tizimli tadbirlar uyushtirish, faoliyat jarayoniga barcha yoshlarni jalb yetishga harakat qilish (mavjud ta'lim dargohining barcha yoshlari jalb yetilgan umumiy tadbirlarni tashkil yetish. Masalan, ta'lim muassasalarida har yili 16 noyabrni "Bag'rikenglik kuni" deb ye'lon qilish, bu kunni kontsertlar, tanlovlar, a'lo o'qiydigan talabalarni mukofotlash tarzida nishonlash, tadbirlarga milliy markazlar faollarini jalb yetish, turli millat vakillarining o'z millati urf-odatlarini bo'yicha suhbatlarini uyushtirish va h.k.);

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasalari yoshlarini bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning quyidagi holatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy-nazariy jihat. O'quv jarayoni va tadbirlar mazmunini jiddiy qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy g'oyalar hamda dunyo miqyosidagi siyosiy-ijtimoiy hamda iqtisodiy-moliyaviy vaziyatlarga xos bo'lgan o'zgarishlar tahlili bilan to'ldirish zarurligi aniqlandi. Bag'rikenglikning bugun nafaqat aniq shaxsga aloqadorligi, balki butun insoniyat va uning istiqboliga xos xususiyatga aylanganligini aniq va to'g'ri tushuntirish lozimligi belgilandi.

2. Tashkiliy jihat – bag'rikenglik tafakkurini shakllantirish bo'yicha barcha o'quv-redagogik va tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazishga jiddiy yondashuvning zarurligi, maqsad va tadbirlar mazmunini aniq belgilash, ular mazmunini mavjud yangiliklar bilan boyitish, barcha qo'llaniladigan terminlarga to'liq javoblar berilishini ta'minlash, yoshlarning barcha yehtiyolarini oldindan riventiv ko'ra bilish va ta'minlash, belgilangan maqsadga mos bo'lgan shakl, vosita va usullarni qo'llash, tadbirlar o'tkazishda interfaol usullardan ko'rroq foydalanish, yoshlarni bag'rikenglik g'oyalari ortidan yergashuvchilarga aylantira olishdir.

Yoshlarning bag'rikenglik tafakkurini amaliy ko'nikma va malakalar, targ'ibot va tashviqot faoliyatlarini rivojlantirish asosida tashkil yetish ta'lim jarayonidagi barcha mavjud ishtirokchilar, redagog, oliy ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy tizimi, ta'lim muassasasidagi jamoat tashkilotlari, undan tashqaridagi nodavlat tashkilotlarning umumiy-maqsadli faoliyati ko'zda tutiladi. Targ'ibot-tashviqot faoliyati bag'rikenglik mazmunining muhim alomatlaridan bo'lgan mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan ishlarning aniq maqsad va reja asosida o'tkazilishini talab yetadi.

3. Ta'lim menejmenti jihat. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil yetishda alohida ye'tiborni uni tashkil qiluvchi va o'tkazuvchi redagogik kadrlar masalasiga yo'naltirish, o'qituvchi – moderatorlarni maqsadga va vazifaga mos tanlash, demokratizm, gumanizm va tenglik rinsirlari asosida ishlashini ta'minlash, barcha mas'ul shaxslarning tashabbuskorligi yoshlar bilan til tora olishi, tashkilotchiligi, yangilikka moyilligi, ijodiy-kreativligi, turli noqulay va tasodifiy savollarga aniq, samimiy va mantiqiy javoblarni bera olishi kabi xususiyatlar nazarda tutiladi.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa, redagogik ta'lim muassasalarida bag'rikenglik g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish, bag'rikenglik tamoyillari va talablariniqat'iy ravishda o'zlashtirishlariga yerishishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunini boyitish zarur. Yoshlarda doimiy ravishda bag'rikenglikka nisbatan ishtiyoq va rag'bat uyg'otish zarur.

Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash sohasida aniq-ravshan chora-tadbirlarni amalga oshirish va jamiyatda bag'rikenglik muhitini rivojlantirishga ko'maklashuvchi maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhim vazifalardandir. Ushbu vazifalar o'z navbatida quyidagilarni qamrab oladi:

- jamiyatda shakllangan bag'rikenglik munosabatlarini tuzilmasi va darajasini o'rganish;
- dunyoda va mamlakatda amalga oshirilgan bag'rikenglik ongi taomillarini shakllantirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash yo'lida ularning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan dastur va loyihalarni tadqiq qilish;

- mustaqillik yillarida davlatimizda qabul qilingan va jamiyatimizda bag'rikenglik munosabatlari shakllanishiga ta'sir o'tkazgan qonunchilik va boshqaruvchilik qarorlarini o'rganish;
- jamiyatda bag'rikenglikni shakllantirish va uning barqarorligini mustahkamlashga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuздan ortiq milliy, madaniy markazni birlashtiruvchi resrublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil yetilganligi, mamlakatda millatlararo hamjihatlik va fuqarolarning o'zaro totuvligi muhitini mustahkamlashga, milliy madaniyatlarni saqlab qolish va ularning ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qilishga, umuman, davlat bilan milliy jamoatchilikning hamkorligi, vositalarini shakllantirishga hissa qo'shib kelmoqda. Mazkur markazlar o'z madaniyatini targ'ib qilish sohasidagina yemas, shu bilan birga millatlararo munosabatda bag'rikenglikni tarbiyalash sohasida ham doimo ko'rgina rejalarini amalga oshirmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarini bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning redagogik mazmuni quyidagi omillar bo'yicha aniq yo'naltirilgan sa'y-harakatlarga bog'liq:

- bag'rikenglik tamoyillarini yoshlar tafakkurida shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi yekanligini anglash;
- yoshlar tafakkurida bag'rikenglikni shakllantirish maqsadida "Bag'rikeng shaxsni shakllantirish" Kontsersiyasini yaratish va amaliyotga joriy qilish;
- yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq yetish;
- yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;
- bag'rikenglikni targ'ib va tashviq yetishda oila an'analari, milliy udumlar, Sharq allomalari qarashlari va tamoyillaridan unumli foydalanish;
- yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalarining o'quv hamda ta'limdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlaridan unumli foydalanish, mazkur jarayonlarda innovatsion redagogik texnologiyalarni qo'llash samarali natijalarga yerishish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa, redagogik ta'lim muassasalarida bag'rikenglik g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish, tolerantlik tamoyillari va talablarini qat'iy

ravishda o'zlashtirishlariga yerishishda ma'naviy– ma'rifiy tadbirlar mazmunini boyitish zarur. Yoshlarda doimiy ravishda tolerantlikka nisbatan ishtiyoq va rag'bat uyg'otish darkor. Yoshlar bugungi kunda bag'rikenglik tamoyillari va axloqsiz o'z hayotini tinch va osuda tashkil qila olmaydi.

Bag'rikenglik ruhida tarbiyalash jarayonida ta'limning faol interaktiv usul-laridan foydalanish ma'quldir. Ta'limning bu usullari oshkora muhokama modeli bo'lib, u o'quvchilarda bahslashish, munozara qilish va nizolarni tinch yo'l bilan hal yetish qobiliyatini rivojlantiradi, ko'rgina fanlarni o'qitishda redagolarga yordam beradi. Bolalarga ta'lim berish va redagol jamoasi muammolarini hal yetishga yangicha yondoshish uchun o'z o'quvchilari va redagolarning hurmati ortib borishini his qiladilar. Mazkur usullardan foydalanilganda o'quvchilarning ta'lim dasturiga qiziqishi oshadi. Kichik guruhlarda ishlash, "aqlni charxlash" va boshqa usullardan foydalanish asosiy vositalar hisoblanadi. Turli fanlarga oid dars jarayonlariga bag'rikenglik ta'lim tarbiyasini singdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi, chet tili muallimi shu maqsadda o'quvchilarga o'zga tildagi adabiyot bilan ishlashni o'rganish, ularning konsert dasturi va bayramlarda o'z bilimlarini ijodiy tadbir yetish qobiliyatini namoyon qilish imkonini yaratadi, o'quvchilarga o'z bilimlarini turli sohalarida sinab ko'rish, o'zga tilda so'zlashuvchilar bilan xat yozishni, chet yelliklar bilan uchrashishda yordam beradi. Ana shunday tarzda tashkil qilingan mashg'ulot o'quvchilarning madaniyatlar muloqotini yo'lga qo'yish sohasida xorijiy yoshlarning turmush tarzi bilan bevosita tanishishlariga ko'maklashib, axborotni ma'lum qilish va so'rab olish, undan foydalanish va qayta ishlash mahoratini rivojlantiradi. O'quvchilar xorijiy adabiyotni tushunishdagi qiyinchiliklardan qo'rqqanlikka, "ma'noni anglab olish"ga o'rganadilar. Bunday faoliyat chet tili bilan ijodiy "muomala qilish", uning go'zalligini idrok yetish, o'zining ijodiy qobiliyatini namoyon qilishda undan foydalanish qobiliyatini vujudga keltiradi.

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalardan kelib chiqib bag'rikenglik tarbiyasini o'quv jarayoni bilangina cheklamasdan, mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ham uzluksiz davom ettirish kerak. Buning uchun "bag'rikenglik" mavzusida turli tadbirlar, anjumanlar, srektaklar, ijodiy ko'rik tanlovlar o'tkazib turish mumkin. Masalan, adabiy tanlov o'tkazib, qatnashchilarga "Siz bag'rikenglikni qanday tushunasiz?" degan mavzuda insho yozish taklif etiladi. Yoki, foto tanlov o'tkazilib, har bir muallifning

"Dunyoning qiyofasi" yoki "Insoniyat – bag'rikenglik yo'lida" mavzuidagi foto suratlar turkumi yaratiladi. Tarixchi talabalar o'rtasida madaniyatlarining o'zaro ta'sirini, bag'rikenglikning tarixiy ildizlari va zamonaviy muammolarini tasvirlaydigan yeng yaxshi muzey kompozitsiyasini yaratishga bag'ishlangan tanlovlar o'tkaziladi. "Bag'rikenglikka sayohat" deb atalgan maxsus tarixiy yetnografik tadbir ham o'tkazilishi mumkin. Nihoyat, yoshlarning maxsus yozgi oromgohi tashkil yetiladi, unga turli tanlovlarning g'oliblari borib, bag'rikenglik tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan maxsus trening (mashqlar) o'tkazadilar. Mustaqil O'zbekiston yerishgan yutuqlar, uning nihoyatda boy tarixiy merosi, madaniyati va san'ati butun dunyoda doimiy qiziqish uyg'otib, sarmoyadorlar va sayohatchilarni o'ziga jalb qilmoqda. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tafakkuri, turmush tarzi va fe'l-atvoridagi bag'rikenglik tamoyillari shubhasiz muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o'zgarishlar, keng qo'lamli dasturlar yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol yetib tarbiyalashdan iborat. Demak, shaxs ma'naviyatini shakllantirish va boyitish bugun butun ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilardan chuqur bilimga yega bo'lishni va yoshlar o'rtasida ta'lim va tarbiyani uzviy ravishda olib borish saloxiyati va ma'naviyatiga yega bo'lishni talab yetadi. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim tizimining mavjud imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Xulosa va takliflar. O'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilararvarligi bilan ajralib turadi. Albatta farzandga mexr qo'yish, ularni qornini to'k, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq–odob, yuksak ma'naviyat asosida voy aga yetkazish biz uchun doimo dolzarb axamiyat kasb yetib kelgan. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari, o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, barcha raxbarlar birdek mas'uldirlar. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani xozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak barkamol yoshlarni tarbiyalashga yerishish mumkin bo'ladi. Kelajak avlod hakida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalash o'zbek xalqining milliy xususiyatidir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ–637–son www.lex.uz
2. Sayfullayevich T. E. The role of pedagogical methods in the formation of the concept of ethno-cultural tolerance in students //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 4. – C. 233–237.
3. Sayfullayevich T. E., Nafisa T. The importance of including the idea of tolerance in students //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 509–512.
4. Sayfullayevich T. E., Nafisa T. Formation of forgiveness thinking of young people in the family-an important direction of educating a perfect person //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 513–517.
5. Sayfullayevich T. E. The role and importance of ethnic culture tolerance in the educational process //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 4. – C. 227–232.
6. Sayfullayevich T. E. Ethnocultural knowledge as a factor for forming international tolerance //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. -2022. T. 4. – C. 222–226.
7. Sayfullayevich T. E. Talaba–yoshlarda etnomadaniy bag'rikenglikni tarbiyalashning amaliy–texnologik jihatlarlari //pedagogs jurnali. – 2023. – T. 33. – №. 3. – C. 154–160. 7. Sayfullayevich T. E. Mechanisms of educational study of students on the basis of modern pedagogical technologies //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 4. – C. 247–250.
8. Sh. N. Muratova and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
9. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091–5446, no. 6 (124), pp. 100–105, 2020.



Nilufar TURG'UNOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktranti
E-mail: nilufarturgunova20@gmail.com

Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsentv.b., PhD O.Saidahmedova taqrizi asosida

ASSESSMENT OF EDUCATIONAL PROJECTS

Аннотация

The article analyzes scientific-theoretical views on the assessment of educational projects based on various sources. The opinions of different scholars regarding the evaluation of project work, as well as the proposed assessment criteria, have been examined, highlighting their similarities and differences. Additionally, the article provides methodological recommendations for assessing project work in native language lessons and presents developed evaluation criteria.

Key words: Project work, educational-project activity, assessment, formative assessment, summative assessment, assessment criteria.

ОЦЕНИВАНИЯ УЧЕБНЫХ ПРОЕКТОВ

Аннотация

В статье проведен анализ научно-теоретических взглядов из различных источников по оценке учебных проектов. Рассмотрены мнения различных ученых о методах оценки проектной работы, изучены предложенные критерии оценки, выявлены их сходства и различия. Кроме того, в статье представлены методические рекомендации по оценке проектных работ на уроках родного языка, а также приведены разработанные критерии оценки.

Ключевые слова: Проектная работа, учебно-проектная деятельность, оценивание, формативное оценивание, суммативное оценивание, критерии оценивания.

O'QUV LOYIHALARINI BAHOLASH

Аннотация

Maqolada o'quv loyihalarini baholash bo'yicha manbalardagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlilga tortilgan. Turli olimlar tomonidan loyiha ishlarini baholashga doir bildirilgan fikrlar, taklif etilgan baholash mezonlari o'rganib chiqilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada ona tili darslarida bajariladigan loyiha ishlarini baholash bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan, ishlab chiqilgan baholash mezonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Loyiha ishi, o'quv-loyihaviy faoliyat, baholash, formativ baholash, summativ baholash, baholash mezonlari.

Kirish. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmon orqali tasdiqlangan Rivojlanish dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish edi [1]. Shunga asosan, 2022-yildan boshlab maktab ta'limida Milliy o'quv dasturi joriy etildi va MO'D asosida 6-,7-,10-sinf "Ona tili" darsliklari yaratildi. 2024-yilda esa yangilangan 5-sinf "Ona tili" darsligi nashrdan chiqarildi. Mazkur darsliklarning barchasi o'zida til o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini aks ettirgani bilan avvalgi darsliklardan farq qiladi. Shuningdek, yangilangan darsliklarning har biriga loyiha ishlari kiritildi va bu ona tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning amal qilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Loyihaga asoslangan ta'limning nazariy-metodik asoslari o'tgan asrdayoq ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bizning ta'lim tizimimizga o'qitishning bu usuli yangilik sifatida kirib keldi. Ayniqsa, uzoq davrlar mobaynida grammatik yondashuv hukmron bo'lgan ona tili ta'limi darsliklarda aks etgan loyiha topshiriqlari bilan qaytadan jonlandi. Ona tili darsliklariga nazar tashlaydigan bo'lsak, loyiha ishlariga ko'proq o'rin ajratilayotganligi va takomillashtirib borilayotganligini guvohi bo'lamiz.

Ta'kidlab o'tilganidek, loyihaga asoslangan ta'lim milliy metodikamizda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Xususan, loyiha ishlarini baholash tartibi o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki baholash ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi: formativ va summativ. Formativ baholash ta'lim berish davomida o'rganuvchilarning o'zlashtirishini baholab borishni nazarda tutsa, summativ baholash ta'lim jarayonining ma'lum bir bosqichida o'tkazilib,

o'rganuvchilarning erishgan natijalarini yakuniy baholashni ifodalaydi. Har ikki baholash turi o'z maqsadi, o'tkazilish shakllariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. O'quv loyihalarini baholashda ham formativ, ham summativ baholashga murojaat qilinadi. Adabiyotlarda, asosan, loyiha ishlarini summativ, ya'ni yakuniy baholash haqida ma'lumotlar keltiriladi. Lekin loyihaga asoslangan ta'limda faqatgina ishning natijasi emas, balki taqdimotgacha bo'lgan jarayon ham muhim ahamiyatga egaligini unutmaslik lozim. Ma'lumki, summativ baholash loyiha yakunida o'tkazilishi tufayli, unda natijalarni belgilangan mezonlar asosida o'lchash, aniq parametrlar yordamida tahlil qilish, qabul qilingan an'anaviy tizimda baholash mumkin va bu baholash jarayonini ancha oson o'tishini ta'minlaydi. Lekin faqatgina ishning natijasiga e'tibor qaratish loyihaviy faoliyatning asosiy maqsadini unutib qo'yishga, o'quvchilar o'rtasida norozilik kelib chiqishiga, baholash jarayonining adolatsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'quv loyihaviy faoliyatda formativ (shakllantiruvchi) baholash o'quvchilarning loyihani bajarish davomidagi faoliyatini, jamoadagi vazifasini kuzatish, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Baholashning bu turi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, motivatsiya berishda muhim sanalib, ularga loyihaviy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yib olishlariga ko'maklashadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi qayta aloqani ta'minlaydi. Formativ baholash o'qituvchi, o'quvchining o'zi yoki sinfdoshlari, tengdoshlari tomonidan o'tkazilishi mumkin va u albatta baho/ball ko'rinishida bo'lishi shart emas. Shuningdek, ishtirokchilar va jamoa faoliyatini butun loyiha davomida kuzatib, baholab borish loyiha ishini yakuniy baholashga juda katta yordam beradi.

Bir qator manbalarda loyihaga asoslangan ta'limda loyiha yakunidan keyingi tahlil, baholash ham muhimligi qayd etilgan. O'quvchilar o'z-o'zini baholab, tahlil qilib borishlari uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin [3]:

Harakat davomida (in-action) – loyiha bajarish jarayonida amalga oshiriladigan tahlil.

Harakatdan keyin (on-action) – bajarilgan ish bo'yicha tahlil.

Kelajakdagi harakat uchun (for-action) – kelgusidagi loyihalarni yanada yaxshiroq bajarish uchun o'tkaziladigan tahlil.

O'quv loyihalarini baholash murakkab va ko'p tizimli jarayon bo'lib, baholashda loyihaning turi (faoliyat mazmuniga ko'ra, ishtirokchilar soniga ko'ra, murakkabligi, davomiyligiga ko'ra turlari) hisobga olinishi lozim. Shunga asosan, loyihaga asoslangan ta'limda umumiy va har bir loyihaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy baholash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Quyida loyiha ishlarini yakuniy baholash bo'yicha turli olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar va tavsiya etilgan mezonlarni ko'rib chiqamiz:

1-bosqich	Vazifalar va natijalarni oldindan aniq belgilab olish	Loyiha boshida natija talablarini belgilab olish yakunda loyiha ishini to'g'ri baholashni ta'minlovchi omildir.
2-bosqich	Jarayon davomidagi doimiy tekshiruvlar va baholash	Bunda loyiha kundaligini yuritish va har bir ishtirokchi bajarayotgan vazifani yozib boorish mumkin.
3-bosqich	Yakuniy natijani baholash	Bunda mazmun, taqdimot sifati va usuli, tushunarliklik, yangi bilimlar hajmi, foydalilik, qiziqarlik kabi mezonlarni asos qilib olish mumkin.
4-bosqich	O'z-o'zini baholash	Loyiha yakunidan so'ng, ichki guruh baholashi shaklida o'tkaziladi.

Maktab ta'limida loyihaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar I.Nadtochiy o'z tadqiqot ishida loyihalarni baholashning umumiy parametrlarini sanab o'tadi hamda baholash jarayonida quyidagi kompetensiyalarning qay darajada shakllanganligini hisobga olish lozimligini qayd etadi: muammolarni hal qilish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Olimning fikriga ko'ra, loyiha texnologiyasidagi eng muhim bosqich loyiha ishining taqdimoti hisoblanadi va bu bosqichning sifati yakuniy baholashga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun loyiha ishini himoya qilish va taqdimot jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rish zarur [6:19].

Ma'lumki, loyihalarni baholash mezonlari qaysi fan doirasida bajarilganligiga qarab o'zgarishi mumkin. Til ta'limida

“Loyihaga asoslangan ta'limda baholash” nomli maqolada baholashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan omillar sifatida quyidagilar sanab o'tilgan [4]:

– Mazmunni o'zlashtirish (o'quvchilar mavzuni qanchalik yaxshi tushunib yetganliklari).

– Hamkorlik va ishtirok (o'quvchilarning jamoa ichida qanchalik samarali ishlaganligi).

– Taqdimot va uslub (o'quvchilar o'z ishlarini qanchalik yaxshi taqdim eta olganligi).

– Muddatlarga rioya qilish (loyiha belgilangan vaqtda yakunlangani yoki yo'qligi).

– Loyihaga bog'liq qo'shimcha elementlar (loyiha mavzusiga xos maxsus talablar).

Muallif loyiha ishlarini baholashni quyidagi bosqichlarda tashkil etish samarali deb hisoblaydi:

loyihalar bilan ishlash va ularni baholash bo'yicha xorijiy olimlar, mutaxassislar tomonidan bir qator ishlar e'lon qilingan. Mazkur ishlarning ko'pchiligi ikkinchi til, chet tilini o'qitish metodikasiga tegishli. Ona tilini o'qitishda loyihalar bilan ishlash hamda ularni baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari juda kam. Rossiyalik olim M.V.Yakushev “Chet tili ta'limida loyihaviy faoliyat natijalarini baholash metodologiyasi va metodikasi” nomli maqolasida o'quv loyihalarini baholashning umumiy mezonlari orasiga xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyaning namoyon bo'lishi talabini ham kiritadi va til o'rganishda kommunikativ kompetensiyaning muhimligini ta'kidlab o'tadi. Muallif loyihalarni quyidagi aspektlar bo'yicha baholashni taklif etadi [7]:

Aspekt	Parametrlar
Mazmuniy aspekt	Muammoning dolzarbligi
	Loyiha mavzusini to'liq va chuqur yondashgan holda ochib berish
	Mazmunning konseptualligi
Interaktiv aspekt	Ifodaviylik va san'atkorlik
	Loyiha ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi
	Tinglovchilar bilan o'zaro aloqa
Ijodiy aspekt	Original yondashuv
	O'z-o'zini boshqarish va mustaqil fikrlash
	Taqdimot vositalaridan keng ko'lamda foydalanish
Axborot texnologiyalari aspekti	Optimal shakl
	Muammoning ijtimoiy-madaniy ahamiyati
	Auditoriyaga ta'sir qilish
Tadqiqot aspekti	Metodologik yetuklik
	Funksional savodxonlik
	Loyiha ishtirokchilarining shaxsiy manfaatdorligi va motivatsiyasi
Baholash va tanqidiy tahlil aspekti	Refleksiya qobiliyati
	Kommunikativ kompetensiya elementlari

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning maqsadi o'quv loyihalarini baholash jarayonini tahlil va talqin qilish, mavjud adabiyotlardagi qarashlarni o'rganish ekanligidan kelib chiqqan holda tadqiqot jarayonida, asosan empirik ma'lumotlarga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Maqola uchun ma'lumotlarni to'plash jarayonida anketa-so'rovnoma, kuzatish, suhbat, hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida esa analiz, sintez, taqqoslash metodlariga murojaat qilindi. Tadqiqot jarayonida obyektivlikni saqlash uchun metodik tamoyillarga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rib chiqilgan tahlillardan ma'lum bo'ladiki, adabiyotlarda o'quv loyihalarini

baholashning turli shakllari taklif etilsa-da, lekin ularning hammasida umumiy va asos bo'lib xizmat qiluvchi mezonlar takrorlanadi. Loyiha ishi qaysi fan doirasida bajarilayotganiga qarab u yoki bu mezon birinchi darajaga ko'tarilishi, yoki qo'shimcha talablar kiritilishi mumkin. Xususan, ona tili ta'limiga oid bo'lgan loyiha ishlarini baholashda asosiy e'tibor o'quvchilarning til bilimlarini amaliyotda qay darajada namoyon qila olganliklari, og'zaki va yozma savodxonliklari, ularning kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligiga qaratiladi. Quyida ona tili darslarida bajariladigan o'quv loyihalarini baholash bo'yicha mezonlar taklif etilgan:

Mazmun	Loyiha ishini belgilangan maqsad asosida to'g'ri bajarish, topshiriq shartiga mos kelishi Loyiha mavzusini chuqur o'rganish va batafsil yoritish
Til va uslub	Loyihadagi matnlarda til birliklardan to'g'ri foydalanish Matnlarda mazmundorlik, mantiqiylik, ifodaviylik, uslubiy ravonlikka amal qilish Jumlalarning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi; imloviy, ishoraviy, uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yilmaganligi
Ijodiylik	Loyiha ishini bajarishga ijodkorlik bilan yondashish O'quvchi kreativligining namoyon bo'lishi
Tadqiqotchilik	Tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish: turli manba va axborotlar bilan ishlash, ularni saralash Foydalanilgan ma'lumotlarning manbasini ko'rsatish
Dizayn	Loyiha ishining dizyniga original yondashuv Ishning vizual jihatdan jozibadorligi (turli grafika, rasm, jadvallardan o'rinni foydalanish)
Taqdimot	Loyiha ishining taqdimotida belgilangan vaqt chegarasiga amal qilgan holda ishning asosiy jihatlarini ochib bera olish; Taqdimot jarayonida og'zaki nutqning ravon va ifodaliligi, til vositalaridan o'rinni foydalanish.
Jamoadan ishlash	Jamoadan ishini to'g'ri tashkil etish, vazifalarni taqsimlash; Guruh a'zolarining o'zaro hamkorlikda ishlashlari

Keltirilgan baholash mezonlari loyiha ishining turidan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi, qo'shimcha talablar kiritilishi mumkin. Masalan, devoriy gazeta, bukletlar, posterlar tayyorlashni ko'zda tutuvchi loyihalarda ishning originalligi, dizayni, grafik elementlar bilan boyligi kabi talablar asosiy planga ko'tarilsa, matn bilan ishlashga (matn yaratish, tahlil, tahrir qilish) qaratilgan loyihalarda til va uslub parametrlari bo'yicha kattaroq ball ajratilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, loyihaviy faoliyatni baholashda loyihaning individual yoki jamoaviy ekanligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, jamoaviy ishlarni baholash ancha murakkabroq kechadi, chunki bunda guruhdagi har bir ishtirokchining roli, vazifalarni qay darajada bajarganligi, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikning yo'lga qo'yilganligini aniqlash lozim. Jamoalarni yakuniy baholash xolis va adolatli bo'lishi uchun yuqorida ta'kidlangandek, loyihani bajarish davomidagi nazorat va shakllantiruvchi baholash ishlarini muntazam amalga oshirib turish lozim.

Loyiha ishining birinchi bosqichida baholash mezonlari ularga ajratilgan ballar bilan birgalikda o'quvchilarga taqdim etilsa, ularga ishi to'g'ri tashkil etish, loyiha ishi natijasini oldindan belgilab olishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, baholash murakkab va ko'p tizimli jarayon bo'lib uning natijalari o'quvchining o'zlashtirishiga, keyingi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri olib borilgan baholash o'quv jarayonini samarali tashkil etishga, maqsad-vazifalarni aniq belgilab olishga yordam beradi. Shuningdek, baho o'quvchilarni rag'batlantiruvchi, ularga motivatsiya beruvchi eng katta omillardan biridir.

O'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini hamda loyiha natijasini baholash bo'yicha xorijiy adabiyotlarda, tadqiqot ishlarida turli qarashlar bildirilgan. Loyiha ishlarini baholash oldindan belgilangan mezonlar asosida bir necha bosqichlarda tashkil etiladi. Bunda ham formativ, ham summativ baholashning birdek ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim.

Ona tili darslarida bajarilgan o'quv loyihalarini baholashda, asosan, o'quvchilarda og'zaki, yozma nutq ko'nikmalarining, kommunikativ kompetensiyaning qay darajada shakllanganligiga, loyiha ishlarida til birliklaridan to'g'ri, unumli foydalanilganligiga va boshqa til o'rganish bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratiladi. Ona tilini o'qitishda o'quv loyihalarini bilan ishlashning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganish, loyiha ishlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>
2. Jalilov, K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 256 b.
3. Warren, A.M. (2016). Project-Based Learning Across the Disciplines: Plan, Manage, and Assess Through +1 Pedagogy. Thousand Oaks, CA: Corwin Publishing.
4. Kovácsné Pusztai, K. (2021). Evaluation of Project-Based Learning. Acta Didactica Napocensia, 14(1). P. 64-75.
5. Phyllis, Blumberg. (2005). Assessing Students During the Problem-Based Learning (PBL) process. Medical science educator, vol.15(2). P. 92-99.
6. Надточий И.С. Методика проектной деятельности учащихся лицеев, специализированных в информатике: Автореф. дисс. ... канд.педнаук. Ярославль, 2005. – 24 с.
7. Якушев М.В. (2019). Методология и методика оценки результатов проектной деятельности в иноязычном образовании Ученые записки Орловского государственного университета. №2 (83). С. 355 – 359.



УДК: 159.92

Дилноза ТУРСУНОВА,

Базовый докторант Национальный университет Узбекистана

E-mail: dilnoza.tursunova011@gmail.com

На основе рецензии PhD, доцента кафедры "Педагогика и психология" Ташкентского международного университета Киме, Д.Р.Тураевой

O'ZBEKISTONDA DTSG BOLALAR VA O'SMIRLARNING HAYOTI VA RIVOJLANISHINI YAXSHILASH IMKONIYATLARI VA SIYOSATI

Аннотация

Maqolada O'zbekistonning ijtimoiy siyosati diqqat tanqisligi sindromi va giperaktivlik (DTSG) bo'lgan o'spirinlarning shaxsiy resurslarini rivojlantirish uchun muhim manba sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu o'smirlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni ijtimoiylashtirish va moslashtirishga qaratilgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. DTSG bo'lgan o'smirlarning shaxsiy resurslarini rivojlantirish, ta'lim darajasini oshirish, ijtimoiy moslashuv va mehnat integratsiyasi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradigan dasturlar va tashabbuslar tahlil qilinadi. Psixologik-pedagogik yordam, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy himoya va ish bilan ta'minlash sohasidagi qo'llab-quvvatlash choralari ko'rib chiqilmoqda. Ijtimoiy siyosatda kompleks yondashuvning ahamiyati va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'smirlarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratishda davlatning roli ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy siyosat, O'zbekiston, diqqat etishmasligi giperaktivligi buzilishi, o'smirlar, shaxsiy resurslar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, psixologik-pedagogik yordam, bandlik, fuqarolik jamiyati.

OPPORTUNITIES AND POLICIES FOR IMPROVING CHILDREN AND ADOLESCENTS WITH ADHD IN UZBEKISTAN

Annotation

The article considers the social policy of Uzbekistan as an important resource for the development of personal resources of adolescents with attention deficit hyperactivity disorder (ADHD). Special attention is paid to government support aimed at improving the living conditions of these adolescents, their socialization and adaptation. The article analyzes programs and initiatives that contribute to creating favorable conditions for the development of personal resources, improving the level of education, social adaptation and labor integration of adolescents with ADHD. Support measures in the field of psychological and pedagogical assistance, inclusive education, social protection and employment are being considered. The importance of an integrated approach in social policy and the role of the state in creating conditions for the successful socialization of adolescents with special educational needs is emphasized.

Key words: Social policy, Uzbekistan, attention deficit hyperactivity disorder, adolescents, personal resources, inclusive education, social adaptation, psychological and pedagogical assistance, employment, civil society.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПОЛИТИКА УЛУЧШЕНИЯ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ С СДВГ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье рассматривается социальная политика Узбекистана как важный ресурс для развития личностных ресурсов подростков с синдромом дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ). Особое внимание уделяется государственной поддержке, направленной на улучшение условий жизни этих подростков, их социализацию и адаптацию. Анализируются программы и инициативы, которые способствуют созданию благоприятных условий для развития личностных ресурсов, повышения уровня образования, социальной адаптации и трудовой интеграции подростков с СДВГ. Рассматриваются меры поддержки в сфере психолого-педагогической помощи, инклюзивного образования, социальной защиты и трудоустройства. Подчеркивается значимость комплексного подхода в социальной политике и роль государства в создании условий для успешной социализации подростков с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: Социальная политика, Узбекистан, синдром дефицита внимания и гиперактивности, подростки, личностные ресурсы, инклюзивное образование, социальная адаптация, психолого-педагогическая помощь, трудоустройство, гражданское общество.

Введение. Личностные ресурсы регуляции адаптационного поведения подростков с синдромом дефицита внимания с гиперактивностью (СДВГ) играют важнейшую роль в процессе их социальной и академической адаптации. Подростки с этим расстройством часто сталкиваются с трудностями в области саморегуляции, внимания и социальной интеграции, что требует создания специфических условий для их развития. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), СДВГ является одним из наиболее распространенных расстройств среди детей и подростков, при этом в среднем около 5% всех школьников страдают от этого расстройства. В Узбекистане, по информации Министерства здравоохранения, около 7% детей школьного возраста имеют признаки СДВГ, что делает проблему актуальной и требующей внимания как со стороны педагогов, так и со стороны государственной политики. Подростки с СДВГ сталкиваются с трудностями в учебе, социальных взаимодействиях и в контроле своих эмоций, что

влияет на их психоэмоциональное состояние и общий уровень жизни. Важно отметить, что СДВГ – это не просто проблема образовательного характера, но и вопрос социальной адаптации, поскольку подростки с таким диагнозом часто испытывают сложности в установлении межличностных контактов и регулировании своих действий в общественных ситуациях.

Целью этой статьи является ознакомление с социальными инициативами Узбекистана, направленными на расширение доступа к психологической помощи. В стране активно реализуются проекты, например, мобильные психологические службы, которые выезжают в регионы с высоким числом детей, имеющих особые образовательные потребности. Эти меры способствуют тому, чтобы квалифицированная поддержка становилась доступной для всех нуждающихся, улучшая эмоциональное и образовательное состояние подрастающего поколения [6].

Методология исследования. В качестве методов исследования выступил анализ литературы. На основании анализа проведенных исследований можно выделить основные методы, применяемые различными исследователями. В частности, многие работы опираются на сочетание качественных и количественных методов, что позволяет более полно охарактеризовать исследуемые явления. Среди часто используемых методов – анкетирование, интервьюирование, наблюдение и сравнительный анализ, которые дают возможность выявить как общие тенденции, так и специфические особенности в рамках изучаемой проблемы. Такой комплексный подход обеспечивает более глубокое понимание теоретических аспектов и способствует формированию практических рекомендаций для дальнейших исследований [7].

Литературный обзор. Одним из ключевых личностных ресурсов подростков с СДВГ является способность к саморегуляции. Саморегуляция подразумевает способность контролировать свои импульсивные реакции, регулировать эмоции и направлять свои усилия на достижение долгосрочных целей, несмотря на внутренние и внешние раздражители. В Узбекистане активно развиваются программы раннего вмешательства, направленные на диагностику и коррекцию проблем с саморегуляцией у детей с СДВГ. Согласно данным Министерства народного образования, в 2023 году было охвачено более 20 тысяч детей в рамках программ психолого-педагогической помощи, что позволило значительно улучшить результаты образовательной деятельности среди детей с особыми образовательными потребностями. Проблемы с самосознанием могут привести к тому, что подростки начинают избегать взаимодействия с окружающими, что усугубляет их социальную изоляцию. Развитие самосознания у подростков с СДВГ включает в себя не только улучшение их самооценки, но и обучение навыкам социальной адаптации, таким как общение, способность работать в команде и понимание эмоций других людей. В Узбекистане активно реализуются программы по психологической поддержке и развитию социальной активности подростков. Например, в рамках инициативы «Дети – наше будущее», запущенной Министерством молодежи в 2022 году, было организовано более 150 психологических тренингов и мастер-классов для подростков, направленных на развитие социальных навыков и повышение уровня самооценки [4].

В 2023 году было внедрено более 500 новых инклюзивных классов в государственных школах по всей стране, что позволило обучать и развивать детей с различными образовательными потребностями в нормальных условиях. [12] Инклюзивное образование, которое было внедрено в Узбекистане начиная с 2018 года, предоставляет равные возможности для получения образования детям с СДВГ и другими расстройствами. Это подход, при котором дети с особыми образовательными потребностями обучаются в рамках обычных школьных классов, но с дополнительной поддержкой педагогов и специалистов. Согласно данным Министерства образования, в 2023 году более 10 тысяч детей с различными образовательными потребностями обучались в инклюзивных классах, что является значительным шагом на пути к интеграции этих детей в общество [12].

Помимо образовательной поддержки, важную роль играет и психосоциальная поддержка. В Узбекистане активно развиваются программы по оказанию психотерапевтической помощи детям и подросткам с СДВГ, а также их семьям. В 2022 году было создано более 50 центров психолого-педагогической помощи в крупных городах страны, в которых работают специалисты, готовые оказать необходимую помощь детям с СДВГ. Эти центры предлагают не только диагностику, но и курсы по обучению семей и педагогов, что способствует созданию стабильной и поддерживающей среды для подростков с особыми потребностями. Не менее важным аспектом является создание условий для трудовой адаптации подростков с СДВГ. В 2023 году Министерство молодежи и спорта Узбекистана запустило программу, направленную на

трудовую интеграцию молодежи с особыми потребностями, включая подростков с СДВГ. В рамках программы подростки получают возможность пройти стажировки в различных государственных и частных учреждениях, что помогает им развивать профессиональные навыки, уверенность в себе и мотивацию к трудовой деятельности. По данным Министерства, более 300 подростков с особыми потребностями приняли участие в программе в 2023 году. Одним из важных шагов в социально-политическом контексте является поддержка на уровне высшего руководства. Президент Узбекистана, Шавкат Мирзиёев, неоднократно поднимал вопросы социальной защиты детей и молодежи. В его посланиях и указах важное место занимает поддержка детей с особыми потребностями. В частности, в 2021 году был принят указ «О развитии инклюзивного образования», который стал основой для дальнейших реформ в сфере образования для детей с СДВГ и другими расстройствами. Эти меры подчеркивают важность создания инклюзивного и поддерживающего образовательного пространства для всех детей. Таким образом, социальная политика Узбекистана активно способствует созданию условий для формирования личностных ресурсов подростков с СДВГ. Инклюзивное образование, программы психолого-педагогической помощи, социальная поддержка и трудовая интеграция – все эти элементы помогают подросткам с СДВГ развивать навыки саморегуляции, социальной адаптации и уверенности в себе. Важно продолжать развивать эту систему, чтобы каждый подросток, независимо от особенностей развития, мог получить поддержку и возможность для полноценного участия в жизни общества. Для подростков с СДВГ важно не только наличие поддержки на образовательном уровне, но и реальная помощь в их социальной и психологической адаптации. Проблемы с концентрацией внимания и саморегуляцией могут значительно усложнить взаимодействие с окружающими, включая сверстников и педагогов. Поэтому важнейшим элементом государственной политики является создание не только образовательных, но и социальных условий для этих подростков [11].

Согласно последним данным, опубликованным Министерством молодежи, в 2023 году было зарегистрировано 5,3 тысячи подростков с диагностированным СДВГ, нуждающихся в длительной психологической поддержке. Для этого был создан централизованный сервис, предоставляющий квалифицированную помощь через интернет-платформы и мобильные приложения. В частности, более 15 000 семей воспользовались консультациями психологов онлайн в 2023 году, что стало большим шагом в обеспечении равных возможностей для детей с СДВГ, независимо от места их проживания [13].

Инклюзивное образование в Узбекистане продолжает развиваться. В рамках внедрения новых образовательных стандартов, Министерство народного образования Узбекистана в 2023 году запустило программу, направленную на повышение квалификации педагогов, работающих с детьми с особыми потребностями, включая детей с СДВГ. В 2023 году обучение прошли более 5 000 учителей, что позволило создать более 700 инклюзивных классов по всей стране. Эти классы не только дают детям с СДВГ шанс получить качественное образование, но и становятся местом формирования социального опыта и личностной саморегуляции [13].

Стоит отметить, что эффективность этих программ подтверждается положительными изменениями в результатах школьных экзаменов и социальной адаптации подростков с СДВГ. Согласно статистике 2023 года, около 85% подростков с особыми образовательными потребностями, обучающихся в инклюзивных классах, показали стабильный рост в академических достижениях по сравнению с детьми, обучающимися в обычных школах без поддержки. Не только образовательные учреждения, но и социальные организации вносят значительный вклад в развитие личностных ресурсов подростков с СДВГ. В последние годы активно развивается

система социальной адаптации подростков через молодежные центры. В 2023 году, согласно данным Министерства молодежи, было создано более 50 центров социальной адаптации для подростков с особыми потребностями. Эти центры предлагают подросткам с СДВГ разнообразные программы, включая занятия по развитию эмоционального интеллекта, групповую терапию, а также курсы по социальной адаптации. В результате реализации этих программ подростки с СДВГ получают возможность не только повысить самооценку, но и научиться правильно строить межличностные отношения [5].

В 2023 году в таких мероприятиях приняли участие около 12 000 подростков с особыми потребностями, что положительно сказалось на их социализации, улучшении физической формы и снижении уровня тревожности. Эти программы помогают подросткам не только поддерживать хорошую физическую форму, но и развивать навыки командной работы и сотрудничества. Также немаловажным является вопрос трудовой адаптации подростков с СДВГ. В рамках программы «Шаг в будущее», запущенной Министерством молодежи, подростки с особыми потребностями могут пройти стажировки и практики на различных предприятиях и в государственных учреждениях. В 2023 году участие в этих стажировках приняло более 2 000 подростков с особыми образовательными потребностями, что позволило им приобрести профессиональные навыки, повысить уверенность в себе и развить трудовые ресурсы.

На уровне государственной политики также активно ведется работа по разработке правовых норм, направленных на защиту прав детей с особыми потребностями. Принятые в последние годы законы и постановления, в том числе Закон «О социальной защите инвалидов» и Указ Президента «О развитии инклюзивного образования», закладывают основу для улучшения системы поддержки детей с СДВГ. В 2022 году был принят Указ Президента «О дополнительных мерах по улучшению положения инвалидов и детей с особыми потребностями», который гарантирует не только равный доступ к образованию, но и активную помощь в интеграции этих детей в социальную и трудовую жизнь [11]. Особое

внимание уделяется организации профессиональной подготовки педагогов, работающих с детьми с особыми образовательными потребностями. В 2023 году в Узбекистане была проведена серия конференций и тренингов для педагогов и социальных работников, направленных на развитие эффективных методов работы с детьми, страдающими от СДВГ. Эти инициативы играют важную роль в обеспечении качественной образовательной и социальной поддержки для подростков с особыми потребностями. В сфере социального обеспечения детей с СДВГ Узбекистаном также были приняты новые меры, направленные на улучшение социальной защиты и повышение качества жизни таких детей. С 2022 года в рамках программы «Социальная защита детей с особыми потребностями» дети с СДВГ, их семьи и образовательные учреждения получают дополнительные финансовые ресурсы для реализации программы адаптации и помощи. В 2023 году на эти цели было выделено более 100 миллиардов сумов, что позволило обеспечить дополнительные образовательные ресурсы, а также повысить качество медицинских и психологических услуг для детей с особыми потребностями. Масштабная поддержка подростков с СДВГ и других особыми потребностями осуществляется и в сфере инновационных технологий [10]. В 2023 году в Узбекистане внедрены новые цифровые платформы для обучения и психосоциальной поддержки детей с особыми потребностями. Эти платформы включают онлайн-курсы, игры для развития концентрации и внимания, а также интерактивные приложения, помогающие развивать навыки саморегуляции и управления эмоциями. По данным Министерства народного образования, более 5 000 подростков с СДВГ начали использовать эти платформы в 2023 году, что помогло улучшить их учебные результаты и повысить уровень социальной адаптации [2].

Выводы и рекомендации. В заключении, Узбекистан благодаря интегрированным подходам, создаёт условия для полноценного участия подростков с особыми потребностями в общественной жизни и предоставляет им возможности для развития и реализации их потенциала.

ЛИТЕРАТУРА

1. Абдурахманова, Ф. Р. (2021). Психологическая поддержка детей с особыми образовательными потребностями. — Ташкент: Издательство «ЗиЁ».
2. Джураев, С. Ш. (2020). Социальная адаптация подростков с СДВГ в условиях современной школы Узбекистана. — Ташкент: Ташкентский университет.
3. Камилова, Н. А. (2021). Роль инклюзивного образования в адаптации детей с СДВГ. — Ташкент: Узбекский институт социальных наук.
4. Махмудова, Г. С. (2022). Личностные ресурсы и социальная адаптация детей с СДВГ: Психологический аспект. — Ташкент: Издательство «Оксфорд».
5. Сабирова, И. С. (2021). Проблемы психоэмоциональной регуляции у подростков с СДВГ. — Ташкент: Психологический журнал Узбекистана.
6. Султанова, З. Б. (2022). Социальная поддержка молодежи с СДВГ в Узбекистане: Теория и практика. — Ташкент: Узбекистанский государственный университет.
7. Тураев М. И. (2021). Государственная программа поддержки детей с особыми образовательными потребностями в Узбекистане. — Ташкент: Министерство здравоохранения Республики Узбекистан.
8. Шарипова, Н. Н. (2022). Методы социальной адаптации подростков с СДВГ в Узбекистане. — Ташкент: Узбекский национальный университет.
9. Интернет-источники
10. Министерство здравоохранения Республики Узбекистан. (2023). Программа социальной защиты детей с особыми потребностями. Министерство здравоохранения Республики Узбекистан. <https://www.health.uz/child-protection-program>
11. Министерство народного образования Республики Узбекистан. (2023). Цифровые платформы для обучения детей с особыми потребностями. Министерство народного образования Республики Узбекистан. <https://www.edu.uz/new-platforms>
12. UzDaily. Социальная помощь детям с особыми образовательными потребностями в Узбекистане. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz>
13. Инклюзивный подход к образованию: Какой должна быть школа для всех? — Новости Узбекистана — Газета.uz // <https://www.gazeta.uz/ru/2024/09/06/education/>
14. <https://president.uz/ru/lists/view/7629>



UO'K: 796.856.2:09

Nazokat TURSUNOVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistranti
E-mail: qaxramonovnanazokat@gmail.com

PhD, professor M.Ibragimov taqrizi asosida

TAEKVONDO WT SPORT MUSOBOQALARINI TASHKIL QILISH VA UNI BOSHQARISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada taekwondo WT sport musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimining zamonaviy holati, muammolari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Musoboqalarni tashkil etishning xalqaro va milliy tajribasi o'rganilgan, musoboqalarni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan asosiy talablar va sharoitlar aniqlangan.

Kalit so'zlar: Taekwondo WT, sport musoboqalari, musoboqa menejmenti, tashkiliy boshqaruv, sport federatsiyasi.

THIS ARTICLE ANALYZES THE MODERN STATE, PROBLEMS AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT SYSTEM OF TAEKWONDO WT SPORTS COMPETITIONS

Annotation

This article analyzes the modern state, problems and development trends of the organization and management system of taekwondo WT sports competitions. The International and national experience in the organization of competitions has been studied, the basic requirements and conditions necessary for the effective management of competitions have been identified.

Key words: Taekwondo WT, sports competitions, competition Management, Organizational Management, Sports Federation.

В ДННОЙ СТЬЕ ПРОНИЗИРОВОНО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОРГНИЗЦИИ И УПРВЛЕНИЯ СПОРТИВНЫМИ СОРЕВНОВНИЯМИ ТХЭКВОНДО WT

Аннотция

В днной статье пронизирововно современное состояние, проблемы и тенденции рзвития системы оргнизции и упрвления спортивными соревнованиями тхэквондо WT. Изучен междунродный и нционльный опыт оргнизции соревнований, определены основные требования и условия, необходимые для эффективного упрвления соревнованиями.

Ключевые слов: Тхэквондо WT, спортивные соревнования, управление соревнованиями, оргнизционный менеджмент, спортивня федерация.

Kirish. Taekwondo WT bugungi kunda dunyo miqyosida eng ommabop va rivojlangan yakka kurash sport turlaridan biri hisoblanadi. Bu sport turi 2000-yildan beri Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan bo'lib, dunyoning 210 dan ortiq mamlakatlarida rivojlanmoqda [1]. O'zbekistonda ham taekwondo WT sport turi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda va sportchilarimiz xalqaro musoboqalarda yuqori natijalarni qayd etmoqdalar.

Sport musoboqalarini professional darajada tashkil etish va boshqarish sport turining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda musoboqalarni tashkil etish va boshqarishga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda [2]. Bu esa mazkur masalani ilmiy jihatdan o'rganish va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi taekwondo WT sport musoboqalarini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy tizimini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Taekwondo WT sport musoboqalarini tashkil etish va boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;

Musoboqalarni tashkil etish va boshqarishning xalqaro tajribasini tahlil qilish;

O'zbekistonda taekwondo WT musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimining hozirgi holatini o'rganish;

Musoboqalarni samarali tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan asosiy talablar va sharoitlarni aniqlash.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Taekwondo WT sport musoboqalarini tashkil etish va boshqarish jarayoni ko'p qirrali va murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda musoboqalarni yuqori darajada tashkil etish uchun tizimli yondashuv va professional boshqaruv zarur. World Taekwondo tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarga ko'ra, musoboqalarni tashkil etish va

boshqarish jarayoni bir necha muhim komponentlarni o'z ichiga oladi [1].

Birinchidan, musoboqa nizomini puxta ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. Nizomda musoboqaning maqsadi, vazifalari, o'tkazilish joyi va vaqti, ishtirokchilar tarkibi, musobaqa tizimi, g'oliblarni aniqlash tartibi, mukofotlash masalalari aniq belgilanishi kerak. Nizom musoboqani tashkil etish va boshqarishning asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi [3].

Ikkinchidan, musoboqaning moliyaviy ta'minoti masalasi hal etilishi lozim. Bunga musoboqa budjetini shakllantirish, moliyalashtirish manbalarini aniqlash, xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash kiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, musoboqalarni moliyalashtirishda davlat budjeti, homiylar mablag'lari, ishtirokchilar badallari va tijorat daromadlaridan samarali foydalanish mumkin [4].

Uchinchidan, musoboqaning moddiy-texnik bazasini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sport zali yoki maydonining xalqaro standartlarga muvofiqligi, zarur sport jihozlari va anjomlar, elektron hakamlik tizimi, videotakror tizimi, kompyuter va ofis texnikasi, aloqa vositalari kiradi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish musoboqalarni tashkil etish va boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [5].

To'rtinchidan, professional hakamlik apparatini shakllantirish zarur. Xalqaro musoboqalarda faqat World Taekwondo tomonidan sertifikatlangan hakamlar ishlashi mumkin. Milliy musoboqalarda esa milliy federatsiya tomonidan attestatsiyadan o'tgan hakamlar faoliyat yuritadi. Hakamlarning malakasi va xolisligi musoboqa natijalarining adolatli bo'lishini ta'minlaydi [7].

Beshinchidan, musoboqada tibbiy xizmat va xavfsizlik choralari to'g'ri tashkil etilishi kerak. Sport shifokorlari va tibbiyot xodimlari brigadasi, tez yordam mashinasi, dori-darmonlar va tibbiy anjomlar doimo tayyor holda bo'lishi lozim.

Xavfsizlik xizmati esa tartib-intizomni saqlash va favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralari ko'rish kerak [2].

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, taekvondo WT sport musoboqalarini tashkil etish va boshqarishda qo'shimcha e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar ham aniqlandi. Bular:

Marketing va PR faoliyatini rivojlantirish - musoboqalar haqida jamoatchilikni keng xabardor qilish, tomoshabinlarni jalb etish, media hamkorlikni kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlarda faol targ'ibot ishlarini olib borish zarur. Bu orqali musoboqalarning ommabopligi va tijorat jozibadorligi oshadi [3].

1-jadval.

Taekvondo WT musoboqalarini tashkil etish va boshqarishning asosiy ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Xalqaro standart talablari	O'zbekistondagi hozirgi holat	Rivojlanish uchun tavsiyalar
Sport inshootlari	Xalqaro sertifikatga ega, zamonaviy jihozlangan	40% sport inshootlari talablarga mos	Yangi komplekslar qurish, mavjudlarni modernizatsiya qilish
Hakamlar malakasi	Xalqaro sertifikatli hakamlar	25% hakamlar xalqaro sertifikatga ega	Malaka oshirish tizimini kuchaytirish
Axborot texnologiyalari	To'liq avtomatlashtirilgan tizim	Qisman avtomatlashtirilgan	Zamonaviy IT tizimlarini joriy etish
Marketing faoliyati	Professional marketing strategiyasi	Marketing faoliyati sustroq	Marketing bo'limini tashkil etish
Moliyaviy ta'minot	Ko'p manbali moliyalashtirish	Asosan davlat byudjeti hisobidan	Xususiy investitsiyalarni jalb etish

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda taekvondo WT musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimi xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaydi. Ayniqsa sport inshootlari, hakamlar malakasi va axborot texnologiyalari bo'yicha sezilarli farq mavjud. Bu esa strategik rivojlanish dasturini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Musoboqalarni samarali tashkil etish va boshqarish uchun quyidagi qo'shimcha tavsiyalar ishlab chiqildi:

Musoboqalarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha milliy standartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

Musobaqa menejmenti sohasida kadrlar tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlarini joriy etish;

Mintaqaviy taekvondo markazlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Xalqaro musoboqalarni tashkil etish tajribasini o'rganish va qo'llash uchun xorijiy mutaxassislarini jalb etish.

Ushbu tavsiyalarining amalga oshirilishi O'zbekistonda taekvondo WT sport turini yanada rivojlantirish va xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda taekvondo WT musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimining tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda bu sohada sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. O'zbekiston Taekvondo WT federatsiyasi tomonidan musoboqalar tizimi tartibga solingan, xalqaro standartlar joriy etilgan, malakali hakamlar korpusi shakllantirilgan. Respublika miqyosidagi musoboqalar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda va xalqaro turnirlar ham tashkil etilmoqda [6].

Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda taekvondo WT musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimida hali ham bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Kadrlar masalasi - malakali hakamlar va musobaqa tashkilotchilarining yetishmasligi sezilarli muammo hisoblanadi. Xalqaro sertifikatga ega hakamlar soni ham yetarli emas. Bu esa katta xalqaro musoboqalarni tashkil etishda qiyinchiliklar tug'diradi. Musobaqa menejmenti sohasida maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar tayyorlash tizimi ham rivojlanmagan [8].

Infratuzilura masalasi - zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan sport inshootlari yetarli emas. Mavjud sport zallarining aksariyati xalqaro musoboqalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarga ega emas. Elektron hakamlar tizimi, videotakror tizimi kabi zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan sport inshootlari kam [4].

Moliyaviy masalalar - musoboqalarni moliyalashtirish manbalari va mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Davlat budjeti mablag'lari cheklangan, homiylik va sponsorlik tizimi esa sustroq rivojlangan. Musoboqalardan tijorat daromadlari olish imkoniyatlari ham to'liq o'zlashtirilgan [2].

Axborot-texnologik masalalar - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi pastroq.

Volontiyorlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish - yirik musoboqalarni o'tkazishda ko'ngillilar yordami juda muhim. Volontiyorlarni tanlash, o'qitish va boshqarish tizimini takomillashtirish, ularning motivatsiyasini oshirish choralari ko'rilishi lozim [6].

Ekologik talablarni inobatga olish - "yashil sport" tamoyillariga rioya qilish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, chiqindilarni to'g'ri utilitatsiya qilish kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Musoboqalarni boshqarishning maxsus dasturiy ta'minoti, onlayn translatitsiyalar tizimi, natijalarni qayd etish va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari keng joriy etilmagan [5].

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Hakamlar va musobaqa tashkilotchilarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish. Buning uchun xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda muntazam seminarlar va master-klasslar tashkil etish, xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish zarur.

Sport inshootlari infratuzilurasini rivojlantirish, mavjud sport zallarini zamonaviy jihozlarga bilan ta'minlash, yangi zamonaviy komplekslar qurish choralari ko'rish lozim.

Musoboqalarni moliyalashtirishning turli manbalarini jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish, homiylik va sponsorlik tizimini rivojlantirish, tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llarini izlash kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, musoboqalarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish va joriy etish choralari ko'rish maqsadga muvofiq.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda taekvondo WT musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish imkonini beradi. Bu esa sport turining yanada rivojlanishiga va xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi [8].

Taekvondo WT sport musoboqalarini tashkil etish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qo'shimcha muhim jihatlarni ko'rib chiqish zarur. Xususan, musoboqalarni tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Musoboqalarni tashkil etish va boshqarishda zamonaviy menejment usullarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda loyiha boshqaruvi (project management) tamoyillaridan foydalanish, musoboqani tashkil etishning barcha bosqichlarini aniq rejalashtirish, resurslarni optimal taqsimlash, xatarlarni baholash va boshqarish tizimini joriy etish zarur. Bu borada xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, professional sport menejerlari tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish va ularning malakasini muntazam oshirib borish muhim [9].

Raqamli texnologiyalar sohasida yangi innovatsiyalarni joriy etish ham muhim vazifa hisoblanadi. Masalan, musoboqalarni onlayn translyatsiya qilish, natijalarni real vaqt rejimida e'lon qilish, elektron ro'yxatdan o'tkazish tizimlari, mobil ilovalar orqali musobaqa jadvalini kuzatish imkoniyatlari yaratilishi lozim. Bu nafaqat musoboqani boshqarish samaradorligini oshiradi, balki tomoshabinlar va ishtirokchilar uchun ham qulayliklar yaratadi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yetakchi xorijiy federatsiyalar va sport tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali tajriba almashish imkoniyatlari kengayadi.

Bu esa milliy musoboqa tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro ekspertlarni jalb etish, qo'shma seminarlar va master-klasslar tashkil etish orqali kadrlar malakasini oshirish mumkin [10].

Musoboqalarni tashkil etish va boshqarishda mahalliy hokimiyat organlari, sport tashkilotlari va biznes vakillari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham muhim masala hisoblanadi. Bu musoboqalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, infratuzilturni rivojlantirish va marketing faoliyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Xulosa. Musoboqalarning ijtimoiy ahamiyatini oshirish maqsadida turli qo'shimcha tadbirlar - master-klasslar, ko'rgazmali chiqishlar, bolalar musoboqalari, hayrixohlik aksiyalari kabi tadbirlarni ham tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu sport turining ommaviyligini oshirish va yangi iste'dodlarni kashf etishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi barcha chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi taekvondo WT sport turining rivojlanishiga, sportchilarimizning xalqaro maydondagi yutuqlariga va umuman milliy sport tizimining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. World Taekwondo. (2023). Competition Rules & Interpretation. Seoul: World Taekwondo Federation.
2. Бкулев, С.Е. (2022). Современные проблемы оргнизции и проведения соревнований в единоборствах. Теория и прктик физической культуры, 5, 94-98.
3. Kim, Y.J. (2023). Management of Taekwondo Competitions: Modern Approaches and Challenges. International Journal of Sport Management, 24(2), 156-169.
4. O'zbekiston Taekvondo WT federatsiyasi. (2023). Musoboqalarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent.
5. Johnson, M.R. (2022). Technology Integration in Combat Sports Competitions. Sport Technology Review, 15(3), 225-238.
6. Лимов, .. (2023). Спорт мусобкдрини тшкил этиш в бошкришнинг змонвий усуллри. Спорт нзрияси в млиёти, 3, 45-52.
7. Park, S.H. (2023). Development of Professional Referee System in Taekwondo. Asian Journal of Sport Science, 12(4), 78-89.
8. Chen, L. (2022). Modern Approaches to Combat Sports Competition Management. International Sport Management Journal, 18(2), 112-125.
9. Усмонов, Б.. (2023). Спорт мусобкдрини тшкил этишнинг змонвий менежмент усуллри. Спорт в жисмоний трбия журнли, 4(12), 78-85.



UDK :323.327:347(575.1)

Azim XOLMAXMATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: great-king@inbox.ru

Falsafa fanlari doktori, professor O.Musayev

YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada dunyoning ilg'or mamlakatlarida erishilgan yutuqlarning asosida yoshlar siyosatini amalga oshirishda qo'llanadigan xalqaro standartlarni joriy etish hamda ushbu standartlarga asos bo'lgan me'yoriy hujjatlar tahlil qilinib, yoshlarga oid siyosatning shakllanishi va alohida siyosiy faoliyat sifatida namoyon bo'lishi masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sivilizatsiya kelajagi yoshlar bilan bog'liq ekanligi nuqtayi nazardan mutaxassislarning qarashlari asosida sohaga oid siyosat bilan bog'liq jarayonlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: BMT Bosh Assambleyasi, Samarali yoshlar siyosati, rezolyusiya, xalqaro standartlar yoshlar, Yoshlarga mo'ljallangan ijtimoiy xizmatlar, yoshlar tashkilotlari, yoshlar guruhlari, yoshlar birlashmalari, loyiha, dastur.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ В РЕАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация

В данной статье анализируется реализация международных стандартов, используемых при реализации молодежной политики, на основе достижений в передовых странах мира и нормативных документов, основанных на этих стандартах. Также с точки зрения того, что будущее цивилизации связано с молодежью, на основе взглядов экспертов раскрываются процессы, связанные с политикой в данной сфере.

Ключевые слова: Генеральная Ассамблея ООН, Эффективная молодежная политика, резолюция, международные стандарты, молодежь, социальные услуги для молодежи, молодежные организации, молодежные группы, молодежные объединения, проект, программа.

LEGAL AND REGULATORY FOUNDATIONS FOR IMPLEMENTING INTERNATIONAL STANDARDS IN YOUTH POLICY

Annotation

This article analyzes the implementation of international standards used in the implementation of youth policy based on the achievements in the advanced countries of the world and the regulatory documents based on these standards. Also, from the point of view that the future of civilization is related to the youth, the processes related to the policy related to the field are revealed based on the views of experts.

Key words: UN General Assembly, Effective youth policy, resolution, international standards, youth, social services for youth, youth organizations, youth groups, youth associations, project, program.

Kirish. XX asr so'nggi choragiga kelib, ko'plab rivojlangan davlatlarda yoshlarga oid siyosat shunchaki yoshlar ishi darajasidan xalqaro miqiyosda davlataro, milliy miqiyosda esa davlat siyosatining mustaqil faoliyat turiga aylandi. Unga doir umuminsoniy tendensiyalar va ustuvor yo'nalishlarni belgilaydigan xalqaro hujjatlar qabul qilina boshlandi. Xususan, 1985 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to'g'risida"gi [1] rezolyusiya ana shu jarayonning yaqqol misolidir. Jahon mamlakatlarining milliy manfaatlari va taraqqiyot tamoyillariga mos yoshlar siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va eng umumiy xalqaro meyorlar belgilab berilgan ushbu hujjatning qabul qilinishi, bir tomondan uning milliy darajada qo'llanilishi uchun asos yaratdi, ikkinchidan esa, mazkur jarayonning umuminsoniy sivilizatsiya taraqqiyoti uchun nihoyatda muhimligini yana bir bor namoyon qildi, deyish mumkin. Bundan tashqari ushbu hujjat muayyan darajada yoshlar siyosatini amalga oshirishning xalqaro standartlarini ham belgilab berdi. Shuni nazarda tutgan holda, bu hujjatning qabul qilinishi bir tomondan yoshlar siyosatining milliy miqiyosdan xalqaro darajaga ko'tarilganligini boshqa tomondan esa uni amalga oshirishning ilk xalqaro standartlari vujudga kelganligini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar siyosatini amalga oshirishda xalqaro standartlarni joriy etishning meyoriy-huquqiy asoslari to'g'risida ustuvor yo'nalish sifatida tahlillarni amalga oshirgan olimlar qatoriga M.Qirg'izboev, Q.Quronboev, A.Jalilov, O.Hasanov, F.Ravshanov, J. Yusupov, A.Boliev,

N.Boymuradov, O'.Shakarov, A.Yuldasheva N.Turg'unova, D.Kattaxanova, kabi taniqli olimlarning izlanishlari va ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-nazariy qarashlar bir qator xorijiy olimlarning ilmiy asarlari, maqolalari va monografiyalari o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, tuzilmaviy-funksional, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, hujjatlarini o'rganish, ma'lumotni qayta ishlash guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yoshlar siyosatining davlat siyosiyosati darajasida shakllanishiga oid umumjahon tajribasini o'rgangan tadqiqotchilar o'z mamlakatlari bilan o'xshash jihatlariga diqqat qaratadilar. Mazkur tadqiqotda esa bu boradagi jahon tajribasini o'rgangan izlanishlar xulosalarining yurtimizdagi yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi jihatlarini tahlil etiladi. Bu boradagi xalqaro tajriba tahlili har qanday mamlakatda davlat siyosatining yoshlarga oid maxsus faoliyat sohasini ishlab chiqish va tadbir etish zarurligini ko'rsatadi. Yoshlarga oid davlat siyosati konstitusion darajada mustahkamlab qo'yilgan Germaniya, Fransiya, Shvesiya, AQSH, Italiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning mazkur siyosatni amalga oshirish borasidagi tajribalari yuqorida ilgari surilgan mulohazaning yaqqol tasdig'i bo'la oladi.

Aksariyat tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, "Postindustrial jamiyatda yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonlari ko'p jihatdan jahon iqtisodiyotini texnologik

isloh qilishning yangi bosqichida g'arb jamiyatlaridagi mehnat va intellektual resurslarni ishlab chiqarish sharoitlarining murakkablashuvi, oila va maktab singari turli yoshlar ijtimoiylashuv institutlarining inqirozi, shuningdek, jamiyat tuzilmasining murakkab xarakter kasb eta borib, mazkur tuzilmada yoshlar rolining o'sishi kabi xilma-xil omillarga bog'liq bo'ladi"[2]. Shunday ekan, yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish muammosi ijtimoiy voqelikning amal qilish qonuniyatlari bilan o'zaro mutanosiblikda, aniqrog'i, jamiyatning taraqqiyot mantig'iga muvofiq qarab chiqilmog'i lozim.

G'arbda yoshlarga oid davlat siyosatining ilk shakllanish bosqichlari 1950-1960-yillarga to'g'ri keladi. Bu davr o'zida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda yoshlarning roli kuchaygan g'arb jamiyatlarining obyektiv qonuniyatlarga muvofiq yangi taraqqiyot bosqichini aks ettiradi[3].

Agar G'arb mamlakatlaridagi yoshlarga oid davlat siyosatining evolyusiyasi tahliliga diqqat qaratilsa, quyidagicha manzaraga guvoh bo'lish mumkin:

1950-yillarda yoshlarga oid davlat siyosati konservativ paternalistik xarakter kasb etgan holda, jamiyat va davlat asosan to'satdan moddiy og'ir ahvolga tushib qolgan oilalar hamda, ijtimoiy guruhlar shuningdek, immigrantlarga diqqat qaratdi[4].

Bugungi kunda esa dunyoning turli mamlakatlarida yoshlarga oid davlat siyosati yosh aholining xilma-xil qatlamlarini qamrab olgan. Yoshlarga mo'ljallangan ijtimoiy xizmatlar hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda yagona xalqaro dastur asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Aholining yosh qatlamiga yoshlarga oid davlat siyosatining nafaqat obyekti, balki, uning faol subyekti sifatida ham qaralmoqda. Mamlakatimizda bunday qarash mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin qabul qilingan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari" to'g'risidagi qonunda o'z aksini topganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Shuningdek, Xalqaro miqyosdagi yoshlarga oid davlat siyosatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy meyoriy baza va qonunchilik standartlari BMT tomonidan ishlab chiqiladi hamda amaliyotga tadbiiq qilinadi. 1965 yilda BMTning bosh Assambleyasi tomonidan "Yoshlar o'rtasida xalqlararo o'zaro hurmat va o'zaro tushunish idealini keng yoyish bo'yicha" Deklarasiya qabul qilingan. Keyingi yillarda ham sohaga oid qator muhim huquqiy-meyoriy hujjatlar qabul qilinib amaliyotga tadbiiq qilindi: 1985 yili Xalqaro yoshlar yili deb e'lon qilindi. 1995 yil 14 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining rezolyusiyasiga muvofiq, 2000 yilgacha va undan keyingi davrga mo'ljallangan yoshlarga oid umumjahon harakatlar dasturi qabul qilindi; 2000 yilning 20 yanvaridagi 54/120 sonli rezolyusiya bilan 1998 yilda Lissabonda bo'lib o'tgan yoshlar masalalari bo'yicha vazirlarning butunjahon konfrensiyasidagi yoshlar siyosati va dasturi bo'yicha Lissabon deklarasiyasi ma'qullandi[5].

Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar yoshlar va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlashdan iborat bo'lgan yoshlar siyosatining bosh maqsadining ijrosini xalqaro va milliy miqyosda qonunon mustahkamlashga xizmat qilmoqda[6].

Ayrim, Yevropa mamlakatlarida yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat siyosatining aniq tuzilmaga ega mustaqil qismi sifatida shakllanib ulgurgan bo'lsa, ba'zilarida esa u hali shakllanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Shundan kelib chiqqan holda barcha Yevropa mamlakatlaridagi yoshlarga oid davlat siyosatini tavsiflovchi quyidagi asosiy elementlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, barcha Yevropa mamlakatlarida yoshlarga oid davlat siyosatining tarqalish sohasiga taalluqli elementi sifatida ijtimoiy va geografik guruhlar belgilab qo'yilgan;

Ikkinchidan, davlat va nodavlat notijorat yoshlar tashkilotlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining roli va mexnizmlari qonunon belgilab qo'yilgan;

Uchinchidan, yoshlarga oid davlat siyosati sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ham barcha Yevropa mamlakatlariga xos muhim element sanaladi;

To'rtinchidan, yoshlarga oid davlat siyosatining hamkorlik, boshqaruv, vertikal va gorizantal tuzilmalari singari elementlari alohida ajratib ko'rsataladi;

Beshinchidan, yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiqish va tadbiiq etish jarayonini resurslar bilan ta'minlash (jumladan insoniy va moliyaviy resurslar bilan).

Albatta Yevropa davlatlaridagi huquqiy jihatdan asoslangan va amaliyotga joriy etilgan yuqoridagi mezonlar O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Birlashgan millatlar tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi 90 foiz mamlakatlarda yoshlarga oid davlat siyosatida ishtirok etuvchi tashkilotlar integrativ xarakter kasb etadi. Bu esa o'z navbatida yuqorida tilga olingan 90 foiz doirasiga kiruvchi mamlakatlarda yoshlarga oid davlat siyosatining subyekti bo'lgan professional siyosiy tashkilotlar va yoshlar tashkilotlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish standartlashtirish bilan shug'ullanadigan siyosiy tuzilmalarning mavjudligidan dalolat beradi[7]. Jumladan, O'zbekistonda ham rivojlangan davlatlar o'zaro integratsiyalashgan siyosat olib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi integrativ yoshlarga oid davlat siyosati masalasi bugungi kunga qadar bahs va munozalarga olib kelayotgan bo'lsada, yoshlar sohasini tartibga solishga qaratilgan muayyan standart qonunchilik tizimi mavjud degan xulosaga kelish mumkin.

O'zbekistonda milliy miqyosda amal qiluvchi yoshlar siyosati bilan shug'ullanuvchi muassasalararo tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarning ishtirokini ta'minlovchi asosiy vosita bu yoshlar tashkilotlari hisoblanadi. Ularning yoshlarga oid davlat siyosatidagi ishtiroki va roli turli mamlakatlarda turlicha bo'lsada, yoshlar tashkilotlarining aniq ta'rifi mavjud emas.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatidan ayrim jihatlari bilan farq qiluvchi Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati haqida mushohada yuritilganda quyidagilarga e'tibor qaratish talab qilinadi:

Mahalliy yoshlar tashkilotlari yoshlarga oid davlat siyosatining asosini tashkil qilsada, mazkur siyosatni amalga oshirish tuzilmasidagi ularning o'rni deyarli sezilmaydi;

milliy miqyosdagi yoshlar tashkilotlari yoshlar siyosatini ishlab chiqish borasidagi o'z imkoniyatlaridan doim ham to'la foydalanavermaydilar;

Ko'plab yoshlar tashkilotlari a'zolar sonining kamligi tufayli ligitimlashuv borasida inqirozga uchramoqdalar[8]. (Buni aksariyat Yevropa mamlakatlari orasida tug'ilish va yoshlarning kamayib borayotganligi omili bilan izohlash mumkin[9]).

So'nggi o'n yillikda kuzatilgan faktlar an'anaviy yoshlar tashkilotlarini afzal ko'ruvchi yoshlar o'zlarining ijtimoiy hayotda yangicha shakldagi ishtiroklarini istayotganliklaridan dalolat bermoqda. (Jumladan, yoshlar guruhlarining noformal birlashmalari alohida loyiha va dasturlarni keng tadbiiq qilmoqdalar). Bundan tashqari, xalqaro maydonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati o'z oldiga turlicha o'zaro farqli vazifalarni qo'ymoqda. Bir mamlakatdagi yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ijtimoiy muammolari profilaktikasi va ularga qarshi kurashish vazifasini bajarsa, boshqa bir mamlakatda mazkur siyosat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ta'lim sohalarida yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish funksiyasini amalga oshirmoqda.

Mazkur ikki masala O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda birdek e'tibor qaratgan holda olib borilmoqda.

Shuni alohida qayd etish lozimki, turli Yevropa mamlakatlarida xilma-xil tuzilmaga ega bo'lgan yoshlar tashkilotlarining faoliyat yuritishiga qaramasdan umummiy miqyosidagi yoshlarga oid davlat siyosatining quyidagi ustuvor yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi standartlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Ta'lim - kadrlar tayyorlash – bandlik, yoshlar ishi va noformal ta'lim, sog'liqni saqlash, turar joy, ijtimoiy himoya, oilaviy siyosat va bolalar farovonligi, bo'sh vaqt va madaniy soha, bolalar huquqlari, mudofaa va harbiy xizmat[10].

Umr bo'yi ta'lim va tahsil olish yoshlar siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aksariyat dunyo mamlakatlari shu jumladan O'zbekistonda ham professional qayta tayyorlash, formal va noformal ta'lim tizimlari hamda ta'lim va trening o'rtasidagi munosabat, shuningdek, mehnat bozoriga bo'ladigan taklif masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ta'lim faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlarida yoshlarning jismoniy sog'lomliklariga qaramasdan ma'naviy sog'lom muhitning inqirozi kuchayib, psixotrop moddalar iste'molini profilaktikalashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda[11].

Garchi turar joy ta'minoti masalasi yoshlarga oid davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishiga qaramasdan yaqin kelajakda bu boradagi zaruratning yanada o'rtish ehtimoli yuqori. Yevropa yoshlari davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya borasida keng imkoniyatlarga egalar. Ammo, bugungi kunga kelib mazkur imkoniyatlar texnika va professional ta'limga qaratilgan dasturlar bilan almashtirilmoqda.

Yoshlar tomonidan sodir etiladigan qonunbuzarliklar ko'pincha ularning jamiyat tomonidan qabul qilinmaganligi tufayli ro'y bersada, Yevropada yoshlar qonunchiligi bo'yicha birmuncha ulkan ishlar amalga oshirilgan.

Madaniy ta'lim va bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil qilish sohasi aksariyat Yevropa mamlakatlaridagi yoshlarga oid davlat siyosatining tarixan shakllanib kelgan ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ammo mazkur yo'nalishni muvaffaqiyatli tadbiq qilish uchun bo'sh vaqt sohasidagi davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlarining o'zaro siyosiy hamkorligi talab qilinadi[12].

Yevropa mamlakatlaridagi yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar va bolalar birlashmalarini qo'llab-quvvatlash borasidagi o'ziga xos jihati bilan ham ajralib turadi.

Aksariyat tadqiqotlarda Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati bu boradagi xalqaro standart sifatida ko'rsatilmog'da. Yoshlar muammolarini hal qilishda hukumatlar va davlatlararo hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilganligi so'nggi 10 yillikda kuzatilayotgan ijobiy tendensiyalardan hisoblanadi. Shu ma'noda, yoshlar siyosati masalalari xalqaro tashkilotlar jumladan, BMTning faoliyatida o'z aksini topmoqda[13].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda yoshlarga oid siyosatining shakllanishi va tadbiq qilinishi bilan bog'liq ikkita o'zaro aloqador elementni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, yoshlar manfaatlarini o'zlari shakllantirishlari hamda ularning qo'llab-quvvatlanishlarini ta'minlashlari lozim. Ikkinchidan, milliy hukumatlar yoshlarning ijobiy intilishlarini qo'llab-quvvatlashi, ularning faoliyatlarini kengaytirishi hamda yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki uchun zaruriy sharoit yaratmoqlari lozim. Ammo mazkur qo'llab-quvvatlash shartli asosda bo'lmasligi lozim. Aniqlik, mas'ul tashkilotlar yoshlarning manfaatlarini, huquqlarini, ehtiyojlarini ta'minlashga oid maxsus dasturlar ishlab chiqishi va muayyan meyorlar o'rnatishi lozim.

BMT tomonidan yoshlar huquqlariga oid bir qator konvensiyalar, paktlar va tavsiyalar[14] qabul qilgan. Bu hujjatlarni yoshlar siyosatini xalqaro miqyosda amalga oshirishning o'ziga huquqiy standartlari deyish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ильинский, И.М. Молодежь как глобальная проблема человечества. Молодежная политика как императив XXI века / И.М. Ильинский. - М., 2008. - С.9.
2. Сикевич, З.В. Молодежная культура: "за" и "против". Заметки социолога / З.В. Сикевич. - Л., 2010. - С. 34.
3. Горц, А. Метаморфозы труда: Поиск смысла, критика экономического разума / А. Горц // Современная западная социология: Классические традиции и поиски нового смысла. - М., 2009. - С. 43
4. Молодежь в Организации Объединенных Наций / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.un.org/youth.html>
5. Лиссабонская декларация по молодежной политике и Брагский план действий в интересах молодежи (A/53/378) / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.un.org/youth.html>.
6. Всемирная программа действий, касающаяся молодежи, до 2000 г. и на последующий период (A/RES/50/81) / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.un.org/youth.html>.
7. Алешенок, СВ. Государственная поддержка молодежных организаций: Мировой опыт / СВ. Алешенок // Молодежная политика. - М., 2015. - № 77. - С.20.
8. Всемирный доклад по делам молодежи генерального секретаря ООН (2015 г., № А 60/61) / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.un.org/youth.html>.
9. http://www.un.org/ru/documents/instruments/docs_ru.asp



Алла ЦОЙ,
PhD, доцент, Ангренский университета
E-mail: allatsoy0203@gmail.com

На основе рецензии кандидата педагогических наук, доцента НУУз Ахмедовой Мукаддас Хадиметовны

О РОЛИ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК НЕРОДНОГО

Аннотация

В статье рассматривается значение творческих заданий в процессе формирования профессиональной компетенции студентов-филологов, изучающих русский язык как неродной. Анализируются основные виды творческих заданий, их роль в развитии языковых, коммуникативных и методических навыков, а также их влияние на креативное мышление студентов. Особое внимание уделяется проектным, переводческим и литературным заданиям, способствующим формированию межкультурной компетенции и адаптации к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Творческие задания, профессиональная компетенция, студенты-филологи, русский язык как неродной, языковая компетенция, межкультурная коммуникация, креативное мышление.

THE ROLE OF CREATIVE TASKS IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS IN RUSSIAN LANGUAGE CLASSES AS A NON-NATIVE LANGUAGE

Annotation

The article examines the significance of creative tasks in the process of forming the professional competence of philology students studying Russian as a non-native language. The main types of creative tasks, their role in developing linguistic, communicative, and methodological skills, as well as their impact on students' creative thinking, are analyzed. Special attention is given to project-based, translation, and literary tasks that contribute to the formation of intercultural competence and adaptation to professional activities.

Key words: Creative tasks, professional competence, philology students, Russian as a non-native language, linguistic competence, intercultural communication, creative thinking.

RUS TILI CHET TILI SIFATIDA O'QITILISHIDA FILOLOGIYA O'QUVCHILARINING KOGNITIV QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV VAZIFALARNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rus tili chet tili sifatida o'rganilayotgan filolog talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ijodiy topshiriqlarning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ijodiy topshiriqlarning asosiy turlari, ularning til, kommunikativ va metodik ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli, shuningdek, talabalar ijodiy tafakkuriga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, loyihaviy, tarjima va adabiy topshiriqlarga alohida e'tibor qaratilib, ularning madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish va kasbiy faoliyatga moslashishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ijodiy topshiriqlar, kasbiy kompetensiya, filolog talabalar, rus tili chet tili sifatida, til kompetensiyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, ijodiy tafakkur.

Введение. Современное образование требует применения инновационных подходов к обучению, направленных на развитие не только академических знаний, но и практических навыков, необходимых для будущей профессиональной деятельности. В этом контексте особую значимость приобретает использование творческих заданий, способствующих формированию профессиональных компетенций студентов-филологов, изучающих русский язык как неродной.

Творческие задания позволяют интегрировать различные виды деятельности – аналитическую, коммуникативную, исследовательскую и художественную – что способствует более глубокому усвоению материала. Они развивают у студентов способность адаптироваться к различным языковым ситуациям, критически осмысливать информацию и эффективно взаимодействовать в межкультурной среде. Кроме того, творческий подход к обучению стимулирует мотивацию студентов, делая процесс изучения языка более увлекательным и продуктивным.

Особую актуальность данная тема приобретает в условиях глобализации, когда знание русского языка как иностранного становится важным фактором профессиональной успешности для специалистов, работающих в сфере филологии, лингвистики, перевода и преподавания. В данной статье рассматриваются основные аспекты применения творческих заданий в обучении студентов-филологов, их роль в формировании языковой, коммуникативной и методической компетенции, а также

влияние на профессиональное развитие будущих специалистов.

Основные понятия. Профессиональная компетенция филолога включает в себя совокупность знаний, умений и навыков, необходимых для успешной работы в сфере языкознания, литературоведения и преподавания. Среди ключевых компонентов компетентности выделяют:

языковую компетенцию (грамотное владение языком и способность анализировать его структуру и функционирование);

коммуникативную компетенцию (способность эффективно взаимодействовать в различных языковых ситуациях, умение вести диалог, дискуссию и публичные выступления);

методическую компетенцию (умение применять различные методики преподавания, разрабатывать учебные материалы и адаптировать их под аудиторию);

креативную компетенцию (способность к нестандартному подходу в решении задач, развитию новых методических приемов и адаптации творческих методик в преподавании);

социокультурную компетенцию (знание культурных традиций стран, говорящих на изучаемом языке, и способность учитывать их в процессе коммуникации);

информационно-аналитическую компетенцию (умение работать с различными источниками информации, анализировать и интерпретировать тексты разного типа);

переводческую компетенцию (способность работать с текстами в двуязычной среде, учитывать стилистические и культурные особенности перевода);

рефлексивную компетенцию (способность анализировать собственную деятельность, находить и исправлять ошибки, совершенствовать профессиональные навыки).

Творческие задания представляют собой особый вид учебных задач, требующих от студентов проявления оригинальности, самостоятельности и интеграции различных видов деятельности (письменной, устной, аналитической, художественной и т. д.). Они позволяют студентам-филологам овладеть профессиональными компетенциями через активное взаимодействие с языковым материалом, а также стимулируют их творческое мышление и способность к креативному подходу в решении языковых задач.

Виды творческих заданий

В практике преподавания русского языка как неродного используются различные формы творческих заданий:

Написание эссе, сочинений и рассказов – помогает развивать навыки аргументации, логического изложения мыслей и стилистического оформления текста.

Создание диалогов и ролевых игр – способствует развитию речевой активности, коммуникативных способностей и уверенности в использовании языка.

Переводческие упражнения с элементами художественной адаптации – позволяют развивать языковое чутьё и способность к межкультурной интерпретации текстов.

Проектные работы (например, создание мини-исследований, презентаций, видеороликов на русском языке) – способствуют формированию аналитического мышления и командной работы.

Использование литературных текстов для креативного переосмысления (например, написание альтернативных концовок к произведениям) – развивает воображение и способность к глубокому анализу текста.

Влияние творческих заданий на профессиональную компетенцию

Творческие задания оказывают значительное влияние на профессиональное развитие студентов-филологов, поскольку:

формируют гибкость мышления и способность адаптироваться к различным языковым ситуациям;

развивают умение анализировать и интерпретировать тексты, что важно для будущих преподавателей и переводчиков;

способствуют самостоятельной работе с языковым материалом, повышая уровень владения русским языком;

учат студентов учитывать национально-культурные особенности общения и формируют межкультурную компетенцию.

Заключение. Таким образом, творческие задания являются неотъемлемой частью процесса формирования профессиональной компетенции студентов-филологов, изучающих русский язык как неродной. Они помогают будущим специалистам не только совершенствовать свои языковые навыки, но и развивать критическое мышление, креативность и способность к эффективному взаимодействию в многоязычном и многокультурном пространстве.

Кроме того, использование творческих заданий позволяет студентам формировать устойчивую мотивацию к изучению языка, развивать способность к самостоятельному поиску информации и её обработке, а также адаптироваться к профессиональной деятельности в различных лингвистических средах. Методики, основанные на творческом подходе, способствуют интеграции знаний из различных областей, что делает процесс обучения более целостным и продуктивным.

Таким образом, включение творческих заданий в образовательный процесс не только повышает уровень владения русским языком, но и способствует всестороннему развитию студентов-филологов. Это делает их более конкурентоспособными на рынке труда, где требуются не только знания языка, но и способность к нестандартному решению профессиональных задач, творческому подходу и эффективному взаимодействию в межкультурной среде.

ЛИТЕРАТУРА

1. Кулеша Ю. В. Развитие интереса к урокам русского языка в 5 классе // Русский язык в школе. – М.: Русский язык, 1997. – № 6. – С. 32-38.
2. Цой А.П., Тен С.К., Рахимова А.И. Project-based learning technology in classes for technical and it-orientating groups: experience and results of implementation (скопус)
3. Пахомова Н. Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении. – М.: АРКТИ, 2005. – 112 с.
4. Цой А.П. Об использовании проектной технологии обучения на занятиях по русскому языку в иноязычных группах // Вестник Хорезмской академии Маъмуна. – Хива, 2022. – С. 178-181.
5. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю., Моисеева М. В., Петров А. В. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. пед. вузов. – М., 2000. – С.65-66.
6. Цой Алла Павловна: About some historical aspects of russian word formation in the practice of teaching russian as a non-native language / O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi mintaqaviy bo'limi xorazm ma'mun akademiyasi, стр. 247-250
7. Словарь русского языка: В 4-х т./Под ред. А.П. Евгеньевой. – 3-е изд., Т. 4. М.: Русский язык, 1988. С. 345.
8. Соколова Ю. А. Учебный проект и возможность его реализации на уроках русского языка // РЯШ. – М., 2008. – № 6. – С. 3.
9. Tsoy Alla Pavlovna / Tsoy Aleksandr Igorevich- On the cognitive mechanisms of translating idiomatic expressions in the process of teaching korean to russian-speaking learners/ American Journal of Education and Learning (ISSN 2996-5128)-1383-1994
10. Чубарова О. Э. Система творческих заданий в практике преподавания русского языка как иностранного (обучение и контроль) // Вестник МГЛУ. Образование и педагогические науки. – Вып. 2 (8311) / 2019. – С. 115-127.
11. Tsoy Alla Pavlovna / О механизмах языковой игры в современных сми - "Science, education, innovation: modern tasks and prospects". Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference 05.12.2024, Pub. "ICP", Rome, Italy, 54 p.- стр. 40-44



Mahfuza SHERMATOVA,

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: maxfuzashermatova@gmail.com

NamDU professori, f.f.n M.Hamidova taqriz asosida

READERS THROUGH FICTION METHODS OF SPIRITUAL ELEVATION

Annotation

This article talks about the role of fiction in providing spiritual education to readers and its various methods. The article analyzes the role of literature in the educational system, its importance in the development of moral values in readers, as well as the spiritual rise of readers through fiction. During the analysis, the importance of literature in expanding the worldview of students, teaching them to social responsibility, patriotism and humanity is highlighted. At the same time, the article provides recommendations on how fiction can be effectively used in the educational process in order to increase the personal development and activity of readers in society.

Key words: Spiritual-moral principle, affection, treatment, behavior, norm, moral consciousness, moral sense, emotion, attitude, behavior, discipline, substance-meaning, meaning, spirituality, national, tradition, tradition, maturity, Botanic power, inner world, faith, art, class, religious and secular knowledge.

ЧИТАТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННУЮ ЛИТЕРАТУРУ МЕТОДЫ ДУХОВНОГО ВОЗВЫШЕНИЯ

Аннотация

В этой статье рассказывается о роли художественной литературы в духовном обучении студентов и ее различных методах. В статье анализируется роль литературы в системе образования, ее значение в развитии нравственных ценностей у учащихся, а также духовное возвышение учащихся через художественные произведения. В ходе анализа особо подчеркивается значение литературы в расширении кругозора учащихся, обучении их социальной ответственности, патриотизму и человечности. В то же время в статье даются рекомендации о том, как художественную литературу можно эффективно использовать в образовательном процессе для личностного развития учащихся и повышения их активности в обществе.

Ключевые слова: Духовно-нравственное начало, привязанность, обращение, манеры, норма, моральное сознание, моральное чувство, чувство, отношение, поведение, дисциплина, смысл, смысл, духовность, духовность, национальность, традиция, обычай, зрелость, боевая сила, внутренний мировоззрение, вера-вера, художественное, классовое, религиозное и светское познание.

O'QUVCHILARNI BADIY ADABIYOT ORQALI MA'NAVYI YUKSALTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola, badiiy adabiyotning o'quvchilarga ma'naviy ta'lim berishdagi o'rni va uning turli usullari haqida so'z yuritadi. Maqolada, adabiyotning ta'lim tizimidagi roli, uning o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, badiiy asarlar orqali o'quvchilarning ma'naviy yuksalishi tahlil qilinadi. Tahlil davomida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni ijtimoiy mas'uliyatga, vatanparvarlikka va insoniylikka o'rgatishdagi adabiyotning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, maqola o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda faolligini oshirish uchun badiiy adabiyotning ta'lim jarayonida qanday qilib samarali ishlatilishi mumkinligi bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy tamoyil, mehr-muhabbat, muomala, xulq-odob, me'yor, axloqiy ong, axloqiy his, hissiyot, munosabat, xatti-harakatlar, tartib-intizom, ma'ni-ma'no, ma'nan, ma'naviyat, milliy, an'ana, urf-odat, yetuklik, botiniy kuch, ichki dunyo, iymon-e'tiqod, badiiy, sinf, diniy va dunyoviy bilim.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy, amaliy mashg'ulotlar orqali har bir dars davomida milliy tarbiya asosida ma'naviy tarbiyasi berib borish jamiyatning rivojiga hissa qo'shish bilan belgilanadi. Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishsiz ma'naviyatni tasavvur qilish qiyin. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarida va hattoki ijodiy fanlar texnologiya, musiqa, tabiiy fanlar, sana't fanlarini bir-biriga bog'lab o'quvchilarga ijodiy yo'nalish berish sifatida tariximizni, o'zligimizni anglashga o'rgatadi, o'quvchilarni kasb-hunar egallashga yordam beradi, tilimizni, dinimizni, o'zligimizni o'rganish orqali milliy urf-odatlar, ana'analar ruhida tarbiyalanadi. Bu albatta, pedagoglardan ta'lim-tarbiya jarayonida juda katta tajribani, bolalar ta'lim-tarbiyasida va ishga mas'uliyat bilan yondoshishni, o'z ustida doimo, uzluksiz ishlab borishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyot, o'quvchilarni estetik did, muhabbat va vatanparvarlik kabi yuqori ma'naviy his-tuyg'ularni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, taniqli adabiyotshunoslar va pedagoglar, jumladan, A. Qahhor va T. Jo'rayev o'z asarlarida badiiy adabiyotning o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishdagi metodik asoslarini ko'rsatib, uning o'qish

jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlaganlar. Ular adabiyotning nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiyatni shakllantiruvchi ta'sirini ham o'z asarlarida aks ettirganlar.

Bundan tashqari, S. A. Makarenko va V. A. Sukhomlinsky kabi mashhur pedagoglar adabiyotning ta'lim jarayonida o'quvchilarga ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar va yaxshi xulq-atvorni o'rgatishda muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlashgan. Ular badiiy adabiyotning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga, xususan, jamiyatda to'g'ri qarorlar qabul qilish va odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishda qanday yordam berishini ko'rsatib, uning ahamiyatini oshirganlar [2].

Shuningdek, Sh. Xolmirzaev va M. Tursunovning asarlarida insoniylik, adolat, vatanparvarlik va o'zlikni anglash kabi g'oyalar keng tarqalgan bo'lib, bu asarlar o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyatga undaydi va ularni ma'naviy yuksalishga yo'naltiradi [3]. Badiiy adabiyotning aynan shu jihatlari o'quvchilarni ijtimoiy hayotda faol, adolatli, mehribon va vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, adabiyotning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi o'rni va uning ta'limdagi rolini e'tiborga olish o'quvchilarni yanada yuqori ma'naviyatga va insoniy qadriyatlarga ega shaxslar sifatida shakllantirishga imkon yaratadi. Adabiyotning bunday ta'siri nafaqat o'quvchilarning

estetik didini, balki ularning dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rnini ham muhim darajada ta'sir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlarni ma'nan yetuk qilib tarbiyalash hozirgi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Bu jarayon, nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish, balki ularni ma'naviy, axloqiy va madaniy jihatdan shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning ma'naviy yetukligi, ayniqsa, milliy ruhda tarbiyalash bilan bog'liq bo'lishi zarur, chunki milliy qadriyatlar va an'analar o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Maktab ta'limi jarayonida barcha fanlarni ijodiy fanlar bilan bir-biriga bog'lab darslarni ijobiy tashkil etish, o'quvchilarga milliy urf-odatlar, umumbashariy qadriyatlar, va milliy an'analar ruhida tarbiya berish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon pedagoglardan yuqori mahorat va e'tibor talab etadi. O'quvchilarga oilada va jamoat joylarida diniy va dunyoviy bilimlar orqali ma'naviy saboqlar berish ham muhim o'rin tutadi, chunki bu orqali yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga erishish mumkin [2].

Ma'naviyat, shuningdek, insonlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. U nafaqat tabiiy xususiyat, balki doimiy izlanish, o'rganish, tajriba o'ttirish orqali shakllanadi. Bu borada matn tahlili o'quvchilarga ma'naviy saboqlarni berishda va ularni ma'naviy yuksalishga yo'naltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [3].

Shunday qilib, yoshlarni ma'nan yetuk qilib tarbiyalash, o'quvchilarning faqat bilim darajasini oshirish emas, balki ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat ta'lim muassasalarining, balki jamiyatning barcha qatlamlarining jiddiy e'tiborini talab qiladi.

Bolalarni tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan ko'z yummaslik zarur. Bu muammo ta'lim-tarbiya jarayonida aniqlanib, tuzatilishi kerak. O'quv darslari orqali har bir hikoya yoki asar tahlili o'quvchilarning hayotga nisbatan ma'naviy shakllanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, har bir shaxs — ota-onalar, pedagoglar va tarbiyachilar — tarbiya jarayonida birgalikda hamkorlik qilib, o'z mas'uliyatlarini kuchaytirishlari zarur.

Hozirgi kunda ba'zi shaxslar, odatda, giyohvandlikka moyil, bilimsiz yoki ota-onasiga hurmatsiz bo'lib, o'z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo'lmoqda. Bunday holatlarning paydo bo'lishiga, avvalo, ota-onalarning tarbiyaga loqaydligi sabab bo'ladi. Ularning befarqligi yoki noto'g'ri xulq-atvori bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi tarbiya esa bir kunlik yoki bir soatlik ish emas. Bu jarayon uzoq muddatni o'z ichiga oladi va jamiyat uchun foydali hatti-harakatlar sifatida shakllanadi. Shuning uchun, maqsadli tarbiya ota-onadan, tarbiyachidan va pedagoglardan katta bilim, tajriba va sabrni talab qiladi.

Bolalar tarbiyasida ijobiy natijalarga tez erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, badiiy matn tahlili va ma'lum mehnat jarayonlariga jalb etish hamda kasb-hunar sirlarini o'rgatish muhimdir. Tarbiya jarayonidagi tartib-intizomning yo'qligi esa ko'plab salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shaxs, ayniqsa, mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti-harakatlardan uzoq bo'ladi.

Shunday qilib, tarbiyalashning asosiy maqsadi yoshlarni jamiyatga foyda keltiradigan, baxt-saodatli, o'z zamonining aziz va hurmatli, fidoiy kishilari sifatida shakllantirishdan iboratdir. Tarbiya jarayonida ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o'rgatish o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos bo'ladi.

Tarbiyaning murakkabligi va ahamiyati, uning davomiyligi va abadiyligida namoyon bo'ladi. Tarbiya, shuningdek, insonning tug'ilishidan o'lgunga qadar davom etadigan jarayon bo'lib, har bir yangi avlod uchun yana qayta boshlanadi. Bu, o'z navbatida, tarbiyaning tinimsiz va doimiy ravishda davom etishini ta'minlaydi. Islom ta'limotiga ko'ra, farzand ota-ona zimmasidagi omonatdir, va bu omonatning ijrosi ota-onaning mas'uliyatidir. Farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizlik qilish, katta xatolik bo'lib, omonatga xiyonat qilish, shu bilan birga, insonning diniy nuqsaniga ham sabab bo'ladi. Ota-ona farzandining birinchi tarbiyachisidir, va Qur'oni karimda oila a'zolariga e'tibor berish zarurligi ta'kidlanadi: "Ey mo'minlar,

sizlar o'zlaringizni va ahli-oilalaringizni o'tini odamlar va toshlar bo'lgan do'zaxdan saqlang" (Taxrim, 6-oyat). Bu ayat, oilaning tarbiya va mas'uliyatdagi ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi, bir-biriga mehr-oqibatli, axloqan to'g'ri shakllangan insonlarni voyaga yetkazishdir. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerakki, bugun farzandlarining tarbiyasiga e'tibor bermagan kishi kelajakda o'z farzandlarining baxtsizlikka duchor bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Oilada tarbiya masalalariga bo'sh qolish, farzandlarning kelajakda o'z o'rinlarini topa olmay, mustaqil bo'la olmasliklariga olib keladi. Badiiy o'qish tahlili, diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatish, tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Abu Hamid G'azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikr bildiradi: "Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota-ona omonatidir. Bola qalbi pok, nozik va sodda bo'lib, unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxiratda saodatni topadi. Agar bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, u baddaxtlikka yuz tutadi va halok bo'ladi. Bu holatdagi gunoh yuki ota-onaga yuklanadi". Shuningdek, Qur'oni karimda, Tahrir surasida, Alloh taolo mo'minlarga "Sizlar o'zlaringizni va ahli-oilalaringizni do'zaxdan saqlang" deb ogohlantiradi, bu esa tarbiyadagi muhim mas'uliyatni yana bir bor ta'kidlaydi.

Shu o'rinda, tarbiya nafaqat ota-onaning, balki jamiyatning ham umumiy mas'uliyati ekanligini, uning samara berishi uchun har bir inson o'z hissasini qo'shishi zarurligini ta'kidlash muhimdir.

Texnologiya darslarida badiiy matnlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga inson mehnatini qadrlash va kasblarning ahamiyatini anglatish mumkin. Badiiy matnlarni yordamida, masalan, duradgorlik, xaykaltaroshlik, nonvoylik, chevarchilik, kulolchilik kabi mashaqqatli mehnatlarni ulug'lash, bu kasblarning mehnatkash xalqimiz hayotida tutgan o'rnini tushuntirish lozim. Shuningdek, mehnat ortida insonning yashash sharoiti va mehnatkash xalqning yuksalishi evaziga yaxshilanishi kerakligi haqida tushuncha beriladi.

Badiiy matn tahlili texnologiya darslariga integratsiya qilish orqali, o'quvchilarga o'zbek xalqining mashaqqatli mehnatlari va bunyodkorlik ishlari haqida chuqurroq ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin. Bu nafaqat xalqimizning yuksak madaniyati va tarixiy yutuqlarini tanitish, balki o'quvchilarga buyuk allomalarimizning xalq ravnaqi yo'lida qilgan mehnatlari haqida ham tushuncha beradi. Shunday qilib, badiiy matnlarni o'rganish orqali o'quvchilar kelajakda vatanni sevuvchi, ardoqlovchi va asrovchi shaxslar sifatida kamol topishi ta'minlanadi [4].

Har bir ijodiy fan va texnologiya darslarida badiiy matnlarni tahlil qilish o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, shuningdek, vatanni sevis va uning tarixi, madaniyati bilan bog'liq muhim bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali o'quvchilar, kasb-hunarlarini qadrlash, mehnatning qiymatini anglash, va yurt ravnaqi yo'lida faol ishtirok etishga tayyor bo'ladilar.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali badiiy matn tahlili o'quvchilarda ma'naviy tarbiya berishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon o'quvchilarni faqat o'qish bilan emas, balki ular o'rganayotgan xalq og'zaki ijodining ma'naviy, axloqiy va estetik jihatlarini ham tushunishga yordam beradi. Badiiy matnlarning tahlili o'quvchilarni nafaqat intellektual jihatdan rivojlantiradi, balki ularning ma'naviy kamolotiga ham katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, to'garaklar orqali ta'lim va tarbiyaning davom ettirilishi muhim ahamiyatga ega. Fan va sport to'garaklarida o'quvchilar o'z ma'naviyatini rivojlantirish, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maktabda tashkil etilgan turli to'garaklar, masalan, "Yosh qalamkashlar", "Yosh ijodkorlar", "Mohir qo'llar", "Mohir chevarlar", "Yosh matematik", "San'at ihsosmandlari" va boshqalar, o'quvchilarga kasb-hunarlarining sirlarini o'rganish, ijod ahli bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Bunday to'garaklarning samarali tashkil etilishi, o'quvchilarning hayotda o'z o'rinlarini topishlariga, shuningdek, ularning ma'naviy yuksalishiga yordam beradi. Bu jarayon o'quvchilarga o'z

qobiliyatlarini kashf etish, yangi g'oyalarni ilgari surish va amaliyotda muvaffaqiyatlarga erishishga imkon yaratadi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijodiy fanlar orqali o'rganilgan bilimlarni to'garaklarda amaliyotga tadbiiq etish muhimdir. Bu orqali o'quvchilar kichik loyihalar yaratib, jamiyatning rivojiga o'z hissalarini qo'shishadi. To'garaklar o'quvchilarga nafaqat o'z qobiliyatlarini sinash, balki ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, birgalikda ishlash va kreativ yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada, o'quvchilarning ijodkorlik va tashabbuskorlik ko'nikmalari shakllanadi va jamiyatda o'z o'rinlarini topishga tayyorlanadilar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy adabiyot o'quvchilarni ma'naviy yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishida bir qator asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonni chuqurroq tahlil qilish, badiiy adabiyotning o'quvchilarga ta'sirini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Birinchidan, o'quvchilar badiiy adabiyotdagi qahramonlar orqali hayotning turli jihatlarini o'rganadilar. Qahramonlarning xatti-harakatlari va qarorlarining ijobiy yoki salbiy natijalari o'quvchilarga muhim axloqiy saboqlarni beradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani o'quvchilarga mehnatsevarlik, adolat, vatanparvarlik va o'zlikni anglash kabi muhim qadriyatlarni o'rgatadi. Shu tariqa, adabiyot o'quvchilarga hayotdagi turli vaziyatlarni to'g'ri baholash va to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rgatadi.

Ikkinchidan, adabiyot o'quvchilarga boshqa xalqlar, madaniyatlar va tarix haqida ma'lumot berib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Badiiy asarlar orqali o'quvchilar

o'zlarini va atrofidagi dunyoni, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, Shuhratning asarlaridagi ijtimoiy mas'uliyat va haqiqat izlash, o'quvchilarda ijtimoiy faollikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, badiiy asarlar o'quvchilarda hissiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa ularning psixologik rivojlanishiga yordam beradi. Adabiyot o'quvchilarga turli muammolarni yengish, hissiy qiyinchiliklarni tushunish va ularni hal etish yo'llarini o'rgatadi. Shunday qilib, adabiyot o'quvchilarga nafaqat axloqiy, balki psixologik jihatdan ham rivojlanishga imkon yaratadi.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim jihati uning ijtimoiy vazifasidir. Adabiyot o'quvchilarga yuksak ma'naviy qadriyatlarni singdirish, mehr-oqibat va hamjihatlikni targ'ib qilish, ularni jamiyatga foydali va ma'naviy kamol topgan shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Shu tarzda, badiiy adabiyotning ta'siri o'quvchilarning faqat intellektual emas, balki axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, axloqiy tarbiya oilada, maktabda, boshqa ta'lim muassasalarida va jamoat joylarida yoshlar uchun mustahkam poydevor bo'lib, faqat ushbu muhitda uzluksiz ravishda tarbiya berilsa, samarali natijalar erishish mumkin. Tarbiya jarayoni ona qornidan boshlanishi kerak, chunki ona o'z tarbiyasiga ega bo'lishi lozim degan nuqtai nazar mavjud. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda ijodiy fanlar, jumladan, o'qish, ona tili, matematika, tarbiya, texnologiya, musiqa, san'at va rasm fanlari muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston Strategiyasi", Toshkent., 2021 yil.
2. Munavvarov A.K. Pedagogik qobiliyat va mahorat".-T: O'qituvchi, 1998 yil.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. -T.:TDP, 2012 yil.
4. AlexMoore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge Angliyskiy 13.Neil Selwyn Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
5. Heather Fry Steve Ketteridge Stephanie Marshall. Handbook for Teaching and Learning in Higher Education USA, 2009 Roulledge.



Tuymurod SHOYMARDONOV,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, PhD

E-mail: tuymurods@gmail.com

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, PhD E.Buriyev taqrizi asosida

EXPERIENCE IN DEVELOPING DIGITAL COMPETENCE OF HIGHER EDUCATION PEDAGOGICAL STAFF: AN ANALYTICAL APPROACH

Annotation

This article presents an analysis of professional development and retraining courses for higher education institution educators aimed at enhancing their digital competencies. From 2021 to 2023, training sessions were conducted under the module "Implementation of Digital Technologies in the Educational Process," and since 2023, under the module "Digital Competencies in Pedagogical Activities." The sessions resulted in a significant improvement in educators' knowledge. The article highlights the effectiveness of the courses, sector-specific results, and analysis based on an online course platform. Effective approaches to developing digital competencies are proposed as outcomes.

Key words: Digital competence, teaching staff, professional development, digital technologies, training modules, sector-specific approach.

ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация

В данной статье представлен анализ курсов повышения квалификации и переподготовки педагогических кадров высших образовательных учреждений, направленных на развитие их цифровой компетентности. В период 2021–2023 годов проводились занятия по модулю «Внедрение цифровых технологий в образовательный процесс», а с 2023 года – по модулю «Цифровые компетенции в педагогической деятельности». В результате занятий наблюдалось значительное улучшение знаний педагогов. В статье освещена эффективность курсов, результаты по отраслям и анализ на основе платформы онлайн-курсов. В итоге предложены эффективные подходы к развитию цифровой компетентности.

Ключевые слова: Цифровая компетентность, педагогические кадры, повышение квалификации, цифровые технологии, учебные модули, отраслевой подход.

OLIY TA'LIM PEDAGOG KADRLARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI: TAHLILIY YONDASHUV

Аннотация

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tahlili keltirilgan. 2021-2023-yillarda "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish" hamda 2023-yildan boshlab "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" modullari bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida pedagoglar bilimlarida sezilarli o'sish kuzatilgan. Maqolada kurslarning samaradorligi, sohalar kesimidagi natijalar va onlayn kurslar platformasiga asoslangan tahlillar o'rin olgan. Natijada raqamli kompetensiyani rivojlantirishning samarali yondashuvlari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli kompetensiya, pedagog kadrlar, malaka oshirish, raqamli texnologiyalar, o'quv modullari, sohaga mos yondashuv.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi global ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quv materiallarini individuallashtirish hamda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktiv aloqalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Global raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham mazkur jarayonlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, raqamli iqtisodiyotning zamonaviy talablariga mos holda strategik islohotlar joriy qilinmoqda. "Yangi O'zbekiston – yangi Konstitutsiya" islohotlari doirasida ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kun ta'lim tizimining rivojlanishida raqamli texnologiyalarning o'rni tobora oshib bormoqda. Jahon tajribasi raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligini namoyon etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu yo'nalishda qabul qilingan bir qator strategik hujjatlar ushbu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmonida ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyada raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagog kadrlarning malakasini oshirish va zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarorida oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qarorda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Bu, o'z navbatida, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 11-iyuldagi 415-son qarorida esa qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining yangi

standartlarini joriy qilish, ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish vazifalari belgilab berilgan. Qarorga muvofiq, pedagog kadrlarni raqamli savodxonlik asoslariga o'qitish va amaliyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonini takomillashtirish ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy ustuvorliklari sifatida belgilangan.

Mazkur strategik hujjatlar doirasida 2021–2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari pedagoglari uchun “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” hamda 2023-yildan boshlab “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” modullari asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari amalga oshirildi. Ushbu kurslar pedagoglarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini oshirishga, shuningdek, zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yo'naltirilgan.

Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, mavjud yutuq va muammolarni o'rganish hamda ushbu sohada kelgusidagi vazifalarni belgilashga hamda pedagog kadrlar uchun raqamli kompetensiya modullarining ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish qaratilgan.

2. Adabiyotlar tahlili

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishga oid ilmiy tadqiqotlar va metodik tahlillar raqamli kompetensiyani rivojlantirishning jahon miqyosidagi ahamiyatini va uning ta'lim tizimidagi samaradorligini ochib beradi. Xususan, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan “Digital Competence Framework for Educators” (DigCompEdu) konsepsiyasi pedagoglarning raqamli malakasini rivojlantirishda qo'llaniladigan muhim vosita sifatida tan olingan. Ushbu ramkada pedagoglarning raqamli kompetensiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi: o'quv jarayonini raqamli muhitda tashkil etish, raqamli resurslardan samarali foydalanish va ta'lim oluvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish.

YUNESKOning “Global Education Monitoring Report” tahlillarida ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini yaratadi, balki ijtimoiy adolat va ta'limga teng imkoniyatlar tamoyillarini ta'minlashga yordam beradi. Bu xususan, pandemiya davrida o'z ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Shu bilan birga, YUNESKO “ICT Competency Framework for Teachers” hujjatida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar taqdim etilgan.

YUNESKOning 2021-yilgi hisobotiga ko'ra, pandemiya davrida onlayn ta'lim platformalari ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynagan. O'zbekistonning raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari mazkur tajribadan foydalanib, masofaviy ta'limni kengaytirishga xizmat qilmoqda [13].

Jahon banki ta'limni raqamli transformatsiyalash bo'yicha taqdim etgan strategik tavsiyalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali individual o'quv jarayonlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Jahon bankining (2021) hisobotida aytilishicha, raqamli ta'lim jarayonlarining joriy qilinishi ta'lim natijalarini 30% ga yaxshilash salohiyatiga ega. [12].

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim strategiyalari raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirishda quyidagi asosiy omillarga e'tibor qaratishni tavsiya etadi:

- raqamli texnologiyalarni joriy etishning institutsional qo'llab-quvvatlanishi;

- raqamli platformalarning ishonchligi va barqarorligi;

- pedagoglarning texnologiyalardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar.

Yevropa Komissiyasi DESI hisobotida ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu tamoyillar O'zbekistonda pedagoglar malakasini oshirish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin [14].

O'zbekistonda ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar milliy ta'lim

tizimini zamonaviylashtirish yo'lida muhim ahamiyatga ega. Milliy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi doirasida raqamli kompetensiyani rivojlantirish masalasi alohida yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida 2021–2023 yillarda oliy ta'lim muassasalari pedagoglari uchun joriy etilgan “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” va “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” modullari, ularning mazmuni va metodik yondashuvlari milliy ta'lim tizimida raqamli kompetensiyani oshirishning namunaviy modellari sifatida ko'rilmogda.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, raqamli kompetensiyani oshirish jarayonida quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Pedagoglarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi psixologik tayyorgarligi. Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ularning samaradorligini ta'minlaydi.

Milliy kontekstni hisobga olish. Jahon tajribasini qo'llashda milliy ta'lim tizimiga xos xususiyatlarni hisobga olish pedagogik jarayonning integratsiya darajasini oshiradi.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mavjud tadqiqotlar va milliy hamda xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, raqamli kompetensiyani rivojlantirish nafaqat pedagoglarning kasbiy faoliyatida, balki ta'limning umumiy sifati va natijadorligida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni to'g'ri yo'naltirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularning natijadorligini muntazam tahlil qilish zarur.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining samaradorligi baholandi. Ushbu tadqiqotda asosan aralash tadqiqot (mixed methods) yondashuvi qo'llanildi, ya'ni ham kvantitativ, ham sifat jihatlarini qamrab oluvchi tahlil usullari asos qilib olindi.

Jahon tajribasiga ko'ra, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish bo'yicha tadqiqotlar qator metodologik yondashuvlarni taklif qiladi.

Jumladan, Yevropa Ittifoqining “DigCompEdu Framework” ramkasi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha pedagoglarning kompetensiyasini baholashda muhim manba hisoblanadi. Redecker (2017) tomonidan ishlab chiqilgan “DigCompEdu” modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Bu model raqamli texnologiyalarni o'quv jarayonida qanday qo'llash kerakligini aniqlashga yordam beradi [4]. Duncan va Barli o'z asarida “Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha pedagoglarning malakasini baholash uchun kurslar boshidagi va so'ngidagi test natijalarining muqoyasasi muhim” [5] deb ta'kidlaydilar. Long va Luk raqamli texnologiyalarning har bir sohada qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar haqida shunday deydi: “Sohaviy tahlil raqamli texnologiyalarning o'quv jarayonidagi samaradorligini baholashda muhim qadamdir” [6]. Anderson esa, “Onlayn ta'lim platformalari faqatgina ma'lumot yetkazish vositasi emas, balki pedagoglarning mustaqil o'qish jarayonidagi qo'llovchi vositadir” [7] deb hisoblaydi.

O'zbekistonda raqamli kompetensiyani rivojlantirish sohasida mahalliy tadqiqotchilarning ishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, M. Haydarov “Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy qilish pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega” [8] deb ta'kidlaydi. Sh. Rahmatullayev va M. Nurmatovanning izlanishlariga ko'ra, “Malaka oshirish kurslarida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv raqamli kompetensiyani rivojlantirishda muhim hisoblanadi” [9].

Raqamli kompetensiya – bu mutaxassisning raqamli texnologiyalardan foydalanib, axborotni izlash, tahlil qilish, tuzish va targ'ib qilishga doir ko'nikmalarini qamrab oladi. Sh. Adashboyev o'z tadqiqotida raqamli savodxonlikdan raqamli kompetensiyaga o'tish jarayonini izchil ravishda yoritgan:

“Raqamli kompetensiya axborotni aniqlash, tahlil qilish va vizual hamda audio vositalardan foydalanib yangi kontent yaratish qobiliyatini anglatadi” [10]. Adashboyevning fikricha, pedagog kadrlarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni uzluksiz tayyorlash va malakasini oshirish tizimini shakllantirish muhimdir.

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining tahlili uzluksiz malakani oshirish tizimi doirasidagi davriy bosqichlarga asoslanib o'tkazildi. Bu jarayonda Sh.Adashboyev tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar va prinsiplar muhim metodologik asos sifatida qabul qilindi. Uning ta'kidlashicha “raqamli kompetensiyani rivojlantirishning davriy bosqichlari tizimlilik, uzluksizlik va adaptivlik prinsiplariga asoslangan bo'lib, ular ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega” [10].

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ta'limni transformatsiyalash sharoitida kasbiy mahoratni oshirishning integrativ texnologiyalarini joriy qilish orqali sohada kutilgan natijalarga erishish mumkin [11]. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagoglarning psixologik tayyorgarligini oshirish ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni keng tatbiq qilish zarur.

DESI 2022 hisobotida keltirilganidek, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uzoq muddatda ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning milliy strategiyalari ham ushbu tamoyillarni o'zida mujassam etgan bo'lib, ular orqali ta'limning individual yondashuvlari kengaytirilmoqda [14].

Tadqiqot bosqichlari. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Dastlabki bosqich (ma'lumotlarni to'plash): Bu bosqichda pedagoglarning raqamli savodxonligi va raqamli kompetensiyasi darajasini baholash uchun aniq testlar, anketa va so'rovlar o'tkazildi. Bu jarayonda pedagoglarning mavjud ko'nikmalari, bilimlari va amaliyotlari tahlil qilindi.

Tahlil va guruhlashtirish bosqichi: Pedagog kadrlar sohaviy ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlariga ajratildi. Har bir guruhning ehtiyojlari va malakani oshirish yo'nalishlari belgilandi.

Tadqiqotning amaliy bosqichi (o'quv jarayoni): Malaka oshirish jarayonida “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” va “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” modullari asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Bu

bosqichda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari shakllantirildi.

Yakuniy baholash bosqichi: Mashg'ulotlar yakunlangach, kurs boshidagi va so'ngidagi natijalar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda pedagoglarning o'zlashtirish darajasidagi o'sishni ko'rsatuvchi aniq ma'lumotlar yig'ildi.

Tadqiqot ishida kvantitativ tahlil usulidan foydalanildi. YA'ni matematik statistika usullari orqali natijalar tahlil qilinib, o'rtacha o'sish darajasi aniqlandi. Shuningdek, sohaviy tahlil ham amalga oshirildi. Pedagoglarning faoliyat sohalariga qarab raqamli kompetensiya darajasidagi farqlar o'rganildi.

Mazkur metodologiya asosida tadqiqotda pedagog kadrlarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari kelgusida raqamli kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari raqamli kompetensiya modullarini joriy etishning oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari bilimlari va ko'nikmalariga ijobiy ta'sirini tasdiqladi.

2021-yil yanvardan 2023-yil iyuniga qadar oliy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga 10 soat (shundan 2 soat nazariy, 8 soat amaliy)ga mo'ljallangan “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” nomli modul kiritilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish, «Elektron universitet» vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, masofaviy ta'lim platformalari, multimedial interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish, QR-kod va undan foydalanish kabi mavzular qamrab olingan.

2023-yil sentabrda 2024-yil dekabr qadar oliy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga esa, 14 soat (shundan 6 soat nazariy, 8 soat amaliy)ga mo'ljallangan “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” nomli modul kiritilgan bo'lib, unda ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasi, pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi, raqamli ta'lim resurslarini loyihalash, ADDIE pedagogik dizayn tushunchasi, multimedia va infografikalardan foydalanish, bulutli texnologiyalar, onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi mavzular yoritilgan.

O'tgan davr mobaynida malaka oshirish kurslarida o'qigan jami 14424 nafar tinglovchilar mazkur modullarni o'zlashtirganlar. Modullar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari 5.1-jadvalda keltirilgan.


№	Davr	Modul	Tinglovchilar soni	Kurs boshida	Kurs so'ngida
1.	2021-yil yanvar – 2023-yil iyun	Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish	7116 nafar	44.9%	74.7%
2.	2023-yil sentabr – 2024-yil dekabr	Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar	7308 nafar	42.3%	77.8%

5.1-jadval. Modullar bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari (2021–2024-yillar)

1-jadvalga ko'ra, tinglovchilarning bilim darajalari 44.9% dan 77.8% gacha oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich modullar samaradorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagoglar faoliyat yuritayotgan sohalar kesimida ham tahlil qilindi. 5.1-rasmda

pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan modullar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari aks ettirilgan bo'lib, unda sohalar kesimida farqlar mavjudligi namoyish etilgan. Ayrim sohalarida o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqoriroq ekanligi kuzatilgan.



5.1-rasm. Sohalar kesimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish natijalari

Kurslar yakunlangandan so'ng ishtirokchilarning bilim darajasi 42,3% dan 77,8% ga oshganligi raqamli kompetensiyaning barqaror rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Bu o'sish ko'rsatkichlari amaliy mashg'ulotlarning pedagoglar uchun qay darajada samarali ekanligini namoyon etadi.

Ishtirokchilarning modullar bo'yicha bilimlari va ko'nikmalarida kuzatilgan o'sish raqamli kompetensiyaning barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar pedagoglarning professional faoliyatiga ko'maklashgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot raqamli kompetensiya modullari pedagog kadrlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Pedagoglar o'rtasidagi o'quv jarayoni natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Raqamli texnologiyalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun kurs materiallarini yanada interaktiv shaklda ishlab chiqish.

Masofaviy ta'lim platformalari uchun kurslarning samadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha qo'llab-quvvatlovchi vositalar joriy etish.

Raqamli kompetensiyani baholash tizimini takomillashtirish va pedagoglarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish.

Tadqiqotdan xulosa qilish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyasi ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni amaliyotga to'liq joriy etishga qaratiladigan e'tibor pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'liq integratsiya qilishning ahamiyatini yanada ochib berdi. Keyingi qadam sifatida raqamli savodxonlikni pedagoglar o'rtasida keng targ'ib qilish va onlayn platformalarning mavjudlik darajasini oshirish zarur. Kelgusida pedagoglar uchun virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), sun'iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus kurslar yoki modullarni tashkil etish rejalashtirilgan. VR texnologiyalaridan foydalanib, pedagoglarga tarixiy voqealarni interaktiv tarzda o'rgatish yoki biologik jarayonlarni tasavvur qilish imkoniyatini kengaytirish pedagogik jarayonni sezilarli darajada samarali qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-6079-son, 2020 yil 5 oktabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (PQ-200-son, 2023 yil 3 iyul).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (415-son, 2024 yil 11 iyul).
4. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union.
5. Duncan, A., & Barley, R. (2020). Evaluating Digital Pedagogy in Higher Education: Challenges and Solutions. Springer.
6. Long, P., & Luke, T. (2019). Disciplinary Approaches to Digital Education. Routledge.
7. Anderson, T. (2018). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
8. Haydarov, M. (2023). O'zbekistonda raqamli transformatsiya va ta'lim. Toshkent: Fan nashriyoti.
9. Rahmatullayev Sh., Nurmatova M. (2022). Raqamli ta'lim texnologiyalarini o'rganish. O'zbekiston ilmiy jurnali, №4.
10. Adashboyev Sh. (2023). Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning davriy bosqichlari. ICT Edu 2024 Respublika ilmiy-anjumani materiallari, 507-510.
11. Buriyev E. (2022). Ta'limni transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishning integrativ texnologiyalari. Pedagogika, №6.
12. World Bank. (2021). Learning Recovery and Acceleration for Students in the Digital Era: Strategies for Policymakers.
13. UNESCO. (2021). The State of Global Education During COVID-19 Pandemic.
14. European Commission. (2022). The Digital Economy and Society Index (DESI) Report 2022.



UDK: 37.01

Xusnidaxon YULDASHEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: Xusnidayuldasheva244@gmail.com

PhD N. Annayeva taqrizi asosida

“BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING ILMIY-FALSAFIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI”

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Pedagogik jarayonda ilmiy va falsafiy tafakkurning ahamiyati, uning o‘qituvchilarni tayyorlashdagi o‘rni va ta’siri yoritiladi. Shuningdek, ilmiy-falsafiy dunyoqarashning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, usullar hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy va tizimli tafakkurni shakllantirish, ilmiy dalillarga asoslangan qarashlarni rivojlantirish hamda falsafiy fikrlashni chuqurlashtirish muhimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlar va kreativ fikrlashning o‘rni, ta’lim jarayonida falsafiy bilimlarning integratsiyasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Inson, dunyoqarash, falsafiy, ilmiy, metodologik, o‘qituvchi, talaba, bilim, idrok, ko‘nikma, malaka.

“METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE SCIENTIFIC PHILOSOPHICAL WORLDVIEW OF FUTURE TEACHERS”

Annotation

This article analyzes the methodological foundations for developing the scientific and philosophical worldview of future educators. The significance of scientific and philosophical thinking in the pedagogical process, its role, and impact on teacher training are highlighted. Additionally, the factors influencing the formation of a scientific and philosophical worldview, the methods used, and the effectiveness of modern educational technologies are examined. The article emphasizes the importance of fostering critical and systematic thinking in future educators, developing evidence-based perspectives, and deepening philosophical reasoning. Furthermore, it discusses the role of innovative approaches and creative thinking in pedagogical activities, as well as the integration of philosophical knowledge into the educational process.

Key words: Person, worldview, philosophical, scientific, methodological, teacher, student, knowledge, perception, skills, qualifications.

«МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОГО МНЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ»

Аннотация

В данной статье анализируются методологические основы развития научно-философского мировоззрения будущих педагогов. Подчеркивается значимость научного и философского мышления в педагогическом процессе, его роль и влияние на подготовку учителей. Кроме того, рассматриваются факторы, влияющие на формирование научно-философского мировоззрения, используемые методы и эффективность современных образовательных технологий. В статье акцентируется внимание на важности формирования критического и системного мышления у будущих педагогов, развития основанных на доказательствах взглядов и углубления философского рассуждения. Кроме того, обсуждается роль инновационных подходов и креативного мышления в педагогической деятельности, а также интеграция философских знаний в образовательный процесс.

Ключевые слова: Человек, мировоззрение, философское, научное, методологическое, учитель, ученик, знание, восприятие, умение, мастерство.

Kirish. Jahonda bo‘lajak pedagoglarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, Khan Academy, EDX-Garvard universiteti, SCROM (Shareable Content Object Reference Model, AQSH) o‘qitish jarayonini boshqarish tizimi, SMOOS kurslari o‘quv maqsadi ta’lim oluvchilar tomonidan belgilanib, materialni mustaqil o‘rganishning eng samarali usullarini qo‘llash orqali bo‘lajak mutaxassislarida ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ilmiy-falsafiy dunyoqarashni falsafa fanini interfaol o‘qitish asosida rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, dunyoning ilmiy manzarasini tushunish, borliqni, ijtimoiy munosabatlarni falsafiy idrok etish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Shu ma’noda, falsafa fanini yangicha yondashuvlar asosida o‘qitish orqali bo‘lajak pedagoglarda ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida xam talabalarning ilmiyfalsafiy dunyoqarashini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz –Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratayotgan

ekanmiz: Yosh avlodimizga –mening o‘g‘il-qizlarimga qaratayotganimiz: tomirlarida buyuk bobolarimizning g‘ayrat-

shijoati jo‘sh urib turgan aziz farzandlarim, sizlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda doimo oldingi safda bo‘lasizlar, deb ishonaman”.

Talabalarda ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish o‘ziga xos murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, ularda yagona ilmiy ong, fikrlash madaniyati, hissiyotlar va hissiy munosabatlar, maqsadga intilish va erkin harakat qilish ko‘nikmasi qaror toptiriladi. Talabalar yangi bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun yangi ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lishlari talab qilinadi. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonining asosiy maqsadi ularning bilimlarni ongli, tushungan holda o‘zlashtirishlari va tatbiq etish ko‘nikmalarini egallashlariga ko‘maklashishdan iboratdir. Chunki talabaning ilmiy dunyoqarashi unda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining eng zarur elementlarini shakllantirish orqali vujudga keltiriladi.

Talabaning aqliy mehnat faoliyati ayrim tajribalar bilan chegaralanmaydi,

balki ba’zi hollarda tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanish istagi pasayishi mumkin. Ta’lim jarayonida bunga alohida e’tibor qaratish lozim.

“Dunyoqarash – inson ma’naviyatining muhim tarkibiy qismi, olam va odam

haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini anglatadigan tushuncha" [] ekan, mazkur tushunchaning uzoq tarixga ega ekanligini e'tirof etish lozim.

Dunyoqarash negizida talabalar moddiy olam manzarasini to'liq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu har bir talabaning olam va uning tarkibiy qismlari haqidagi tasavvuri bilan bog'liqdir. Har qanday moddiy olam manzarasining o'ziga xos jihati uning subyektiv aloqadorligidir. Har bir talabaning olam haqidagi tasavvuri subyektiv xarakterga ega. Talaba tasavvurida olam yaxlit tarzda gavdalanadi. Talabaning ongi mental mexanizm sifatida o'zlashtirilgan bilimlar va axborotlar yordamida barcha bo'shliqlarni to'ldirib boradi. Kundalik o'quv jarayonida bu o'zbek xalqining ijtimoiy tajribalari, talabaning shaxsiy tasavvurlari, idrokining mahsuli, mustaqil ijodiy fikrlashi natijalari yordamida takomillashadi.

Shu tariqa talabalarining moddiy olam haqidagi tasavvurlari bilimlar, tajribalar, ishonchlar, idrok etilgan voqeikdan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy-falsafiy dunyoqarashning mohiyati haqida turli manbalarda har xil yondashuvlar mavjud. Umuman olganda, bu tushuncha insonning borliq, tabiat, jamiyat va bilimga bo'lgan umumiy qarashlar tizimini ifodalaydi. Bo'lajak pedagoglarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, rivojlanayotgan ta'lim tizimini yaratish va o'rganishga G.S.Altshuller, Sh.A.Amonashvili, P.Y.Galperin, V.V.Davidov, YE.V.Vlasova, Y.A.Komenskiy, V.A.Slastenin, K.D.Ushinskiy, V.F.Shatalov, D.B.Elkonin kabi olimlar ishlari bag'ishlangan.

Ilmiy dunyoqarashning psixologik-pedagogik asoslarini Y.K.Babanskiy, N.A.Menchinskaya, E.I.Monoszon, A.V.Usova va boshqa olimlar ishlari o'rganilgan. Respublikamiz olimlaridan B.Mirzaxmedov, M.Djorayev, R.Bekjonov, B.Axmado'jayev, A.Boydadeyev, S.Qahhorov va boshqalar tomonidan ilmiy bilishning metodologiyasiga oid tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamiz olimlari B.Mirzaxmedov, M.Djorayev, R.Bekjonov, B.Axmado'jayev, A.Boydadeyev, S.Qahhorov va boshqalar tomonidan ilmiy bilishning metodologiyasiga oid tadqiqot ishlari olib borilgan. Nazarov Q., Nosirov A "Pedagogika nazaryasi va amalyoti" manbasida pedagoglarning umumiy dunyoqarashi va ilmiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar bayon etilgan. Atrofimizda sodir bo'layotgan tabiat hodisalar va jarayonlarni bilishning metodologik asosini, bir – birini to'ldiruvchi ilmiy bilishning nazariy (ilmiy abstraksiya, fikriy modellar, ilmiy g'oyalar va gipotezalar) va empirik (kuzatish, eksperiment o'tkazish, ilmiy faktlar asosida olingan natijalarning bayoni, tahlil va umumlashtirish) metodlarining birligini tashkil qiladi. Mazkur metodlar talabalarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi ularni bugungi kun talabi darajasida pedagog hodim bo'lishi uchun samarali yondoshuvdir. Bo'lajak pedagoglarni xar tomonlama aql zakovatli, yuksak bilimli qilib tarbiyalashimizda ularning falsafiy fikrlashiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda ta'lim tizimida bu borada samarali ishlar olib borilmoqda.

Tahlil va natijalar. Talabalar har doim o'z nuqtai nazarlarining qat'iyiligi va muntazamliligini amaliy tajribalarida sinab ko'rishlari lozim. Talabalar ilmiy dunyoqarashlarining chuqurligi yoki o'zgaruvchanligi ularning o'zlariga xosliklari bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda, atrofdagilar, ota-onalar, o'qituvchilar talabadagi qat'iyatni qo'llab-quvvatlashlari, talabalar esa, o'znavbatida, o'z kamchiliklarini tuzatish zarurligini bilishlari lozim. I.S.Kon talabalarining dunyoqarashlarini ularida aniq nuqtai nazarlarning mavjudligi bilan bog'lagan holda talqin etadilar. Ayniqsa, talaba o'z kasbiy faoliyati sohasini aniqlash vaqtida bu narsa yaqqol ko'rinadi. Undagi ilmiy dunyoqarashlar ma'naviy jihatdan o'z-o'zini anglashko'nikmasining shakllanishiga ko'maklashadi. Talabalar o'z nuqtai nazarlarini oydinlashtirishlarida dunyoqarash aniqlashtiruvchi hamda yo'naltiruvchi kuchga ega. Insonning obyektiv borliqqa nisbatan munosabatlari, bu jarayonda maqsadlar va vazifalarning qo'yilishi natijasida, ularning dunyoqarashida muayyan sifat o'zgarishlari vujudga keladi. Talabalar o'z dunyoqarashlarini belgilovchi nuqtai nazarlarni anglashlari natijasida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonda talabalarining shaxsiy hamda ijtimoiy

qiziqishlari, manfaatlari uyg'un tarzda namoyon bo'ladi va ularda muayyan faoliyatga nisbatan qiziqish vujudga keladi. Ular amaliy faoliyatlarini mohiyatini anglay boshlaydilar.

Dunyoqarash – bu nafaqat mazmun, balki haqiqatni anglash usuli, shuningdek faoliyatning mohiyatini belgilaydigan hayot tamoyillari bo'lib olam haqidagi g'oyalarning tabiati ma'lum maqsadlarni belgilashga yordam beradi, ularni umumlashtirishdan umumiy hayot rejasi, dunyoqarashga ta'sirchan kuch beradigan g'oyalar shakllanadi. Dunyoqarash juda katta amaliy hayotiy ma'noga ega. Bu xulq-atvor normalariga, insonning mehnatga bo'lgan munosabatiga, boshqa odamlarga, hayotiy intilishlar tabiatiga, uning hayotiga, didi va manfaatlariga ta'sir qiladi.

Talabalarining ilmiy dunyoqarashi uyg'unlashish xarakteriga ega. YA'ni, talabalar ilmiy dunyoqarashi zaminida ularning nuqtai nazarlari, tanlovlari, o'ziga xosliklari, yetakchi imkoniyatlari, onglik darajalari, baholovchi munosabatlari, obyektiv qonuniyatlarni tushunish ko'lamlari, barqaror mayllari, maqsadlari, qiziqishlari hamda hissiy, intellektual quvvatlari ifodalangan bo'ladi. Subyekt-subyekt munosabatlari doirasida talabalarda ilmiy dunyoqarashning o'ziga xos jihatlari to'laqonli tarzda shakllantiriladi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: aniq tarzda mavjud bo'lgan holatlar; faoliyat jarayonida talabalarining o'zlariga bog'liq bo'lgan holatlar; talabalarining imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi holatlar. Bunday ta'sirlar natijasida talabalar faol harakat qila boshlaydilar. Talabalarining ilmiy dunyoqarashlari o'quv jarayonining shakllari va mazmuni, ba'zan esa, o'qituvchining faoliyat maromiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan subyekt-subyekt munosabatlari doirasini kengaytiradi. Dunyoqarash masalalarini tadqiq qilish bo'yicha bir qancha tadqiqotlarning olib borishiga qaramasdan, bugungi kunda ilmiy dunyoqarash muammolari o'zining dolzarbligini yo'qotganligicha yo'q. Mazkur muammo bugungi kunda jadalik bilan o'zgarayotgan olamda nafaqat tabiat haqidagi bilimlarni ma'lum bir qolipga keltirib qolmasdan, balki insonning zamonga moslashtirishda dunyoqarashni kompetentlik darajasida shakllantirilishini talab qiladi. Jamiyatning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, mamlakat

mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish

- zamon talablariga javob beradigan, malakali, har tomonlama bilimga, zamonaviy

ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta'minlash uzluksiz ta'lim mazmunini

takomillashtirishni taqozo etmoqda

Talabalarining dunyoqarashini shakllantirishda falsafiy fanlarni, ayniqsa, falsafaning o'rni, jamiyatdagi ahamiyati katta. Dunyoqarashning ba'zi bir muhim masalalariga (ilmiy-tadqiqot metodining vujudga kelishi, olamga ilmiy qarashning mohiyati va ilmiy bilimlarning amaliy maqsadlar uchun qo'llanilishi) falsafa o'qitishda talabalarining e'tiborini jalb qilinishi maqsadga muvofiq. Masalan, olamning ontologik manzarasi haqidagi mavzuda o'qituvchi ilmiy bilimlardan va foydalaniladigan metodlardan kelib chiqqan holda, dunyoviy muammolar, falsafaviy xulosalarga e'tiborni qaratish lozim. Talabalar dunyoqarashining ilmiyligiga olib keluvchi savollarga (Borliq nima, u qanday paydo bo'lgan?, Koinot qanday paydo bo'lgan? Hayotning mohiyati nima? Dunyodagi hamma voqealar qaysi prinsiplarga, asosan, boshqariladi? kabi) katta e'tibor qaratilishi kerak. Ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish metodologik asoslari turli ilmiy

yondashuvlarga tayanadi.

Ilmiy bilimlarni falsafiy mushohada qilishning asosiy metodologik tamoyillari

quyidagilardir:

- dialektik tafakkur usullaridan foydalanish;
- mantiqiy tahlil qilish;
- ko'nikmalarini shakllantirish.

Shu bilan birga, tajriba-sinov usullari, interfaol o'qitish metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Metodologik yondashuvlar ilmiy bilishning samaradorligini oshiradi. Dialektik

metod – ilmiy bilishning umumiy qonuniyatlari asosida har qanday jarayonni o'rganish. Dialektika har qanday hodisa yoki tushunchaning doimiy o'zgarishda ekanligini ta'kidlaydi. Masalan: ta'lim tizimi yildan yilga rivojlanib, yangi metod va texnologiyalar bilan boyib boradi.

Germenevtik yondashuv – ilmiy-falsafiy matnlarni talqin qilish va tushunish

orqali pedagogik tafakkurni shakllantirish. O'qituvchi yoki tadqiqotchi har qanday

matni yoki tushunchani oddiygina o'qib chiqish emas, balki uni chuqur anglashga, yashirin ma'nolarini ochib berishga harakat qiladi.

Konstruktivistik metod – bilimni faollik va ijodkorlik orqali o'zlashtirishga

asoslangan yondashuv. Ushbu metodga ko'ra, bilimlar o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan bevosita berilmaydi, balki ular muammolarni hal qilish, tajriba va muloqot orqali o'z bilimlarini shakllantiradilar. Konstruktivistik metodning ta'lim va pedagogikadagi ahamiyati juda katta. Xususan, talabalar mustaqil fikrlashni o'rganadi, o'quv jarayoni qiziqarli va intraktiv bo'ladi, muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi va har bir o'quvchi o'z individual o'rganish usuliga ega bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilganda, falsafiy fikrlash va ijodiy qobiliyat ijtimoiy hayot sharoitlari asosida vujudga keladi va

ijtimoiy amaliyot mahsuloti hisoblangan so'z, tushunchalar, mantiqlar asosida amalga oshiriladi. Fikrlashning manbai sezgi hisoblansa-da, u bevosita sezgining in'ikosi chegarasidan chiqadi va inson bevosita qabul qila olmaydigan haqiqiy dunyoning shunday obyektlari, xossalari, munosabatlari haqida bilim olishga imkon beradi. Bo'lajak pedagoglarning ilmiyfalsafiy dunyoqarashini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Chunki pedagogik faoliyat nafaqat bilim berish, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan ongli va ijodkor shaxslarni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, kelajak pedagoglari ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirish orqali dunyoqarashini kengaytirishi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishi va ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olishi lozim.

Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish ularning kasbiy mahorati, ijodkorligi va innovatsion yondashuvlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, pedagogik ta'lim tizimida ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak pedagoglarning ilmiyfalsafiy dunyoqarashini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon o'qituvchilarning nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim olishlarini, balki ilmiy tafakkur, falsafiy yondashuv va metodologik qarashlarni o'zlashtirishlarini ham talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz" Sh.Mirziyoyev 06.11.2021
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати // тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 146 б.
3. Кон И.С. Психология ранней юности. –М., 1999. – С. 96-186.
4. Тугалов Ф.Қ., Бекмирзаев Р.Н. Табиий билимларнинг талабалар илмий дунёқарабини шакллантиришдаги ўрни (физика фани мисолида) // Педагогика. Илмий – назарий ва методик журнал. – Тошкент. – 2018. –4-сон – Б.



Shahnoza YUSUPOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti
E-mail: yusupovashaxnoza558@gmail.com

SamDCHTI dotsenti, PhD U.Abduvaxabova taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL CONCEPT IN THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT LEARNING IN STUDENTS

Аннотация

The article examines the role and significance of pedagogical competence in the development of students' independent learning. This article discusses the importance of pedagogical competence in the educational process, the formation of effective interaction between students and teachers, as well as the main methods and approaches to independent learning. The research provides a scientific analysis of the influence of pedagogical competence on students' approach to independent learning and its contribution to the educational process.

Key words: Pedagogical competence, independent learning, students, teaching methods, pedagogy.

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИИ В РАЗВИТИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение педагогической компетенции в развитии самостоятельного обучения студентов, а также основные методы и подходы к самостоятельному обучению. Исследование основано на научном анализе влияния педагогической компетенции на подход студентов к самостоятельному обучению и ее вклада в образовательный процесс.

Ключевые слова: Педагогическая компетенция, самостоятельное обучение, студенты, методы обучения, педагогика.

TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANITIRISHDA PEDAGOGIK KONTSEPTSIIYANING AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada talabalarda mustaqil ta'limni rivojlanitirishda pedagogik kontsepsiiyaning ahamiyati o'rganiladi. Ushbu maqolada pedagogik kompetensiiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali o'zaro aloqaning shakllanishi, mustaqil ta'limning asosiy metodlari va yondashuvlari haqida so'z boradi. Tadqiqotda pedagogik kompetensiiyaning talabalarning mustaqil o'rganishga bo'lgan yondashuviga ta'siri va uning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi haqida ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik kompetensiya, mustaqil ta'lim, talabalar, ta'lim metodlari, pedagogika.

Kirish. Ta'lim tizimi har doim o'zgarib, yangilanib boradi. Bugungi kunda pedagogik kompetensiiyaning roli va ta'lim jarayonidagi ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston ta'lim tizimida pedagoglarning kompetensiiyasi va talabalar bilan samarali ishlashga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Ta'limning samaradorligini oshirishda pedagogik kompetensiya talabalarni mustaqil ta'lim olishga undashda muhim omil hisoblanadi. Mustaqil ta'lim, talabalar o'z bilimlarini kengaytirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'ziga xos yondashuvlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan jarayondir.

Mustaqil ta'lim o'z-o'zini rivojlantirish, o'qish va o'rganish jarayonlarida shaxsiy faoliyatni anglatadi. Bu jarayonda talabalar pedagogik yordamga, yo'l-yo'riqqa, metodologik qo'llanmalarga muhtoj bo'lishadi. Shu sababli, o'qituvchining pedagogik kompetensiiyasi nafaqat ta'lim sifatini ta'minlash, balki talabalar bilan samarali aloqada bo'lish, ularni mustaqil fikrlashga undashda ham muhim ahamiyatga ega.

Maqsadimiz – pedagogik kompetensiiyaning talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirishdagi o'rni va uning ta'lim jarayoniga bo'lgan ta'sirini tahlil qilishdir. Ushbu maqolada pedagogik kompetensiya va uning ta'lim jarayonidagi roli haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik kompetensiya va mustaqil ta'lim masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Bir nechta mashhur olimlar bu sohada o'z tadqiqotlarini amalga oshirib, pedagogik kompetensiiyaning ta'limdagi ahamiyatini o'rganganlar. Masalan, [muallif(lar) nomi]ning fikriga ko'ra, pedagogik kompetensiya faqat o'qituvchining bilim va malakasini anglatmaydi, balki uning o'quvchilarga ta'lim berish, ularning faoliyatini boshqarish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [8].

Aliyev, J. (2019). ta'kidlashicha, pedagogik kompetensiya talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishda muhim omil hisoblanadi [1]. Ular o'z tadqiqotlarida,

o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va metodik malakalari, talabalar ta'lim jarayonida mustaqil ishlar bilan shug'ullanishga qanday yondashayotganiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, J. Aliyevning so'nggi ishlari pedagogik kompetensiiyaning talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatgan. Bu fikrlar talabalar o'quv jarayonida erkin va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga undashda pedagoglarning roli katta ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy ishlar mustaqil ta'limni rivojlantirishda pedagogik kompetensiiyaning o'rni va ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi pedagogik kompetensiiyaning talabalar mustaqil ta'limiga bo'lgan ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqotda ikki asosiy metod ishlatildi: so'rovnoma va intervyu. Bu usullar orqali talabalar va o'qituvchilarning fikrlari o'rganildi.

So'rovnoma metodidan foydalanish orqali talabalarga quyidagi savollar berildi: Sizningcha, o'qituvchining pedagogik kompetensiiyasi sizning mustaqil ta'limingizga qanday ta'sir ko'rsatadi?

O'qituvchining yordamidan qanday foydalanganingizni ko'rsating.

Intervyu metodida o'qituvchilar bilan suhbatlashildi, ular pedagogik kompetensiiyaning talabalar ta'limidagi rolini qanday baholashlari haqida o'z fikrlarini bildirishdi.

Tadqiqotda 200 dan ortiq talabalar va 20 ga yaqin o'qituvchilar ishtirok etdi. Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng, ular statistik tahlil usullari yordamida tahlil qilindi va natijalar keltirildi.

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy izlanishning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u tadqiqotning qanday amalga oshirilishini, qanday metodlar va usullar ishlatilishini, qanday ma'lumotlar to'planishini va ularni qanday tahlil qilishni belgilaydi. Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar

qo'llanilib, pedagogik kompetensiyaning talabalarining mustaqil ta'limiga bo'lgan ta'sirini aniqlash maqsad qilgan. Tadqiqotda har ikki usulning o'ziga xos afzalliklari va imkoniyatlari hisobga olinib, ular birgalikda qo'llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – pedagogik kompetensiyaning talabalarining mustaqil ta'limi jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun turli metodologik usullarni qo'llash zarur bo'ldi. Bularning ichida eng samarali usul — talabalar va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar va intervyulardir. Ushbu metodlar yordamida nafaqat pedagogik kompetensiya haqida umumiy tasavvur shakllantirish, balki uning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissiy, talabalar va o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishi, mustaqil ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilishi haqida chuqur tahlil qilish mumkin bo'ldi.

Mustaqil ta'limni tahlil qilish J. Aliyevning tashqari, Nabiev, A. (2020). Pedagogik kompetensiya va unga olib keladigan samaralar, Rahmatov, M. (2018). Mustaqil ta'limga pedagogik yondashuvlar. Jabborov, A. (2017). Pedagogik kompetensiya: nazariy va amaliy aspektlar, Ismoilova, N. (2021). Mustaqil ta'lim: nazariy asoslar va amaliy strategiyalar. Kim, H. (2020). Pedagogical Competence and Its Influence on Learning. Johnson, M. kabi olimlarning izlanishida o'z ifodasini topdi. Jumladan, A. Jabborovning pedagogik kontsepsiyani o'rganishga yiyonaltirilgan tadqiqotlari, ayniqsa qiziqarlidir.

So'rovnomalar usuli. So'rovnomalar metodining ishlatilishining asosiy maqsadi – katta miqdordagi talabalar fikrlarini tizimli ravishda yig'ish va ularni umumlashtirishdir. So'rovnomalar yordamida talabalar tomonidan pedagogik kompetensiya va uning mustaqil ta'limga ta'siri haqida turli qarashlar yig'ildi. So'rovnomada o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi, talabalar bilan o'zaro munosabat, o'qituvchining metodologik yondashuvlari, talabalar tomonidan qo'llaniladigan ta'lim metodlari haqida savollar berildi.

So'rovnomalar savollarining ba'zi misollari:

Sizningcha, o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi sizning mustaqil ta'limingizga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Ushbu savol talabalarga o'qituvchining bilim berish usullari, metodik yondashuvlari va pedagogik kompetensiyasining talabaning o'qish faoliyatiga qanday ta'sir qilayotganini o'rganishga imkon berdi.

O'qituvchining yordamidan qanday foydalanganingizni ko'rsating. Bu savol talabalarga o'qituvchining qanday yordamini samarali qo'llayotganini aniqlashga yordam berdi. Bu yordam bilim olish jarayonida qanchalik samarali bo'lganini va talabaning mustaqil ta'limdagi muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilganini ko'rsatadi.

So'rovnomalar orqali to'plangan ma'lumotlar talabalarining o'qituvchining pedagogik kompetensiyasiga bo'lgan munosabatlarini, ularning ta'lim jarayoniga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatdi. Bu metod, shuningdek, talabalarining o'zlarining mustaqil ta'limga yondashuvlarini va o'qituvchining ularni qo'llab-quvvatlashdagi rolini aniqlash imkonini berdi.

Intervyu usuli. Tadqiqotning ikkinchi asosiy usuli – Intervyu o'tkazishdir. Intervyu metodining afzalligi shundaki, bu orqali o'qituvchilar bilan yuzma-yuz suhbatlar o'tkazilib, ularning pedagogik kompetensiya haqida fikrlarini to'liq va batafsil tushunish imkoniyatiga ega bo'lindi. Intervyu orqali o'qituvchilar nafaqat o'z tajribalarini, balki talabalarining mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun pedagogik kompetensiyani qanday rivojlantirish zarurligini ham ta'kidlashdi.

ADABIYOTLAR

1. Aliyev, J. (2019). Mustaqil ta'limning zamonaviy usullari. Toshkent: Ilmiy nashr, 112-130 betlar.
2. Nabiev, A. (2020). Pedagogik kompetensiya va unga olib keladigan samaralar. Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 45-67 betlar.
3. Rahmatov, M. (2018). Mustaqil ta'limga pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston ta'lim muassasalari, 88-102 betlar.
4. Jabborov, A. (2017). Pedagogik kompetensiya: nazariy va amaliy aspektlar. Toshkent: Ta'lim nashri, 50-75 betlar.
5. Ismoilova, N. (2021). Mustaqil ta'lim: nazariy asoslar va amaliy strategiyalar. Toshkent: Yangi ilm nashri, 98-112 betlar.
6. Kim, H. (2020). Pedagogical Competence and Its Influence on Learning. Journal of Educational Studies, 25(4), 78-90.
7. Johnson, M. (2018). Independent Learning Approaches in Education. Educational Research Review, 15(2), 113-128.
8. Smith, D. (2017). The Role of Pedagogical Competence in Student Development. International Journal of Teaching and Learning, 8(1), 10-22.

O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar quyidagi savollarni o'z ichiga oldi:

Pedagogik kompetensiya talabalarining ta'lim jarayonida qanday o'rin tutadi? Bu savol o'qituvchilarga o'z pedagogik bilimlari va ko'nikmalarining talabalar uchun qanday foyda keltirishi haqida so'rash imkonini berdi.

O'qituvchining pedagogik kompetensiyasi talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarni qanday shakllantiradi? O'qituvchilar bu savol orqali o'zlarining talabalarga nisbatan qanday yondashuvlarini va bu yondashuvning talabalar bilan o'zaro munosabatlarga ta'sirini tushuntirib berdilar.

Sizning fikringizcha, o'qituvchilarga pedagogik kompetensiya darajasini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar qo'llanilishi kerak? Ushbu savol orqali o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini oshirish uchun zarur bo'lgan metodlar va chora-tadbirlar haqida batafsil fikrlar olindi.

Tadqiqotda ishtirokchilar. Tadqiqotda 200 dan ortiq talabalar va 20 ga yaqin o'qituvchilar ishtirok etdi. Talabalar orasida turli ixtisosliklar va darajadagi talabalar qatnashganligi uchun olingan natijalar ta'lim jarayonining turli jihatlarini o'z ichiga olgan holda ko'rib chiqildi. O'qituvchilar esa o'z tajribalari, metodik yondashuvlari va pedagogik kompetensiyasining talabalarga ta'siri haqida chuqur ma'lumot berdilar.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng, ular statistik tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. Tahlilda kvantitativ va sifatli usullar birgalikda ishlatilib, talabalarining o'qituvchining pedagogik kompetensiyasiga bo'lgan munosabatlari va uning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi. Statistik tahlil yordamida so'rovnomalar va intervyu natijalari umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlanishi ko'zda tutilgan. O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasiga oid olingan fikrlar talabalarining mustaqil ta'limga bo'lgan yondashuviga qanday ta'sir qilganligi haqida aniq tasavvur yaratdi[3].

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetensiyaning yuqori bo'lishi talabalar mustaqil ta'limining samaradorligini oshiradi. Talabalar o'qituvchilarining metodik ko'nikmalariga qarab, mustaqil ishlashga ko'proq tayyor bo'ladi. Anketalar va intervyulardan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar pedagoglarining malakali bo'lishi ularning ta'limni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi talabalarini mustaqil fikrlashga undashda va ularga ta'lim jarayonida kerakli ko'rsatmalarni berishda muhim omil bo'ldi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar o'zlarining yondashuvlari va metodik ko'nikmalarini yangilashlari, talabalarining o'qish usullarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari pedagogik kompetensiyaning talabalar mustaqil ta'limi uchun muhim ekanligini ko'rsatdi. Shu asosda, pedagoglarning kompetensiyasini oshirish zarur:

O'qituvchilarning pedagogik malakasini oshirish uchun muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak.

Pedagogik metodlarni va ta'lim strategiyalarini yangilash zarur, bu talabalar mustaqil ishlashiga yordam beradi.

O'qituvchilarga talabalarni mustaqil ta'limga o'rgatishda yangi pedagogik usullarni qo'llash imkoniyatlarini berilishi lozim.